

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

*Rahmonqul ORZIBEKOV*

# **O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI**

**XVII–XIX (I yarmi) asrlar**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim  
vazirligi muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan o‘zbek  
filologiyasi fakultetlari bakalavriat talabalari uchun o‘quv  
qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti**

**Toshkent–2006**

**Orzibekov R. O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI (XVII-XIX (I yarmi) asrlar). O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. – T.: 2006. 272 bet.**

**Ma’sul muharrir:** Dilorom Salohiy,  
filolgiya fanlari doktori, professor

**© O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.**

## MUQADDIMA

O‘zbekiston respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv dasturida universitetlar filologiya fakultetlari ikkinchi kurs talabalari uchun «O‘zbek adabiyoti tarixi (XVII–XIX I-yarmi asrlar)» kursini ma’ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg‘ulotlari shakllarida o‘tish nazarda tutilgan. Mashg‘ulotlar jarayonida mazkur kurs bo‘yicha talabalarning joriy, oraliq hamda yakuniy bilimlari nazorat qilib boriladi. Bu asrlardagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, madaniy-adabiy hayot, xususan, badiiy ijod jarayoniga faol ishtirok etgan shoir-u, adiblar, ilm-fan va san’at namoyandalari haqida ko‘plab ilmiy-adabiy manbalarda, jumladan, akademik Vohid Abdullaevning 1964, 1967 va 1980 yillari qayta-qayta nashr qilingan «O‘zbek adabiyoti tarixi (ikkinchi kitob)» darsligida birmuncha keng va zarur mulohazalar keltirilgan. Biroq endilikda ravshan ayonki, o‘zbek adabiyoti tarixining hamma davrlari va uning ishtirokchilari adabiy merosini o‘rganishning yangi mezonlari qaror topdi, bir qancha adabiy manbalar kashf etildi, yangi nomlar ro‘yobga chiqdi; XX asrning 80-yillari oxirlarigacha chop etilgan va o‘zbek adabiyoti tarixini yoritishga bag‘ishlangan darsliklar, ilmiy asarlardagi fikr-qarashlarni qayta nazardan o‘tkazish, ayrim masala va ijodkorlar haqidagi adabiy portretlarga aniqliklar kiritish, to‘ldirish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Ilgari asossiz ravishda kamsitilib, biryoqlama baholanib kelingan ijodkorlar hayoti, faoliyati va adabiy merosini xolisona o‘rganish, ularning adabiyot tarixi rivojiga qo‘shgan hissalarini va tutgan mavqelarini to‘g‘ri belgilash ob‘ektiv natijalarga olib kelishi isbotlandi. Shu bois, ayniqsa, mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyoti tarixining muhim nazariy muammolarini, ijodkorlar merosini yangicha baholovchi qimmatli ilmiy asarlar, darslik va qo‘llanmalar paydo bo‘ldi.

Muallif mazkur qo‘llanmada o‘zbek filologiyasi fakulteti bakalavriat talabalari uchun tuzilgan yangi dastur asosida XVII–XIX I yarmi asrlar o‘zbek adabiyoti tarixini to‘liq emas, balki XVII–XVIII asrlar tarixi qismini yoritishni ko‘zda tutadi. Sababi bu davr o‘zbek adabiyoti tarixini yorituvchi o‘quv qo‘llanmasi hozirgacha

yaratilgan emas. Avval maydonga kelgan darslik va ilmiy asarlarda yangicha talqinlarga, baholashga sabab bo'luvchi o'rinlarning mavjudligidan tashqari, ulardagi fikr-mulohazalar o'sha yillari tahsil oluvchi talabalarning 5 yillik o'qish muddatlarini ham hisobga olib aytilganligi biz fikr yuritayotgan asrlar o'zbek adabiyoti tarixini qayta yoritishni, unga yangicha yondashishni taqozo etadi. Muallif qo'llanmada masalaning shu tomonlarini hisobga olgan holda, XVII–XVIII asrlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayotining umumiy holati haqidagi obzor ma'lumotlardan so'ng, shu asrlarda yashab, ijod qilgan Boborahim Mashrab, Turdi Farog'iy, So'fi Olloyor, Abulg'oziy, Sobir Sayqaliy, Umar Boqiy, Pahlavonquli Ravnaq, Muhammadniyoz Nishotiy, Xojanazar Huvaydo, Nurmuhammad Andalib, Munis Xorazmiy, Gulxaniy, Amiriy, Uvaysiy, Nodira, Mujrim-Obid, Maxmur, Shavqiy, Ogahiy kabi ko'zga ko'ringan qalam sohiblarining adabiy portretlarini taqdim etishni lozim topdi.

Qo'llanma, garchi filolog-bakalavr talabalarga mo'ljallangan bo'lsa-da, undagi yangi fakt, adabiy material va xulosalar litsey va kollej talabalari, magistrilar, aspirantlar, adabiyoti tarixi mutaxassislari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

## **XVII–XVIII (I YARMI) ASRLARDA IJTIMOIIY VA MADANIY-ADABIY HAYOT**

Sohibqiron Amir Temur hukmronligi davrida markazlashgan kuchli davlatning poytaxti Samarqand bo'lib, uning o'g'li Shohruxmirzo bu davlatni shartli tarzda ikki – Xuroson va Movarounnahr davlatlariga ajratdi. Natijada Xuroson poytaxti Hirot shahrining siyosiy va ilmiy-madaniy markazlik mavqei oshib bordi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy yashab, ijod etgan davrda (XV asrning II yarmi) bu yerda adabiyot va san'at ancha taraqqiy etdi. XVI asr boshlariga kelib esa, tanazzulga yuz tutgan temuriylar davlati o'rimga o'zbek urug'laridan Muhammad Shayboniy (1451–1510) boshliq shayboniylar sulolasi keldi. Shayboniylarning Turkiston va Xurosondagi hukmronliklari XVI asr oxirigacha davom etdi va u ashtarxoniylarning hokimiyatga kelishi bilan barham topdi. Shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronliklari davrida poytaxt qilib Buxoro tanlandi.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida ham o'zaro nizolar, tarafkashlik janglari, ba'zan hokimiyatga qarshi qo'zg'olonlar davom etdi. Mustaqil xonliklarga ajralish harakati to'xtamadi. Avval Xiva (XVI asr boshlarida), so'ng Buxoro xonliklari yuz aga keldi. Shunday qilib, XVIII asr o'rtalariga kelib ashtarxoniylar sulolasi barham topdi.

Shunday bir beqaror vaziyatdan foydalangan Eron hukmdori Nodirshoh O'rta Osiyo xonliklariga hujum boshladi, Xiva, Buxoro xonliklari hududlarida bir qancha vaqt o'z hukmronligini yurgizdi. Shaharlarni (Xiva, Buxoro, Samarqand) to'pga tutib, vayron qildi; u yerlardagi noyob narsalarni o'lja sifatida Eronga jo'natdi. Ular ichida Mirzo Ulug'bek hozirgi Qirg'izistonning Chu vodiysi tog'larida mo'g'ul xonlaridan Shermuhammadxonga qarshi janglar olib borib, uning saroyidan o'lja sifatida Samarqandga keltirgan va bobosi Sohibqiron Temur sag'anasiga qo'ydirgan qora yashm tosh hamda Bibixonim masjidining naqshinkor darvozasi ham bo'lgan. Keyinchalik Nodirshoh Ollo taoloning qahridan qo'rqib, ularni yana Samarqandga qaytargan ekan.

XVIII asrning II yarmiga kelib mahalliy zodagonlar va istibdod joniga tekkan fuqaro isyonlari tufayli xonliklar tiklandi. Xiva bilan Buxoro xonligi o'rtasida, shu xonliklarning o'zida ichki ziddiyatlar avj olib, uzluksiz nizolarga sabab bo'ldi. Bir oz vaqt o'tib xonliklar o'rtasidagi chegaralar va munosabatlar muayyan darajada mo'tadillashdi. Shu davrda Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi vujudga keldi va u qisqa vaqt ichida iqtisodiy-siyosiy jihatdan o'z mavqeini yaxshilab, Buxoro va Xiva xonliklari bilan raqobatlasha oladigan mustaqil bir davlatga aylandi. Bu xonlikka Farg'ona vodiysi shaharlari, Isfara va boshqa chegaradosh joylar qarar edi. XVIII asrning oxiridan Qo'qon xonlari – amir Olimxon va Umarxon olib borgan urushlar tufayli xonlik hududi Qashqar (Sharqiy Turkiston) shahridan Norin uzilishigacha, Janubdan Tibetgacha, Shimoldan–Toshkent, Chimkent orqali Dashti Qipchoqqacha (Oq Masjidgacha) kengaytirilgan edi.

XVII–XVIII asrlarda Turkiston xalqlari madaniyati, san'ati, ma'naviy hayoti asosan uch mustaqil xonlik hududida rivojlandi. Bu xonliklarda ko'plab iste'dodli tarixchilar, tazkiranavislar, xattotlar, musiqashunoslar, musiqa ustalari, shoir va adiblar yashab, barkamol asarlar yaratdilar.

Xullas, madaniy-adabiy hayot uch xonlik doirasida ijtimoiy-tarixiy sharoitga qarab, goh siljishda, goh turg'unlikda, goh tanazzulda bo'lib turdi. Xon va amirlar, hukmron guruh vakillari, mulkdor shaxslar madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, karvonsaroylar, ziyoratgohlar qurdirardilar. XVII–XVIII asrlar mobaynida Toshkentda Baroqxon madrasasi, Buxoroda Mir Arab, Abdullaxon, Abdulazixon madrasalari, Nodir devonbegi masjidi, shu shaxsning Samarqandda Xoja Ahror Vali masjidi yonida qurdirgan madrasasi, Samarqandda Sherdor, Tillakori, madrasalari, Xivada Arabmuhammad madrasasi, Anushaxonning Oq masjidi, keyinroq XVIII asr davomida Xivada qurilgan Madrasai Sherg'ozixon, Madrasai Muhammad Amin inoq, Buxorodagi Madrasai domlo Tursunjon, Qo'qondagi Madrasai Ernazar elchi, Qo'qondagi Madrasai Mir, Madrasai Xonxo'ja kabilar shunday arxitektura obidalaridan edi.

Bunday ilm maskanlarining peshtoq va devorlarida Qur'oni karim, Hadisi sharifdan keltirilgan oyat va muqaddas yo'l-yo'riqlar bitilgan go'zal yozuv-lavhalardan tashqari, ularning tarhini tuzgan, ishlab chiqib amalga oshirgan hunarpesha me'mor va naqqoshlarning nomlarini ham uchratish mumkin. Masalan, 1619–1636 yillari bunyod etilgan Sherdor madrasasi peshtoqida me'mor Abdujabborning nomiga ko'zimiz tushishi mumkin. Xorazmlik mashhur shoir va tarixnavis Shermuhammad Munisning naql qilishicha, («Firdavs ul-iqbol» asarida) XVII asrning iste'dodli shoiri mavlono Vafoiy ham shoirlik bilan birga me'morlik va naqqoshlikda shuhrat topgan.

Madrasai oliyalar, umuman, madrasalardagi ta'lim-tarbiya, tahsil jabhalarida Islom tarixi, Qur'on va hadislarni, aqoidga, fiqhga doir kitoblarni mutolaa, qildirish bilan birga o'z shogirdlariga Ahmad Yassaviy hikmatlari, Rabg'uziy qissalari, Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, So'fi Olloyor, Bedil kabi muborak zotlarning diniy va dunyoviy fikrlarini singdirishga harakat qilgan mudarrislar ham ko'p bo'lgan. Xivadagi madrasai oliyalardagi Said Muhammad Oxund, Mavlono Yahyo, Davlatmamad Ozodiy (Maxtumqulining otasi), Mavlono Kiromiy (Munisning ustozlaridan), Farg'ona vodiysi madrasalaridagi Mullo Shermuhammad Akmal (hajvchi shoir Maxmurning otasi), Muhammad Aminxoja Kosoniy (shoir Ma'danning ustozlaridan), Mavlono Nodir, Samarqanddagi Muhammad Bade' Maleho va boshqa o'nlab bilimdon mudarrislar shular jumlasidandir.

Yuqorida nomlari zikr etilgan mudarrislarining ko'plari ham mudarris, ham shoir sifatida ta'lim va badiiy adabiyotimiz tarixida muhim iz qoldirgan siymolardir.

Bu asrlarda bir qancha iste'dodli kotiblar, xattotlar o'zlarining nozik hunarlari bilan qanchadan-qancha diniy-tasavvufiy asarlarni, ta'lim-tarbiyaga doir risolalarni, badiiy asarlarni — devon, bayoz, majmualarni xilma-xil yozuv-husnixatda kitobat qilganlar. Ayrim zamonaviy ilmiy asarlarda ularning sermashaqqat, lekin sharafli ishlari zikr etilgan.

Bu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, Xiva va Qo'qon xonliklarida Buxoro amirligidagi madaniy-adabiy hayotga nisbatan faollik, islom

aqidalari bilan birga dunyoviylikka nisbatan e'tibor kuchliroq edi. XVII–XVIII asrlarda Xorazmdagi o'ziga xos madaniyat, adabiyot va uning namoyandalari haqida akademik V. Abdullaev yaratgan tadqiqotlar, «O'zbek adabiyoti tarixi» darsligi, Qo'qon xonligida yetishib chiqqan Xojanazar Huvaydo, Mirhasan Sadoiy, Nizomiy Xo'qandiy, Akmal Xo'qandiy kabi so'z ustalari, keyinroq XIX asr boshlarida bu yerda Umarxon–Amiriy tashabbusi bilan tashkil topgan adabiy markaz bu xonliklardagi jonlanishga dalildir. Bu asrlarda Buxoro amirligidagi madaniy-adabiy hayot ko'proq fors-tojik tilida ko'zga tashlandi, ikkitillilik an'analari ustuvor mavqeda bo'ldi. Bu hududda ko'proq diniy bilimlar, shariat aqidalari targ'ibi kuchaya borganini kuzatamiz. Xonlikda islom ta'limotini targ'ib-tashviq qilishga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratildi. Amirlarning o'zlari din va shariatning bosh homiyi, nazoratchisi ham edilar. Shu tufayli Buxoro xonligida darveshlik va qalandarlikning ta'siri kuchayib ketgandi.

*Darveshali Changiy va uning «Risolai musiqa» asari.* Musiqa madaniyatimiz ham uzoq tarixga ega. U ritm, og'zaki lirik she'rlarning paydo bo'lishi va musiqaga moslashishi bilan paydo bo'lib, asrlar osha takomillashib, taraqqiy topib borgan. Musiqa asboblari kashf etilib, iste'dodli sozandalar, hofizlar ijrosida she'riy asarlarga bastalangan kuylar ijro etilgan. Musiqa san'ati badiiy ijodning, xususan, lirik she'riyatning doimiy yo'ldoshi bo'lib kelgan. Shu tufayli O'rta Osiyo xalqlari musiqa san'ati va uning ishtirokchilariga bag'ishlangan asarlar, risolalar yaratganlari tabiiy bir holdir. Shunday nodir asarlardan biri «Risolai musiqa»dir. Uning muallifi musiqashunos Darveshali Changiy edi. Changiy laqabining berilishi uning ijrochi, cholg'uvchi san'atkor bo'lganligidan ham dalolat beradi. Darveshali Changiy 12 maqomdan—bobdan iborat risolasida O'rta Osiyo xalqlari musiqa shaydolari tomonidan kashf etilib, hofizu xonandalar, sozandalar uchun xizmat qilib kelayotgan o'nlab cholg'u asboblari, ularda o'z mahoratlarini namoyish etib shuhrat taratgan san'atkorlar, musiqa ilmi, san'ati haqida risolalar yozgan olimlar (jumladan, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy) to'g'risida muhim ma'lumotlar keltiradi. Risolada aruzga asoslangan



shashmaqom yo'llari, ijro usullariga doir fikrlar ham bayon etilganligini ko'ramiz. «Risolai musiqa»ni musiqa ilmi va tarixi, san'atkorlar o'tmishi, musiqa ijrosida shuhrat topgan iste'dod egalari haqidagi tazkira deb atasa ham bo'ladi. Keyingi asrlarda musiqa tarixi bilan qiziqqan shaxslar undan ko'p foydalanganlar. Bu nodir asarni, Ikkinchi jahon urushi yillari mashhur tarixchi olim A.Seminov rus tiliga, XX asming II yarmida esa, alloma Alixonto'ra Sog'uniy o'zbek tiliga tarjima qilib nashr ettirganlar.

**Lug'at asarlari.** Bu davrda lug'atshunoslikka oid asarlar ham yozildi. Shulardan biri Muhammadi Xoksoning «Muntaxab ul-lug'at» asaridir. Arab hamda fors tillarida yaratilgan ilmiy hamda badiiy asarlarning turk-o'zbek tiliga tarjima qilish, shunday tarjimalarning amalga oshirilishiga ko'maklashishda lug'atshunoslikning ahamiyati katta bo'lgan. 1798 yili maydonga kelgan «Muntaxab ul-lug'at» XX asrning 50-yillarida akademik V.Abdullaev tomonidan topilib, ilmiy muomalaga kiritildi. Uning «Xoksor va Nishotiy» risolasida, «O'zbek adabiyoti tarixi» darsligida bu asar va uning muallifi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Asarni yaratishda Xoksor o'zigacha tuzilgan ko'pgina lug'atlardan, Sharq adabiyotining Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy kabi ulkan siymolari asarlaridan foydalanib, ular asarlarida uchraydigan arabcha so'zlarning o'zbek tilidagi ma'nolarini sharhlagan. Misol sifatida mazkur shoirlar asarlaridan arabcha so'zlar ishlatilgan baytu misralar keltirgan. Asar 28 bobdan iborat, o'ziga xos alifbo tartibida tuzilgan. Har bir harfga taalluqli qism «Kitob» deb ataladi (*Kitob-ul-alif, Kitob-ul-be, Kitob-ut te* kabi). U lug'atshunoslikka doir ko'pgina sohalar, jumladan, badiiy adabiyot, astronomiya, arxitektura, biologiya, zoologiya, falsafa, fiqh kabi fanlardan ma'lum beruvchi qomusiy asardir. Xoksor muayyan bir asar tarkibidagi arabcha so'zning tarjimasini, lug'aviy, istilohiy ma'nolarini ochish uchun she'riy dalil keltiradi. Ayniqsa, Navoiy asarlariga, dostonlariga ko'p murojaat qiladi. Masalan, «Hakkok» so'zining o'zbekcha ma'nosini «dur teshuvchi» deb izohlagandan so'ng, Navoiy «Sa'bai sayyor»da buyururlar» deb,

*Durni suf taylamak aro hakkok,  
Ko'p qilur sahv bor esa bebok -*

baytini keltiradi. «Hasab» – fazl, hunar, ulug'lik», «banno va me'mor» imorat qiluvchi usta ma'nolarida ekanligi dalili uchun «Saddi Iskandariy», «Farhod va Shirin» dostonlaridan dalillar keltiradi. Lug'atda adabiyot, san'at, musiqa, she'rshunoslikka oid juda ko'p so'zlar sharhlanadi.

*Tarixnavislik.* Bu asrlardagi tarixnavislikda ham ba'zi siljishlar bo'lganligi, tarixiy-badiiy solnomalar yaratilganligi ko'zga tashlanadi. Ularda feodal xonliklari, hukmdorlar manfaatlariga mos tushuvchi voqealar, sanalar keltirilgan bo'lsa-da, Said Roqim Samarqandiyning «Tarixi Roqimiy», Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Muhammad Vafo Karminagiyning «Tuhfai xoniy», Mirmuhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy», Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima» kabi asarlarida muhim ahamiyatga molik materiallar beriladi. Tarixga doir o'ndan ortiq asar ichida Abulg'oziy asarlari o'zbek tilida yaratilganligi bilan ajralib turadi.

Fors-tojik tilida yaratilgan «Tarixi Muqimxoniy» asari Balx hokimi Muqimxonning faoliyatiga bag'ishlangan bo'lsa-da, unda Buxoro xonligining XVII–XVIII asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga doir ko'pgina zarur ma'lumotlar keltiriladi. Asarda, jumladan, o'zbek urug'larining kelib chiqishi, rasm-rusumlari, turmush tarzlari xususida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. Unda XVII asrda bino qilingan madrasa, bog', hovuz kabi qurilishlar, badiiy ijod bilan shug'ullanib nom chiqargan o'nlab shoirlar, atoqli xattotlar haqida ma'lumotlar keltirilib, asarlaridan namunalar beriladi. Asar sharqshunos A.A.Semyonov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, 1956 yili Toshkentda nashr ettirilgan.

Muhammad Amin Buxoriy «Ubaydullanoma» asarida Buxoro xoni Ubaydullaxon hukmronligi yillaridagi voqea-hodisalarni bayon etadi. Bu asarda XVII-XVIII asrlarda yashab, ijod etgan Saido

Nasafiy, Mulham Buxoriy, Fitrat Zardo'zi Samarqandiy kabi mashhur shoirlar haqida ham so'z boradi.

Bu o'rinda XVII–XVIII asrlar tarixnavisligiga xos bir muhim xususiyatni eslatib o'tish joiz: tarix kitoblari voqealar solnomalari bo'libgina qolmay, muayyan ma'noda badiiy nasr namunalari hamdir. Bunday an'ana, xususiyat umuman O'rta asr tarixnavisligiga xos xususiyat edi. Shunga ko'ra, XVII–XVIII asrlarda maydonga kelgan tarix asarlarida voqea-hodisalar bayoniga badiiy tus berish, lozim ko'rilganda she'riy namunalarni keltirish, badiiy ijodga xos usul va vositalardan foydalanish ko'zga tashlanadi. Ularda madaniy-adabiy hayotga doir juda zarur ma'lumot va faktlar keltiriladi, sharhlanadi. Shu ma'noda, bunday asarlar davr adabiy jarayoni va unda ishtirok etgan ijodkorlar merosini kengroq o'rganishda tayanch manbalar bo'la oladi. Bu holni, ayniqsa shu asrlar tarixnavisligining mahsuli bo'lgan Said Roqimning «Tarixi Roqimiy» Abulg'oziyning «Shajarayi turk» hamda «Shajarayi tarokima», keyingi asrda yaratilgan Munis, Ogahiy, Bayoniy va boshqalar yaratgan tarix asarlarida ko'rish mumkin. Tarixnavislikka xos bunday xususiyatning yana bir sababi-tarix asarlari mualliflarining as'orfahm, ta'bi nazm egalari ham bo'lganligidir.

***Sharif Roqim Samarqandiy*** XVII asrning II yarmi –XVIII asrning I choragida yashagan tarixchi olim va shoir, avlodi Andijon viloyatidan bo'lgan. Malehoi Samarqandiyning «Muzakkir ul-asxob» tazkirasi ma'lumotlariga ko'ra, Roqimiy Subhonqulixon hukmronligi yillarida bir necha muddat Buxoroning katta a'lam lavozimida ham bo'lgan. 1701–1702 yillari Mulla Sharafiddin A'lam bin Nasriddin Oxund Mulla Farhod Samarqandiy tomonidan yaratilgan (1680) asarning qisqartirilgan nusxasini maydonga keltirgan. Bu asar ilmiy Adabiyotlarda «Tarixi kasira» nomi bilan zikr etiladi. Uning qo'lyozma nusxalari bir qancha chet mamlakatlar kitob fondlarida ham mavjud. 30ga yaqin nusxasi O'zRFA Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Asarda O'rta Osiyo, Xuroson, Shimoliy Afg'oniston va qisman Hindistonda XIV asrdan XVII asrgacha bo'lgan turli voqea-hodisalar bayon etiladi. Unda Amir Temurning tug'ilishidan boshlab

ashtarxoniyatlardan Abdulazizxonning hokimiyatga kelgan yillarigacha (1645-1646) bo'lgan voqealar solnomasi keltiriladi: shu davrlar ichida mashhur bo'lgan tarixiy shaxslar – hukmdorlar (Temur, Shohrux, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Bobur Mirzo, Abdullaxon, HUumoyun), olimlar va shoirlar (jumladan, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Binoiy, Mushfiqiy...) to'g'risida ma'lumotlar bor.

Roqimiy Samarqandiy asarda tarixiy shaxs va ilm-madaniyat Hoblarining vafoti sanalari hamda XIV–XVII asrlarda Samarqand, Buxoro, Mashhad, Hirot va boshqa shaharlarda qurilgan madrasa, xonaqoh kabi moddiy madaniyat inshootlari tarixiga oid juda ko'p tarix-qitalar keltiradi. Ularning (Shahrisabzdagi Oqsaroy, 1382 yil; Samarqanddagi Ulug'bek madrasasi, 1429 yil; Buxorodagi Mir Arab madrasasi, 1536 yil) tafsilotlarini aniq bayon etadi. Ayrim tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarning tasnifi («Ziji jadidi Ko'ragoniy, 1437 yil; «Nafohat ul-uns», 1469 va boshqalar) haqidagi tarix she'rlar ham muhimdir. Chunonchi, muallif «Tarixi vafoti amiri kabir Alisher Navoiy» sarlavhasi ostida Alisher Navoiyning davlat Hobi, olim, shoir sifatidagi xizmatlarini yuksak qadrlaydi. Uni «So'z iqlimining podshohi» («Xusravi iqlimi suxanro») deb ataydi. Navoiy vafoti sanasini (906 hijriy – 1501 milodiy bitgach, uning vafoti munosabati bilan Aminiy, Mirxond, Sohib Doro va boshqa Hirot shoirlari yozgan tarix-qitalarni ham keltiradi. Xullas, «Tarixi Roqimiy» asari XIV–XVIII asrlar oralig'idagi ijtimoiy-siyosiy hayotni, tarixiy voqealarni, madaniyat, san'at va adabiyotni o'rganishda muhim ahamiyatga molik manbadir. Ayniqsa, undagi Navoiy va uning davri, zamondoshlari haqidagi fikrlar muhimdir.

***Abulg'oziy Bahodirxon (1605–1664).*** Xiva hukmdori Arabmuhammadning taxtdan umidvor yetti o'g'illaridan biri bo'lib, og'a-inilari bilan ancha yillar jang olib borgandan so'ng 1645 yilga kelib hokimiyatni qo'lga kiritgan, 1663 yilgacha xonlik saltanatini boshqarib, og'ir xastalikka duchor bo'lib qolganligi sababli toju taxtni o'z ixtiyori bilan o'g'li Anushaxonga topshirgan. U 20 yillar chamasi Xiva xonligi hukmdori sifatida siyosat olib borgan, ilm-

fan, adabiyot va san'atga xayrixohlik bilan qaragan ma'rifatparvar shaxs sifatida tarixda nom qoldirgan ulug' zotdir.

Prezident I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida o'zbek xalqining ilg'or mutafakkirlari qatorida tarixshunos olimlardan Bobur Mirzo, Abulg'oziy Bahodirxon, Ogahiy nomlarini ham faxr bilan tilga olganligi bejiz emas. Chindan ham, Abulg'oziy Bahodirxonning tarix oldidagi xizmatlari o'z o'tmishdoshlari – hukmdor va ijodkorlar Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo shaxslari va ibratli ishlarini yodga soladi.

U asarining bir joyida o'ziga Abulg'oziy ismining qo'yilishi otasi Arabmuhammadning Xivaga hujum qilgan O'rol kazaklari ustidan «g'azot»ga (g'alabaga) erishishi bilan bog'liq ekanligini qayd etib o'tadi. Abulg'oziy asarlarida uning shaxsi, xonlik taxti uchun kurashlardagi sabr-toqati, jasorati, tortgan mashaqqatlari, egallagan bilimlari va qiziqishlariga doir muhim ma'lumotlar bor. Masalan, u «Shajarayi turk» asarida o'z bilimi va iqtidori xususida quyidagilarni yozadi: «Bu faqirg'a xudoyi taolo inoyat qilib, ko'b nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohiygarlikning qonuni va yo'sinikim, ikkinchi masnaviyot va qasoid va g'azaliyot va muqattaot va ruboiyoti va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy, forsiy va turkiy lug'atlarning ma'nosini bilmaklik. Uchinchi odam ahlindin to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo'g'ulistonda o'tgan podshohlarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam va ziyodin bilmaklik». Abulg'ozining faxriyaga o'xshash bu e'tiroflarini uning faoliyati, yaratgan asarlari to'la-to'kis tasdiqlaydi.

Abulg'oziy iste'dodli tarixnavis sifatida ikki muhim asarning muallifidir. U 1661 yili «Shajarayi tarokima» asarini yozadi. Uning yaratilish tarixi haqida Abulg'oziy quyidagi ma'lumotlarni zikr etadi: «...turkmanlarning mullolari... mening tarixni yaxshi bilurimni eshitibdurlar, «Bizning ichimizda «O'g'uznoma» ko'pturur. Ammo hech yaxshisi yo'q, barchasi g'alat, birisi-birisiga muvofiq emas. Har qaysisi bir turluk va bir durust e'tibor qilgudek tarix bo'lsa erdi, yaxshi bo'lur erdi» teb o'tun qildilar. Ersa onlarning o'tunlarini

qabul qildim...». Asarda o'g'uz-turkman urug'larining kelib chiqish tarixi, rasm-rusumlari, og'zaki ijod namunalari, afsona va rivoyatlari o'ta shirali Xorazm lahjasida bayon etilgan. Bu asar akademik N.Kononov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, tilshunoslik aspektida chuqur o'rganilgan.

Mustaqillik yillari «Shajarayi tarokima» professor Qozoqbov Mahmudov tomonidan 1995 yili Toshkentda, SamDU dotsenti Q.Tohirov tomonidan 1998 yili Samarqandda nashr etildi.

XIX asrning I yarmida yashab, ijod qilgan ulug' shoir, tarixchi va tarjimon Shermuhammad Munisning (1778–1829) «Firdavs ul-iqbol» nomli tarixga doir asarida keltirilgan «Abulg'oziy bag'oyat tarixdon va ash'orfahm kishi erdi» ta'rifi Abulg'oziyning «Shajarayi turk» asarida ayniqsa ravshan namoyon bo'ladi.

«Shajarayi turk» 1664 yili yozib tugallanadi. Abulg'oziy asarda tasvirlanishi ko'zda tutilgan voqealarni qadimdan (Odam Ato) boshlaydi. Tadqiqotchilar fikricha, 9 bobdan iborat bu asarning 7–8 va 9-bobning bir qismini Abulg'oziyning o'zi, birinchi-oltinchi boblar va 9-bobning oxirini Muhammad Zamon Urganjiy yozgan. Abulg'oziy o'z hukmronligi yillaridagi tarixiy voqealar solnomasini o'zigacha bo'lgan tarix kitoblari, xalq og'zaki ijodi materiallariga tayanib yozadi. U bunda etnografik ma'lumotlardan, afsona va rivoyatlardan unumli foydalanadi.

«Shajarayi turk»ka xos fazilatlaridan biri shundaki, muallif tarixiy voqea-hodisalar bayoniga badiiy tus berishga, ularni yo'l-yo'lakay etnografik ma'lumotlar, rivoyatlar, maqollar, naqllar, sajli badiiy lavhalar bilan o'qishli qilishga intiladi. Unda 400dan ortiq tarixiy shaxslar-hukmdorlar, malikalar, din-tasavvuf ahllari haqida ma'lumotlar keltiriladi, ayrimlarining portretlari chiziladi.

Muallif sajning mutavozi usulidan unumli foydalanadi. Misollar: «Manglayxon taqi podshoh erdi. U taqi bir necha yillar et yeb, qimiz ichib, oq os qora qishni bichib, oyday, kunday suluvlarni quchib, simobday yo'rg'alarni va yeldek yuguruklarni minib, ko'ngli tegan yerlarga uchub, o'g'li Tengizxonni o'z o'rnida o'tirtub ul dunyog'a ketdi».

Quyidagi: «zolimtab va fosiq va ichi qora va badniyat kishi erdi»;

«UI holni ko‘rub dumog‘indan dudlar chiqib buyurdi» kabi kuchaytirish, sifatlash va mubolag‘ali o‘rinlar ham asarda uchrab turadi.

Bunday xususiyatlar «Shajarayi turk»ni voqealar bayoni, ularni nasrda ifodalash uslubiga ko‘ra monumental tarixiy -memuar asar «Boburnoma»ga yaqinlashtiradi. Biroq «Boburnoma»da Boburning o‘z hayotlik yillarida ko‘rgan -kuzatgan voqea-hodisalari tasviri asosiy o‘rin tutsa, «Shajarayi turk»da Abulg‘oziy hukmronligi yillaridagi Xiva xonligi tarixi va, asosan, ungacha bo‘lgan ko‘paslik tarix bayoni asosiy o‘rin tutadi. Ular oralaridagi mushtaraklikka kelsak, har ikki asarning prozada badiiy sayqal topganligi, o‘zbek tili nozikliklaridan mahorat bilan foydalanilganligi, tarixiy-etnografik ma‘lumotlarga boyligi va ularning o‘zbek nasrchiligining ham nodir namunalari ekanligini aytish kerak. Mirzo Boburdan so‘ng XVII asrga kelib Abulg‘oziy ham o‘z navbatida turkiy tarixnavislik an‘analarini davom ettirdi; Xorazm tarixnavislik maktabining asoschisi sifatida ko‘rindi.

Abulg‘oziy qiziqishi keng shaxs sifatida xalq tibobati bilan ham shug‘ullanib, umrining oxirlarida «Manofe’ ul-inson» risolasini yaratdi. Olimning bu risolasida isitma, bel og‘rig‘i, qizamiq, tomoq shishi, ko‘z, jigar, ko‘p uxlash kabi 120dan ortiq xastaliklar va ularni davolash usullari haqida maslahatlar berilgan. Xalq tabiblari risoladan amaliy faoliyatlarida keng foydalangan.

**Adabiy tazkiralalar.** Adabiy tazkira ma‘lum bir davrda yashab ijod etgan shoir va adiblar, badiiy ijodga aloqador bo‘lgan shaxslar, ularning faoliyatlari hamda yaratgan asarlari haqida ma‘lumot beruvchi asarlardir. «Tazkira» arabcha «zikr» so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘aviy jihatdan «eslatish», «yodga olish» ma‘nolarini bildiradi. Tazkiralarning xillari ko‘p. Adabiy tazkiralarda unga kiritilgan ijodkorning ismi, taxallusi, nisbasi, qaerdanligi, tabiatidagi ba‘zi xususiyatlar, iste‘dodi qay darajada shuhrat topganligi, tazkira muallifi davrida hayot bo‘lmasa vafoti yili haqidagi ixcham, ba‘zan kengroq biografik ma‘lumotlar keltirilib, she‘rlaridan namunalar (misra va baytlar) beriladi. Tazkiralalar xronologik, shoirlarning hududiy-geografik joylashishlari (vatani) tartiblari bo‘yicha tuzilgan. Ba‘zi adabiy tazkiralarda tazkiranavisning sharh va ma‘lumotlari nasrda, ba‘zilarida nazmda berilgan. Masalan,

1821 yili Qo‘qonda amir Umarxon—Amiriy, 1908 yili Xivada Muhammad Rahimxon Feruz topshirig‘i bilan tuzilgan «Majmuat ush-shuaroi», «Majmuat ush si shuaro Feruzshohiy» tazkiralari nazmda yozilgan. O‘rta Osiyo zaminida X asrlardan boshlab turli davrlarda yozilgan tazkiralalar xususida akademik B.Valixo‘jaevning «O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi» asarida (Toshkent, «O‘zbekiston», 1993) keng ma‘lumot beriladi.

***Mutribiy va uning «Tazkirat ush-shuaro» asari.*** Bu tazkira 1605 yili Samarqandda shoir va tazkiranavis Sulton Muhammad Noyi Mutribiy tomonidan yaratildi. Mutribiy tazkira muallifining taxallusi bo‘lib, uning musiqaga, san‘atga aloqador shaxs ekanligini ham ko‘rsatadi. Uning tazkirasida fors-tojik tilida O‘rta Osiyoning Axsikat, O‘ratepa, Toshkent, Sayram, Hisor, Qarshi, Andijon, Chorjo‘y, Shahrisabz, ko‘proq, Buxoro va Samarqandda ma‘lum bo‘lgan 320ga yaqin she‘riyat ahllari haqidagi biografik-adabiy ma‘lumotlar keltiriladi. U shoirlarni abjad alifbosi asosida joylashtiradi, ulardan keltirilgan she‘rlarning vaznlarini ham ko‘rsatib o‘tadi. Ayrim o‘rinlarda esa, shoirlar she‘rlarida qo‘llangan badiiy san‘atlar haqida ham so‘z ochib, ularning sharhi, tahlilini keltiradi. Bu tazkirada uch tilda — turk-ozarboyjon, fors va arab tillarida erkin qalam surgan buyuk ozarboyjon shoiri Mavlono Fuzuliy haqida alohida zikr bor: masalan, bu o‘rinda Mutribiy «Fuzuliy Bag‘dodning kuchli turkigo‘y shoirlaridandir. Men uning turkiy devonini ko‘rib, juda latif va mazmunli she‘rlarini mutolaa qildim, turli she‘rlaridan birini tazkira uchun ko‘chirdim (she‘r) deb shoirning «Orzu» radifli g‘azali matnini keltiradi.

Mutribiy «Tazkirat ush-shuaro»dan tashqari, chet el safarlarida yiqqan boy adabiy materiallari asosida «Nusxayi zeboiy Jahongir» («Jahongir Mirzoning zebo kitobi»), o‘z sayohati taassurotlari haqidagi «Xotiroti Mutribiy» asarlarini ham bitgan. U «Nusxayi zeboiy Jahongir»da boburiylardan Jahongir Mirzo yig‘dirgan adabiy ma‘lumotlar, shoirlar ham qamrab olinganligi hamda ma‘rifatparvar, iste‘dodli shoir bo‘lgan Jahongir Mirzo taklifi, homiyligida maydonga kelganligi tufayli tazkirani shu nom bilan atagan. Bu adabiy manbada Mutribiy Shimoliy Hindistonda shuhrat qozongan, ikki tilda asarlar



yoʻzgan shoirlar toʻgʻrisida maʼlumotlar beradi. Asarning ikkinchi qismi «Oʻzbek hukmdorlari (yaʼni boburiylar) davrida nom chiqargan shoirlar haqida» deb ataladi. Bu asar XVI asrning II yarmi –XVII asr boshida Oʻrta Osiyo-Hindiston adabiy aloqalarini oʻrganishda ham muhim ahamiyatga ega.

«*Muzakkir ul-ashob*» *tazkiras*i. Muhammad Badeʼ Maleho 1641 yili Samarqandda tavallud topdi. Oʻz zamonasining isteʼdodli shoiri va tazkiranavis olimi boʻlib yetishdi. 1689–1692 yillar orasida yaratgan «Muzakkir ul-ashob» tazkirasida 200ga yaqin shoir haqida muhim maʼlumotlar beradi. Tazkira muallifining aytishicha, u oʻz tazkirasiga kiritilgan shoirlarning deyarli hammasi bilan suhbatdosh boʻlgan, ular haqida ishonchli maʼlumotlarga ega. U, jumladan, zikr etilgan ijodkor haqidagi maʼlumot va xulosalarni oʻsha davr voqea-hodisalari bilan bogʻlagan holda yoritadi, har bir sheʼrga obʼektiv baho berishga intiladi. Shoirlar arab alifbosi asosida joylashtirilib, asar qismlarga boʻlingan. Tazkirada XVII asrda yashab, ijod etgan Sayido Nasafiy, Nozim Hiraviy, Boborahim Mashrab kabi mashhur shoirlar haqida muhim maʼlumotlar bor. Maleho Boborahim Mashrab Andijonda tavallud topib, Namanganga oʻqishga borgan, darveshsifat isteʼdodli shoir boʻlgan, deb yozadi.

«*Mazhar ul-musannifin*». 1758-1759 yili Muhammad Amin ibn Nurmuhammad Nasafiy ham «Mazhar ul-musannifin» nomida tazkira yozdi. Bu asarda XVIII asrda Buxoro amirligi shaharlarida kechgan tarixiy voqealarning bayoni bilan birga, buxorolik, samarqandlik, qarshilik shoir, olim, adiblar haqida ham soʻz yuritilib, ularning kasb-kori, badiiy ijod sohasidagi iqtidoriga doir maʼlumotlar keltiriladi. Unda Mirza Muhammad Munshiy, Mirzo Afzal, Fohir, Raʼnoiy, Ishratiy, Saidxoʻja Nasafiy, Aziziy, Safoiy, Mavlono Shavqiy, Rizoiy kabi hunarmand shoirlar xususida soʻz boradi. Bu tazkirada XVIII asrda yaratilgan baʼzi epik asarlar, dostonlar haqida ham maʼlumotlar bor. Xullas, bu tazkira orqali Buxoro amirligi yirik shaharlaridagi ziyolilar, hunarmand shoirlar toʻgʻrisida muhim maʼlumotlarga ega boʻlamiz.

Shunday qilib, XVII–XVIII asrlarda forsiy va turkiy tildagi tazkirachilik anʼanalari davom etdi. Bunda ayniqsa Alisher Navoiy

«Majolis un-nafois» asarining ta'sirini sezilardi darajada ko'zga tashlanadi. Yuqorida qisqacha zikr etilgan tazkira namunalari XVII–XVIII asrlarda turli hududlarda yashab, ijod etgan qalam sohiblarining hayoti va adabiy merosini o'rganishda muhim ilmiy-adabiy manbalardan sanaladi.

XIX asr boshlarida maydonga kelgan «Majmua ush-shuaro» tazkira-majmuasi Qo'qon xoni –Umarxon (shoir Amiriy) tashabbusi va topshirig'i asosida maydonga keldi. Uning mualliflari Umarxonning ishonchini qozongan Fazliy, Mushrif va Xotif taxallusi bilan ijod qilgan shoirlar edi. Bu tazkira boshqa ko'p tazkiralardan farq qilib, o'zbek va tojik tillari aralash yozildi. Unda keltirilgan adabiy namunalarning ayrimlari o'zbek tilida, ayrimlari tojik tilidadir. Majmuaga xos yana bir xususiyat shundaki, u she'riy yo'lda – nazmda yozilgan. Unda XIX asrning I choragida amir Umarxon hukmronlik qilgan Qo'qon adabiy muhitiga mansub 80ga yaqin shoir haqida turli hajmda ma'lumot beriladi, asarlari (she'rlari)dan namunalar keltiriladi. Bu shoirlar turli ijtimoiy guruhlarning vakillari bo'lib, ko'pchiligi shoirlikni havas deb bilgan shaxslardir. Ular ichida o'z iste'dodlari va asarlari bilan o'zbek va tojik mumtoz adabiyoti tarixidan munosib joy olgan shoir-u adiblar, masalan, Gulxaniy, Hoziq, Maxmur, Ma'dan, Uvaysiy, Mahzuna, Shermuhammad Akmal, G'oziy, Nodir Xo'qandiy kabilar bor. Fazliy, Xotif, Mushrif, Ado, Vazir ham she'riy ijodda katta nufuzga ega bo'lganlar.

Akademik B.Valixojaevning tazkiranavislikka oid tadqiqotlarida, jumladan, bu majmua-tazkiraning tuzilishi haqida quyidagilar ma'lum qilinadi: kitob an'anaviy hamd bilan boshlanib, so'ng shu davrdagi shoirlarni qisqa-qisqa tavsiflovchi she'riy debocha beriladi. Debochadan keyin Fazliy va Mushrifning Umarxonga bag'ishlangan madhiyalari keltiriladi. So'ng asarning asosiy qismi boshlanadi. Umarxonga bag'ishlangan qasidalar, shundan keyin Umarxon g'azali va unga payrav tarzida boshqa shoirlar tomonidan yozilgan g'azallar berib boriladi. Tazkirada har bir asardan oldin uning muallifi to'g'risida masnaviy shaklida ma'lumot berilgan.<sup>1</sup> Bu tazkirada

---

<sup>1</sup> Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X–XIX asrlar. –Т., «Ўзбекистон», 1993, 178–184 –бетлар.

shoirlarga munosabatda, ular iste'dodi va asarlarini baholashda tendensiozlik, xonlik manfaatini, amir Umarxon shaxsi va shuhratini himoya qilish yaqqol ko'zga tashlanib qoladi. Biroq, bulardan qat'i nazar, «Majmuat ush-shuaro» biz uchun XIX asrning birinchi yarmida Farg'ona vodiysida davom etgan adabiy hayotni, uning ishtirokchilari ijodini o'rganishda muhim adabiy manbadir.

**Xalq kitoblari.**<sup>1</sup> O'zbek xalqining og'zaki va yozma epik ijodi ko'paslik boy tarixga egadir. Bu tarix ibtidoiy jamiyat odamlarining tabiat stixiyalari bilan bo'lgan to'qnashuvlari natijasida vujudga kelgan miflar, sehrli-fantastik ertaklar, tarixiy rivoyat va xronikalar, qahramonlik va hayratomuz romantik eposlar, xalq kitoblarigacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi.

O'zbek xalqining ana shunday qadimiy, boy og'zaki va yozma epik merosi XVII–XIX asrlarda ham mavjud edi. Bu asrlarda «Go'rug'li» siklidagi va boshqa o'nlab jangnomalar, tarixiy mazmundagi romantik hamda qahramonlik dostonlari, «Tohir va Zuhra», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Sayyod va Hamro», «Asli va Karam», «Sanobar», «Yusufbek va Ahmadbek», «Alibek bilan Bolibek», «Xurshid va Malikai Dilorom» kabi dostonlar, ularning folklor va xalq kitobi variantlari tarqaldi.

Bu asarlar epik ijodning alohida bir turi bo'lib, folklor bilan yozma adabiyotimiz tarixida muhim o'rinni egallab keladi. O'tgan asrning o'rtalarida O'rta Osiyoni aylanib chiqqan A.Vamberi xalq o'rtasida keng tarqalgan xalq romanlari haqida shunday deb yozgandi: «O'zbeklarda bunday romanlar son-sanoqsiz ko'p bo'lib, ularda o'zbeklarning milliy his va iftixorini, mardlik va qahramonligini aks ettiruvchi ko'pgina manzaralarni topish mumkin».<sup>2</sup>

Bu kitoblar «og'ir mehnatdan so'ng horib-charchab kechqurun uyiga qaytgan dehqonning hordig'ini chiqarishga, ko'nglini ochishga, ruhlantirishga, uni o'z mashaqqatli mehnatini unutishga majbur qilmoqqa, uning sertosh dalasini muattar hidlar anqib

---

<sup>1</sup> Халқ китоблари ва ularning муаллифлари ҳақидаги саҳифаларнинг дастлабки варианты В.Абдуллаев ҳамда Қ.Тоҳиров билан ҳамкорликда ёзилиб, 1978 йили чоп этилган «Ўзбек адабиёти тарихи»га (III том) киритилган эди. Унинг ҳозирги варианты қайта ишланди ва таҳрир қилинди.

<sup>2</sup> А.Вамбери. Очерки Средней Азии. М., 1868, стр.366.

turgan Bog‘i Eram qilib ko‘rsatishga; u hunarmand ishxonasini va ishlayverib holdan toygan xalfaning ko‘rimsiz kulbasini go‘zallik olamiga, oltin saroyga aylantirib ko‘rsatishga, uning beso‘naqay xotinini go‘zal malika qiyofasida ko‘rsatishga, uning ma‘naviy tuyg‘ularini ravshanlashtirishga, uni o‘z kuchi, o‘z ozodligini anglashga majbur qilmoqqa, undagi mardlik va vatanga muhabbat hislarini uyg‘otishga xizmat qilgan».<sup>1</sup>

Albatta, bunday turkum asarlar ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichida badiiy ijod muxlislarining estetik ehtiyojlari natijasida paydo bo‘lgan va bizgacha turli yo‘llar bilan yetib kelgan. Shuning uchun ularda har xil ijtimoiy sharoit va davrlarning izlari bor.

Xalq kitoblari bizgacha ko‘proq roviylar, qissaxonlar, qissaxonlik orqali, ba‘zan kitobat holida yetib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib shunday asarlarga nisbatan talabning kuchayishi va yirik shaharlarda kitob chop etishning paydo bo‘lishi bilan ularning navlari hamda tarqalish doirasi kengaygan, turli-tuman tungi o‘tirishlar (gap, gashtak mashvarat, bazm, sayl va boshqalar) hamisha afsonaviy, ajoyib va g‘aroyib sarguzashtlar tasviriga boy xalq kitoblari – qissalarni tinglash bilan o‘tkazilgan. Bunday asarlarning o‘ziga xos xususiyati haqidagi quyidagi ta‘rifni ma‘qullash mumkin:

«Xalq kitoblari» – bu, el-yurt orasida tildan tilga ko‘chib yurgan og‘zaki ijod durdonalarini xalq shoirlari yoki xattotlar tomonidan ko‘chirilgan, qayta ishlanib kitobat qilingan asarlardir.

Adabiyotga ixlosmand, xat-yozuv mashqini egallagan ayrim shaxslar mavjud xalq kitoblarini o‘z didi, saviyasi talabiga muvofiqlarini tanlab qayta-qayta ko‘chirishgan. Shu bois ularning turli davrlarda, turli joylarda, turli shaxslar tomonidan ko‘chirilgan o‘nlab qo‘lyozma nusxalari, variant va versiyalari yuz aga kelgan...

Xalq kitoblarining shunday xillari ham borki, ular folklorida ham, individual ijod mahsuli sifatida yozma adabiyotda ham mavjud (masalan, «Yusuf va Ahmad» asari). Xalq kitoblarining ayrimlari yozma adabiyot namunalari asosida ham yaratiladi (masalan, Umar Boqiy asarlari).

---

<sup>1</sup> А.Вамбери. Очерки Средней Азии. М., 1868, стр.366.

Xalq kitoblari epik ijodning alohida janri emas, balki u folklor va yozma adabiyotning oraliq navi, turkum asarlar atamasidir. U ogʻzaki va yozma adabiyotning mahsuli. Ularni oʻzaro bogʻlovchi koʻprik, har xil tur va janrlar sintezidan tarkib topgan sikl asarlar yigʻindisidir».<sup>1</sup>

Maʼlumki, xalq dostonlarining asosiy xususiyati ularning kollektiv ijod mahsuli ekanligi, ogʻzakiligi, xalqqa tegishliligi, alohida-alohida asarlarning har xil variantlarda uchrashi, anʼanaviylik hamda anonimlik kabilardir. Umuman, folklorida ijodiy jarayon kollektivlik xarakteriga ega. Xalq dostonlarida ham matn nasr va nazmning qoʻshiluvidan iborat. Undagi nasriy qismni shoir hikoya qiladi, sheʼriy qismni esa, doʻmbira bilan kuylaydi. U musiqiy holatlarni asarga singdirib ijro etuvchi rolini ham bajaradi. Xalq shoirlarining koʻpchiligi savodsiz boʻlganliklari hamda koʻhna kitobiy uslub taʼsiriidan ancha chetda turganliklari uchun xalq dostonlarida uslub murakkabligi, arab-fors iboralari juda kam uchraydi. Bulardan tashqari, folklor dostonlarida traditsion oʻrinlar, priyomlar koʻp boʻlib, bir asardan ikkinchisiga oʻtilaveradi. Yozma adabiyot asarlari esa nazmda yoziladi va ular asosan masnaviy formasida qoʻfiyalanadi. Ogʻzaki epik asarlarda asosan barmoq vazni, yozma epik asarlarda esa, aruz vazni asosiy sheʼriy oʻlchov hisoblanadi.

Xalq kitoblari yozma va ogʻzaki variantdagi epik asarlarning har ikki turiga oʻxshaydigan tomonlari bilan birga, ayni zamonda ulardan farq qiluvchi oʻziga xos spetsifik xususiyatlarga ham ega.

Xalq kitoblari asosan muayyan bir afsonaviy yoki anʼanaviy syujetning biron-bir ijodkor shaxs tomonidan qalamga olinib, qayta ishlangan, adabiy lashtirilgan, avtorlashtirilgan namunasidir. U ogʻzaki adabiyot bilan yozma adabiyotni bir-biriga bogʻlovchi, badiiy soʻz sanʼatidagi bu ikki soha oʻrtasidagi aloqa va oʻzaro taʼsirining mevasi sifatida yuz aga kelgan asarlar turkumi, oraliq janr boʻlganligi uchun ham folkloristikaning, ham adabiyotshunoslikning tekshirish obʼekti sanaladi. Xalq kitoblarida rivoyatlar, epizodlar, obrazlar va motivlar ancha kuchli boʻlib, fantastika real hayotiy-tarixiy voqealar

---

<sup>1</sup> Р.Жуманиёзов. Халқ китобларини ўрганишнинг муҳим масалалари. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1988, 5-сон.

bilan qorishiq holda beriladi. Bunday asarlarda syujet chizig‘i murakkabligi, bir necha syujetlar, syujet tarmoqlarining o‘zaro bog‘liqligi, bosh syujet chizig‘ining murakkablashishi, kompozitsiyada ko‘pqirralilik bo‘rtib turadi. Qahramonlarning sarguzashtlari rivoya usulida, ishqiy-romantik planda, bir-birlariga o‘xshash situatsiyalarda bayon qilinadi. O‘zbek xalq qissalari tilining, poetikasining, tasvir vositalarining o‘ziga xosligi, bayonning qiziqarli, sodda va ommabop holatga ko‘chishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Voqealar bayoni rivoya usulida nasrda berilgan holda, personajlarning his-tuyg‘ulari, holat va kayfiyatlari, bir-birlariga murojaat va munosabatlari, istak va armonlari lirik she‘rlarda ifodalanaadi. Liro-epik janrdagi qissalarda nazmga nisbatan nasr ustun turadi.

XIX asrda Xorazmda yashab, ijod etgan va o‘zining «Xurshid va Malikai Dilorom»<sup>1</sup> qissasi bilan ma‘lum bo‘lgan Rizoiy asarida nasr orasida 65 she‘r keltirilgan, shulardan g‘azallar 3ta, muxammaslar 6ta, murabballar 56ta. Qizig‘i shundaki, murabballarning ko‘pchiligi 8 bo‘g‘inli barmoq vaznida yozilgan, ayrim joylarda Rizoiy hatto Boborahim Mashrab murabballaridan ham o‘zgarishsiz foydalangan. Darvoqe, nasriy asarlar yoxud xalq kitobi shaklidagi asarlarda she‘riy parchalar, qolaversa, o‘zga shoirning she‘rlarini keltirish, ularni asarning syujet chizig‘i va g‘oyaviy yo‘nalishiga uyg‘unlashtirish ilgaridan davom etib kelgan an‘anadir. Uning dastlabki namunalari «Kitobi Dada Qo‘rqud»da va XII asrda yashab, ijod etgan Muhammad Zahiriy Samarqandiy ijodida ko‘zga tashlanadi.

Xalq kitoblarini janr xususiyatlariga ko‘ra, ishqiy-romanik, novellistik (ishqiy-sarguzasht) va xayoliy-fantastik asarlarga ajratish mumkin. Lekin ularni tematik jihatdan qat‘iy chegaralash qiyin. Ko‘pgina xalq kitoblarida tarixiy-romantik, qahramonlik, fantastik epizod va lavhalar, shular bilan bog‘liq bo‘lgan motivlar qorishiq holda ko‘rinadi. Bu hol, albatta, xuddi uning tili va poetikasida o‘z izini qoldirganidek, xalq kitoblarining qissa, rivoyat, afsona, ertak

---

<sup>1</sup> Ризоий. Хуршед ва Маликаи Дилором. Ўзбек адабиёти. IV том, иккинчи китоб. Тошкент, 1960, 195–208-бетлар.

kabi xalq ogʻzaki ijodi syujetlari va motivlari negizida kelib chiqqanligi bilan ham izohlanadi.

Maʼlumki, oʻzbek adabiyoti tarixida koʻplab avtori nomaʼlum anonim asarlar uchraydi. Bir qancha xalq kitoblari ham shunday asarlardir. Ularda shu asarning taʼlif qilingan vaqti, joyi, muallifi, hatto kotibi ham koʻrsatilmaydi. Masalan, oʻzbek xalq kitobi shaklidagi «Oshiq Gʻarib va Shohsanam», «Tohir va Zuhra», «Sanobar», «Malikai Dilnavoz», «Yusufbek va Ahmadbek» kabi asarlarning avtorlari haligacha nomaʼlum. «Yusufbek va Ahmadbek»ning avtori XVIII asr turkman shoiri Qurbonali Maʼrufiy, «Sanobar»ning avtori Shaydoiy, «Sayyod va Hamro»ning avtori Shohbanda deyilganda, bu asarlarning faqat turkmancha variantlariga nisbatan ishlatamiz. Shu nomdagi asarlarning oʻzbek tilidagi variantlari esa, anonim asarlar boʻlib qolmoqda. Binobarin, qachonlardir bu asarlar folklor namunalari sifatida ommalashib, qissaxonlar, roviylar ijrosida qayta ishlanishi jarayonida xalq kitobiga aylangan. Shuning uchun bunday asarlar ijodchisi qissagoʻy va roviylar boʻlgan, deyish mumkin, ayrimlari esa, aniq mualliflariga ega.

Xalq kitoblarini asosan qissaxonlar ijro etishgan. Xat-savodi boʻlmagan mehnatkash omma qissalarni shu qissaxonlar orqali eshitganlar yoki savodli kishilarga oʻqitib, zavq olganlar. Qissaxonlar muayyan xalq kitobini – qissasini hofizasida saqlab, oʻziga xos ohang va usulda xalq oʻrtasida kuylagan, asar syujeti va mazmunining xalq xotirasidan mustahkam oʻrin olishiga harakat qilgan. Shuning uchun ham xalq, oʻz navbatida, faqat yaxshi, qiziqarli qissalar yaratgan mualliflarnigina emas, ularning ijrochilari sanalmish yaxshi qissaxonlarni ham sevgan. Umuman, qissaxonlik xalq maʼnaviy taraqqiyotida muhim oʻrin egallagan. Asarda xalq qahramonligi tasvirining boʻrtib koʻzga tashlanmasligi, obrazlarning juda nozik hissiyotlarga berilgan qilib tasvirlanishi, yozma adabiyot asarlariga xos poetik uslub, kitobiy til xususiyatlarining yaqqol koʻzga tashlanib turishi, sheʼriy parchalarning klassik poetik janr va shakllarda keltirilishi bunday asarlarning aniq adabiy manbaga ega ekanligini koʻrsatadi. Umar Boqiy tomonidan nasriy qissalarga aylantirilgan «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Kitobi Sanobar», «Qissai

Sayfumuluk» va «Yusuf va Zulayxo»ning xalq kitobi shakllari shunday asarlardandir.

Xalq kitoblaridagi qahramonlar tasvirida sehrli-fantastik bo‘yoqlar bo‘lsa-da, lekin ular ancha hayotiy shaxslar sifatida namoyon bo‘ladilar. Qahramonlik ruhidagi xalq kitoblarida feodal jamiyatidagi real hayotning izlari, ommaning tarixi, etnografiyasi, orzu-intilishlari, turmush zayli, vatanparvarligi, erkin muhabbat uchun kurashlari aks ettirilgan. Unda bahodir yigitlar, odil shahzoda va sarkardalar ta’rif etilib, ideallashtiriladi. Ishqiy-sarguzasht ruhi hokim bo‘lgan namunalarda esa, sevishtganlarning muqaddas ko‘ngil tuyg‘ulari, sof muhabbat bobidagi yuksak fazilat va odamiyliklari bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlar asosiy o‘rin tutadi. Sevishtganlar o‘z orzulari yo‘lidagi to‘siqlarga qarshi mardonavor kurash olib boradilar. Bunday asarlarda qahramonlarning dunyoga kelishi va ilk tarbiyasidan ular yo‘lida paydo bo‘lgan to‘siqlar va bu to‘siqlarni mardonavor yengib, o‘z murodu maqsadlariga yetishtganlarigacha – hammasi aks ettiriladi. Albatta, xalq kitobi avtorlari shunday qahramonlar timsolida mehnatkash ommaning hayot, yashamoq, ezgu maqsadlarga intilmoq yo‘lidagi intilishlarini, orzu-ideallarini ifodalaganlar. Agar ba’zi muhabbatga oid kitoblarda qahramon o‘z niyatiga qattiq kurashlar, qahramonliklar, orqali erishsa («Sanobar»), ba’zan u so‘zamolligi, ma’naviy ustunligi tufayli maqsadiga erishadi, undan kuch-quvvat, ilhom oladi («Oshiq G‘arib va Shohsanam»).

Ba’zi xalq kitoblarida esa, qahramonlar o‘z aqidalari, orzulari yo‘lida halok bo‘ladilar («Tohir va Zuhra», «Farhod va Shirin»). Maroqli tomoni shundaki, bu qahramonlar xalqning dardi, hasrati, armonlari bilan aloqador situatsiyalarda harakat qiladilar. Garchand bunday asarlarning personajlari ko‘p hollarda aslzodalar bo‘lsalarda, ular olijanob, maqsad, xalqning orzu-intilishlarini ifodalovchi qahramonlar sifatida ko‘rinadi. Ular hamma vaqt yaxshilikni yomonlikka, insonparvarlik va adolatni zulm va jaholatga qarshi qo‘yadilar.

Xalq kitoblaridagi Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Bahrom, Gulandom, Sanobar, Gulparizod, Tohir, Zuhra, Varqa, Gulshoh, Oshiq G‘arib, Shohsanam, Xurshid, Dilorom, Asli, Karam,



Bo‘zyigit, Hafiza, Yusuf, Ziyrak, Ziyod, Mohim kabi ijobiy obrazlar Qoramulla, Yosuman, Xisrav, Ibn Salom, Shoh Abbos, Shohvalad, Qora Bahodir, Boboxon, Zaytun kabi salbiy obrazlarga qarshi qo‘yiladi.

«*Sanobar*» *qissasi*. Xalq kitobi «Sanobar» o‘zbek va turkman xalqlari orasida «Gul Sanobar», «Kitobi Sanobar», «Sanobarjon», «Dostoni shahzoda Sanobar» nomlari bilan qo‘lyozma hamda toshbosma nusxalarda keng tarqalgan, sevib o‘qilgan.

Bu asarning turkman xalq kitobi sifatida yaratilgan namunasi avtor XVIII asr turkman adabiyotining taniqli vakili Shaydoyidir. Bu asar kitobiy manba: XVI–XVII asrlarda maydonga kelgan fors-tojik tilidagi «Gul va Sanobar» asosida yaratilgan bo‘lib, nasr va nazmda yozilgan. Voqealar bayoni nasrda berilib, qahramonlarning ruhiy holatlari, munosabatlari nazmda, xalq poetik ijodiga xos bo‘lgan to‘rtliklar hamda aruz vaznida yozilgan muxammas formalarida ifodalangan. Shunga ko‘ra, asarning tili va poetikasi, tasviriy ifodalarida ham xalq og‘zaki ijodi bilan klassik adabiyot an‘analari uyg‘unlashib ketgan.

«Sanobar»ning o‘zbek xalq kitoblari shaklidagi variantlari syujet chizig‘i, mazmuni va boshqa xususiyatlari bilan Shaydoyi asariga nihoyatda yaqin turadi. Hatto aytish mumkinki, tili va ayrim detallari bilan farq qiladi, xolos.

Asarda shahzoda Sanobar, Gulparizod, Zevar, Mehrangiz o‘rtasidagi ishqiy sarguzashtlar hikoya qilinadi.

Chin mamlakati podshosi Xurshidshohning yakkayu yagona o‘g‘li Sanobar tushida Shabiston shahrining hukmdori Farruxning qizi – Gulga oshiq bo‘lib qoladi. Ishaq, hijron o‘tida qiynalib, qizning visoliga erishish niyatida otasidan safarga ijizat so‘raydi. Otasi safar taraddudi uchun kerakli hamma narsani hozirlatadi. Vazir Zevar hamrohligida 500 yigit bilan Sanobar yo‘lga tushadi. Ammo Ummon dengizida ko‘tarilgan to‘fon oqibatida kema suvga g‘arq bo‘ladi, yigitlarning hammasi halok bo‘lib, ko‘p mashaqqatlar bilan bo‘lsa ham faqat ikki do‘st – Sanobar bilan Zevargina omon qoladi. Lekin ular bir-birlarini topisha olmaydi. Sanobar Mehrangizning ko‘shkidan chiqib qolib u yerda qirq qalandar bilan uchrashadi.

Dev va ro‘dapolar bilan jang qilib, g‘olib keladi. U ko‘p qiyinchilik va mushkulliklardan so‘ng Simurg‘ qushning ko‘magi tufayli shahri Shabistonni topib, Gulparizodning visoliga yetishadi. Bir qancha vaqt o‘tgandan so‘ng Sanobar Gulparizod hamda Mehrangiz parini olib vataniga – ota-onalari huzuriga qaytadi.

Ko‘rinadiki, «Sanobar» ishqiy-romantik xarakterdagi xalq kitoblaridan bo‘lib, voqealarning g‘aroyib vaziyatlarda kechishi, qahramonlar sarguzashtlarida ertaklarga xos sehrli-fantastik holatlarning uchrashi e‘tibori bilan qissaxon va tinglovchilarni o‘ziga rom etgan. Undagi ko‘pgina motivlar shu tipdagi boshqa asarlarda ham uchraydi. Shu jihatdan, dastavval. «Qissai Sayfulmuluk» asari ahamiyatlidir. Har ikkala asarda ham qahramonlar tushlarida afsonaviy uzoq yurtda yashovchi go‘zal parizodlarni ko‘rib, sevib qolishadi, uni qo‘lga kiritish uchun yo‘lga chiqqishib, turli-tuman to‘siqlarni yengishib, ajoyib-g‘aroyib sarguzashtlarni boshdan kechirishib, o‘z murodu maqsadlariga erishadilar. Yo‘lda uchragan boshqa bir pari qiz esa ularga ko‘maklashib, voqealar finalida oshiqning sevgilisiga aylanadi.

Bunday motivlar, syujet chiziqlari ishqiy-romantik ruhdagi xalq kitoblarining hammasiga xosdir. «Sanobar» kitobining dastlabki voqealari «Qissai Sayfulmuluk» dostoni voqealarini eslatadi. Sanobarning tushida Jamol (Gul) pariga oshiq bo‘lishi, bir necha kema yasatib, do‘sti Zevar va yigitlari bilan yo‘lga chiqishi, dengizda to‘fon ko‘tarilib, kemalarning halokatga uchrashi, omon qolganlarning taxta-poraga ilashib qirg‘oqqa chiqishi, Simurg‘ qushning oyog‘iga ilashib uchishi, zangilarga asir tushish epizodlari Sayfulmulukning ham boshidan o‘tgan voqealardir.

**«Oshiq G‘arib va Shohsanam».** Bu xalq kitobining versiyalari boshqa turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar yozma va og‘zaki Adabiyotlarida ham mavjud. U turli o‘lkalarda «Oshiq G‘arib va Shohsanam», «G‘arib va Shohsanam», «Shohsanam va G‘arib», «Qissai Oshiq G‘arib va Shohsanam» kabi nomlar bilan keng tarqalganligini aniqlash masalasida har xil qarashlar hukm surib kelmoqda. Agar ozarboyjon olimlaridan H.Arasli va S.Yoqubov «Oshiq G‘arib» dastlab Ozarboyjonda yaratilgan, XVI asrda yashagan

Gʻarib taxallusli oshiq shoirning kuylab yurgan termalari doston, xalq kitobi variantining yuz aga kelishiga zamin boʻlgan desalar,<sup>1</sup> H.Koʻroʻgʻli, S.A.Andreev – Krivich hamda A.Ishaev asarning kelib chiqishi Oʻrta Osiyo, jurnladan, Xorazm bilan aloqador deyishadi. Albatta, bu dostonning oʻzbekcha versiyasi dastavval Xorazmda yaratilganligi shubhasizdir. Chunki boshqa xalqlar folklori va yozma adabiyotida ayrim asarlarni, baʼzi syujet, motiv va obrazlarni oʻzlashtira borib, ularga oʻz davri ruhi, mahalliy va milliy anʼanalarini singdirib asarlar yaratish Sharq poeziyasiga xos muhim xususiyatlardan biridir.

Doston matnlarida Xorazm dialekti unsurlarining moʻlligi, asarning deyarli hamma oʻrnida qoʻl maʼnosida «al» qoʻllanishi, «-lik» suffiksining «-li» tarzida ishlatilishi va hokazolar buni yaqqol koʻrsatib turadi. Asarda «-li» qoʻshimchasi baʼzan «-digan» qoʻshimchasi oʻrnida:

*Xush qol emdi, jonim onam,  
Men bukun ketoli boʻldum, —*

ishlatiladi.

Asarning ozarboyjon versiyasidagi Arzrum, Tabriz shaharlari oʻrnida Vayangan shahri (qadimgi shaharlardan, Xorazmda) kabi mahalliy nomlarning zikr etilishi, voqealarning deyarli shu yerlarda davom ettirilishi ham dostonning oʻzbek tilidagi varianti dastlab Xorazmda yaratilganligini va mahalliy-milliy kolorit bilan sugʻorilganligini koʻrsatadi. Shohsanamning XVII asrda Eronda hukmdorlik qilgan Shoh Abbosning qizi sifatida berilishini nazarda tutib, bu asar XVII asrdan keyin yaratilgan yoki xalq kitobi holatiga koʻchgan deyish mumkin. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida shu asar syujeti va gʻoyaviy mazmuniga oʻxshab ketuvchi «Hiloloy Gʻarib» va «Davlatyor» qissalari mavjud. Bu asarlarda ham xalqning Eron bosqinchilariga qarshi otlanishi, ozod ishq va turmush haqidagi orzu-intilishlari bilan bogʻliq motivlar uchraydi. Dostonning xalq kitobi variantlariga «ammo roviylar andoq rivoyat qilurlarkim», «alqissa,

---

<sup>1</sup> Ўзбек адабиёти тарихи, иккинчи китоб, Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1964, 43-бет.

shul tariqa ahdu paymon bog'ladilarkim», «ahdnoma tuzdilarkim» tarzidagi kitobiy ta'birlar, «savoli Aqcha», «Javobi G'arib» dialoglari, «na farog'atdur», «na qabohatdur», «na qiyofatdur», «ayriliq shamoli», «qaddi tubi», «g'amza o'qi», «ohu ko'zi», «qoshing mehrobi», «bulbuli sho'rida» kabi yozma adabiyotga xos kitobiy so'zlar kiritilgan bo'lsa ham, doston xalq ijodiga xos asosiy va yetakchi xususiyatlarini saqlab keldi.<sup>1</sup>

Doston davlatmand oiladan bo'lgan Shohsanam bilan kambag'al oiladan chiqqan G'arib o'rtasidagi muhabbat mavzuiga bag'ishlanadi. Asardagi voqealar davomida G'aribning shoirlilik san'atiga, muzikachiligiga qoyil qolgan xalq uning shoh Abbos qizi Sanamga samimiy oshiq bo'lganiga ham hurmat bilan qaraydi va ularning o'z ahdu paymonlariga erishuviga ko'maklashadi. Xalq o'z farzandlari G'arib va Shohsanamni murod-maqсадiga yetkazishni o'z taqdirining tarkibiy qismi deb biladi. Zotan, asarda faqat G'arib bilan Sanamning orzu-havaslarinigina emas, balki xalqning erkinlik va farovonlik, madaniy taraqqiyot, tenglik va hamjihatlik to'g'risidagi azaliy orzularini amalga oshirish kabi masalalar ham ilgari suriladi. G'aribning «Jafokash bo'lurlar Bag'dod qullari» yoki «Barcha zolim bizga dushman, dildorim» kabi so'zlarida xalqning zulmkorlarga qarshi ovozi yaqqol sezilib turadi. G'aribning:

*Bulbul fig'on qilib ayrilmas guldin,  
Parvo qilmon, jonim olsalar tandin.  
Sadpora qilsalar, kechmazam sandin,  
Oshiqlarga do'nmak ordur, Sanamjon, —*

kabi otashin nidolaridan pok va samimiy muhabbat xalq farzandlariga xos fazilat ekanligi, Shohsanamning:

*Yuragimda yorning dardi yotibdur,  
Ishq o'ti jon-jonimdan o'tibdur, —*

---

<sup>1</sup> Достон 1956 йили ЎзРФА Тил ва адабиёт институти фольклор сектори томонидан қисқартирилган ҳолда нашр этилган.

kabi ontlaridan vafodor ma'shuqalarning o'z niyatiga erishish yo'lidagi jazmlari aniq ko'zga tashlanadi.

«Oshiq G'arib va Shohsanam» asarining XVII asrdayoq xalq kitobi shaklini ola boshlaganligini undagi Alisher Navoiy va XVII asr shoirlaridan Vafoiy bilan Sayido Nasafiy she'rlariga hamohang bo'lgan baytlardan ham ko'rish mumkin. Alisher Navoiy «Xamsa»sida:

*Oshiq ani bilki erur dardnok,  
Ham ko'ziyu, ham tiliyu, ko'ngli pok, —*

deyilgan bo'lsa, «Oshiq G'arib va Shohsanam» dostonida xuddi ana shu misralarning mazmuni va she'riy tartibiga yaqin baytlar Shohsanam tilidan:

*Oshuq bilan ma"shuq yo'li bir kerak,  
Va "dasi, vafosi, qalbi bir kerak, —*

tarzida keltiriladi. Shohsanamning: «Bir odamdan o'zga menga kim dastgir», —deb oshiq—ma'shuqlik uchun birinchi galdagi insoniylik zarurligini uqtirgan oliyjanob so'zlari ham Shirinning Farhodga bo'lgan sadoqatini ifodalab:

*Menga ne yoru ne oshiq havasdur,  
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur,-*

degan so'zlarini esga tushiradi.

Demak, dostonning vujudga kelishi bilan uning xalq kitobiga aylanishi deyarli oldinma-ketin sodir bo'lgan. Lekin dostonidagi termalarning xilma-xil vazndaligi, ularga ozarboyjon va Xorazm xalq maqomlarining singdirilishi uni bir vazn yoki bir xil she'riy shakldagi dostonlardan ajratib turadi. Shuning uchun ham siz dostonidagi termalarning biror so'z yoki biror misrasini («dardingdan», «Yorning guli galdi», «na bo'ldi», «Sabo kelibsiz», «Menga siz yor kerak, dunyo kerakmas», «Ilojim yo'q, yora bora

bilmadim»...) xotirga keltirishingiz bilan uning o‘ynoqi yoki mungli kuyi ham qo‘shilib kelaveradi. Bu esa, adabiyot bilan muzikaning chambarchas aloqasini, uning xalq ijodida mahorat bilan mujassamlashganini ravshan ko‘rsatadi.

Asar asosan 8 va 11 bo‘g‘inli barmaq vaznida yaratilgan bo‘lib, unda:

*Jon chiqmasdan burun jononni keltir,  
Muhabbat shavqida armonni keltir, –*

tarzidagi aruzning sare“i musaddasi matvii mavquf (mafoilun mafoilun faulun) bahriga o‘xshash ayrim termalar ham borki, bu asarning yozma adabiyot bilan munosabati natijasi bo‘lsa kerak, albatta.

Xullas, ma’shuqa qiz Sanamning «ko‘shki atrofiga qirq kishilik posbon» qo‘yib, uning G‘aribga bo‘lgan pok muhabbatini oyoq osti qilgan «Shoh Abbos zolim»ga, Shohvaladlarga, «raqiblar eli»ga, «barcha zolimlar»ga qarshi qaratilgan bu doston XVII asrdagi zolim hukmdorlarning zulmiga xalqning nafrat va g‘azabini, uning baxt-saodatga chanqoqligini, kelajakka bo‘lgan ishonch va umidini tasvirlovchi ajoyib doston – xalq kitobidir. Xuddi shu jihatdan Sanamning qat‘iy ishonch bilan bashorat qilib aytgan:

*Gul ko‘nglingga, do‘stim, qayg‘u keltirma,  
Zamona hamisha shunday bor bo‘lmas, –*

kabi fikrlari asarning qon-qoniga singdirilib, kitobning g‘oyaviy-badiiy qimmatini yanada oshirgan.

***Sayyodiy va uning «Tohir va Zuhra» dostoni.*** Tohir va Zuhralarning samimiy muhabbati, lekin fojiali taqdiri haqidagi mashhur syujet rivoya va qissalar shaklida Sharqdagi ko‘p xalqlar og‘zaki ijodida mavjuddir. Uning folklor namunalarini, poema va xalq kitobi tarzidagi variantlari o‘zbek, turkman, ozarboyjon xalqlari orasida keng tarqalgan. Bu syujet asrlar osha roviylar, qissaxonlar, shoiru adiblar repertuari va ijodi orqali takomillashib, badiiy jihatdan sayqal topib, nafis adabiyotning yodgorligi sifatida avlodan-avlodga

o'tib kelmoqda. Bu ajoyib qissaning o'zbek epik poeziyasidagi ilk namunasi shoir Sayyodiy qalamiga mansubdir. Sayyodiy uni folklor materiallari asosida badiiy qayta ishlab, she'riy doston holatiga keltirgan. Hozir bu dostonning 10-dan ortiq qo'lyozma nusxalari mavjud. Garchand asarning asl nusxasi hali topilgan bo'lmasa-da, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondidagi 9194-A inventar raqamli qo'lyozma uning ancha savodli va mo'tabarroq nusxasi hisoblanadi. Bu qo'lyozma 2035 baytdan iborat nazmni o'z ichiga oladi.

«Tohir va Zuhra»ning Sankt-Peterburgdagi Osiyo xalqlari institutida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasidagi ma'lumotlarga asoslanib, Sayyodiy sayyod urug'idan bo'lib, ismi Saidmuhammad, vatani – Balx va Buxoro atroflari ekanligini, doston ham shu yerlarda yozilganligini qayd etish mumkin:

Dostonning:

*Yana Suyfulmuluk Soid birlan,  
Yana yuz ming sipoh obid birlan;*

Yoki:

*Kel, ey Sayyodiy, san boshla bu doston,  
Zimistonda nechuk bo'ldi guliston;*

Yana:

*G'arib ko'rsang g'aribga berma ozor,  
Eram bog'ida bulbuldir g'ariblar, –*

kabi misralari, shoir Majlisiyning (XVI asr) «Qissai Sayfulmuluk» dostonidan so'ng yaratilganligidan dalolat beradi.

Sayyodiy o'z asarini «Hindiston va Shom»da mashhur va manzur bo'lgan ertak-afsona asosida yaratganini, shoir bu jazrani (ertakni) bo'stonga (nazmga) aylantirib, oshiqlar uchun «xo'b doston» bitganligini bayon etadi.<sup>1</sup>

«Tohir va Zuhra» dostoni voqealari Totor mamlakatidan Bag'dodgacha bo'lgan makonlarda kechadi. Shoir asarning bosh qahramonlari Tohir va Zuhraning dunyoga kelishidan jaholat

---

<sup>1</sup> Сайёдий. Тоҳир ва Зухра. Тошкент. ЎзРФА нашриёти, 1960, 16–17-бетлар. (Бундан кейинги мисоллар ҳам ана шу нашрдан олинди).

sirtmog'ida halok etilishigacha bo'lgan murakkab va mashaqqatli hayotini, sarguzashtlarini bayon etadi; ikki yoshning go'zal xislatlarini, kurash va intilishlarini to'laroq ochish maqsadida asarga bir qancha epizodik obrazlar kiritadi.

Sayyodiy Tohir va Zuhra haqidagi og'zaki qissa syujetiga birmuncha o'zgartirishlar kiritib, uni qayta ishlaydi, original epizodlar va obrazlar bilan boyitadi, dostonning hayotiy, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini kuchaytiradi. Masalan, qissaning xalq og'zaki ijodi variantida Qora Bahodir Zuhraga uylanadi. Asar fabulasining bunday bo'lishini Sayyodiy istamaydi. U voqealarni yanada rivojlantirib, asarni boshqacha yakunlaydi. Tohir Bag'dod shahridan qaytib kelgach, Zuhra bilan topishadi, ular shohdan yashirincha uchrashib turishadi, nikohdan o'tishadi. Tohir bilan Zuhraning o'limidan keyin Boboxon o'z qizini tushida ko'radi. U otasidan Qora Bahodir jasadini o'rtadan ko'tarishni so'raydi. Qora Bahodir jasadini qazib olib boshqa yerga ko'madilar. Tohir bilan Zuhraning qabri xalqning qadamjoyiga aylanadi va hokazo.

Binobarin, avtor ko'hna syujetga o'zi yashagan muhitni muayyan darajada aks ettirish, gumanistik fikrlarini ifodalash nuqtai nazaridan yondashadi. Shuning uchun o'z g'oyalarini qiziqarli sarguzashtlar, xayoliy-fantastik epizodlar, to'qnashuvlar fonida tasvirlaydi. «Tohir va Zuhra» xalq ertaklariga yaqin xususiyatlari, fantaziya boyligi, voqealarning tez rivojlanishi, tasodiflarning ko'pligi, uslubidagi soddalik, syujetning xalq qissalariga xos bir tarzda bayon qilinishi kabi jihatlariga ko'ra, xalq kitoblariga yaqinlashuvi yoki xalq kitobi tomon moyillasha borgan kitobiy poemalarning namunasi sifatida qaralishi lozim.

«Tohir va Zuhra» dostoni ham xalq o'rtasida xuddi qissalardek keng tarqalganligi, ommabop bir uslubda yaratilganligi uchungina shartli ravishda xalq kitobi deb atalishi mumkin. Aslida, u afsonalar, xalq og'zaki rivoyatlari asosida yaratilgan ishqiy-romantik doston janriga mansubdir. Chunki dostondagi voqealar bayoni, rivoya qismi o'zbek adabiyotidagi boshqa poemalardagidek masnaviy yo'li bilan beriladi. Undagi nasriy o'rinlar nihoyatda qisqa-qisqa bo'lib, ular bir voqeadan ikkinchisiga o'tishda, boblar o'rtasidagi syujet



sterjenini yuz aga keltirishda bog'lovchi vazifasini o'taydi, xolos. Shoirning voqea va qahramonlarga munosabati, qahramonlarning bir-birlariga murojaati, psixologik holat va kechinmalari asarning syujet chizig'i va g'oyaviy mazmuni bilan mahkam ulanib ketgan g'azal hamda boshqa lirik she'rlarda ifodalangan: Ular boshdan oxirigacha aruz vaznida yozilgandir. Asarning so'z tarkibida «ayrilg'ali» (ayrilmoqqa), «boroluk», «turoluk» (boraylik, turaylik) kabi jonli so'zlashuv unsurlari asosiy o'rinni tashkil etsa ham, «alvido», «alfiroq», «jomi visol» kabi kitobiy ta'birlar, fors-arab tili elementlari ham ko'plab uchraydi.

Sayyodiy insonning eng muqaddas tuyg'ulari, fazilatlarini hisoblangan samimiy ishq-muhabbatni, ahdu vafoni ulug'laydi, bu tuyg'ularni oyoq osti qilgan shafqatsiz va zolim shaxslarga qarshi g'azab-nafrat bildiradi, mehnatkash xalqning og'ir ahvoriga achinadi, haqiqiy muhabbat yo'lida zulmatni yorib chiqolmasdan halok bo'lgan yoshlarning orzu-intilishlarini himoya etadi:

*O'shal kunkim qalam ilkimga tutdim,  
Bu mushkul ish uchun qonlarni yutdim, –*

deydi u. Sayyodiy asari markazidagi ana shu gumanistik g'oyalar uning ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatini belgilaydi.

Sayyodiy o'z asarida xalq ommasining Tohir va Zuhralar erkini himoya qilib chiqishlari epizodini ham beradi. Mehnatkash fuqaro ikki yosh taqdiri haqida qayg'urib, g'azabga keladi, nohaq azob tortayotgan Tohirni ozod etish niyatida zolim Boboxon bilan yuz lashadi.

Shoir dostonidagi Tohir, Zuhra, Shohixibon, Mohim, Odilshoh kabi ijobiy obrazlarni samimiyat bilan tasvirlaydi, ular siymosida o'z davri ijtimoiy hayoti haqiqatlarini berishga intiladi.

Tohir yuksak axloq egasi, ideal oshiqdir. U sof muhabbatni, sadoqat va vafodorlikni o'z umrining mazmuni deb biladi. U yoshlik chog'idanoq ilm-hunar o'rganishga intiladi, dono va aqlli yigit bo'lib yetishadi. Tohir Zuhraga bo'lgan pok insoniy sevgisini oliy darajada qadrlab, uni har narsadan ham ustun qo'yadi:

*Sansizin jannatga borsam, xonai zulmat erur,  
Nolayu afg'on etib, bir mohi tobon istaram...  
Gar nasib bo'lsa bihisht, borsam, visoling bo'lmasa,  
Naylayin, volloh, kerakmas huru g'ilmoni menga.*

Tohir Odilshohning go'zal qizi Mohim unga muhabbat izhor qilganida ham, shoh unga toju taxt in'om etganida ham bularning barchasidan bosh tortadi, o'z niyati, shirin orzularining amalga oshishi yo'lida har qanday qiyinchiliklarni yengishga intiladi, mardlik va jasorat ko'rsatadi.

Zuhra ham ozodlikka intiluvchi, o'z ahdi va sevgisiga vafodor insondir. Ha, Zuhraning samimiy ishq yo'lida chekkan mashaqqatlari, nola-fig'onlari, ko'z yoshlari uning tengsizlik va xo'rlikka qarshi isyonidir. Jamiyatdagi jaholat Zuhraga o'xshash minglab husn-malohatda, odob va kamolotda yetuk bo'lgan xotin-qizlarning huquqlarini, orzu-umidlarini poymol etgandi.

Sayyodiy dostonida sevishgan yoshlarga g'ov bo'lgan zolim Boboxon bilan Qora Bahodir kabi salbiy obrazlarni ham yaratdi. Boboxon o'z ahdini buzib, qizi Zuhraning xohishiga qaramay, uni makkor va zolim Qora Bahodirga tortiq qiladi, Tohirni esa shafqatsizlik bilan qatl ettiradi. Asardagi Odilshoh obrazi esa, mamlakatni adolat, tadbir bilan idora etish, fuqaro ahvoriga achinish kabi xislatlari bilan Boboxon va Qora Bahodir obrazlariga qarama-qarshi turadi. Bu bilan shoir Sayyodiy Sharq adabiyotidagi adolatli va adolatsiz hukmdorlar to'g'risidagi o'z o'tmishdoshlari konsepsiyasini ma'qullab, uni o'z davri sharoitiga ko'ra talqin etadi, adolat va adolatli hukmdor haqidagi ezgu orzularini ilgari suradi.

Shoirning voqea va qahramonlarga munosabati, taassurot va xulosalari lirik muqaddima, lirik chekinish va lirik xotimalarda ifodalanadi. Shoir o'z vasfi va oshiq kechinmalari tasvirida garchand ba'zan qofiya va vazn saktaliklariga, quruqroq tasvirlarga yo'l qo'ygan bo'lsa ham, asosan original o'xshatishlar, tashbihlar, jonlantirish va boshqa badiiy usullardan foydalanadi, an'anaviy obrazlarga yangi tus beradi. Sayyodiy Tohirning Zuhraga bo'lgan muhabbatini yorqin ifodalash va intonasiyani kuchaytirish maqsadida tanosub san'atidan hamda takror usulidan foydalanadi:

*Ki Zuhra jonu, man jononasiman,  
Ki Zuhra sham“u, man parvonasiman.  
Ki Zuhra bog‘u, man bog‘ning guliman,  
Ki Zuhra gul erur, man bulbuliman.  
Ki Zuhra shamsu, man bir mohi anvar,  
Ki Zuhra bahri ishq, man durru gavhar.*

Sayyodiy mahoratiga xos bir xususiyat shundaki, u o‘z qahramonlarining sarguzashtlarini hikoya qilish, ularning ishqiy dunyosi, ruhiy kechinmalarini chuqurroq ochishga alohida e‘tibor beradi. Qahramonlarning qalb tug‘yonlari, ichki kechinmalarini ravon va sodda lirik g‘azallar orqali ifodalaydi. Bu g‘azallarning ayrimlarida psixologik tasvir ancha kuchli bo‘lib, u ruhiy azoblar iskanjasida qiynalgan Tohir, Zuhra, Shohixubon kabi obrazlarning qalb jarohatlarini, mungli va hazin nolalarini, ruhiy drammatizmini ifodalashga xizmat ettiriladi.

Sayyodiyning «Tohir va Zuhra» asaridagi g‘azallarda, ko‘pchilik o‘zbek shoirlari ijodidagidek, ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiyning va mashhur ozarbojyon shoiri Muhammad Fuzuliyning ta‘siri sezilib turadi. Buni shoirning «Koshki» radifli g‘azalida ham ko‘rish mumkin:

*Chun azaldin do‘stlar, bo‘lmag‘ay erdim, koshki,  
Ahdu vafo ul yor ila qilmag‘ay erdim, koshki.  
Bir jilva aylab boshima soldi tuman savdosini,  
Andog‘ baloni jonima solmag‘ay erdim, koshki.*

Yoki:

*Sabo, mandin salomimni nigorimga yeturgaysan,  
Maning bu arzi holimni nigorimga yeturgaysan, –*

matla‘li g‘azali klassik adabiyotimizning eng nodir, eng nafis g‘azallaridan biri bo‘lib, Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliyning:

*Sabo, ag‘yordin pinhon sirim dildora izhor et,  
Xabarsiz yorimi holi xarobimdin xabardor et –*

g'azalini eslatadi. Bunday g'azallar Sayyodiy asarida bir nechala uchraydi.

Zuhra portreti ajoyib san'atkorlik bilan chiziladi. Shoir Sharq poeziyasidagi an'anaviy o'xshatishlardan foydalanib g'oyat dilbar obraz yaratadi:

*Yuz i guldek ediyu og'zi g'uncha,  
Ki ko'rgan jon berurdi so'zlaguncha.  
Labi la'lu, tishi durdona erdi,  
Ki ko'rsang turfa bir jonona erdi.  
Qamardek qoshi, yuz i shamsi anvar,  
Ko'zining ravshani monandi gavhar.  
Sochi sunbul, siyohi anbarafshon,  
Isi mushki Xo'tan, vasrinu rayhon...*

Shoir Zuhraning go'zal tashqi qiyofasinigina emas, balki uning ma'naviy dunyosini ham mohirona tasvirlay olgan:

*Bu so'zlar erlardan qolgan masaldur,  
Har ishning avvali sa'yu jadaldur...  
Har shakarning tabxi bordur, har tikanda gul bitar,  
Har g'aming bir shodi bor, behuda ey jon, g'am yema...*

qabilidagi xalq maqollari, hikmatli so'zlarini o'z bag'riga olgan chiroyli baytlar ko'p uchraydi. Bular asarni mazmun jihatidan boyitib, uning ta'siri kuchini oshiradi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1.XVII–XVIII asrlarda uch xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol qanday edi?

2.Ashtarxoniylar sulolasi davridagi madaniy hayotning muhim jihatlari qaysi sohalarda namoyon bo'ldi? Bu davrda tarixnavislik, musiqa, tazkiranavislik, kitobat va xattotlikka oid qanday muhim asarlar yaratildi?

3.Xalq kitoblarida folklor bilan yozma adabiyotning uyg'unlashuvi

nimalarda ko‘rinadi? Qanday xalq kitoblari keng tarqaldi?

4. Tasavvuf adabiyotining ildiz otishi kimlar ijodida ko‘proq namoyon bo‘ldi. Naqshbandiylik, qalandarlik tariqatining kuchayishi sabablari nimalarda namoyon bo‘ladi?

5. Ilm-fanga, lug‘atshunoslikka oid yaratilgan asarlarning ilmiy-adabiy manbalik o‘mi nimalarda ko‘rinadi?

### ***Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar***

1. Obzor mavzuga doir tavsifa etilgan Adabiyotlarni o‘qib, konspektlashtirish.

2. Tarixga, xalq tibobatiga, badiiy nasrga oid asarlarning nashr qilingan namunalaridan ular badiiyatiga doir o‘rinlarni aniqlang, tahlil eting va xulosalaringizni daftarda bayon qiling.

### ***Adabiyotlar***

1. Халқ китоблари: Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам. –Т., 1960.
2. Абулғозий. Шажарайи турк. –Т., 1992; Шажарайи тарокима. –Тошкент, 1995; Шу асар, –Самарқанд, 1998.
3. Адабий таржималар: Ўзбек адабиёти, 4-жилд, 2-китоб. – Т., 1960.
4. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т., 1980.
5. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. –Т., 1974.
6. Холид Расул. Ўзбек эпик шеърлятида халқчиллик. –Т., 1973.
7. Шарипов Ж. Бадий таржималар ва моҳир таржимонлар. – Т., 1972.
8. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 3-жилд. –Т., 1978.
9. Ўзбек насри тарихидан: Умар Боқий ва Маҳзун. –Т., 1982.
10. Худойназаров Х. «Шажарайи турк» ва унинг ўрганилиши. – Т., 1993.
11. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т., 1993.
12. Жумахўжаев Н. Миллий мустақиллик мафқураси ва адабий мерос. ДДА. –Т., 1999.

## **TURDI FAROG'IY** **(vaf. taxm. 1699-1700 yil)**

Turdi XVII asr o'zbek adabiyotida hajviy-tanqidiy yo'nalishning kuchayishida, xalqona uslubning ildiz otib borishida katta ta'siri ko'rsata olgan iste'dodli shoirdir. Uning hayoti va ijodi ashtarxoniyalar sulolasidan Nodir devonbegi, Abdulazizxon hamda Subhonqulixon hukmronlik qilgan davrlarga to'g'ri keladi.

Aytish joizki, Turdining nomi ham, hozir bizga ma'lum bo'lgan she'rlari ham 1925 yili kashf qilindi. O'sha yillari kattaqo'rg'onlik hajvchi shoir va adib Abdulhamid Majidiy Kattaqo'rg'onida o'tgan shoir-adiblar adabiy merosini aniqlash va o'rganish jarayonida qo'lyozma asarlar orasidan Turdi, Farog'iy taxalluslari bilan bitilgan 12 g'azal, 5 muxammas, 1 fardni aniqlaydi. U o'sha yillari Samarqandda chiqib turgan «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalining 1925 yil 9-10-sonlarida «O'zbek shoiri Turdi» maqolasini hamda o'zi topgan she'rlarini e'lon qiladi. Bu topildi ko'pgina adabiyotshunoslar e'tiborini tortdi. Jumladan, S.Ayniy va Abdurauf Fitrat Turdi she'rlari haqida fikr yuritganlar, Majidiy ma'lumotlarini to'ldiruvchi, chuqurlashtiruvchi fikrlar bayon etganlar. O'sha she'rlar keyinchalik, 1960 yili professor H.Yoqubov, 1971 yili professor A.Hayitmetov tomonidan kirish so'zlari bilan nashr qilindi. Shoirning boshqa asarlari hozircha topilgan emas. Biroq gap Turdi yoki shunga o'xshash iste'dodli shoirlar asarlarining sonida emas, balki salmog'idadir. Aytish mumkinki, Turdi o'zining sanoqli g'azal va muxammaslari bilanoq o'zbek mumtoz she'riyatida yangi bir g'oyaviy-badiiy yo'nalishni yuz aga keltirdi. U hayotiy voqea-hodisalarni, real tarixiy shaxslar timsollarini she'rlariga mavzu qilib oldi.

Turdining bizga ma'lum she'rlari uning murakkab hayot yo'li va mashaqqatli ijod bosqichlarini boshidan kechirganligidan dalolat beradi. Uning, ayniqsa, «Muxammasi turki» asarida shu holatlarni aniqlab olishga imkon beruvchi avtobiografik lavhalar uchraydi.

Hajm jihatidan kattagina bu asarda shoir o'zining Xo'jand hududida sezilarli nufuzga ega, 1645 yili ashtarxoniy hukmdorlardan

Nodir Muhammadxonga qarshi isyon ko‘tarib Buxoroda uning o‘g‘li Abdulazizxonning hokimiyatga kelishini ta‘min etgan yuz urug‘i qavmidan, shu urug‘ning boshliqlaridan bo‘lganini aytadi. Turdi va u mansub bo‘lgan yuz urug‘i boshliqlari 1646 yildan 1680 yilgacha Buxoroda xonlik qilgan Abdulazizxon hukmronligi davrida saroyda katta mavqe“ tutganlar, imtiyozlarga ega bo‘lganlar. Davlat ishlari va mamlakat taqdirida ularning ta‘sirini sezilib turgan.

XVII asrning oxirgi choragida o‘z akasiga qarshi toju taxt uchun tinimsiz urushlar olib borib, 1681 yili hokimiyatni qo‘lga olgan Subhonqulixon davriga kelib esa, Turdining hayotidagi ro‘shnolik yo‘qoladi. Abdulazizxonning yaqin kishilaridan va tarafdorlaridan biri bo‘lganligi sababli yangi hukmdor, boshqa yuz urug‘i boshliqlari qatori, Turdini ham saroydan chetlashtiradi, ta‘qib qila boshlaydi. «Muxammasi turki»da bunga shunday aniq ishoralar bor:

*Hukm jori, so‘z qabuli, bir duri dargo‘sh edim,  
Ahli davlatlar bilan yoru harif hamdo‘sh edim.  
Hoy-ho‘yi bazmlarda shahdi no‘sho no‘sh edim,  
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarxush edim,  
Bu zamon yuvg‘on qozon ostida qolg‘on yundiman.*

She‘r mazmunidan muxammas shoir umrining oxirlarida yozilganligi anglashiladi. Chunki unda shoir o‘z umri davomida boshidan kechirgan voqea-hodisalar, hayotining achchiq-chuchuk onlari, qiyinchiliklar, ularning shoir taqdiriga ko‘rsatgan ta‘sirini xususida fikr yuritadi. Unda biz hayotning chag‘ir toshli yo‘llarini bosib o‘tgan va undan oxir-oqibat, o‘ziga yarasha xulosalarga kelgan nuroniy, dono va mutafakkir insoning oqilona o‘g‘itlarini, pushaymonliklarini eshitamiz:

*Qilmadim shukronae, soldurdi tufrog‘ oshima,  
Qilmadi juz dardu g‘am hamdam musohib qoshima,  
Haq o‘zi rahm aylagay ohi sahar ko‘z yoshima,  
Tafriqa toshini yog‘durdi zamona boshima,  
Xonumon ovora, selobi havodis surdiman.*

*Oh, bu umri kiromi sarfi g'aflat ayladim,  
G'ussai behuda asbobi nadomat ayladim,  
Bilmadim o'z aybimi xalqqa mazammat ayladim,  
Shukur shahdin bilmadim kufroni ne'mat ayladim,  
Zaxmi neshi ro'zg'or ahlini talhu tundiman.*

Bu, albatta, hayotning turli-tuman zarbalariga duch kelib, alamidan o'ziga dushman xonu beklarni, diyonatsiz kimsalarni ayamay fosh etgan, yurt qayg'usida iztirob chekib, o'z maqsadiga erisha olmagan dono, lekin jabrdiyda insonning umri oxiridagi achchiq saboqlari, Oллоhdan shafqat so'rab qilgan iltijolaridir.

Keksalik yillaridagi bunday pushaymonliklarning sabablari Turdi Farog'iy umr daftarining yoshlik va o'rta yoshlik yillaridagi sahifalarini varaqlaganimizda ravshan bo'lib qoladi. Abdulazizxondan iltifot ko'rgan, saroyda yuz urug'i boshliqlaridan bo'lgan Turdi Subhonqulixon hokimiyatga kelgach, aziyat chekkan, izzat-hurmati haqoratlangan, oqibatda shoirning qarashlari, xatti-harakatlarida «portlash» yuz beradi. Subhonqulixon norozi bo'lgan urug' boshliqlariga qo'shiladi, hokimiyatga qarshi boshlangan va ancha yillar davom etgan qo'zg'olonlarda qatnashadi. O'z siyosiy faoliyati va qalami, so'zining kuchi, ta'siri bilan Subhonqulixonni, uning siyosatini, arkonu davlatini fosh etishga, badnom qilishga kirishadi. Ilgari Abdulazizxon saltanatini, uning xush zamonini maqtab qasidanamo she'rlar, ishqiy-lirik asarlar yaratgan bo'lsa, endi mamlakat va xalq taqdiri, Subhonqulixon amaldorlarining qilmishlari haqidagi asarlarni yozishga o'tadi. Shu tarzda, Turdining hayoti va qismatidagi bir-biridan farq qiluvchi shart-sharoitlar uning siyosiy-ijtimoiy qarashlarida ham, badiiy ijodida ham ikki xil qutbning maydonga kelishiga sabab bo'ladi.

U mamlakatda tinchlik va osoyishtalik vujudga keltiradigan siyosiy yo'lni urug' oqsoqollari, beklar hamda amaldorlarning mamlakat hukmdori boshchiligida bahamjihat bo'lgan holda yurtni boshqarishida, adolat, insof va diyonat asosida ish tutishlarida deb bildi. U hukmdorni fuqaro ahvolidan doimo voqif bo'lishga chaqirdi, unga maslahatlar berdi:



*Shohlik uldur, oni hukmu so'zi bir kerak,  
Adl yoyini qurub, rost nishon tir kerak.  
Rostrav, dini durust, peshasi tadbir kerak.*

Turdining ayniqsa «Bu mulk...», «Tor ko'ngulli beklar...» g'azallarida yurt va xalq taqdiri masalasi asosiy ijtimoiy mavzular sifatida namoyon bo'ladi. To'qson ikki o'zbek urug'larining parokandaligi, noittifoqliligi shoir yuragini qiynaydi, tug'yonga keltiradi. Ularning jipslashishi, bir yoqadan bosh chiqarishlari vatan va millat taqdiri uchun naqadar zarurligini iztirob bilan tashviq etadi. Buning sababchilari bo'lgan o'zboshimcha beklarning befarosatligi va manmanliklarini achchiq, ta'sirli iboralar, tashbehtar orqali fosh qiladi, birlashish, ittifoqqa kelish shiorini o'rta tashlaydi:

*Tor ko'ngulluk beklar man-man demang, kenglik qiling,  
To'qson ikki bovli o'zbek yurtidir, tenglik qiling.  
Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz , nayman demang,  
Qirqu yuz , ming son bo'lib, bir jon oyinlik qiling.  
Bir yaqodin bosh chiqarib, barcha bir to'ng'a kirib,  
Bir o'ngurluk, bir tirizlik, bir yoqo, yenglik qiling.  
Kim qo'yubdur, uhdayi o'z mulkungizdin chiqmayin,  
Ikki, uch, to'rt da vosin etmakni, ko'tahlik qiling.  
Mardlar maydon chekib, rangni ko'tarib zaxmlar,  
Sizga yo'q, ul javharu yuz ga upo-enlik qiling.*

Bu g'azal xalqona she'rlar uchun mos keladigan ramal bahrining «ramali musammami mahbuni mahzuf» vaznida yozilgandir. Taqtilari: foilotun, foilotun, foilotun, foilon.

Qayd etish lozimki, Turdi Farog'iyning ayrim g'azallarida, jumladan, besh baytli yuqoridagi g'azalida shoir taxallusi uchramaydi. Uning g'azallari ichida uch baytlilari ham bor. Bu g'azallar tugallanmagan yoxud shoirning o'zi ba'zi sabablarga ko'ra o'z shoirlik tamg'asini qo'llamagan bo'lishi mumkin.

Turdining 1681 yil tarix moddasi berkitilgan (1102 hijriy)

«Subhonqulixon va uning amir-amaldorlari haqida hajviya» nomi bilan atalib kelinuvchi asari o‘zbek adabiyotida yaratilgan birinchi hajviy muxammas-dostondir. Shoir 33 beshlik – 165 misradan iborat bu hajviyasida mamlakatni inqiroz yoqasiga keltirgan, zulm va istibdodni avj oldirgan, fuqaroning zulm-zo‘rluk va beboshliklarga qarshi bosh ko‘tarishga majbur etgan voqea-hodisalarni tasvirlaydi. Unda 1680 yildan 1702 yillargacha xonlik qilgan Subhonquli va uning tarafdorlari zulmi ostida ezilgan xalqning hamda Turdiga o‘xshash xonlik siyosatidan norozi bo‘lgan ijtimoiy guruhlarining noroziligi ifodalangan. Shuning uchun asarda haqoratlangan Turdining isyonkor kayfiyati fuqaroning keng noroziligi ifodasi darajasiga ko‘tarilgan deyish mumkin. Bu hajviy asarning O‘rta Osiyo zaminidagi Adabiyotlarda paydo bo‘lgan hajviyot bilan bog‘li tomonlari ham yo‘q emas. Bizda ilgari ham ba‘zi hajviy g‘azallar, qit‘alar, tanbehlar yaratilgan bo‘lsa-da mazmunan to‘la hajviy ruhga ega asarlar yaratilgan emasdi. XI asr fors shoiri Hakim So‘zoniy, XVI–XVII asrlarda ijod qilgan fors-tojik shoirlari Mushfiqiy va Saidoi Nasafiy hajviy muxammaslar yaratgandilar. Turdi ana shunday asarlardan xabardor bo‘lgani va ulardan ta’sirlanib o‘z zamonasi illatlarini fosh etgan bo‘lishi mumkin. Bu holatni yana shu fakt ham isbotlaydiki, Turdining bizgacha yetib kelgan besh muxammasining biri fors-tojik tilida yozilgan. Bu muxammas forsiy adabiyotning buyuk namoyandasi, ajoyib lirik asarlar hamda «Bo‘ston» va «Guliston»dek go‘zal obidalar muallifi Shayx Sa‘diyning ishqiy-tasavvufiy g‘azaliga bog‘langan tazmin muxammasdir. Turdi o‘zining amaldorligi, urug‘ oqsoqolligi davridan afsuslanib kelganligini ifodalab «Dar mazammati sipohigari» (Amaldorlikni yomonlash) g‘azalini ham bitgan.

«Subhonqulixon» haqidagi hajviy muxammasning boshlanishidayoq shoir o‘sha o‘ta ziddiyatli, murakkab davrni ifodalovchi:

*Joyi osoyish emas, hech kima bu ko‘hna ravoq,  
Yog‘dirur boshimiza sangi jafu, gardi firoy –*

misralarini bitadi. Unda konkret tarixiy shaxslarga xos satirik lavhalar keltiriladi...

Turdi xalq ichida yurib, ularning ilmoqli, hatto vulgar soʻzlaridan ham aynan foydalanadi, qochirim, mazax, maqol, soʻkish – qabih soʻzlarini sheʼrlarida ishlatadi. Shu yoʻl bilan satirik obrazlarning individual qiyofalarini chizishga urinadi. Uning hajviy sheʼrlari, ayniqsa, *muxammasida chikka, pukka, magʻzaba, bangi, qirchangʻi, koʻr, zangʻar, yundi, moʻndi, sak, eshak, shum koʻr, suprindi, it, bit* kabi hajviy obʻektga nisbatan ishlatilgan soʻzlarni uchratamiz. Chunki satiradagi hajviy til qoʻshiqda mahin, samimiy, nozik shaklga kiradi. Lirikaning beozor tili satirada dilozorlikka oʻtadi. Lirikadagi goʻzal va mahin leksika hamda ohang endi haqoratli, mazaxli, zaharxandali leksikaga koʻchadi. Jumladan Turdi hajviyotida bu hol boʻrtib turadi:

*Edingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,  
Gʻasb ila molin olib, qoʻymadingizlar, bitini.  
Qamchilar dogʻ solib boʻyungʻa, tilib betini,  
Yordingiz zahrasini ichidan olib oʻtini,  
Boʻlmadi kam raiyat boshidan hech tayoq...  
Fuqaro boʻldi bu shoh asrida koʻp zoru nahif,  
Zulmdin boʻldi raiyat elikim, xoru zaif,  
Soli tarixini etdim chu xiraddin taklif,  
Dedi: «din» boshdin-oyoqdin tushub «Islom» zaif,  
Davri Subhonqulixon jobir, umarosi yapaloq.*

Bu bandning toʻrtinchi misrasida mazkur muxammasda bayon qilingan voqealarning sodir boʻlgan yili berkitilgan, yaʼni tarix sanasi berilgan.

Bu satirik muxammas ham ramal bahrining «ramali musammani mahbuni maxzuf» vaznida yozilgandir.

Ruknlari:

*foilotun / foilotun / foilotun / foilun*  
*V V – – V V – – V V – – V V –*

Shunday qilib, murakkab va mashaqqatli hayot yoʻlini bosib oʻtib, Abdulazizxon davrida roʻshnolik koʻrib, Subhonqulixon davriga kelib xoru zorlikka va sarson-sargardonlikka uchrab umrini oʻtkazgan Turdi

Farog'iy o'z dushmanlariiga qarshi she'rlar yozib, «o'zini dengizdagi talotumdek his qilib», «nina ipidek xalq ko'zigayaqinlashishgaharakat qilgan edi».

*Qatrayam nochiz, ammo zoti kulzum Turdiman,  
Kelturan amvojj'a bahri talotum Turdiman.  
Rishtadek ming pechu tob chashmi so'zondek o'tar,  
Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman.*

*(Nojiz – arzimas, pechu tob – iztirob, amvoj – to'lqin.)*

Turding bizgacha yetib kelgan she'rlari deyarli davr qabohati, ayrim shaxslardagi nuqsonlarni qoralashga, fosh qilishga, o'z hasbi holini izhor etishga bag'ishlangan asarlardir. Biroq, bu – Turdi ijodining asosini tashkil qilmaydi. Shoir inson qalbida tug'yon uruvchi xilma-xil tuyg'u va kechinmalarni ham yuksak badiiy mahorat bilan aks ettiradi, go'zal lirik lavhalar yaratadi. Hatto hajviy mavzulardagi she'rlarida ham uning iste'dodli lirik shoir bo'lganligi ko'zga tashlanib turadi.

*Har qanda g'ami do'st dili porani istar,  
To subh yaqo yirtmadi-mehr o'lmadi paydo –*

birgina shu baytda qanchalik chuqur hayotiy mazmun, fikr ifodalanganligini ko'ramiz. Shoir talqinicha, do'st g'ami dili pora–jarohatlangan yurakni taqoza etadi. Chunki yurakning bir parchasini do'stga berish, uning mehrini yurak chokiga joylash shart. Chindan ham, tongda osmonning bir cheti yorishib mehr-oftob chiqadi. Shu holatni shoir to tong yoqa yirtmaguncha quyosh chiqmaydi, deydi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Turdi Farog'iy she'rlarining topilishi va o'rganilishi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. «Muxammasi turki»ning shoir hasbi holini o'rganishdagi ahamiyati nimalarda?
3. Shoir she'rlarida yurt va jamiyat taqdiriga, jipslashishga doir qanday fikrlar aytilgan?

4. Turdi hajviyotining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?

5. Subhonqulixon shaxsi va faoliyatiga oid yangi fikrlardan xabaringiz bormi?

### ***Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar***

1. Turdi Farog‘iyning joriy nashrlardagi she‘rlarini o‘qing va taassurotlaringizni daftarda qayd eting.

2. Shoir she‘rlarida uning dunyoqarashi va ijodi bosqichlariga doir faktlarni aniqlang hamda amaliy mashg‘ulotda so‘zlab bering.

3. Shoir she‘rlarining ayrimlarida taxallus ishlatilmagan-ligining sabablari haqidagi fikrlaringizni daftarda bayon qiling.

### ***Adabiyotlar***

1. Турди. Шеърлар.—Т., 1971 (кириш сўзи муаллифи А.Ҳайитметов).

2. Ёқубов Ҳ. Турди: Адабий мақолалар.—Т., 1971.

3. Абдуллаев В. Турди. Фароғий: Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик, 2-китоб.—Т., 1980.

4. Жумахўжа Н. Миллий бирлик курашчиси. «Тафаккур» журнали, 1998, 3-сон.

## **BOBORAHIM MASHRAB** **(1653 – 1711)**

*O'rganilish tarixiga bir nazar.* O'zbek mumtoz adabiyotining XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asr boshlarida yashab, ijod etgan atoqli namoyandalaridan biri Boborahim Mullo Vali o'g'li Mashrabdir. Mashrabning hayoti va ijodiy faoliyati asosan O'rta Osiyo shahar-qishloqlarida kechgan, u ishqiy, tasavvufiy, isyonkorona she'rlari bilan shuhrat qozongan, xalq qalbidan chuqur joy olib, o'zi to'g'rida hikoyat, rivoyat, naql va afsonalarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'lgan. Mashrab haqidagi eng muhim adabiy-biografik manbalardan biri, shubhasiz, «Qissai Mashrab» («Qissai Shoh mashrab») asaridir. Asar «Tazkirai qalandaron»da zikr qilingan Mashrabning darbadar hayotidagi doimiy hamrohi, muxlisi, qalandar shoir va qissanavis Pirmat Setoriy tomonidan kitobat qilingan, degan taxminlar aytiladi. Bu kitobda Mashrabning joriy nashrlardagi she'rlaridan tashqari, uning shaxsiyati, avliyosifat xatti-harakatlari, karomatlari, shakkokona qiliqlari haqida qiziq-qiziq hikoyalar, rivoyatlar, naqlar, latifalar ham keltiriladi. U Mashrab adabiy merosini, she'rlarini o'z ichiga olgan asosiy adabiy manbadir. Bu qissa 1995 yili yosh adabiyotshunos Erkin Musurmonov tomonidan «Rahimbobo Mashrab va uning badiiy adabiyotdagi talqini» mavzuida yoqlangan nomzodlik dissertasiyasida tahlil etilgan. Mashrabning qo'nimsiz, qalandarona hayoti va sarguzashtlari, imoni pokligi, sidqidildan Olloh vasliga erishishga intilishi, mutafakkir siymo sifatida shakllana borganligi oddiy xalq dilini rom qilgan.

Maleho Samarqandiyning «Muzakkir ul-ashob» tazkirasida shoirning nomi, tavallud joyi, shaxsiy va adabiy qiyofasi eslatib o'tiladi. Yana bir manba Ziyovuddin Bog'istoniyning «Tazkirai qalandaron» asaridir. Unda Mashrab rahnamoligidagi darvesh-qalandar shoirlar haqida fikr yuritiladi. Bu tazkira XX asrning 80-yillari ma'lum bo'ldi. XVIII–XIX asrlar davomida maydonga kelgan ba'zi tarixiy asarlarda ham Mashrab to'g'risida ayrim lavhalarni, tarqoq ma'lumotlarni uchratamiz.

XIX asr oxirlari –XX asrda Boborahim Mashrabga bag‘ishlangan bir qancha kitob va maqolalar yozildi. Mashrab haqidagi qissa hamda unda keltirilgan she‘rlardan namunalar 1910 yili N.S.Likoshin tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, avval Toshkentda, so‘ngroq Samarqandda nashr etildi. Arxeolog olim V.P.Vyatkin shoir hayoti, sarguzashtlari, qismati haqida maqola e‘lon qilgan. O‘zbek olimlaridan akademik G‘afur G‘ulomning 1959 yili bosilgan «Ikki Mashrab» maqolasi, shoirning hayoti va adabiy merosini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda Mashrab mavzui bilan bog‘liq bir qancha munozarali o‘rinlarga aniqlik kiritildi. Keyingi yillari ham birin-ketin o‘zbek olimlaridan I.Sultonov, A.Abdug‘afurov, M.Zokirov, N.Jumaev, E.Musurmonov va boshqalarning ilmiy tekshirishlari, adabiy portretlari, maqolalari e‘lon qilindi; V.Rahmonov va K.Isroilov, J.Yusupov shoir asarlarining ancha mukammal nashrlarini amalga oshirdilar.

Xususan, mustaqillik yillarida Mashrab haqida yuz aga kelgan adabiy portret va ilmiy ishlarda uning ijodini yangicha talqin etish va xolisona baholash tendensiyasi kuchaydi. Shu bilan birga ta‘kidlash lozimki, XX asrning 60-70-yillari yaratilgan tadqiqotlarda Mashrab ijodidagi ilohiylik mayllari, tasavvufiy ehtiroslar tahliliga yetarli e‘tibor berilmagan bo‘lsa, endilikda, aksincha, uning adabiy merosini, diniy-tasavvufiy qarashlarini ko‘proq shu mavzu atrofida talqin qilish, uning she‘riyatidagi g‘urbat, afsus va xalq hayotiga achinish, real his-tuyg‘ular salmog‘ini yetarli darajada ko‘rsata olmaslik mayli ustundek. Holbuki, biz Mashrabning faqir bo‘zchi oilasida dunyoga kelgan, avval murid, keyinchalik qalandar sifatida safarlarda hayot kechirgan, xalqning og‘ir ahvolidan aziyat chekkan mehribon inson bo‘lganligini, insonga xos dunyoviy hamda ilohiy tuyg‘ularga ega majnunsifat shaxs ekanligini unutmashimiz kerak. U shoir – inson sifatida hamma narsa haqida o‘ylagan, real inson sifatida fikr-mulshohaza yuritgan.

***Hayoti va ijodiy faoliyati.*** Boborahimning faqirona hayot kechirgan ota-onalari, o‘g‘ilning ibtidoiy maktab imomi bilan ilk uchrashuvi, yoshligidanoq majnunsifat, qalandarvash qiyofasi, g‘ayritabiiy harakatlari, so‘zlari sinfdoshlarini, ota-onasini, tevarak-

atrofdagi xaloyiqni hayratga solganligi, Mullo Bozor Oxund, soʻng Ofoqxoja dargohidagi xoksor umri «Devonai Mashrab» qissasida rivoyat va naqlar aralash hikoya qilingan. U Sharqiy Turkistonning ham hukmdori, ham diniy rahnamosi Hidoyatulla Ofoqxoja dargohida ancha yil murid boʻlib yuradi, uch yil oʻtin teradi, yana uch yil meshkobda suv tashiydi. Bir poʻstinni yetti yil yechmaganligini sheʼrida eslatib oʻtadi. Boshiga tushgan hamma qiyinchiligu riyozatlarga Haqqa yetishish uchun chidaydi. Pirovardida, taqdiri ilohiyning sinoviga duch kelib, Ofoqxojaning buyrugʻi bilan qattiq tan jazosiga mahkum etiladi, pir dargohidan badargʻa qilinadi. Mashrabning jahongashta, qalandarona hayoti, sarguzashtlari boshlanadi. Uning koʻp shahar-qishloqlarni darbadar kezib, darvish-qalandar shoir sifatida soʻfiyona gʻoyalarni targʻib etganligi maʼlum.

Mashrab sheʼrlari tarkibida «Yoshi yetmish birga kirgan bandai raddi falak» misrasining keltirilganligini hisobga olib, adabiyotshunos Muhsin Zokirov shoir tavalludini 1640-41 yil deb taxmin qilgan edi. Biroq, «Devonai Mashrab»ning bir qancha qoʻlyozmalarini va tazkiralardagi maʼlumotlarni sinchiklab oʻrgangan J.Yusupov Mashrab asarlarining 1990 yilgi nashriga yozgan soʻnggi soʻzida uning tavallud yilini 1653 yil deb hisoblaydi. Bunday maʼlumot XIX asr tazkiranavislaridan Abdulmutallib Fahmiyning tazkirasida zikr etilgan ekan. J.Yusupovning yozishicha, bu sanaga ishonishga yana bir dalil shundan iboratki, u Ziyovuddin Bogʻistoniyl «Tazkirai qalandaron»da eslatib oʻtgan: «Andogʻ maʼlum boʻlmishkim, Mashrabi valiyulloh qatli muddatinda tavalludlaridan ellik sakkiz sana kechub erdi» zikridir. Demak, Mashrabning tavallud va qatl sanalari 1653–1711 melodiy yillar deyish mumkin.

Boborahim Mashrab haqidagi yangi maʼlumotlardan yana biri uning chet ellarda, jumladan, Saudiya Arabistonida ham boʻlib, Makkani ziyorat qilganligidir.

Soʻnggi yillari amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga koʻra, Boborahim Mashrabning Namangandagi ilk ustози Mullo Bozor Oxund ham, uning Qashqardagi piri-murshidi Hidoyatulla Ofoqxoja ham oʻz zamonalarining pok koʻngil, avliyosifat diniy arboblari boʻlganlar. Ularning yosh Boborahimga munosabatlarida ortiqcha



zulm bo'lmagan. Bu holni Mashrabning murid va shoir sifatidagi quyidagi e'tiroflari tasdiqlaydi:

*Ma'rifatni gulzori Mullo Bozor devona,  
Oshiqhlarni sardori Mullo Bozor devona.  
Yo'qtur aslo kinasi, bahri urfon siynasi,  
Nuri haq oyinasi, Mullo Bozor devona.*

Boborahimning majnunvash zukko tabiatini anglab yetgan Mullo Bozor Oxund uning niyatlariga qanot bag'ishlab, o'sha zamonning mashhur diniy rahnamalaridan biri sifatida Sharqiy Turkistonda dovrug' yoygan Ofoqxoja dargohiga yo'llagan. U chidam bilan bu murshidning-Eshonning ta'limini oldi, riyozatlarga, xokisorliklarga chidadi. Uning yaratuvchi ilohiy kuchga bo'lgan e'tiqod va ishonchi kuchayib bordi.

Bir baytida yosh Boborahim:

*Ofoqxojam kim suyib oting Mashrab dedilar,  
Bo'sag'angda o'lurman menda hasrat qolmadi, -*

deb yozadi. Mashrab she'rlari ichida uning Ofoqxojaga minnatdorligini, alohida hurmatini eslatuvchi misralar yana uchrab turadi:

*Har nafasiki menda bor bo'ldi, Ofoqxojam,  
Bo'lmasa bir quruq yog'och dashtida ko'hsor o'zum.*

Na chora, shunga qaramay Mashrab hayotida Ofoqxoja e'tiqodiga to'g'ri kelmaydigan noma'qul harakat sodir etilib, u majruh qilinadi. Piring dargohidan quviladi. Shunga qaramay, Ofoqxoja eshonning Sharqiy Turkistondagi diniy mavqei va hukmronligi tarixini o'rgangan tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, Mashrab o'z umrining oxirigacha Ofoqxoja va uning vorislaridan yuz o'girmagan, ularga nisbatan shakkoklik qilmagan.

Uning pir dargohidan badarg'a etilib qalandarlariga qo'shilib,

o‘z aqidalarini elma-el, yurtma-yurt ochiq tashviq qilib yurishi shoir asarlarining ommalashishiga, unga e‘tiqod bog‘lagan xos kishilarning ko‘payishiga olib kelgan. Chunki o‘sha davrda ancha ildiz otgan va e‘tiqodli insonlar diqqat-e‘tiborini o‘ziga tortgan qalandarlik Mashrab uchun katta imkoniyat edi. U shu imkoniyatdan yaxshi foydalanib, mutafakkir, so‘zamol shaxs sifatida hatto qalandarlarning rahnamolaridan biri bo‘lib qoldi. Ikkinchi tomondan, qalandar bo‘lish, bu yo‘lga kirish Haqning muhabbatiga sazovor bo‘lishning bir vositasi edi. Bu Mashrabning qalandarlik haqidagi maxsus she‘rida ravshan ifodalanganligini ko‘ramiz:

*Murodingga yetay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l,  
Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.  
Riyozatsiz bo‘lay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.  
Bu taqvodin kechay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.  
Haqiqatni ochay desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.*

U Namangan-Xo‘jand-Toshkent-Samarqand-Buxoro-G‘uzor-Istanbul-Makka-Madina- Xorazm-Kaspiy bo‘yi hududlarida bo‘lib, o‘zining isyonkorona, xalqchil she‘rlari bilan shuhrat qozondi, avliyosifat, valiulloh shaxs sifatida hurmat, ehtirom topdi. U hamma joyda kishilarni o‘zining donishmandligi, so‘zga chechanligi, Ollohga bo‘lgan cheksiz e‘tiqodi, haqgo‘yligi, shoirlik, hofizlik quvvasi, karomatgo‘yligi bilan lol qoldiradi, vali kishilar qatorida e‘zozlanadi. Haq ishq bilan yonadi. Oqibat – u o‘n sakkiz yillik ayriliqdan so‘ng Namanganga qaytib mushtipar onasi va yolg‘iz singlisi bilan diydor ko‘rishadi.

Ana shunday mutafakkir, jasoratli shaxsning boshiga ham Mansur Halloj va Nasimiyning boshiga tushgan qora kun tushadi. U 1711 yili chalasavod, xushomadgo‘y shaxslarning chaquvi, ig‘vosi bilan dorga osib o‘ldiriladi. Uni qatl ettirgan Mahmud Qatag‘on ham Mashrab fojiasidan uch kun o‘tgach, dahshatli zilzila tufayli halok bo‘ladi. Mashrabning qabri Balxga yaqin Ishkonmish qishlog‘idadir. 2003 yil oxirlarida Bobur xalqaro ekspeditsiyasining vakillari Mashrab marqadini borib ko‘rdilar.

Uni ta'mirlash, ziyoratgohga aylantirish tadbirlari ishlab chiqildi.

**Adabiy merosi.** Qayd etib o'tilganidek, Mashrabning adabiy merosi an'anaviy she'riy devon holda yetib kelmagan. U o'tmishda noma'lum muxlislar tomonidan tuzilgan xalq kitoblari tili va uslubini eslatuvchi «Devonai Mashrab» yoxud «Qissai Mashrab» nomlari bilan ma'lum bo'lgan manba orqali yetib kelgan. Mashrabning she'rlari XVII asrdan keyin tartib berilgan bayozlarda, qalandar shoirlar she'rlaridan iborat «Tazkirai qalandar» asarida ham uchraydi. Shunday manbalar asosida 1958 yildan buyon uning she'rlari nashr qilinib kelinadi. Uning hajman ancha katta va devon deb shartli nomlangan kitobi 1990 yili bosildi.

Mashrabning adabiy-ijodiy merosida diniy va tasavvufiy g'oyalar ham, o'sha asrlarda ayniqsa keng tarqalgan qalandarlik tariqati g'oyalari ham sezilarli o'rin egallaydi. Shoir islom ta'limotidagi asosiy qoidalarni, farzu amallarni qabul qilgani holda, ba'zilariga qarshi ochiqdan-ochiq salbiy munosabatini ham asarlarida ifoda etadi. Ularga mensimaslik, shakkoklik bilan qaraydi, ba'zan ular ustidan kuladi ham. Buning asosiy sababi shoirning

*Bir xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,  
Gul agar bo'lmasa ilkimda tikonni na qilay?*

shoh baytidadir. Shu jihat uning dunyoqarashini ko'p mutasavvufiarnikidan ajratib turuvchi asosiy jihatdir. Undagi yolg'iz xudoni tan olish e'tiqodi o'sha davr dindorlari uchun g'alat tuyulgan, ular Mashrab e'tiqodining tub mohiyatiga tushunib yetmaganlar. Mashrabning devonasifatligi, qalandarligi, hech narsadan qaytmasligi, «quvvayi jazava»si uning shahid bo'lishiga sabab bo'lgan.

Adabiyotlar tarixida bunday qaysar aql egalari ko'p bo'lgan emas. Mashrab Mansur Halloj, Nasimiy, Naimiyning o'zbek mumtoz adabiyotidagi davomchisidir.

Mashrabning adabiy merosi yuz asidan muhim tadqiqotlar yaratgan A.Abdug'afurovning asosli qayd etishicha, shoir adabiy merosidagi diniy mazmun va tasavvufiy yo'nalish ruhidagi

she'rlarning ko'pchilik qismi uning Ofoqxoja dargohida murid bo'lib yurgan yillarida pining targ'ibot saboqlari ta'sirida yaratilgan. Uning navqiron yigit sifatida Xoja tasarrufidagi kanizakka qattiq ko'ngil qo'rganligi, ishq oshiqlik bedodliklarini boshdan kechirganligi tufayli o'ta sho'x, dilni erkalovchi sevgi-muhabbat kechinmalaridan tug'ilgan she'rlari ham shu yillari yaratilgan bo'lishi ehtimol. Mashrabning sarsonlik, qalandarlik yillaridagi she'rlari yo'l-yo'lakay turmush, qismat tug'dirgan qiyinchiliklar, ulardan qutulishning birdan bir iloji Olloh ne'matiga vosil bo'lishni kuylashdan iborat bo'ldi. Shu ma'noda Mashrab adabiy merosida muayyan evolyusiyani kuzatish mumkin.

Mashrab she'riyatining asosiy janrlari g'azallar, murabbalar, muxammaslar, mustazodlar, musaddas va musabbalardan iborat.

Mashrab g'azallari o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi g'azalnavislikning o'ziga xos xalqona uslubdagi namunalaridir. Ularda shoir majoziy va ilohiy ishq zamzamarini sho'x vazn, jarangdor qofiya, radiflar, mazmunga mos ma'naviy hamda lafziy san'atlar, xalqning jonli tili, ramz va bo'yoqli iboralaridan mahorat bilan foydalanish orqali ifodalaydi. Shoir har bir g'azaliga chuqur ma'no va jo'shqinlik bag'ishlashga erishadi. Uning xalq og'zaki ijodi, Ahmad Yassaviy hikmatlari ta'siriida yaratilgan, qo'shiqlarday jaranglovchi murabbalari, o'zigacha bo'lgan o'zbek adabiyotidagi eng ko'p mustaqil muxammaslari, sakkiz band - ellik olti misradan iborat musabbasi bor. Mashrabning bu musabbasida har band so'ngida:

*Vah-vah, na go'zalsan, na ajoyib, na qiyomat!*

*Hay-hay, na jafo qilsa sanam-jonima rohat!*

bayti naqorotdek takrorlanib boradi. Mashrabdan so'ng o'tgan shoirlarning she'rlarida uning ta'siriy yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa, Huvaydo, Furqat g'azallarida, Muqimiyning murabba' va muxammaslarida shunday.

Shoirming mustazodlari ichida real inson – ma'shuqaning husnu malohatini, yurakni o'ynatadigan darajadagi jozibasini namoyon etuvchi namunalar ancha. Ularning hammasida ishq ilohiyning

ifodasini ko‘raverish to‘g‘ri emas. Bunday namunalarning sehri kitobxonni real insonning real hayotiy tuyg‘ulari bilan uchrashtiradi, unda hayotga, undagi go‘zalliklarga nisbatan zavq uyg‘otadi, yuragini qitiqlaydi:

*Nozik badano, sunbi xudovandi jahonsan, ey ofati davron,  
Zulfi musalsal, qoshi yosin, na balosan, jon taxtiga sulton.  
Bilmam na balo ko‘z ichidin goh boqarsan, ey ko‘zlari ofat,  
Goh munda, gahi anda manga jilva qilursan, bandangga na farmon.  
Egma qoshingga vo‘sma qo‘yub jonim olursan, rahming nega kelmaso?  
Ham kulgu bila koyiribon yoying otarsan, ey sarvi xiromon.*

Mashrabning barcha mustazodlari fusunkor musiqiy ohangdorlikka ega bo‘lib, kitobxon qalbiga tez yo‘l topadi. Unda ajoyib hayotiy orzu-istaklar, kechinmalar uyg‘otadi.

Ayrim manbalarda aytilishicha, Mashrab «quvvai jazava», ya‘ni va‘zxonlikda tengi yo‘q, mantiqli so‘zlashda benazir bo‘lgan. Bu xususiyat uning isyonkorlik ruhidagi she‘rlarida ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Shuning uchun uni avliyosifat, vali kishi sifatida e‘zozlaganlar. She‘rlarini hofizlar havas va maroq bilan kuylaganlar. Mashrab she‘rlari o‘zi mansub bo‘lgan va rahnamolik qilgan qalandarlar to‘dasining asosiy repertuarini tashkil etgan.

U bir baytida:

*Darbadar bo‘ldim jahonni ko‘p tamosho ayladim,  
Hech gulni ko‘rnadim olamda bo‘lg‘on xorsiz, —*

deydi. U hamma yerda zo‘ravonlikni, insofsizlik va haqsizlikni ko‘radi, qalbi tug‘yonga keladi: Bir muxammasida:

*Dili tig‘i sitamdin pora bo‘lgan xalqni ko‘rdum,  
Tani dardu alamdin yora bo‘lg‘on xalqni ko‘rdum.  
Ko‘zi vaqti sahar sayyora bo‘lg‘on xalqni ko‘rdum  
Muhabbat dashtida ovvora bo‘lg‘on xalqni ko‘rdum, —*

deya nido qiladi hamda ularning sababchilari bo'lgan riyokor, zulmkor shaxslarning hammasiga la“natlar o‘qiy boshlaydi, ularni badnom qilishga kirishadi, o‘zini nochor, jabrdiyda elning ko‘makchisi, rahnamosi deb hisoblaydi:

*Xoja-sayid, begu xon, sardorlar badkor esa,  
Zulm tig'in tez eturda har biri nomdor esa,  
Kosales kazzob shayxlar bu vatanda bor esa,  
Mazlum ellar ingrashubkim parcha nonga zor esa,  
Kufr elig'a Mashrabidek rahnamo paydo bo'lur.*

U tanho yaratuvchining o‘ziga sig‘ina boshlaydi. Oллоhdan boshqa kuchlarni tan olgisi kelmaydi. Bu foniy dunyodagi ko‘p narsalarga, hatto Qur‘onda qayd etilgan diniy aqidalarga zid tushuvchi fikrlarini ham aytib yuboradi:

*Bir xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,  
Pistani po'chog'iga do'zaxni jo qilguvchiman.  
Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak,  
Qolg'on Ibrohimdin ul eski do'konni na qilay?  
Urayinmu boshima sakkiz behishtu do'zaxin,  
Bo'lmasa vasli manga ikki jahonni na qilay?*

Bunday holatlar ham Mashrabdagi ijtimoiy adolatsizlik va zulmga bo'lgan isyonning o‘ziga xos majoziy – ramziy bir ko‘rinishidir. Zero, XVI asrlarda xilma-xil ko‘rinishlarda ildiz otgan tasavvufning o‘zi feodal jamiyatida qashshoqlikning nihoyatda kuchayishi tufayli najot qidirgan tabaqalarning najot topolmay tushkunlikka berilishi, undan qutulish choralarini xudoda, oxiratda ko‘rishlari natijasida paydo bo‘lgan. Biroq, uningcha, Makka, Ka’ba ziyorati, haj qilish farzi o‘z dilida haqiqiy oshiq sifatida Oллоhni tanishga intilgan, uning visolida riyozat chekkan musulmonning ishi bo‘lishi kerak. Mashrabdek pok e’tiqod kishisi uchun yor vasliga avval muyassar bo‘lmay turib Ka’bani ziyorat qilish riyodir. Shu tarzda, u yorsiz ham

bodasiz - ishqqa, jannatu do‘zax, namoz va boshqa diniy tahamullarga shak keltiradi. Bu shakkoklik emas, asl, sof e‘tiqod, ko‘ngil pokligi belgisidir. Afsuski, sho‘rolar zamonida Mashrabning bunday ulug‘ e‘tiqodi qing‘ir oynada taqdim etildi, unga dahriylik tusi berildi. U tasavvufning bunday aqidalari ifodasi va tartibi bilan cheklanib qolmaydi. Mashrab dunyoqarashi va poeziyasida hayotiy, dunyoviy jihatlar ham muhim o‘rin tutadi.

U ishqiy she‘rlarida xalq she‘riyatiga xos ta‘bir, ifodalarni dadillik bilan qo‘llaydi, xalqning maqol va hikmatli so‘zlariga, an‘anaviy tasvirlarga sayqal berib, o‘z she‘rlarining musiqiyliigi, xalqchilligi va ta‘sirchanligini ta‘min etadi.

E‘tibor bering, quyidagi baytlarda qanchalik hayotsevarlik, insonparvarlik, jonli kishiga nisbatan iliq munosabat bor. Unda go‘zal ma‘shuqaga oshiqu shaydo bo‘lib, ne qilarini bilmay qolgan lirik qahramon qiyofasi gavdalanadi:

*Zebo sanamim yo‘l uza ko‘rgach tura qoldim,  
Nazzorasidin mahv o‘lubon o‘ltura qoldim.  
G‘am tog‘ida Farhodsifat emganur erdim,  
Boshimga qazo teshasi tegdi, yotaqoldim.*

She‘r ilohiy ishq, yorga bor sadoqati bilan talpinish, uning visoli orzusida nafas olish bilan birga, yerdagi inson muhabbati tuyg‘ularining ham jonli, intim olamini harorat bilan madh etadi. Ko‘z o‘ngingizda husni malohatda tengsiz real yor gavdalangandek bo‘ladi:

*Ey mug‘bacha, marg‘ublig‘ing haddan o‘tubdur,  
Ovozai husning hama olamni tutubdur,  
Gulzori jamolingga xati lola bitibdur,  
Mashshotan taqdir seni xush yaratibdur,  
Yuz ingni ko‘rub, odami jannat unutibdur,  
Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat,  
Hay-hay, na sanam qilsa jafu jonima rohat...*

Mashrabning gʻazallarida boshqa koʻpgina shoirlar gʻazallarida koʻzga tashlanuvchi raqib obrazi deyarli yoʻq.

Oshiq-lirik qahramon koʻp hollarda oʻz orzu-maqsadiga erishadi. Chunki uning sheʼrlarida tasvirlangan goʻzal mahbuba bechora oshiqqa doimo sadoqat, iltifot koʻrsatishga harakat qiladi. Visol lazzatidan uni bahramand etish ishtiyoqida yonadi. Buni quyidagi gʻazalda yaqqol kuzatish mumkin:

*Nogoh koʻrinib koʻzuma dilbar boqa qoldi,  
Burqa koʻtarib qoshini ul dam qoqa qoldi.  
Ruhim eritib yoshirin, vah-vah, yuz i otash,  
Ishq chaqmogʻini jonima, naylay, choqa qoldi.  
Aydi: «Na tilarsan» Dedim: «Shamʼi jamoling»,  
Koʻrsatdi yuz in, maqsud hosil boʻla qoldi...*

Uning oshiqona lirikasida tasvirlangan shaxslar — yigit va qiz bir-biri bilan tabiiy munosabatda boʻladi. Bir-biriga dilidagi koʻngil dardlarini samimiy izhor etadi. Mashrabning koʻpgina gʻazallari aruzning yengil oʻynoqi vaznlarida yozilgan, ular xalq qoʻshiqlarini yodga tushiradi, musiqiy jarangga ega:

*Rishtai jonim bila sochbogʻiman,  
Oyoq ostigʻa kiyar boshmogʻiman.  
Kechasi ichidagi chaqmogʻiman,  
Oshigʻi ichra yuragi dogʻiman.*

Yoki:

*Guldek egilib kirsang eshikdan,  
Afgʻon qilurman ovoz birlan.  
Mashrab gʻaribni kuydirdi hajring,  
Nola qiladur qish, yoz birlan.*

Mashrab xalq sheʼriyatiga xos anʼanalarni ham yuksak darajada qadrlagan, undagi goʻzal jihatlarni qabul qilib, barmoq vaznidagi oʻynoqi sheʼrlar yaratgan. Uning ijodida xalq qoʻshiqlaridan biri sifatida aruzga moslashtirilgan mustazod namunalarining koʻpligi,



murabba va termalarga o'xshash yuqorida zikr etilgan namunalar shoir ijodi oziqlangan asosiy o'zanlaridan, manbalaridan biri xalq og'zaki she'riyati bo'lganligini isbotlaydi.

U hassos shoirlardan biri sifatida salaf shoirlarning ko'plari bilan bellasha oladigan ustoz shoir darajasiga ko'tarildi.

Alisher Navoiydan so'ng o'tgan iste'dodli o'zbek shoirlari ichida Boborahim Mashrabning ham ustod Navoiy bilan bog'lanadigan jihatlari ko'pdir. U Navoiyning lirik va epik ijodidagi tasavvuf-naqshbandiylik qarashlarini o'z davri talablaridan, mafkuraviy g'oyalaridan kelib chiqib rivojlantirgan yana bir mutafakkir shoirlardan biridir. Garchand Mashrabning anchagina muxammaslari ichida to'g'ridan to'g'ri Navoiy g'azallari asosida, g'azal baytlariga tazmin-taxmis tarzida yozilgan namunalar uchramasa ham, uning lirik she'rlari ichida turli yo'llar bilan ulug' salaf ijodi bilan bog'laydigan jihatlar ko'p. Bu mavzu taniqli navoiyshunos olim professor A. Abdug'afurovning 1995 yili chop etilgan «Buyuk beshlik saboqlari» maqolasida ancha chuqur yoritib berilgan. Muallifning to'g'ri ta'kidlashicha, «Mashrabning eng yetuk asarlarida Navoiy an'analarining aniq izlarini, ulug' shoir merosining g'oya va obrazlari bilan hamohanglikni, voqelikning navoiycha tahlili va talqinini» ko'ramiz.<sup>1</sup>

Chindan ham Mashrabning yaratuvchi Haq vasli oldida Ka'bani ziyorat qilish, do'zaxu jannatning tashvishini tortish behuda ekanligi haqidagi isyonkorona

*Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq na kerak,  
Qolgan Ibrohimdan ul eski do'konni na qilay -*

matla'li g'azali bilan Navoiyning ikki asr ilgari yozilgan:

*Gulshani ko'yungdin ayru bog'i rizvonni netay?!  
Boshima gar gul sochar — sensiz gulafshonni netay?!*

---

<sup>1</sup> A. Абдуғафуров. Навоий ва Машраб. Буюк бешлик сабоқлари. — И., 1995, 154 бет.

matla'li g'azali mazmunida, ruhida hamohanglik yaqqol ko'zga tashlanadi. Mashrabning darveshona, devonavor nidolari baralla bor nafasi bilan jaranglovchi, kuchli mubolag'alarda uning Olohga bo'lgan sadoqati va intilishini ifodalovchi

*Agar oshiqlik'im aytsam, kuyub jonu jahon o'rtar!  
Bu ishq sirin bayon etsam, gahi ul xonu mon o'rtar.*

mata'li g'azali bilan Navoiyning

*Men bir o'tdurki, gar dam ursam, aflok o'rtanur!  
Asrasam ko'nlumda, jonu jismi g'amnok o'rtanur –*

mata'li g'azali oralarida ham,.. shubhasiz, g'oyaviy-fikriy, shakliy yaqinlik mavjud.

Mashrab garchand Navoiy g'azallari asosida taxmisga aylantirilgan tazmin-muxammaslar yozmagan bo'lsa-da, ulug' shoirning nihoyatda go'zal va jonbaxsh:

*Kecha kelgumdur debon, ul sarvi gulru kelmadi,  
Ko'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi -*

matlai bilan boshlanuvchi g'azali ta'siriida o'ziga xos jozibaga, ijodiy izlanishlarga ega mustaqil muxammas kashf etgan. G'azal va muxammasning qiyosiy tahlili Mashrab she'rining Navoiy g'azali darajasida ko'rkam chiqqanligini namoyon etadi.

Mashrab o'zbek mumtoz shoirlari ichida ustod Navoiydan tashqari, Mavlono Lutfiy, Bobur ijodiga xos go'zalliklarni ham kamoli diqqat-e'tibor bilan o'rganib, ularning ba'zi she'rlaridagi muhim jihatlarni taraqqiy ettirgan shoirdir. Uning Mavlono Lutfiyning juda ko'p shoirlarning havasini qo'zg'agan, javob she'rlar yozishga ilhomlantirgan

*Sensan sevarim xohi inon, xohi inonma, -*

misrasi bilan boshlangan mashhur g'azaliga mumtoz adabiyotimizda birinchi bo'lib Mashrab tazmin-g'azal yozgandir.

Mashrab ijodi, ayniqsa, Mansur Halloj, Imomiddin Nasimiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy asarlari bilan g'oyaviy-fikriy hamohanglik kasb etadi: hurufiylik, panteistik qarashlar ifodasida Mashrab bu daho san'atkorlar, so'fiy shoirlar ijodidan kuchli ta'sirilangan. Mashrabning g'azallari va muxammaslari ichida ular she'rlariga yozilgan go'zal javobiyalar bor. Bunday she'rlarni tahlil etsak, Mashrabning ham, garchand ular ishlatgan vazn, qofiya va radiflarni qayta qo'llagan, asl holida saqlagan bo'lsada, she'rlari mazmuniga o'zgacha ruh singdirilganligining shohidi bo'lamiz. Buning bir dalili sifatida Nasimiyning quyidagi isyonkor baytlari bilan shu baytlar ta'siriida Mashrabning sehrli nafasidan paydo bo'lgan baytlarni solishtirganimizda ochiq namoyon bo'ladi:

Nasimiy:

*Manga sig'ar ikki jahon, man bu jahona sig'mazam,  
Gavhari lomakon manam, kavnu makona sig'mazam.  
Surata boqu ma'niyi surat ichinda tanni kim,  
Jism ila jonam, vale jismi-la jona sig'mazam...*

Mashrab:

*Ajab majnundurman, har dashtu har sahrog'a sig'mamdur.  
Dilim daryoi nurdur, mavj urub dunyog'a sig'mamdur.  
Shariat ham, tariqat ham, haqiqat mandadur mavjud,  
Chunon sultoni azmdurman, arshi a'log'a sig'mamdur.*

Ikkala isyonkor, jasoratli shoir qalamiga mansub bu she'rlarda ular dunyoqarashining asosiy mohiyati, g'oyaviy yo'nalishi o'z ifodasini topgan. Tasavvufdagi Haqni tanish, uning visoliga pok oshiq sifatida erishishning shariat, tariqat va, nihoyat, haqiqat kabi qiyin riyozatli yo'llari, uning natijasi, sharofati bu she'rlarning asosiy mazmunini, mundarijasini tashkil etadi.

**Poetik mahorati.** She'rshunoslik ilmida badiiy tasvir jarayonida

muayyan maqsad bilan mashhur tarixiy voqealar, adabiy asarlar, afsona va rivoyatlar, xalq maqollari, shaxs, qahramonlar nomiga ishora qilish san'ati ham mavjuddir. Bu talmih san'atidir. Jumladan, Mashrab ham turli munosabatlar bilan talmih san'atiga murojaat etadi.

*Mansuri Hallojdek ichib sharobi antahur,  
Charx urub yig'lab turarman ushbu dam dor oldida.*

Bu baytda mansur Halloj nomi bilan mashhur bo'lgan tarixiy shaxs va uning «Anal-haq», ya'ni «Men xudoman» deganligi uchun ruhoniylar fatvosi bilan dorga osilganligiga ishora bor. Qizig'i shundaki, bu o'rinda Mashrab o'zining taqdiri ham Mansur Halloj taqdiriga o'xshab qolishini bashorat qilgandek. Bu bayt orqali shoir tasavvufiy e'tiqodining mustahkamligini ta'kidlamoqchi bo'ladi.

Boshqa bir o'rinda Mashrab: «Jahonni tark qildi Mashrabo Ibrohim Adhamdek» misrasini keltiradi. Bu bilan u qalandarlik yo'liga kirganligiga ishora qiladi. Shoir asarlarida ko'proq jafo chekkan, Oллоh yo'lida cheksiz azobu uqubatlarga duchor bo'lgan tasavvuf ahli vakillarining obrazlari, nomlari keltiriladi. Talmih yo'li bilan o'zining e'tiqodiga bog'liq g'oyalarini ifodalashga, tashviq etishga harakat qiladi. Uning g'azallari orasida she'r matlasidan maqtaigacha talmih, qiyoslash, tanosub sintezidan iborat namunalar ham uchraydi.

*Menga irshod bersang, Odamu Havvoni hozir qil,  
G'aribu xastaman, Nuhi nabiyullohni hozir qil.*

matla'li g'azalida Namrud, Xalilullo, Ayyub, Zikriyo, Ahmad, Habibullo, Hasan bilan Husayn, Zuhro va boshqa tarixiy-afsonaviy obrazlarga ishora bor.

Mashrab she'riyatida tazod badiiy san'ati asosida yuz aga kelgan namunalar, baytu misralar ham o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi, shoir bunday o'rinlarda badiiy fikrni bo'rttirish va har bir baytdan kuzatilgan maqsadni tasdiq ettirish uchun birinchi misrada qo'yilgan tezisni shu baytning ikkinchi misrasida rad va inkor qilish orqali

qarama-qarshi fikrlar to‘qnashuvini yuz aga keltiradi yoki qarama-qarshi kayfiyat tug‘dirish yo‘li bilan badiiy muddaoni ta’kid va tasdiq etishga intiladi. Quyidagi baytda:

*Yuz jonim agar bo‘lsa saning yo‘lingga nisor,  
Kushdur bu gadolig‘, na qilay taxti Sulaymonni*

der ekan, insoniy mehr-vafo va muruvvatni tasdiq va ta’kid etish uchun «gadolig‘» va «shohlig‘» (taxti Sulaymon) tushunchalarini qarama-qarshi qo‘yadi. Shoir o‘ta xalqchil quyidagi:

*Tavofi olami dil qil jahonda har bashardan sen,  
Agar bir dilni sen buzsang yuz ar Ka‘ba buzulmasmu?*

baytida ham ta’kid, so‘roq (tamanni) san’atlaridan tashqari, tazod san’atini ham mahorat bilan qo‘llagan. She’rning ikkinchi misrasining o‘zida inson dili bilan muqaddas Ka’bani bir-biriga taqqoslab, bir bechora inson ko‘nglini vayron qilish, dilini og‘ritish yuzlarcha Ka’bani buzishdan ham yomon jinoyatdir, degan o‘ta oliyjanob insonparvarlik g‘oyasini ifodalashga muvaffaq bo‘lgan.

Mashrabning xalqchil lirikasida, orifona she’rlari tarkibida bu usulga yaxshi dalil bo‘luvchi baytlar ko‘p. Uning nasimiyona mashhur, «Sig‘mamdur» radifli g‘azali to‘liq tazod san’ati bilan jilolangandir.

Shoir lirikasi tarkibida boshqa qanchadan-qancha go‘zal badiiy lavhalar bor. Ba’zilarini yana keltirish mumkin. Masalan, uning

*Sorig‘ sadbarg, shirin so‘zluk yuz ingni kunda bir ko‘rsam,  
Yuz ingdan yuz o‘gurmasman agar yuz ming balo ko‘rsam*

baytida mumtoz she’riyatimizda shakli o‘xshash, lekin ko‘p ma’nolarni anglatuvchi jinos san’atidan tashqari, orzu qilish ma’nosini ham ifodalovchi «tamanni» badiiy san’ati ham ifodalangan. Ko‘pincha bu san’at g‘azal matla“idan boshlanib, keyingi baytlarda uning mohiyatini ochishga e’tibor qaratiladi. Shoirming

*Ey meni nozik nihol oromi jonim, qaydasan,  
Bu ko'ngul bo'stonida g'uncha dahonim qaydasan.*

baytida «Nido» badiiy usuli qo'llangan. Bu usulda lirik qahramon boshqa shaxslarga, oshiqona lirikada asosan yorga, ma'shuqaga murojaat etgan holda, o'zining ichki kechinmalarini, tilaklarini nido-xitob ohangida ifodalaydi. Mashrab she'rlarida bu badiiy usul ko'proq Oллоhga nido-murojaat qilish maqsadlarida qo'llaniladi.

Uning quyidagi baytida esa, ichki qofiya san'ati-musajja qo'llangan.

*Har kishikim senga boqar, suv bo'lubon tani oqar,  
Bir yo'li demading menga oshiqi notavonmusan.*

Mashrab g'azallarida «so'ramoq» ma'nosini ifodalovchi, badiiy san'atlar tarkibida *Istifhom* istilohi bilan atalib kelingan badiiy usul ham ko'zga tashlanadi. Bu san'at orqali she'rdagi lirik qahramon, ko'proq oshiq, o'z ichki tuyg'ularini, orzularini kimgadir yoki nimagadir murojaat etish, undan so'rash orqali ro'yobga chiqarish, yetkazishni ko'zda tutadi. Mashrabning bir g'azalida shu badiiy usul juda nozik did bilan qo'llangan:

*Ikki ruxsoring qizil guldurmu yo bargi suman?  
Donai rayhon - qaro xolu xating - sahni chaman.  
Siymtan, gul pirahan, shirin suxan, nozik badan,  
Odamman bu parisian bu nazokat birla san?  
Hurmusan, g'ilmonmusan, jannatmusan, rizvonmusan!*

Bu parchada *istifhom* san'atidan tashqari, yana bir qancha tashbehu qiyos san'atlari sintezlangan holda istifoda etilgani ma'lum bo'lib turibdi.

Uning Haq yo'lidagi intilishlarini, chekkan riyozatlarini ibrat qilib ko'rsatishga bag'ishlangan so'fiyona she'rlarida ham majoziy – ramziy so'z va iboralar, tashbehtar, qiyoslar ishlatiladi. Hatto u

xalq maqollari, matallariga o'xshash iboralarga o'z diniy-islomiy qarashlarini singdirish qobiliyatiga ega:

*Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo'lmaz,  
Riyozat chekmaguncha yor vasliga yetib bo'lmaz.*

Bu o'rinda «yor» Haq diydori bo'lib, uning visoliga muyassar bo'lish o'zlikdan kechib, riyozatlar chekishni taqoza etadi. Buni isbotlash uchun hayotiy dalillar, qiyoslar keltiradi. Ma'lumki, gul tikansiz bo'lmaydi, gulni qo'lga kiritish uchun tikanning zaxmiga bardosh berish kerak. Sadafsiz dur ham bo'lmaydi. Zero, durni sadafdan ajratib olish nozik mehnat, bardosh, riyozat talab qiladi. Ko'rinadiki, shu bitta aforistik baytda qancha chuqur hayotiy ma'no, falsafiy mushohada bor. Shu ma'noda, mashrabshunoslikka muhim hissa qo'shgan olimlardan Nusratulla Jumaxo'janing quyidagi fikrlari bor haqiqatni o'zida ifodalaydi:

«Boborahim Mashrab badiiy mahorat sirlarini mukammal egallagan san'atkor shoirdir. Uning mahorati badiiy san'atlarni qo'llash bilan emas, balki lirik asarlarni quyuq falsafiy fikrlar bilan yo'g'irishda ko'rinadi. Mashrab asarlari badiiyati o'ziga xos falsafiy tafakkur salmog'i bilan o'lchanadi. Ko'p ma'noni oz so'z bilan ifodalash san'ati nuqtadonlik, nuqtasanjilik deyiladi. Nukta san'atini ko'pchilik, ayniqsa, kaltafahm kishilar, Mashrab ta'biri bilan aytganda, «ko'tohnazar el» tushunib yetmaydi. Mutafakkir shoir xos ma'nilarni xos kishilarga qarata aytgan».<sup>1</sup>

Chindan ham, Mashrab she'rlari tasavvuf falsafasining turkona badiiy talqinidir. U o'z e'tiqodidan kelib chiqib bu ta'limotning mag'zini chaqadi, uning murakkab jihatlarini qalandar-so'fiy shoir sifatida o'z ijodiy laboratoriyasidan o'tkazib, iloji boricha, sodda va tushunarli uslubda ifodalashga muvaffaq bo'ladi.

Mashrab she'rlari vaznlarni qo'llashdagi rang-barangligi, musiqaviyligi bilan ajralib turadi. U aruzning hazaj, rajaz, ramal, hafif, muzore va munsare bahrlaridagi xilma-xil vaznlarda she'rlar

---

1. O'zbek adabiyoti. 10-sinf uchun darslik, 2-nashri. –T., 2000, 248-bet.

yoʻzgan. Shoir hamma oʻrinlarda sheʻr mazmunining talabiga koʻra vazn tanlaydi. Ularni qusursiz ishlatishga muvaffaq boʻladi. Mashrabshunoslikda taʻkidlanishicha, u ayniqsa hazaji musammani solim va hazaji musammani ahrabi makrufi mahzuf vaznlariga koʻproq murojaat etgan. Bunga sabab shuki, birinchidan, hazaji musammani solim bahri Mashrabning xudojoʻylik iltijolarini, qismatga toʻla qarashlarini ifodalash uchun toʻgʻri kelardi. Uning koʻp soʻfiyona sheʻrlari shu vaznda yozilgan. Jumladan, quyidagi baytli gʻazal hazaji musammani solim bahrida bitilgan.

*Zihi rasvo / ligʻim olam / ga soldi shoʻ /ru shar paydo,  
Nahangi noʻh / falak daryo / si boʻldi lo / hazar tanho.*

Bu bayt vaznining ritmik sxemasi:

*Mafoilun, mafoilun, mafoilun, mafoilun*

V - - -      V - - -      V - - -      V - - - -

Mashrabga maʻqul tushgan ikkinchi vazn-hazaji musammani ahrabi makrufi mahzuf esa, uning sheʻriyatidagi yetakchi pafos- isyonkorlik ruhini ifodalashga mosdir. Shoir tasavvufiy nidolarni, koʻngul istaklarini ifodalashda shu bahrni mahorat bilan ishlatadi.

*Dunyoga / kelib loyi / gʻa bilmay bo / ta / qoldim,  
Darmon yoʻgʻidin necha ogʻiz soʻz qota qoldim.*

Uning ritmik sxemasi quyidagicha boʻladi:

- - V|V - - V|V - - |VV      V - -

Uning

*To kiydi qizil oʻzini zebo qilayin deb,  
Oʻt yoqti jahon mulkini gʻavgʻo qilayin deb,*

hamda:



*Dilbar yuz ini ko'rgali devona kelibdur,  
Yuz nozu qarashma bila jonona kelibdur*

matla'li g'azallari ham shu vaznda yozilgandir.

Mashrab she'rlari ichida ancha yengil va musiqiy bahr ramalning turli vaznlarida yozilgan she'rlar ham ancha. Chunki ramal bahri vaznlaridan ayniqsa «ramali musammani mahzuf» vazniga ko'p shoirlar murojaat etganlar va natijada o'ta xalqchil, musiqiy asarlar yaratishga muvaffaq bo'lganlar. O'zbek g'azaliyotining katta qismi shu bahrdagi asarlardir. Mashrab ham bu vaznning o'ynoqiligi, jozibadorligi, insonning rang-barang ichki kechinmalarini ifodalashga qulayligini e'tiborga olib, unga tez-tez murojaat etib turgan.

*Hech kima ma'lum emas, holi parishonim meni,  
Osmonni pora qildi tiyg'i afg'onim meni...*

g'azali «Ramali musammani mahzuf»

*foilotun, foilotun, foilotun, foilun*  
- V --      - V --      - V --      - V -

vaznida yozilgandir.

Bulardan tashqari, Mashrab g'azallari orasida, ko'p bo'lmasada, «rajazi musammani matviyi maxbun»

*Muftailun, mafoilun, muftailun, mafoilun*  
- V V --      - V - V -      - V V --      - V - V -

*Gulshani bog'i dahr aro bulbuli nag'magar o'zum,  
Bir bo'yi xushxirom uchun oshiqi darbadar o'zum*

hamda «mutaqoribi musammani aslam» vaznida yozilgan namunalar ham uchraydi. Uning xalq qo'shiqlariga yaqin, o'ta sho'x va musiqiy chiqqan

*Ko'rsat jamoling mastonalarg'a,  
Ishqingda kuygan devonalarg'a -*

matla'li g'azali shu vaznda yozilgan. Bu baytning vazn paradigmasi quyidagicha:

*Ko'r - sat / ja - mo ling / mas - to- na / - lar-g'a,*

- - | V - - | - - V| - -

*fa'lun | faulun | fa'lun | faulun*  
*Ish - qing da - kuy - gan                      de - vo                      na - lar - g'a*

*fa'lun                      faulun                      fa'lun                      faulun*

Demak, Mashrab she'rlari vazn, qofiya va radiflarning juda boy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish maktabi ham bo'la oladi. Shu bois, uning zamondoshlari, keyingi asrlarda yashab ijod etgan Huvaydo, Ravnaq, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Haziniy kabi iste'dodli shoirlar uning boy ijodi xazinasidan bahra oldilar, uning g'azallariga naziralar, tazmin-muxammaslar bitish, xalqchil uslubi va poetik mahoratidan foydalanish orqali shoir an'analarini ijodiy davom ettirdilar.

Otashqalb shoir va mutafakkir Boborahim Mulla Vali o'g'li Mashrabning

*Ulug'man deb, takabburpesha qilma mushtiparlarga,  
Sarafrozi topay desang, davomat diydani tar tut...  
Gar boshing arshga yetushsa sen o'zingdin ketmagil,  
Har daraxtning mevasi ko'p bo'lsa boshi xam bo'lur...  
Olimi xudbin bo'lma, olimi kasdon bo'l -*

kabi xalq maqollari, irsoli masallarini eslatuvchi dono baytu misralari komil inson tarbiyasiga xizmat qilmoqda.

### *Mavzuni mustahkamlash uchun savollar*

1. Mashrabshunoslik tarixiga munosabatingiz?
2. «Qissai Shohmashrab»dagi tarixiy haqiqat nimalarda ko‘rinadi?
3. Mashrab she‘riyatidagi tasavvufiy e‘tiqodning sabab va ildizlari nimalarda?
4. Qalandarlik tariqati va unda Mashrabning ishtiroki qanday bo‘lgan?
5. Mashrab mustazodlaridagi tasavvuf g‘oyalari xususidagi mustaqil fikrlaringizni ayting.
6. Mashrab lirikasining majoziy ishqqa aloqador tomonlari haqida qanday fikrdasiz?

### *Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriqlar*

1. «Qissai Shohmashrab» hamda «Mehribonim qaydasan?» (devon) adabiy manbalarini sinchiklab mutola qiling.
2. Mashrab g‘azal va muxammaslaridagi oshiq obrazining botiniy sirlarini aniqlang va fikrlaringizni daftaringizga bayon eting.
3. Mashrab va Ofoqxoja munosabatlari haqidagi yangi fikrlarni o‘zlashtiring.
4. «Mab dai nur» masnaviysining muallifligiga munosabatingizni bildiring.

### *Adabiyotlar*

1. Mashrab. Devon. –Т., 1980.
2. Mashrab. Mehribonим қайдасан? –Т., 1991.
3. Қиссаи Шохмашраб. –Т., 1992.
4. Mashrab. Mab dai nur. –Т., 1994.
5. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик, 2-китоб – Т., 1980.
6. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 3-жилд.–Т, 1978.
7. Зокиров М. Эрк ва маърифат куйчилари. –Т., 1984.
8. Абдуғафуров А. Эрк ва эзгулик куйчилари. –Т., 1979.
9. Жумахўжа Н. Mashrab ҳамма замонда исендир. «Гулистон» журнали, 1998, 5-сон.

## SO'FI OLLOYOR

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi diniy-tasavvufiy qarashlarni falsafiy badiiy-tashviqiy yo'sinda davom ettirib, bir qancha salmoqli masnaviy asarlar yaratgan ilohiyotchi mutafakkir shoirlardan biri So'fi Olloyordir. Uning o'ziga xos boy merosini chang g'uborlardan tozalab, xolis o'rganish va baholashga mustaqillik yillarida kirishildi. Hozirgacha bir qancha muhim ilmiy-tadqiqotlar yuz aga keldi. «Sabot ul-ojizin» asari ikki marta chop etildi.

Uning adabiy merosi va o'zbek adabiyotidagi an'analari bo'yicha iste'dodli adabiyotshunos olim va mudarris I. Suvonqulov 1997 yili doktorlik dissertasiyasi yoqladi, o'nlab ilmiy maqolalar, risolalar nashr ettirdi. Professor Sh. Sirojiddinovning 2001 yili nashr qilingan «So'fi Olloyor ilohiyoti» asari ham bu mutafakkir shaxsning «Sabot ul-ojizin» asaridagi zohiriy hamda botiniy mazmunni, bu asarning diniy-islomiy asarlar turkumida tutgan o'ziga xos o'mini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Keyingi yillari taniqli adabiyotshunos olimlardan akademik B.Valixo'jaev, I.Haqqulov, R.Sayfiddinov, Zohid Rashid, Nilufar Olloyorova, Nodira Baratovanning maqola va tadqiqotlarida mutafakkir shoir merosining turli jihatlari yoritildi.

**Hayoti va faoliyati.** So'fi Olloyor o'zbek mumtoz adabiyotida islomiy-irfoniy adabiyot an'alarini davom ettirib, o'ziga xos adabiy maktab yaratgan iste'dodli shoir, adib va ilohiyotchi mutafakkirdir. U 1644 yili Kattaqo'rg'on bekligiga qarashli Minglar qishlog'ida xitoy-qipchoq qabilasining o'tarchi urug'idan bo'lgan Olloquli (Temiryor) xonadonida dunyoga kelgan. Shayxlar qishlog'idagi ibtidoiy maktabdan so'ng 12 yoshlarida Buxoroga madrasa tahsilini olish uchun borgan. Uning otasi o'qimishli, taqvodor bo'lib, o'g'illarining, jumladan, Olloyorning islomiy ilm olishiga alohida e'tibor bergan. Olloqulining katta o'g'li Farhod O'taliq beklilik mavqeiga ko'tarilgan, Olloyor esa, o'z zamonasining islom dini rahnamolaridan biri sifatida shuhrat qozongan.

Yosh Olloyor tahsil yillaridan so'ng oz muddat Abdulazizxon saroyining boj yig'uvchilari qatorida davlat xizmatida bo'lgan. Biroq

u bu xizmatni ixtiyoriy tarzda tark etib, jo'ybor shayxlari ta'sirini va o'zining e'tiqodi qistavi bilan islom ta'limotining Buxorodagi sarvarlaridan Navro'z Eshonga murid tushib, o'z umrini naqshbandiya yo'liga astoydil bag'ishlagan.

So'fi Olloyorning forsiy tildagi «Maslak ul-muttaqin» asarida piri komil hazrati Navro'z haqidagi quyidagi nazmiy qaydlar uchraydi.

Mazmuni: Asr shohi (Buxoro xoni) Abdulazizxon (1645–1680) huzurida xizmatda edim. yegan nonim zahar-zaqqum edi. Nogahon Ollohning inoyati bilan ul zotning muhabbatiga bog'landim. Ul Ollohning habibi yo'lida bo'lgan murshidning muborak nomi Navro'z bo'lib, boshdan-oyog'i dardu so'zdir. Ul zotning vasfini bayon etmoq mushkuldir. Uning jazbasi shunchalik tortdiki, eng nozik tomirlaru har bir soch tolasigacha harakatga keldi. Darhol poyiga tiz cho'kdin va unga qo'l berdim.<sup>1</sup>

Buxoroi sharifning eng nufuzli shayxlari tahsili va ta'siriida bo'lgan Olloyor o'n ikki yil o'tib, o'zi ham shayxlik unvoniga ko'tariladi, dinu diyonat rahnamolaridan biriga aylanadi. So'fi Olloyor bu yillari birin-ketin diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi «Maslak-ul-muttaqin» (Taqvodorlar maslagi), «Sabot ul-ojizin» (Ojizlar saboti, najoti), «Murod ul-orifin» (Oriflar murodi), «Najot ut-tolibon» (Toliblar najoti) kabi asarlari bilan taniladi. Bu asarlarda biz So'fi Olloyorning islom tarixini, Qur'oni karimni, Hadisi shariflarni, fiqh ilmini chuqur bilgan dinshunos olim hamda ularni badiiy so'z san'ati orqali yuksak mahorat bilan tashviq etishga qodir shoir va adib darajasiga ko'tarilganligiga to'la qanoat hosil qilamiz. Shu asarlari orqali u shayx va shoir sifatida musulmon bandalariga salaflari – Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniydek hidoyat va najot yo'lini ko'rsatib berishga muvaffaq bo'ladi. Bu asarlarida So'fi Olloyor dunyoni islom nuri va tasavvuf timsollari ko'zguna ko'radi, u orqali badiiy bir dunyo kashf etgandek bo'ladi.

Ma'lumki, So'fi Olloyor va Boborahim Mashrab bir davrning mutafakkir so'z ustalaridir. Har ikkala shoir haqidagi qo'lyozma

---

<sup>1</sup> Шухрат Сирожиiddинов. Сўфи Оллоёр илоҳиёти – I – қисм.–Т., 2001, 9-бет.

manbalarda, shuningdek, ularning o'z asarlari tarkibida biri so'fiy, ikkinchisi qalandar sifatida mashhur bo'lgan bu avliyosifat siymolarning uchrashganliklari, muloqotda bo'lganliklariga doir lavhalar bor. Mashrab So'fi Olloyor bilan diydor ko'rishish orzusida uning tug'ilib o'sgan vatani Kattaqo'rg'on mavzeida, keyinchalik esa, So'fi Olloyorning G'uzordagi so'nggi yillar qo'nim joyi Vaxshivorda bo'lgan. «Devonai Mashrab»da bu ikki buYuk zotning uchrashuviga oid naql-lavhalar keltiriladi. Bu uchrashuvlar tasodifiy bo'lmagan, albatta. Har ikkala siymoning Haqqa intilishlari, visol orzulari bir xildir. Har ikkalasi ham davrning diniy rahnamolari, ustodlari darajasida ulkan e'tibor qozonishib, musulmon ummatlarini gunohlardan, noshar'iy harakatlardan saqlanishga da'vat etganlar. Biroq bu maqsadni Boborahim Mashrab asosan Haqning o'ziga erishish, uning yo'lida riyozat chekishda ko'radi. Shariat va dinu islomning boshqa aqida va arkonlarig'a loqayd qaragandek bo'ladi. So'fi Olloyor esa, Olloh taolo yaratgan jannatu do'zaxga ham, musulmonchilikning boshqa hamma farzu sunnatlariga ham e'tiqod qo'ygan va ularni kuchli targ'ib qilgan mutafakkirdir.

So'fi Olloyor o'z umrining oxirgi yillari Buxoro amiri tomonidan akasi Farhod Otaliqning taqib etilishidan xavfsirab G'uzor bekligiga ketib, Dehnav muzofotida yashay boshlaydi. U ancha uzoq umr ko'rib, 1724 yili Katta Vaxshivor qishlog'ida qazo qiladi. So'fi Olloyorning o'z jigari Farhod Otaliqqa yozgan bir maktub-muxammasida uning o'zga yurtlarga ketishining sabablariga doir ishoralar bor. Allomaning bir o'g'li va ikki qizi bo'lib, ularning qadamjolari Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanining Cho'nqaymish qishlog'idadir. So'fi Olloyor Buxorodan qaytgach, ancha yillar Kattaqo'rg'onda yashaganligi, masjid va xonaqoh qurdirganligi haqida ma'lumotlar bor. U hayot kechirgan mahallani So'fi guzari deb atashgan, hozir ham shunday. So'nggi yillari So'fi Olloyor tavallud topib, ancha yillar yashagan maskanlarda uning sharafiga ilmiy anjumanlar o'tkazildi, xotira, yodgorlik maydonlari ochildi, yodgorlik haykallari, marmar lavhalar o'rnatildi. So'fi Olloyorga zamondosh O'qimishli, orif shoirlardan biri shoir vafotiga bag'ishlab marsiya-tarix yozgan. Bu tarix-she'rdagi tarix moddasidan

abjad hisobiga ko'ra hijriy 1333, milodiy 1724–1725 yil chiqadi. Shu tarix-marsiyada So'fi Olloyorning islom ma'naviyatida tutgan o'rni yuksak baholanib, «Abu Hanifai vaqt ast» — hanafiy mazhabidagi musulmonlarning sardori Imom A'zam Jiloniy (Giloniy) bilan bir qatorga qo'yiladi. Ma'lumki, Imom A'zam sunniy (hanafiy) musulmonlarining rahnamosi bo'lib, «Savodi A'zam» ilohiyot kitobida Qur'oni karim va Hadisi sharif asosida shariat aqida hamda ahkomlarini tartibga solgan fikh olimlarining to'ng'ichidir.

«**Sabot ul-ojizin**» asari. So'fi Olloyorning masnaviy ilohiynoma asarlari ichida avval forsiy tilda yaratilgan, keyin o'zi tomonidan turkiy tilda ham nazm silkiga tushgan «Sabot ul-ojizin» masnaviysi alohida ahamiyatga egadir. Bu asarida mutafakkir shoir Qur'oni karim oyatlarini, Hadisi sharif hikmatlarini, musulmon ummati uchun farz va sunnat bo'lgan axloq normalarini masnaviy shaklida ifodalagan. Shu tariqa, sabotga muhtoj ojizlarga to'g'ri yo'lni-najot yo'lini ko'rsatib bergan. Asarda insofu adolat, tenglik ulug'lanadi, zulm va shafqatsizlik, xudbinlik, nopoklik, nafs-havoga berilish shariat nomidan qoralanadi, mehr va muruvvat, pokko'ngillilik, himmat va saxovat, xilvat va uzlat gashti, shirin tillilik, kamtarlik fazilatlarini madh etiladi. Ularning ta'rif va tavsiflari uchun diniy muqaddas kitoblardan qanchadan-qancha hikoyalar, rivoyatlar, naqlar, ma'vizalar keltiriladi. Pining shogirdlarga ma'vizalari, talab va nasihatlarini, pir va shogird munosabatlari asar kompozision qurilishini tashkil qiladi.

«Sabot ul-ojizin» asari shoir yashagan zamondan boshlaboq musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan, maktab va madrasalarda o'qitilgan. Matbaa paydo bo'lgach, Qozonda, Bokuda, Toshkentda, Xivada qayta-qayta bosilib chiqqan. «Sabot ul-ojizin»ni o'ziga xos ilohiynoma, din-shariat ahkomlaridan bahs etuvchi axloq va pand-nasihat kitobi deyish mumkin. U inson ma'naviy-ruhiy sabotini ulug'lovchi, inson aql va sabotga tayanganda har qanday oshiqlik kuch va matonatga aylanishini tasdiqlovchi asardir. Bu asarga sharhlar yozilgan. Shunday tafsir-sharhlardan biri Rusiyaning bulg'or qavmidan bo'lgan Tojuddin Yolchig'il qalamiga mansubdir.

1796-1797 yili yozilgan bu risola XIX asrdayoq Qozon va Istanbulda nashr qilingan. Unda «Sabot ul-ojizin»dagi har bir masnaviy baytning mazmuni, sodda sharhi berilgan. Risolada islom dunyosining ba'zi buyuk kishilari haqida lavhalar, hikoyalar, qissalar ham keltiriladi.

Shunday sharhlardan yana biri Ubaydulloh ibn Islomquli qalamiga mansub «Sharhi sufiya» kitobidir. Unda ham So'fi Olloyor merosiga oid ilohiy jihatlarining mag'zini, mohiyatini anglab olishga taalluqli jihatlar mavjud.

So'fi Olloyor «Sabot ul-ojizin»ni yaratishda ikki buyuk chashmadan oziq oldi. Birinchisi, islom ta'limoti va uning muqaddas kitobi Qur'ondagi ezgulik, hadislar, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom, boshqa din-tasavvuf namoyandalarining ibratli hayot yo'li. Ikkinchisi, adabiy an'analar bo'lib, islom ta'limoti va uning maqsad-mohiyatini targ'ib qilgan badiiy asarlar. Bu o'rinda, ayniqsa, Sulton ul-orifin shayx Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Nosiriddin Rabg'uziy, Navoiy, Bobur asarlarining ta'siri sezilarlidir.

Muallifning o'zi ham «Sabot ul-ojizin» islom dini asoslarini o'rgatuvchi eng muhim fan bo'lgan aqid masalalarining turkiydagi sharhi ekanligini ta'kidlaydi:

*Yozildi forsiy til birla maktub,  
Aqidotu furui qurbi mahbub.  
Anikim ko'rdilar turkiy yoronlar,  
Dedilar: «Gar duo qilsa eronlar.  
Bitilsa turkiy til birla aqida,  
Ko'ngillar bo'lsa ondin oramida».*

«Sabot ul-ojizin» aqida (e'tiqod, ixlos, ishonch) haqidagi kitob ekanligini muallif asarning boshqa o'rinlarida ham eslatib o'tadi va o'z muxlislarini, toliblarni unga sidqidildan rioya qilishga da'vat etadi:

*Aqida so'zlarini qildim isbot,  
Anga qo'ydim «Sabot ul-ojizn» ot.*



*O'zumdek xastalar bo'lg'aymu deb shod,  
Nasoyihdan ham andak ayladim yod.  
Nasihat tinglamas dil soxta mahjub,  
Ko'karmas toshga yomg'ur yog'sa ham ko'b.  
Tonimoq tangrini, tonmoq havodin,  
Keyin turmoq fioli noravodin.  
Aqida bilmagan shaytoni eldur.  
Uyalma ma'rifatni o'rganurdin,  
Tanur joying bo'lur qolsa tanurdin...*

Ko'rinadiki, ilohiyotchi shoir Olloh taolining ma'rifati, tavhidi, sifatлари, imon, farishtalar, qabr azobi, qiyomat kuni, payg'ambarimiz shafobati, umrning foniyligi, avliyolar karomati, piru komillar xosiyati, rizo va sabr, ta"ma, dunyo hiylalaridan qochish, kibr-havoli bo'lmaslik, muloyim so'zlilik, insoniylik, mehr-muruvvat, xudodan umidvorlik kabii komil inson qiyofasini belgilovchi aqida afzalliklarini avomfahm tilda shoirona bayon etadi.

So'fi Olloyorning «Sabot ul-ul ojizin» asaridagi diniy-islomiy g'arashlarni Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniy ijodi bilan qiyosan o'rganganda, ular ijodiga xos mushtarak jihatlar bilan farqli jihatlar ham ko'zga tashlanadi. So'fi Ollyor o'zbek adabiyotiga diniy-ilmii yo'nalishi olib kirgan muallifdir. Chunki uning kitoblarida ta'riflangan islom arkonlari va ahkomalari islom dinini o'rganuvchilar uchun muhim qo'llanma, darslik vazifasini o'tashi ko'zda tutilgan edi.

«Sabot ul-ojizin» ikki jihati bilan amaliy ahamiyat kasb etishi lozim edi, shunday ham bo'ldi. Birinchidan, u diniy ta'limotni targ'ib, tashviq qildi, xudojo'y kishilarning Ollohga bo'lgan e'tiqodini kuchaytirdi, dinu shariatning amaliy shartlarini o'rganishga ko'mak berdi. Ikkinchidan, u badiiy ijod mahsuli bo'lib, shoirming iste'dodi qirralarini ko'rsatdi. Buning uchun u musulmon ummatlariga ta'sir o'tkazishning ikkita juda maqbul yo'lini tanladi. Birinchisi, jonli, obrazli, sodda tilda o'z aqidalarini tushuntirish; ikkinchisi, Olloh va shariat yo'lidan chekingan, imoni zaif shaxslarni oxirat, qiyomat azoblari bilan qo'rqitish, shunday azoblar borligidan ojiz, imoni sust bandalarni ogohlantirish. Bu maqsadni amalga

oshirish uchun musulmon bandasi avval o'z gunohlaridan poklanishi, so'ng ma'rifat va axloq tarbiyasini olishi, komillikka intilishi kerak. Shoir yaxshi xulqli, diyonatli, imonli, sabr-qanoatli, ko'ngli-dili pok insongina Oллоh fayzidan bahramand bo'lajagini ta'kidlaydi:

*Ko'ngul Haq fayziga bo'sun desang chok,  
Ki avval martaba xulqingni qil pok.*

Demak, alloma o'z ilohiy dasturnomasini yozish va musulmonlarga taqdim etishda ikki maqsadni ko'zlagan, ikkita bir-biri bilan bog'liq muammoni o'rta qo'ygan. Shu bois asrning birinchi qismi da'vatdan iborat bo'lib, unda g'aflat uqusida bo'lgan avom xalqni ogohlantirish, tavba qilishga, Haq yo'lga, rasululoh, sunnatlariga qaytishga chaqirish yetakchi bo'lsa, ikkinchi qism ishq, e'tiqod yo'lga, tariqatga qadam qo'ygan musulmon bandasi uchun zarur bo'lgan axloqiy fazilatlar, yani tariqat odobiga bag'ishlanadi. Shu asosda u tanazzulga yuz tutgan ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, omma mafkurasini noshariy, yot odat va unsurlardan tozalashga kirishadi. Shu taxlit «Sabot ul – ojizin» jamiyat a'zolarida e'tiqodni mustahkamlash dasturi vazifasini bajardi. Asar maktab va madrasalarda darslik sifatida o'qitilib kelindi, har bir solih xonadonning Qur'oni karimdan keyingi doimiy saboq kitobiga aylandi.

Kitob bir qancha fasllarga bo'linadi. Avliyo hamda payg'ambarlar haqidagi hikoyat va rivoyatlar, kamtarlik, rostgo'ylik, halollik, adolat, saxovat, ma'rifat, musulmonchilik, e'tiqod, imonga bag'ishlangan alohida-alohida masnaviy bandlar, munojot va ruboiylar asar qurilmasini tashkil etadi.

*Jahannam uzra bir ko'pruk erur oh,  
O'shal ko'pruk Sirot o'tli guzargoh.  
Qilichdin tez, erur qildin ingichko,  
Pushaymonlar tushar o'shal kun ichko.  
Keley, banda o'zingni sol xudog'a,  
Qazog'a rozi bo'l, sabr et balog'a—*

kabi Yassaviyona o‘rinlar, pandu hikmatlar, oxiratda gunohu savoblarni o‘lchovchi toshu tarozular bayoni bilan birga, ma‘rifat, insoniylik fazilatlariga doir ko‘pdan-ko‘p lavhalar, tajnisli baytlar ham keltiriladi:

*Ochiqqo‘llik, kushoda yuz li bo‘lg‘il,  
Muruvvatlik, muloyim so‘zli bo‘lg‘il.  
Musulmon o‘g‘lig‘a yaxshi qiliq qil,  
Tilingni xush, chiroyingni iliq qil.  
G‘araz, ey, odami saqla o‘zingni,  
Gunoh mahram sori solma ko‘zingni.  
Agar rutbang erur a‘loyi ofoq,  
Yiqilgan xastalarni holina boq.  
Qoracha o‘g‘li xoja o‘g‘lidin kam,  
Muallim bo‘lsa saiddan o‘tar ham.  
Keley, tolib ko‘zing ibrat bila och,  
Muhabbatsiz kishidan qush kabi qoch.*

Shoir, kibr-havoga berilishni, manmanlikni keskin qoralab, riyokorlik, pastkashlik shulardan kelib chiqishini eslatadi. Komil bo‘lay desang, o‘zingni kamtar tut! Daraxtning mevasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik egilib turishidan ibrat ol, deydi u.

*Agarchandiki gavhar poradursan,  
Yaqin bil, bandai bechoradursan.  
Hamisha bandadandur zor qilmoq,  
Na haddur, boshini yuqori qilmoq.  
Tavozu“lik bo‘lib, tutgil o‘zing kam,  
Shajarkim bo‘lsa mevalik, bo‘lur xam.  
Terakkim, ul ko‘tardi yuqori bosh,  
Samarsiz bo‘ldi, ko‘rdingmu oni fosh!  
Kishikim, xoki rahdur, beriyodur,  
YAqin bilgilki, ko‘zga to‘tiyodur.*

Mutafakkirning xushmuomalalik, shirintillilik haqidagi

mana bu hikmatlarga to'la misralari ham qadrlidir:

*Yomon til goh sarg'aytirar yuz ingni,  
Tuban boshingni, termultirar ko'zingni...  
Musulmon o'g'lig'a yaxshi qiliq qil...  
Tilingni xush, chiroyingni iliq qil...  
Kishi san chiq so'z aytsa san chiq ondin,  
Yomondin qoch, yomondin qoch, yomondin...*

So'fi Olloyor e'tiqodicha, insonning ma'naviy jihatdan barkamolligi uning ruhiy olami bilan bog'liq. Shuning uchun odam yaxshi ishlar bilan shug'ullanishi, yaxshi, ibratli amallarni o'ziga kasb qilib olishi shart. Buning uchun esa, uning ruhiyati musaffo, ko'ngli pok bo'lishi zarur:

*Hama a'zo raiyatdur, ko'ngil – shoh,  
Amonlig' bo'lg'usi shoh adlidin roh.  
Agar sulton o'zi qilsa yomonlig',  
Qachon bo'lg'ay raiyatda omonlig'.*

Ma'lum bo'layotirki, bu o'rinda shoir kuchli qiyos, tashbehni qo'llagan. U inson vujudini harakatdagi jamiyatga o'xshatib, vujudning a'zolarini xalqqa-raiyatga, ko'ngulni esa, xalqni boshqaruvchi shohga-sultonga qiyoslamoqda.

Agar shoh adolatli bo'lsa, yani ko'ngli toza va to'g'ri bo'lsa, xaloyiqni to'g'ri yo'lga boshqaradi, davlat va jamiyat ravnaq topadi va agar shohning o'zi adolatsiz bo'lsa, davlat va jamiyat tanazzulga uchraydi. Demak, ezgu faoliyat ko'ngilni poklashni taqozo etadi;. Ko'ngilni poklash esa, uzluksiz Olloh yo'lida imonli bo'lishni, riyozatni talab qiladigan hayotiy jarayondir. Bunga misol yong'oq:

*Riyozat mevasidir misli yong'oq,  
Agarchi zohiri shax, botini yog'.  
Maishat zohiri narm, oxiri qahr,  
Yilonni toshi yumshoqdur ichi zahr...*

Shoir talqinicha, riyozatning mevasi bamisoli yong‘oqdir. Riyozatning tashqi ko‘rinishi mashaqqat, ammo ichki mohiyati rohat bo‘lganidek, yong‘oqning ham po‘chog‘i qattiq, ammo mag‘zi yog‘dek yumshoq va yoqimlidir. Aysh-ishrat esa ilonga o‘xshatiladi. Maishatning tashqi oqibati qahr-g‘azab, u ba‘zan fojea bilan yakunlanadi. Ilonning ham badani yumshoq, ichi esa to‘la zahar. Shuning uchun shoir riyozat tuprog‘iga har kun bosh qo‘yishga – ibodat qilishga chorlaydi:

*Riyozat xokiga har kecha ur bosh,  
Yurak qon bog‘lasa, la‘l otanur tosh.*

Zotan, muhabbat dardida riyozat chekkan yurak qon bog‘lab, la‘l toshidek qip-qizil tus oladi.

So‘fi Olloyorning masnaviy o‘gitlarining aksariyati sermag‘iz yong‘oqqa o‘xshaydi. Uning-cha, kerak joyda ko‘p so‘zlashdan saqlanish nutq odobidir:

*Kalidi ganji ma“nikim, «zabondur»,  
Anga bir nuqta ko‘b bo‘lsa, ziyondur.*

Badmuomalalilik, sanchib-sanchib gapirish esa, kishini yaxshilar nazaridan qoldiradi, el undan ranjyidi:

*Kishi sanchiq so‘z aytsa. San chiq ondin,  
Yomondin qoch, yomondin qoch, yomondin.*

(Fikrni kuchaytiruvchi ritorik takror, tajnis.)

So‘fi Olloyor sabog‘icha xushmuomalalik inson nomini ulug‘lovchi eng muhim fazilatlardandir.

«Sabot ul-ojizin»dagi axloq-odobga doir har bir faol ma‘vizada biror bayt, she‘riy lavha yo‘qki, unda shoir o‘z fikrlariga, pandu o‘gitlariga sayqal bermasin, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan, nozikliklaridan mahorat bilan foydalangan bo‘lmasin. So‘fi Olloyor she‘riy nutqning imkoniyat va ta‘sirini teran tushungan, unga xos

boyliklardan o‘z ijodida mohirlik bilan foydalana olgan iste’dod sohibidir. Shoir talqinicha, so‘z mulki ma’no xazinasining kalitidir. Undan o‘ta noziklik, e’tibor bilan foydalanish har bir komil inson uchun hayotiy zarurat hisoblanadi. Biz So‘fi Olloyor ijodida uning shu e’tiqodga to‘la amal qilganligini ko‘ramiz. Shoir o‘z misralariga hayot saboqlaridan kelib chiqadigan, odamlarga kuchli ta’sir ko‘rsata oladigan, ularni fikrlashga, o‘ylab ish tutishga undaydigan ma’nolarni, badiiylikni singdira oladi.

Shoir bu boradagi har bir pandini noyob hayotiy-badiiy tashbehlar orqali tushuntirishga intiladi:

*Kulub mehmon qoshig‘a chiqqan, ey gul,  
Shajar mevadin oldin ko‘rsatur gul.*

Mehmon kutar ekansan, avval unga peshvoz chiqib, tabassum hadya et. Zotan, tabiatdan o‘rnak oladigan bo‘lsak, daraxt ham meva berishdan avval gul ochadi. Mehmonni nozu ne‘matlar bilan siylashdan avval unga tabassum hadya qilish kerak.

U xushmuomalalikka doir yana shunday hikmatni keltiradi:

*Yamon til shumlig‘iki, jonga urg‘ay,  
Gahe jondin o‘tub imong‘a urg‘ay.  
Musulmon o‘g‘liga yaxshi qiliq qil,  
Tilingni xush, chiroyingni iliq qil.*

So‘fi Olloyorda bunday hikmatomuz shoh baytlar juda ko‘pdir. Ular sharqona insonparvarlik va qadriyatlarining go‘zal ifodalaridir.

Asarda, ayniqsa, tilimizda shaklan o‘xshash, lekin ko‘p ma’nolarni anglatuvchi tajnis – omonim so‘zlar juda ko‘p ishlatiladi.

U ko‘p ma’noli tajnis so‘zlardan nihoyatda ustalik bilan foydalangan ijodkordir.

Dilozorlik bayonida:

*Dema, harfiki bo‘lsa be‘mani,  
Agar til zaharlik bo‘lsa til ani.*

*Eshitmak naf“i yo‘q so‘z, ey, neku zot,  
Ani ham go‘sha olma go‘sha chiq, yot.*

*Bu tunda tut butun iymonimizni,  
Sabo qutqar bu tundin jonimizni.*

*Yugurma jifa ko‘p yig‘lamoqqa yil, oy,  
Bo‘lay deb boy bisoting bermagil boy.*

*Qo‘noqmiz bir kecha dunyoi hecha,  
Na ishlar kechadir bizdin bu kecha.*

Ta‘madin qochmoq bayonida:

*Qidirg‘on birla rizqing qadri toshmas,  
Ketar qadring qadardin hargiz oshmas.*

*Ta‘ma noniga lab ochguncha bo‘l och,  
Ta‘ma bo‘yi ko‘rinmay bo‘yidin qoch.*

Nafsi shum bayonida:

*Qo‘yar kajlikka doim nafsi bad yuz ,  
Qachon o‘t tuz yonar yolborsang o‘ttuz.*

*Agar nafsing sani yetmish boshingdin,  
Na bo‘lg‘ay foyda yetmish yoshingdin.*

*Agar nafsing murodin izlamaksan,  
Agar saksonga umring yetsa sakson.  
Agar kundin agarchi xavfi yo‘qsan,  
Agar to‘qsong‘a kirsang, ko‘ngli to‘qsan.*

*Burung‘a bodi kibr qo‘ymay burundin,  
Burundiq sol anga qo‘ymay burundin.*

*Gila botdim, gila qilmam o'zimdin,  
Ko'rarman barcha o'z nafsini ishidin.*

«**Maslak ul-muttaqin**» So'fi Olloyorning forsiy tildagi eng yirik masnaviy asari bo'lib, hajmi 12000 baytdan ortiqroqdir. Bu haqda shoirning o'zi «Sabot ul-ujizin»da ma'lumot yozadi:

*Bitibmen forsiy tilda bir kitobi,  
Tamom anda masoyilning javobi.*

*Hama fatvovu - taqvonning bayoni,  
O'n ikki mingdan ortiq bayti oni.*

Bu asar ham «Sabot ul-ujizin» asari kabi So'fi Olloyor ijodidagina emas, umuman, XVII asrdan so'nggi islom olamida o'ziga xos ma'naviyat dasturi vazifasini o'tab kelgan. Shoirning yuqoridagi so'zlaricha, asarda birinchi navbatda odamlarga imon tushunchasining diniy-falsafiy mohiyatini tushuntirish: ikkinchidan, hidoyat haqidagi kitoblarning barchasi arab tilida bo'lib, avom tushunadigan, uning hazm qilishiga qulay forsiy nusxasining yo'qligi e'tiborga olinib, ommabop asar yaratish maqsadi tug'ilgan. «Maslak ul-muttaqin» imon va aqida tashviqotiga bag'ishlanganligi tufayli «Sabot ul-ujizin» bilan g'oyaviy-fikriy mushtarak jihatlari ko'p. Biroq, «Sabot ul-ujizin» forsiy tilida bitilgan shu asarning tarjimai emas. Eslatib o'tilganidek, «Sabot ul-ujizin»ni muallif fors tilida avval bitib chiqqan, so'ng turkiy yoronlar ehtiyojini hisobga olib uning turkiy nusxasini ham yaratgan. «Maslak ul muttaqin»da «Sabot ul-ujizin»da qalamga olinmagan, zikr etilmagan shariat aqidalarini, imon-e'tiqod, tahorat, namoz, ro'za va boshqalarga keng o'rin ajratilgan. Asar kompozitsiyasida muallif, xuddi «Sabot ul-ujizin» asarida uchratganimizdek, an'anaviy hikoyat, munojot, masal va boshqa tasvir navlaridan unumli foydalangan. Bularni shoir masnaviyda bayon etilayotgan biror diniy aqida yoki shariat qoidalarini mustahkamlash uchun keltiradi. Demak, «Maslak ul-muttaqin» ham «Sabot ul-ujizin» kabi asosan bir maqsadni, komil insonni,



xudojo‘y, solih musulmonni tarbiyalashga mo‘ljallangan. Ikki asarning g‘oyaviy mushtarak jihatlari bilan birga, bir-birini takrorlamaydigan farqli tomonlari ham bor. Buning ustiga, biri forsiy tilda, ikkinchisi o‘zbek tilida yozilgan, «Maslak ul-muttaqin» aruzning hafif bahrida, «Sabot ul-ojizin» esa, hazaj bahrida tasnif etilgan.

Allomaning bu asari ham ko‘p tadqiqotlarning mavzui bo‘ldi. S.Rafi‘iddinov hamda Q. Tohirov uni o‘zbek tiliga tarjima qildilar.

«**Murod ul-orifin**» asari esa, muallifning to‘rtinchi forsiy masnaviysidir. Uning muqaddima sahifalarida faqiru haqir, tavakkul eranlarining xoki poyi Olloyor ibn Olloh quli do‘stlar maslahati bilan din muhoblari e‘tiqodga muvofiq tasavvuf g‘oyalari va to‘g‘ri yo‘l haqida kitob bitilishini iltimos qildilar, deyiladi. Kitob 15 fasldan iborat. Unda tasavvuf ilmlari, tavhid, dunyo va Ollohn tanish, fano va baqo, maqsadga va muhabbatga erishtiradigan vositalar, islom olamining o‘ttizga yaqin mashhur ulamolari va buyuk so‘fiylarining risolalariga suyangan holda tushuntirilgan. Bu asarda so‘fiylik yo‘liga kirgan orif kishilarning fazilatlarini, e‘tiqodlari, tirikchiliklari, tariqatning bosqichlari, aqidalarini va talablari xususida fikr yuritiladi. Jumladan, shoir «so‘fiy» istilohining ma‘nolariga to‘xtalib, «ularni shuning uchun ham so‘fiy» deb ataydilarki, ularning ko‘ngillaridagi sirlari sof va pokizadir. O‘z sirlarini o‘zgalardan yashiradilar, ular Haqdan o‘zgaga e‘timodi yo‘q. So‘fiy qanday ishni, xizmatni bajarmasin qalloblikdan yiroq, xizmatini tama‘ qilmaydi, balki o‘zini qusurli hisoblaydi, havolanmaydi; ularning o‘zlarini nafs va shahvatdan tiyadilar, deb yozadi.

**Lirikasi.** Adabiyotshunos olim Inoyatulla Suvonqulov 1994 yili So‘fi Olloyorning 80ga yaqin lirik she‘rlarini topdi. G‘azal, muxammas, ruboiy va tarixlardan iborat bu she‘rlar yaqin yillargacha ilm-ijod ahliga ma‘lum emas edi. Bu she‘rlar XIX asrning II yarmi – XX asrning boshlarida G‘allaorolda yashab, ijod etgan shoir Ubaydulla Alamkashda saqlanib qolgan katta bir bayoz tarkibida bo‘lgan. Alamkashning o‘zi So‘fi Olloyorning 18 sufiyona g‘azaliga muxammaslar ham bog‘lagan ekan. «Bayozi Alamkash» deb nomlanishidan bayozni shoirning o‘zi tuzgan. Bu topildi So‘fi Olloyor faqat diniy-didaktik asarlar muallifigina emas, shuning bilan

birga, keng ommaning diqqatini o'ziga torta olgan iste'dodli lirik shoir ham bo'lganligidan dalolat beradi:

*So'zi a'lo, feli a'lo, koni tamkinu hayo,  
Husni Yusuf, yoshi Yahyo, Lutfi Isavorsan...  
Soch suman, gulgun badan, ham lab badaxshon, tish yaman,  
Shisha ko'ngul, guljabin har maslahatdin borsan.  
Mehri andak ham vafosig'a jafosu nechalik,  
Feli tojik, zoti o'zbeklikda turovorsan,  
Egri obro', xol hindu, zulf har su mushkbo',  
Ko'zi jodu, kifrigi otqu, baloraftorsan.  
Aytdim, ey moh, so'zla zarra, bandani holi taboh,  
G'amza birla, shukrulloh, dedi: «Ollohyorsan».*

Ko'rinib turibdiki, g'azal ichki musajja“ qofiyali. Shoirning lirik she'rlarida ham asosan ramziy, majoziy ishq kuylanadi. Ularda tasavvufiy she'rlarda ko'proq qo'llanuvchi, tagzamini ko'chma ma'noli tashbehtar, badiiy-tasviriy vositalar qo'llaniladi:

*Ko'rk uchun tushti ziloli la“la mushkin xatti xol,  
Tutti suhbat Xizr ila Kavsar qirg'og'inda hilol.  
Nargisi masting xumori bodadin gulgunmiduro'  
Yo budurkim - lolazor ichra tushan vahshi g'izol.*

Yorning zilol labi ustiga husn bo'lib tushgan mushkin xatti xoli Kavsar arig'i bo'yida suhbat tutayotgan Xizr hamda yangi oyni eslatmoqda. Bu baytning o'zida badiiy san'atlar sintezi mavjud: talmih, yashirin o'xshatish (tashbehi pushida), musalsal tashbeh qo'llanilgan. Ikkinchi baytda yor yuz i lolazorga qiyoslanadi: ko'zlar esa, boda xumoridan gulgun ekani aytilib, bu qiyos yanada bo'rttirilib, bu ko'zlar yuz , yani lolazor ichra nogahon tushib qolgan ohu-kiyik emasmikan, degan savol qo'yilgan. Bu o'rinda bilib-bilmaslikka olish, so'roq san'atlariga xos go'zalliklar ham yo'q emas.

So'fi Olloyorning hikmat suvlari bilan yo'g'rilgan didaktik

she'rlari ham o'quvchiga ma'rifat bag'ishlay oladi. Uning o'z farzandiga nasihat tarzida yozgan she'ri, g'azallari, ruboiylari shunday. Mana bu g'azalda ham ohori to'kilmagan badiiy-tasviriy vositalar, qiyos va o'xshatishlar ishlatilgan, har bir bayti hikmat darajasida:

*Jon chekib, g'ussa yutub, to jigaring qon o'lmas,  
Maqsading hosil o'lub, mushkuling oson o'lmas.  
Boshini dosha urub dona elakdin o'tmay,  
Musht yemay, o't ichina solmasalar non o'lmas.  
Ey yigit, maslahating bilgali bir par kerak,  
Bekamon o'q necha tuzluk bila parron o'lmas...*

Shoirning:

*Ey xush ul umre, ki o'tsa bir necha shaydo bilan,  
Tanlari xalq ichra bo'lsa, dillari Oллоh bilan -*

bayti ham shoiming ikkala dunyoga – ham foniyl, ham boqiy dunyoga umid bilan qaraganligini ko'rsatadi. Bu baytlar So'fi Olloyorning Xoja Bahovuddin Naqshband ta'limotida ilgari surilgan «Dil ba yoru dast ba kor» g'oyalari o'xshashdir.

Shoirning so'fiyona-didaktik she'rlari ijtimoiy fikr-g'oyalardan ham xoli emas, albatta.

*Saltanat birla bo'lib, nafsu havoni ushlabon,  
Har g'aribu xastag'a bedodlik qilmoq arzimas...  
Do'stlar, bu bevafo dunyoda molu mulk uchun,  
Bir-biringni og'ritib, noshod qilmoq arzimas.  
Mansabu dunyo uchun ahli hukumat oldida,  
Qo'l qovushtirib turubon, dod qilmoq, arzimas.  
Turku tojik o'zbeku sahroyilarni mol uchun,  
Kechayu kunduz urub, noshod qilmoq arzimas.*

Mazkur baytlarda uch xonlik bedodliklari hukm surgan

davrlardagi og'ir, kulfatli ahvolga ishora qilinayotganligi ochiq ko'rinadi.

So'fi Olloyorning keyingi yillari Ubaydulla Alamkash bayozi va boshqa manbalarda saqlanib kelgan g'azallari (o'zbek va fors-tojik tillarida), muxammaslari, she'riy maktublari, «Sabot ul-ojizin»da keltirilgan hikmatli baytlari (fardlari), ruboiylari, munojotlari professor I.Suvonqulov tayyorlagan «Ko'zing ibrat bila och» nomida maxsus so'zboshi bilan kitob holida bosildi (Samarqand, Chet tillari davlat instituti, 2002).

Ilohiyot olimi, mutafakkir shoir So'fi Olloyorning ulkan merosi hozirgi kunda ham katta ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Ilim-ijod ahlari uning ikki tildagi diniy-falsafiy asarlarini tadqiq qilish va keng kitobxonlar ommasiga yetkazishdek sharafli ishni davom ettirmoqdalar. Zero, shunday bo'lishi tabiiy edi. Prezidentimiz I. A. Karimov «Samarqandning moviy osmoni ostida kamol topgan Mirzo Ulug'bek, Abu Lays Samarqandiy, Abdurazzoq Samarqandiy, So'fi Olloyor, Tohirxo'ja Samarqandiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy singari ilm va ma'rifat namoyandalari yurtimiz shuhratini butun dunyoga tarannum etganlar», deganida ulkan haqiqat bor. So'fi Olloyor ham XVII asrning II yarmi – XVIII asrning dastlabki choragida xalqqa ma'rifat tarqatib, jamiyat va uning fuqarolarining imonini, e'tiqodini mustahkamlashga katta hissa qo'shib dunyoviy shuhrat qozongan edi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Shoirning XVII asr adabiy jarayonining o'ziga xos yirik vakili ekanligini isbotlovchi adabiy hamda ilmiy dalillarni aniqlang.
2. So'fi Olloyorning shahsi va asarlarini baholash qanday kechdi?
3. Lirik she'rlari haqidagi adabiy manba muallifi va uning So'fi Olloyorga munosabati qanday bo'lgan?
4. «Sabot ul-ojizin»ning qurilishi va janriy xususiyatlari.
5. Aqida falsafasi va uning badiiy adabiyotdagi targ'ibi haqida nimalar bilasiz?

### ***Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar***

1. «Sabot ul—ojizin»ni mutoala qilib, zarur joylarini daftaringizga qayd eting.
2. So'fi Olloyor masnaviylarida aqoid ilmi va falsafasining qay jihatlarini ifodalash, targ'ib etish ko'zda tutilgan.
3. Lirik she'rlarida diniy-tasavvufiy fikrlar ifodasi. Ularda naqshbandiya oqimi falsafasi ta'siri aniqlang.
4. «Sabot ul—ojizin»ning tili va badiiy xususiyatlarini ko'rsatishga doir adabiy dalillar hamda fikrlaringizni yozma tarzda bayon eting.

### ***Adabiyotlar***

1. Сўфи Оллоёр. Сабот ул—ожизин. —Т., 1990.
2. Сўфи Оллоёр. Сабот ул—ожизин. —Т., 1991.
3. Сувонкулов И. Сўфи Оллоёр (ҳаёти ва ижоди масалалари). —Т., Фан, 1995.
4. Рафъиддинов С. Сўфи Оллоёрнинг «Маслак ул—муттақин» асари ҳақида. «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1993, 2-сон.
5. Валихўжаев Б. Миёнкол адабий муҳитида Сўфи Оллоёрнинг мавқеи. «Мулоқот» журнали, 1996, 3-сон.
6. Сирожиддинов Шухрат. Сўфи Оллоёр илоҳиёти. 1-қисм. —Т., 2001.
7. Сўфи Оллоёр. Кўзинг ибрат била оч. —Самарқанд, 2002.
8. Ҳаққул И. Сўфи Оллоёр - мутасаввuf адиб. Ирфон ва идрок. —Т., 1998.

## XVIII ASR O‘ZBEK ADABIYOTI

XVIII asr o‘zbek adabiyoti boshqa davr va asrlardagi o‘zbek adabiyotiga nisbatan ancha chala o‘rganilgan. Ochilgan manba va qo‘lyozmalarning ham ko‘pchiligi hali nashr qilinganicha yo‘q. Ko‘p shoir va adiblarning asarlaridan namunalarni biz hozircha «O‘zbek adabiyoti» majmua-xrestomatiyasidan o‘qib olish bilan kifoyalaniib turibmiz. O‘rta Osiyo zaminida yuz aga kelgan tazkira va tarixiy-badiiy xronikalarda ham bu asrda o‘tgan shoirlar haqida juda kam ma’lumot uchraydi. Shunga qaramay, ustod V. Abdullaevning shu asrdagi adabiy hayot bo‘yicha ko‘rsatgan sa’y-harakatlari tufayli Nishotiy, Ravnaq, Mavlono Kiromiy, Roqim, Yahyo, Umar Boqiy, Nurmuhammad Andalib, Muhammad Tohir Xorazmiy kabi shoir va adiblarning nomlari, ular haqidagi ba’zi ilmiy ishlar paydo bo‘ldi.

**Mavlono Kiromiy.** Said Muzaffar Xo‘ja Kiromiy XVIII asrning II yarmida Xorazmda ijod qilgan iste’dodli shoirlardan biridir. Xorazm shoirlaridan Muhammadniyoz Nishotiy o‘zining «Husnu Dil» dostonida bu asarni yozishda ustoz Kiromiydan ilhomlanganligini eslatib o‘tadi. Doston 1778 yili yozib tugallangan. Bundan tashqari, mashhur shoir, tarixchi, tarjimon Shermuhammad Munis o‘zining «Munis ul-ushshoq» devonidagi «manga» radifli hasbi hol g‘azalida unga pirlilik-ustozlik hukmida bo‘lgan o‘ndan ortiq buyuk shoirlar qatorida Kiromiyning ham hurmat bilan tilga oladi:

*Tong emas, Munis agar bo‘lsam kiromiy qadrkim,  
Ustodi zohiri botin Kiromiydur manga.*

Bu dalil va e‘tiroflar Kiromiyning diniy-islomiy ilmlarda, tasavvuf she‘riyatida ancha yuksak mavqeni zabt etgan mo‘‘tabar shaxslardan biri bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu holni Kiromiyning ko‘proq Navoiyning ijodiga e‘tiqod bog‘lab, uning ishqiy-tasavvufiy g‘azallariga tazmin-muxammaslar bog‘laganligi tasdiqlaydi. Kiromiyning Xorazmda Navoiy an‘analariga e‘tibor va qiziqishning kuchayishiga sabab bo‘lgan ijodkorlardan biri bo‘lgan deyish mumkin. Ayniqsa, uning ulug‘ shoirning mashhur g‘azallariga bog‘langan go‘zal taxmisleri Xorazm

shoirlarining Navoiy an'analariga ko'proq mehr qo'yishga chorlagan. Afsuski, hozirgacha Kiromiy yaratgan hamma asarlarga ega emasmiz. Ular hali topilganicha yo'q. Biroq, uning hozircha ma'lum bo'lib, matnlari «O'zbek adabiyoti» majmuasining III tomiga kiritilgan Alisher Navoiy g'azallari zaminida maydonga kelgan uchala tazmin (taxmis) muxammasi shoir iste'dodining balandligini tasdiqlaydi. Biz quyida Kiromiy muxammasga aylantirgan Navoiy g'azallarining matla“ baytlarini keltirish bilan kifoyalanamiz:

1. *Sahar xovar shahi charx uzrakim xayli hasham chekti,  
Shibiy xat bila ko'hsor uza oltun alam chekti.*
2. *Go'yo labu xatingni tark etganda naqqoshi azal,  
Shingarfu zangor o'rnig'a la“lu zumurrad qildi hal.*
3. *O'lukni tirgizur la“ling masihoso kalom aylab,  
Takallum choshnisin sharbati yuz yil izom aylab.*

**Tohir Eshon Xorazmiy.** Asosan Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor an'analariga rag'bat va mayl ko'rsatgan ijodkorlar ham bor edi. Ular – xorazmlik Hasanquli Ahsaniy va Muhammad Tohir Eshondir. Ahsaniyning diniy mavzudagi ko'p she'rlari ma'lum. Tohir Eshon Xorazmiy esa, Qur'on, hadis va boshqa islomiy kitoblarda keltirilgan aziz-avliyolar, mashoyixlar haqidagi afsona, rivoyat hamda naqlar asosida «Silsilat ul-avliyo» kitobini yozgan. Bu asar 1747 yili Buxoroda forsiyda yozilib, so'ngra Xorazmda o'zbek tiliga tarjima qilingan. Unda Xorazm, Samarqand, Buxoro, Turkiston, Xuroson va boshqa joylarda yashab, o'z karomatleri, diniy e'tiqodleri bilan shuhrat taratgan aziz-avliyolar, shayxlar, so'fiylar to'g'risida zikr qilindi. Shuning uchun ham asar tazkiralarga xos xususiyatlarga ega bo'lganligidan «Silsilat ul-avliyo», yana bir nomi «Silsilai xojagoni naqshbandiya» nomleri bilan atalgan. Bu asarda Xoja Ahmad Yassaviydan XVIII asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrda O'rta Osiyo islom dunyosida nom chiqargan, ayrimlarining shaxsi va karomatleri haqida ungacha

yaratilgan diniy manbalarda fikr yuritilgan shaxslar xususida ham soʻz boradi. Shu narsa maʼlum boʻladiki, Tohir Eshon Xorazmiy Xorazmdagi diniy-maʼrifiy adabiyotning vakillaridan biri sifatida bu asarida aziz-avliyolar, karomatpesha shaxslar haqidagi oʻz nazmiy tavsiflari, qasidalarini keltiradi. Masalan, XVI asrda Yassaviyona ruhda sheʼrlar, hikmatlar yozgan Qul Ubaydiy madhiga bagʻishlangan katta hajmdagi qasida muallifning oʻzi tomonidan yozilgan. Bu kitobda keyingi asrlarda avliyo va eshon sifatida eʼtirof etilgan bir qancha tarixiy shaxslar, shu jumladan, Ahsaniy va boshqalar toʻgʻrisida ham maʼlumotlar uchraydi. Bunday asarlarni ham endilikda tanqidiy oʻrganib, ulardan maʼnaviy hayotimizda foydalanishimiz kerak.

**Akmal Xoʻqandiy.** XVIII asrning 60—yillarida buxorolik Vozeh yozgan «Tuhfat ul-ahbob» tazkirasida Akmal haqidagi maʼlumotlar bilan birga, shoir oʻzbek tilida yozgan sheʼrlarini bir devonga, fors-tojik tilida yozgan sheʼrlarini bir devonga muntazam qilganligi aytiladi. Bizgacha yetib kelgan sheʼrlari ichida 28 beshlikdan iborat, har bir beshlikning biri oʻzbek tilida, biri fors-tojik tilida yozilgan, oxirgi umumiy qofiyadosh misra esa, fors-tojik tilida tugallangan mulammaʼ-muxammasi diqqatga sazovordir:

Uning uch bandi:

*Sarvinozing gulshani husn ichra to qildi xirom,  
Tarzi raftoring koʻrib sarvisixi boʻldi gʻulom.  
Koʻzlaringni shevasi qildi jahonni qatli om,  
Lashkari zulmu sitamga boʻldi tan mulki gʻulom.*

*Dil xarob obod shud, ammo turo kay yovarast.*

*Shoʻlai havvolasan, yo shoʻx otashporasan,  
Jonima oʻtlar yoqib, koʻnglimni oʻrtab yorasan.  
Gah jafu tigʻin olib qoʻlga, Yuragim yorasan,  
Goh-gohi rasmi reshi dil bila bemorasan,*

*Harchi sozi bar dili be kiyna taslim ovorast.  
Marʼyami laʼlat masehi boʻsa harjo kard fosh,*



*Tokay, ey gul, xori hazzirat siynaam sozad xarosh.  
Sachdan shukri turo gardand mushtoqon talosh,  
Rahm kun bar Akmal oxir butiyi kofir maosh.  
Umrho shud dar g'amat gubxannishini axgarast.*

Shu bois, Fazliy rahbarligida tuzilgan «Majmuat ush—shuaro» tazkirasida u o'z davrining zabardast shoirlaridan biri deb ta'riflanadi. Masnaviy shaklidagi mazkur misralarning tarjimasi quyidagidir:

*Akmal ilmu fanda komildir,  
So'z qamishzoridagi bir arslondir.  
Hikmatli so'zlar aytish maydonida  
Haydardek na'ra tortdi...*

Akmal ayniqsa tarix she'rlar yozishga juda mohir bo'lgan. Jumladan, u Umarxonning tug'ilishi, uning otasi Norbo'taning vafoti (1798), valiahd Olimxonning taxtga kelishi va boshqa o'sha davrda sodir bo'lib turgan voqea-hodisalarning sanasini ko'rsatuvchi tarix-qitalar yozgan. Bu faktlar Akmalning o'z zamonasining obro'li mudarrisi, diniy bilimlar olimi hamda zullisonayn shoiri sifatida xalq, orasida, Qo'qon xonlari saroyida ham muhim mavqe tutganligidan dalolat beradi. Shermuhammad Akmalning farzandi Mahmud maxdum Maxmur uning yo'lidan borib, XIX asrning I yarmi Qo'qon adabiy muhitida hajviyotda alohida shuhrat qozonganligi ma'lum.

***Umar Boqiy va uning qissalari.*** Umar Boqiy XVIII asrning ikkinchi yarmi — XIX asrning boshlarida Kiromiy, Roqim, Nishotiy, Andalib, Munis kabi shoirlarga zamondosh sifatida Xorazmda yashab, ijod etgan adiblardan. Uning nasriy asarlaridan birida Xorazm xonlaridan Muhammad Amin Inoq (1791) va Avazbiy Inoq (1792—1804) zikr etiladi. Bu ham Umar Boqiyning ikki asr oralig'ida hayot bo'lganligidan dalolat beradi. U Xorazm adabiy muhitidagi buyuk Navoiy asarlariga bo'lgan katta qiziqishni amaliy jihatdan isbot yetib, «Xamsa»dagi ikki dostonni ommabop usulda nasrlashtirgan. Uning ijodiy faoliyati, ayniqsa, «Farhod va Shirin» qissasi ayrim tadqiqotchilarimiz tomonidan yoritib berilgan. M.Afzalov,

V.Abdullayev, N.Mallayev, S.Erkinov asarlarida bu san'atkor faoliyati va uning asarlarining g'oyaviy-badiiy qimmatini haqida muhim qaydlar bor. Bu o'rinda N.Mallayevning «Farhod va Shirin»ning Umar Boqiy tomonidan ishlangan xalq kitobi varianti» mavzuidagi maqolasi alohida qimmatga ega ekanligini uqtirib o'tish lozim. Umar Boqiy Navoiy «Xamsa»sidagi «Sab'ai sayyor» va «Saddi Iskandariy» dostonlarini nasriy qissalarga aylantirib, ularga «Nasri Xamsai benazir» deb nom bergan. «Sab'ai sayyor» asosida yaratilgan asar esa, «Qissai haft manzari Bahrom» deb ataladi.

«Qissai Farhod va Shirin»da Umar Boqiy Navoiy dostonidagi eng asosiy voqea va epizodlarni saqlab qolib, Farhod va Shirinning sarguzashtlari bilan kitobxonlarni batafsilroq tanishtirishni maqsad qilib oladi. Bunda u dostonning syujeti va kompozitsiyasi asoslaridan yiroqlashib ketmay, qahramonlar xarakterining asosiy mohiyatini ham saqlab qolishga intiladi va bunga erishadi. Xususan, Farhod o'z sarguzashti, maqsad va xislatlari bilan barkamol bir obraz sifatida gavdalanadi. Qissa muallifi ikkinchi vazifani – dostonni xalq qissalari – «xalq kitobi»ga yaqinlashtirib, uni ommabop uslubda bayon etish vazifasini ham yaxshi o'tay olgan. Qissa xalq ertagi, xalq dostoni kabi ravon o'qiladi, kitobxonni maftun etadi» (N.Mallayev). Haqiqatan ham, shunday. Muallif voqeani Farhodning tug'ilishidan boshlab, Navoiy dostoni xotimasidagi voqea bilan tugatadi. So'zni «Ammo roviyoni axbor va noqiloni osori qissai dostoni kuhan va xushachinoni xirmanini suxan andoq aytibdurlarki», «Ahli tahqiqat andog'bayon qilibdurlarki, kunlardan bir kun...» qabilidagi xalq kitoblariga xos an'anaviy jumlar bilan boshlaydi; «ersa», «alqissa» kabi so'zlarni ishlatish bilan voqealarni bir-biriga bog'laydi, o'zbek nasriga xos saj' usulidan, xalq jonli tiliga xos ta'bir, ibora va obrazli ifodalardan foydalanadi. Undagi she'riy bayt va parchalar esa, «Farhod bu baytni o'qidi», «Qizlar bu baytni o'qib, Farhod bilan Shopurga tutar edilar», «O'n qizning otlari bu turur» kabi iboralardan, izohlardan keyin keltirilib, qahramonlarning ruhiy holati va ularning bir-biriga munosabatini ochishga xizmat etadi:

«...Shirin bu so'zni eshitib, bisyor shodmon bo'lib qabul qildi. U zamon mehmondorlik asbobiga buyurdi. Darhol ot birla qo'y so'yub

Farhodga kishi yubordi. Oʻrdani oyinabandliq qildilar. Borgʻon kishilar Farhodni topib, Mehinbonu salom va payomlarini etkurdilar. Farhod shodu xurram boʻlib, Shopur birla ravon boʻldi. Bularni eʻzoz va ikrom birla ravoqqa olib chiqdilar. Mehinbonu istiqbolga chiqib, ichkari olib kirdi. Oʻzi taxtda oʻltirib, Farhodga kursi qoʻydirub berdi. Shopur ham yonida oʻlturdi. Hofizlar oldida yana oʻn qiz qator oʻlturdilar.

*Mugʻanniylar aningdek lahi pardoz,  
Ki jonlar pardadin raqs aylab ogʻoz.*

*Ki majlis ichra hozir oʻn dilorom,  
Bari ham sarvqomat, ham gulandom.  
Mehinbonu kamol izhor aylab,  
Daqoyiqdan savol izhor aylab.*

Ul qizlar piyolani gardish qildular va ul oʻn qizning otlari bul turur:

*Diloromu Diloroyu Diloso,  
Gulandomu Sumanboʻyu Sumanso.  
Parichehru, Parizodu Parivash,  
Pari paykar, zihi oʻn ismi dilkash.*

Va har biri ilmi donishda benazir va husnu jamolda barkamol erdi. Bu qizlar bu baytni oʻqub, Farhod birla Shopurga tutar erdilar”<sup>1</sup>.

Umar Boqiy baytlar, lirik parchalar tanlashda oʻz sheʻrlaridan tashqari, Navoiy poemasidagi misralarga ham murojaat qiladi. Navoiyning koʻp baytlarini hamda Farhod va Xisrav dialogini aynan keltiradi. Undagi jami 152 misra sheʻrdan 132 misrasi Navoiy asaridan olingandir.

«Farhod va Shirin»ning XIX asr shoiri Mahzun qalamida qissaga aylantirilgan variantida ham shunday xususiyatlarni koʻrish mumkin. Demak, bu xil asarlar ilgari yaratilgan sheʻriy asarlar syujetining soddalashtirilgan, ixchamlashtirilgan nasriy tavsifi, bayoni hisoblanadi. Ularda ham, romanik dostonlar va xalq kitoblaridagi kabi, nasr bilan nazm aralash keladi.

---

<sup>1</sup> «Ўзбек адабиёти». III —том. —Тошкент, 1959, 418-бет.

## PAHLAVONQULI RAVNAQ (tavalludi 1725 yil)

Ravnaq XVIII asr Xorazmdagi o'zbek adabiyotining iste'dodli namoyandalaridan biri. Shoir she'rlaridan namunalar Xorazmda tuzilgan «Bayozi mutaffariqa», «Bayozi muxammasot» kabi majmualarga kiritilgan. Shermuhammad Munis o'zining «Firdavs ul-iqbol» tarixiy-badiiy xronikasida Ravnaqni o'z davrining mavlonolaridan biri sifatida ta'riflab, uning Xorazm hukmdori Muhammad Amin Inoq qizi vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasidan parchalar keltiradi. Bizning davrimizga kelib esa, uning 258 g'azal, 22 muxammas, 5 qasida va bir mustazodni o'z ichiga olgan, umumiy hajmi 5000 misradan ko'proq she'riy devoni topilib, akademik V.Abdullayev va O.Rasulova tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. Shu devondagi she'rlardan namunalar «O'zbek adabiyoti» 5 tomlik majmuasining 5-jild, 1-kitobida (1966 yil, 163-200 betlar) chop etildi.

Mavlono Ravnaq o'z ijodida Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab yaratuvchiligidan bahra oldi, o'z davri voqea-hodisalari aks-sadosi bo'la oladigan asarlar yaratdi. Uning devonidagi 22 muxammasning 14 tasi Alisher Navoiy g'azallariga yozilgan tazmin muxammaslardir. Bu muxammaslar ichida Navoiyning

*O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur,  
Ne ajab chun sarvi nozim o'n sakkiz yoshindadur...*

*Gar jafu qil, gar vafokim, dilsitonim sen mening,  
Gar meni o'ttur, agar tirguzki, jonim sen mening –*

baytli go'zal g'azallari bor.

Ravnaq o'zining g'azallarida ham Navoiy izidan borib, buyuk shoir bayt va misralariga hamohang, poetik jihatdan uyg'un tushuvchi bayt-misralar yaratishga muvaffaq bo'ladi. Navoiyning bir g'azali tarkibida

*Xureki mening jonima ofat etilibdur,  
Tubo kibi qad birla qiyomat etilibdur*

bayti bor. Ravnaq shu baytdan ilhomlanib, ta'sirlanib:

*Yorab, ne ajab ko'rguli dilbar etilibsan,  
Zebo qad birla sarvu sanubar etilibsan*

kabi chiroyli, yoqimli bayt yarata olgan. Uning Fuzuliy, Mashrab she'rlari ta'sirida maydonga kelgan she'rlarida ham an'ana zaminida tug'ilgan, shuning bilan birga, Ravnaqning o'ziga xos iste'dod egasi, original shoir ekanligini ham tasdiqlovchi jihatlar bor. Uning shunday she'rlarida xilma-xil ma'naviy-lafziy san'atlar, tashbehlar, obrazli-ideomatik birikmalar, maqol va hikmatli so'zlar qo'llaniladi.

Misollar:

*Sarvinozimki erur mahliqolar sarasi,  
Dudi ohimdek erur boshda qora qarqarasi...*

*Dun subhidam chamanga ul guluzor keldi,  
Qalpoqi zar boshida gavharnigor keldi...*

Ravnaq ijtimoiy mazmuni teran, davr qabohatlariga nisbatan norozilikni ifodalovchi she'rlar ham yaratdi.

U «Charxi nosoz bilan mumkin emas sozishimiz», «Bo'lmadi xotirimiz qayg'udin ozod hanuz» kabi misralarni o'z ichiga oluvchi she'rlarida o'sha davrda Xorazmning g'amxonaga aylanib qolganligini ochib tashlaydi va o'zi shu g'amxonadagi chorasiz dardmand kishilardan biri ekanligini aytadi:

*Ravnaqo, g'amxonai hijronda qoldim oqibat,  
Qayda bir hamdardkim qilsam g'amimni oshkor—*

deb nola qildi.

U 52 baytdan iborat bir qasidasida «Charxi sitamkor»dagi tengsizlik va bedodlikka qarshi isyon ko'taradi:

*Buncha javring degil ey charxi sitamkor nedur?  
Har ne etmak bu qadar zulm padidor nedur?*

*Yuz tuman zaxm yetib xanjari bedodingdan,  
Ahli donish jigarin qilmoqing asgor, nedur?*

*Kimki nodondir yetib oni jahon ichra aziz,  
Kimki donodur ani aylamaking xor nedur?*

*Kimki johildur ani loyiqi iqbol ko'rub,  
Kimki olimdur oni qismati idbor nedur?*

To'g'ri, Ravnaq devonida Xorazm hukmdorlaridan Shohg'ozixon, Muhammad Amin Inoq, Buxoro hukmdorlaridan Doniyol Otaliq va Shohmurodga bag'ishlab yozilgan maqtov qasidalar ham bor. Biroq, uning yuqoridagi «Nadur» radifli qasidasi qasidachilikda qaror topib kelgan an'anaviy printsiplardan ancha farq qiladi. Unda hukmdor madhi yo'q. Bu qasidada shoir o'z davridagi siyosiy-ijtimoiy jihatdan tang bir ahvolning tasvirini beradi. Uning shunday she'rlari ham borki, Ravnaq ularda O'z noroziligini hayqiriq darajasiga ko'taradi, bemuruvvat charxni la'natlaydi:

*Bemuruvvat charx har soat olingdan dod, hey,  
Jabru zulmingdin ishimdur nolai faryod, hey.*

Shuning uchun ham Xorazmning shoirga zamondosh sifatida, keyin qalam tebratgan ko'p ijodkorlari Ravnaqning sotsial ohanglarga ega she'rlariga tazminlar, naziralar yozganlar. Ozodiy, Roqim, Munis. Mirzo asarlari tarkibida biz ravnaqona namunalarni uchratamiz.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Pahlavonquli Ravnaqning asarlari keltirilgan manbalarni bilasizmi? Devonining topilishi va shoir haqida yuz aga kelgan tadqiqot asarlariga munosabatingiz?

2. «Navoiy va Ravnaq» mavzuiga doir qanday adabiy dalillar va fikrlar bayon qila olasiz?

3. Ravnaqning nido, hayqiriq ohangidagi isyonkorona she'rlar yaratishining sabablari nima?

4. Uning «Nadur?» radifli qasidasining o'ziga xos jihatlari nimalarda?

### ***Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar***

1. Ravnaqning joriy nashrlarga kiritilgan she'rlarini mutolaa qilib, taassurotlaringizni daftarga qayd eting.

2. Ravnaqning salaf shoirlar g'azallariga bog'langan tazmin–muxammaslarini qiyosan o'rganib, fikrlaringizni yozma ravishda bayon eting.

### ***Adabiyotlar***

1. Ravnaqning she'rlaridan namunalар: Ўзбек адабиёти, 5-жилд, 2-китоб. –Т., 1966. 163-200-бетлар.

2. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 3-жилд. –Т., «Фан», 1978.

3. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик, 2-китоб. –Т., 1980.

## SAYQALIY

Sobir Sayqaliy Hisoriy o'zbek adabiyoti tarixida alohida iz qoldirgan iste'dodli shoirdir. U «Qissai shahzoda Bahrom va Gulandom», «Ravzat ush-shuhado», «Ahtamnoma», «Vays ul-qaran», «Zayn ul-arab» kabi asarlar yaratgan. Sayqaliyning «Qissai shahzoda Bahrom va Gulandom» dostoni ayniqsa mashhur bo'lib, u qo'lyozma va bosma nusxalarda keng tarqalgan, sevib o'qilgan.

Sayqaliy XVIII asr oxirlarida Hisorda yashab, ijod etgan, moddiy va ma'naviy qiyinchiliklar bilan umr kechirgan, hayotda o'z orzulari ushalmaganidan faryod chekib, zamonasi tartiblarini qoralagan:

*Bu davron nechalarga kom berdi,  
Ki man kom istadim, dashnom berdi.*

Yana:

*Ajab tole'siyah, baxti qaroman,  
Mag'oqi darda qolg'on muhtaloman'*

O'rta Osiyo xalqlari orasida «Qissai shahzoda Bahrom va malikai Gulandom», «Masnavii Bahrom va Gulandom» nomlari bilan tarqalgan asar 1201 hijriy (milodiy 1785–1786) yili kitobat qilingan. Bu sana dostonning xotimasidagi tarixga doir quyidagi misralarda keltiriladi.

*Payambar tarixidin ming ikki yuz bir,  
O'tib erdi tamom o'ldi bu tahrir.*

Sobir Sayqaliy qissasining asosiy mavzui, tasvir ob'ekti an'anaviy ishq–muhabbatdir. U xalq orasida keng tarqalgan afsonalar, qissalar syujeti asosida o'z asarini yaratganligini aytadi:

*Kel, ey ruhi ravonim tavsani san,  
Ki bir afsona ayg'il boshlayin man.*

---

<sup>1</sup> Сайқалий. «Баҳром ва Гуландом». –Тошкент, 1960, 212-213-бетлар.



*Kel, ey to‘ti, eshitgil qissalarni,  
Ajab afsonai pur g‘ussalarni.*

Lekin hamma gap shundaki, muallif bu eski afsonani shunchaki takrorlab qo‘ymaydi. Balki «dostoni ko‘han»ni yangi andoza bilan qayta ishlab, uni go‘zal she‘riy dostoniga aylantiradi:

*Desam bir dostoni oshiqona,  
Jahonda qolsa mandin bir nishona...  
Manam o‘z holima andoza qildim,  
Bu dostoni ko‘hanni toza qildim.*

Doston syujeti va kompozitsiyasi tarkibidagi hayotiy epizodlar, milliy-etnografik lavhalar, she‘riy muqaddima va namunalar, original badiiy ifodalar, psixologik tasvir momentlari kitobxonni hayratda qoldiradi.

Sayqaliy asarda Rum shahzodasi Bahrom va Chin malikasi Gulandomning bir-birlariga bo‘lgan chin muhabbatini nekbinlik ruhida kuylash bilan birga, qahramonlik, mardlik, adolatparvarlik, odamiylik, do‘stlik kabi umumbashariy xalqchil g‘oyalarni ham, o‘z davri ijtimoiy masalalarini ham ifodalaydi. Bu uning afsonaviy-an’anaviy motivlarni real haqiqatlar bilan uyg‘unlashtira olganligidan dalolat beradi.

To‘g‘ri, Sayqaliy dostonining asl sarchashmasi xalq og‘zaki ijodi bo‘lganligi sababli unda g‘ayritabiiy kuchlar, sehrli-fantastik epizodlar tasviri ham muhim o‘rin tutadi.

Asarga xos bo‘lgan shu xususiyatlarga asoslanib bo‘lsa kerak, ayrim tadqiqotchilar uni xalq kitoblari sirasiga qo‘shadilar. Biz ayrim ishlarda «Bahrom va Gulandom» dostoni o‘z ahamiyati bilan O‘rta Osiyoda keng tarqalgan xalq kitoblaridan biridir<sup>1</sup> degan, fikrlarni uchratamiz. Lekin bu asar folklor bilan yozma adabiyot orasida turib, o‘zining ko‘p xususiyatlariga ko‘ra ularning o‘zaro aloqasini namoyish etuvchi ko‘prik holatini olgan bo‘lsa-da, uni xalq kitobi

---

<sup>1</sup> P.Махмудова. Халқ китоблари ва айрим қиссалар. || «Адабий мерос», 1971, 2-сон, 255-бет.

namunasi emas, doston deb bilish kerak. Asarda yozma dostonchilikka xos xususiyatlar: uning aruz vazni va masnaviyda yozilishi, lirik janrdagi she'rlarning klassik she'riyatga xos poetikasi, shoimning an'anaviy, kitobiy individual usullari ustun turadi. U shu xususiyatlari bilan Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z», Durbekning «Yusuf va Zulayxo», Majlisiyning «Qissai Sayfulmuluk» kabi asarlariga o'xshab ketadi. Lekin ulardan doston tili va uslubining ancha yengilligi, folklor asarlariga xos jihatlarning ko'zga tashlanishi, birmuncha ommabopligi bilan farq qiladi.

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Rum podshohi qarigan chog'ida farzand ko'rib, nomini Bahrom qo'yadi. Bahrom nihoyatda aqlli va dono yigit bo'lib etishadi. Otasi uni davlat idora ishlariga tortmoqchi bo'lganida, Bahrom ko'nmaydi va ov bilan mashg'ul bo'ladi. Ovda yurgan chog'ida oldidan kiyik chiqadi. Bahrom kiyikni quvlab, bir boqqa kirib qoladi. U yerda shahzodaning ko'zi go'zal qizning suratiga tushadi. Bahrom suratdagi go'zalga mahliyo bo'ladi. Mo'ysafid bog'bon bu Chin malikasi Gulandomning surati ekanligini va unga muhabbat bog'lash behudaligini aytadi. Ammo shahzoda Bahrom Chin sari safar qiladi. Yo'lda Sayfur ismli bahodirga duch keladi. Sayfur dev va parilar shohi edi. Bahrom Sayfurni va uning besh inisini kurashda engib, asir oladi. Faqat Sayfurning singlisi Sarvosoning yolborishi natijasida Bahrom ularni ozod qiladi. Bahrom Sayfurning sevgilisi Ruhafzoni dev Afru qo'lidan qutqarib oladi. Shahzoda yana Chin sari yo'lga tushadi. Chin eliga yetib borgach, karvonsaroyga tushib, mamlakat ahvoli haqida savol so'raydi. Saroybon bu mamlakat Chin ekanligini, unda Gulandom degan malika borligini, qizning ishqida juda ko'p shahzodalarning halok bo'lib ketganligini, hozir malikani so'rab Behzod degan shahzoda Chin mulkiga hujum qilayotganligini aytadi. Bahrom Fag'fur (Chin xoqoni) va Behzod qo'shinlarining urushini bir kun kuzatadi. To'rtinchi kuni esa, Sayfurni yordamga chaqiradi. Bir kechaning o'zida Behzod qo'shini qirib tashlanadi. Lekin Fag'fur va uning yaqinlari Bahromni topolmaydilar. Bu orada Bahrom Gulandom qasrining atrofida yashab yuradi. Gulandomning bir odati bor edi: har yili navro'z vaqtida o'z kaniziga lagan berib, yurt

orasiga yuborar, har kishi bu laganga o'zi ravo ko'rgan narsasini tashlardi. Bu gal Gulandom o'zining Davlat ismli kanizagini xalq orasiga jo'natadi. Davlat maydonda darvishsifat yotgan Bahrom oldiga keladi. Bahrom noilojlikdan qo'lidagi uzugini olib laganga tashlaydi. Uzukni ko'rgan Gulandom kanizagini yana Bahrom oldiga jo'natib undan xabar olishni tayinlaydi. Gulandom Davlatdan Bahromning o'ziga oshiq ekanligini eshitib, juda darg'azab bo'ladi. Biroq u Bahromni ko'rgach, uni sevib qoladi.

Rum shohi dom-daraksiz ketgan farzandi dog'ida kuyib, uni axtarib yo'lga chiqadi. Shohning vaziri Dastur juda ko'p lashkar bilan Chin eliga yetib boradi va xoqonga Rum shohining maktubini topshiradi. Har tomonda Bahromni izlash boshlanadi. Shu orada, Behzodning xunini talab qilib Chinga No'shod hujum boshlaydi. Bahrom Sayfur bilan birgalikda No'shodni ham yengadi. Dastur Fag'urning oldiga sovchilikka boradi. Gulandomning oldiga esa, Ruhafzo bilan Sarvoso boradi. Gulandomdan rozilik ungach, katta to'y-tomosha o'tkaziladi.

Fag'urning roziligi bilan Bahrom malikani olib Rum shahriga jo'naydi. Ota-ona o'z farzandini va yangi kelinni ko'rib nihoyatda quvonadilar. Bahrom shuncha vaqt dom-daraksiz ketganligi uchun otasidan uzr so'raydi.

Ko'rinib turibdiki, Sayqaliy qissasidagi Bahrom obrazi erkin shahzoda sifatida gavdalanadi. Mazkur qissada Bahromning har qanday salbiy xususiyatlardan xoli qilib tasvirlanishi Bahrom obrazining badiiy adabiyotdagi takomili bilan izohlanadi. Fors va o'zbek adabiyotida yaratilgan Bahrom shoh nomli qahramonlar safiga Sayqaliy ham o'z qahramonini qo'shdi.

Asarning asosiy g'oyasi go'zal insoniy sevgi va qahramonlikni ulug'lash bo'lganligi tufayli Bahrom pok sevgi egasi va bu yo'ldagi to'siqlarni qahramonona enguvchi obraz darajasiga ko'tarilgan. Bu obraz asarda muayan dinamikaga ega, ya'ni voqealar rivojlanishi bilan birga, Bahromning xarakteri ham o'sa boradi. Sayqaliyning Bahrom obrazini tasvirlashda erishgan katta muvaffaqiyati shundan iboratki, Bahromning hamma sa'y-harakatlari, ajoyib xislatlari uning xarakteridan kelib chiqadi. U bolalik chog'idanoq odobli, ziyrak

o'g'lon sifatida kitobxonga yoqib qoladi. U Farhodga o'xshab ham aqliy, ham jismoniy jihatdan kamolotga erishishga intiladi, hamma narsa bilan qiziqib g'ayrati, shijoati, hayratomuz ishlari bilan boshqalarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortadi.

Bahrom nihoyatda kamtar, tamkin inson. Uni molu davlat, shohona ayshu ishrat va dabdabalar qiziqitirmaydi. Otasi unga saltanatni in'om etmoqchi bo'lganida u buni istamay, Farhod singari, odamiylik va oddiylikni hamma hashamatlardan, nasablardan ustun qo'yadi. Bahrom o'zining butun faoliyati davomida Rum mamlakati hukmdori bo'lmish raiyatparvar otasining quyidagi nasihatlarini yodida tutadi va unga amal qiladi:

*Adolatlig'rai yatparvar o'lg'il,  
Ki to xalqi jahonga sarvar o'lg'il.  
Ki miskinlarning arzin anglag'il boz,  
Asirlarni yana qilg'il sarafroz.  
Tarahhum qil etimlar holiga sen,  
Amal qil yaxshilar a'moliga sen.  
Muruvvat birla baxshishni shior et,  
Hamisha yaxshilikni ixtiyor et.  
Ki aql, tadbir birlan aylag'il kor,  
Bularni bil, bo'lur har qayda darkor.*

Bahrom Gulandomga bo'lgan muhabbati yo'lida ko'p jabru jafolar tortadi, fojiali, dahshatli voqealarga duchor bo'ladi, lekin bularning hammasini mardonavor engib, yuksak iroda sohibi ekanligini namoyish etadi. U sehrli, vahimali kuchlarning hamlasini, dengiz to'foni tufayli paydo bo'lgan xavf-xatarlarni, nahanglar hujumini, devnamo maxluqlarning qarshiligini jasorat va qahramonlik bilan daf qiladi. O'zining ko'zlagan maqsadi, muqaddas orzusi tomon dadil intilib, oxir murodiga erishadi.

Sayqaliy Bahrom obrazida eng yaxshi insoniy fazilatlarini— adolatparvarlik, do'stlik, insonparvarlik, mardlik, muhabbatda poklik va samimiylik, insoniyat dushmanlariga shafqatsizlik, favqulodda irodalilik, hayotsevarlik kabilarni mujassamlashtiradi. Bu xislatlar

uning butun sarguzashtlarida, sevgilisi Gulandom, do'stu madadkorlari Sayfur, Ruhafzo, Sarvoso va boshqalarga munosabatiga, qora kuchlarga qarshi kurashi davomida namoyon bo'la boradi. Bahrom Sayqaliy talqinida boshdan oxirigacha xalqparvarlik printsiplariga sodiq bir inson sifatidagavdalanadi. Bahrom o'zining ana shu xususiyatlariga ko'ra Navoiyning Farhodiga o'xshab ketadi. Umuman, «Bahrom va Gulandom» dostonining g'oyaviy yo'nalishi va ayrim epizodlari ko'p jihatdan «Farhod va Shirin» dostoni bilan hamohangdir. Mamlakat ham iqtisodiy, ham siyosiy inqirozga uchragan, feodal nizo va janjallar avj olgan XVIII asr O'rta Osiyo sharoitida shunday mukammal obrazning badiiy adabiyotda yaratilishi katta ijtimoiy, ma'rifiy ahamiyatga ega edi.

«Bahrom va Gulandom»da xotin-qizlarning yorqin obrazlari yaratilgan. Ular orasida Gulandom obrazi o'z mukammalligi bilan ajralib turadi. U boshqa ishqiy-romantik dostonlardagi malikalarga o'xshash husn-latofatda ham, donolikda ham, nazokatda ham, insoniylikda ham tengsizdir. U Sayqaliy talqinida o'z yoriga abadiy sodiq ayol bo'lib gavdalanadi. Shoir Gulandom xarakteriga xos bo'lgan shoirtabiylilik, so'zga chechanlik, donolik, tadbirkorlik, insonga hurmat va hazil-mutoyibaga moyillik kabi xususiyatlarni nihoyatda real, tabiiy, ishontirarli ifodalaydi. Uni o'z individual xususiyatlariga ega bo'lgan etuk obrazlardan biri darajasiga ko'taradi. Umuman, Sayqaliy o'z ideallaridan kelib chiqib, Gulandom, Sarvoso, Ruhafzo va Davlat kabi nazokatli, zebo xotin-qizlar obrazlarini yaratishga gumanistik g'oyalar pozitsiyasida turib yondashadi.

Dostonda tasvirlangan Sayfur obrazida sadoqatli do'st, kishilarga mushkul damlarda yordam ko'rsatadigan, yaxshilik va ro'shnolik yo'lida xizmat qilishga qattiq bel bog'lagan shaxsni ko'ramiz. Sayfur garchand asarda «parizotlar amiri», g'ayritabiiy kuchlar vakili sifatida ko'rinsada, Sayqaliy uni reallashtirib, hayotga yaqinlashtiradi. U ko'p xususiyatlari bilan Shopur obrazini eslatadi.

Muallif qahramonlarning psixologik kechinmalarini ochish va ta'sirchan qilib berish uchun illyustrativ tarzda hikoyalardan, naqlardan, nomalardan ham ustalik bilan foydalanadi. Masalan, shoir doston kompozitsiyasiga ikki asosiy qahramon — Bahrom bilan

Gulandomning she'riy yozishmalarini singdirib yuboradi. Bunda shoir Sharq klassik she'riyatida shakllangan, o'ziga xos an'anaga ega bo'lgan epistolyar janr imkoniyatlaridan foydalanadi. Asarda qahramonlarning nozik his-tuyg'ularini, orzu-istaklarini ifodalovchi lirik o'rinlar tez-tez uchrab turadi. Shoir oshiq-ma'shuqlarni ham, ota-o'g'ilni ham, do'st va birodarlarni ham hayajonli, to'lqinli qilib gapirtiradi, kuylatadi. U asosiy bayonni masnaviyda olib boradi, boblarni, voqealarni bir-biriga bog'lashda ba'zan «Alqissa, bu mustazoddan so'ng bir-birlarini har yondin hikoyatlar aytub va oxirul-amr shahzodaning arzini deyub vaslin istagoni va Gulandom rozi o'lub ixtiyorini otasiga bergoni bu turur» kabi muayyan bir voqea-epizodning qisqa izohidan iborat nasriy matnlardan foydalanadi.

Dostonda 36 g'azal, bir necha muxammas, musaddas va 1 mustazod bor. Ularning hammasida shoir taxallusi ko'rsatilgan, bu bilan Sayqaliy o'z qahramonlari intilishlari o'z shoirlik qalbi ideallari bilan vobasta ekanligini ta'kidlaydi. Bu she'rlar o'z uslubi va til xususiyatlariga ko'ra, o'zbek xalq qissalariga xos xususiyatni eslatadi. Lekin Sayqaliy dostonida keltirgan lirik she'rlar voqeband she'rlar bo'lib, asardagi voqealar, sarguzashtlar bilan, qahramonlar taqdiri va intilishlari bilan mustahkam bog'lanib ketadi. Natijada epik tasvir bilan lirik tasvirda uzviy birlik yuz aga keladi. Sayqaliy dostonini xalq orasida mashhur qilgan omillardan biri ham ana shundadir.

Sayqaliy bir epizodda Gulandom, Ruhafzo va Sarvosoning go'zal portretlari, xulq-atvorlari madhini masnaviyda mana bunday keltiradi:

*U gullar har birisi bir chamandin,  
Biri Chindin, biri shahri Xo'tandin.  
Uchi ham jumla mahvashlar sarosi,  
Uchi ham dilrabolar intihosi.  
Uchi ham sho'x chashmu sho'rangez,  
Uchi ham joni oshiqqa jaforez.  
Uchi ham bo safo, bayzo sirishte,  
Uchi ham misli uch huri bihishte.  
Uchi ham misli uch shamshodi larzon,  
Uchi ham misli uch sadbargi xandon.*

*Ajab nozukbadan gulpirahanlar,  
Ajab to‘ti takallum xushsuxanlar.  
Alarning shanida kel, ey suxanvar,  
Ki qilg‘il turfa mustazod darbar.*

Ushbu mustazod Sayqaliyning uch obraz haqidagi fikrlarini chuqurlashtirishga, kyengaytirishga xizmat ettiriladi:

*Uch guli navrasta gulzori tamanno uch qutbi muzohib,  
Bir—birlarini husnini aylardi tamosho, zavq ila quvonib,  
San qayda eding, Sayqaliy, ul ma‘raka o‘tmish, bul dahri fanodin,  
Holo bo‘sa ham yaxshilari ayla tamosho, yot anda suloyib.*

Dostondan o‘rin olgan lirik she‘rlar Sayqaliyning epik shoirgina emas, iste‘dodli lirik qalamkashligidan ham dalolat beradi. Bir bayozda Sayqaliyning:

*Jonim oromi uchun qosidki, jonondin kelur,  
Kuyi jonparvar nasimi obi hayvondin kelur...  
O‘pmak istar chog‘da la‘li jonfidosin tashladi,  
Qo‘l zanaxdoniga chun so‘ndum yaqosin ushladi*

matla‘li Navoiy g‘azallariga hamda Fuzuliyning:

*Shifoysi vasli qadrin hajr ila bemor o‘landan so‘r,  
Zuloli zavqi shavqin tashnayi diydor o‘landan so‘r<sup>1</sup>*

bayti bilan boshlanuvchi g‘azaliga g‘oyat muvaffaqiyatli bog‘langan muxammaslari va bir mustazodi keltirilgan. «Bahrom va Gulandom» dostonidan o‘rin olgan g‘azallardan o‘n ikkitasining yana boshqa bir bayozga kiritilishi<sup>2</sup> ham Sayqaliyning lirik shoir sifatida e‘tirof etilganligining shohididir.

<sup>1</sup> Баёз. ЎзРФАШИ фонди, 7051-инв. рақамли қўлёзма, 44-б., 45–46–70-а. саҳифалар.

<sup>2</sup> Баёз. ЎзРФАШИ фонди, 1925-инв. рақамли қўлёзма.

Shoir dostoniga kiritgan she'rlar ichida rindona kayfiyatlarni ifodalovchi baytlar ham anchagina uchraydi...

*Erur Ka'bam – harimim bul saroying,  
Hamisha masjidimdur xoki poying.*

«Bahrom va Gulandom» dostonida feodal jamiyatga xos urf-odatlar, oddiy xalq turmushi, uning quda-andachilik, mehmonnavozlik, saxovat, takalluf borasidagi udumlari tasviriga doir o'rinlar ham anchaginaki, bu hol asarning hayotiyiligini, realistik mohiyatini oshiradi. Chunonchi:

*Aroga tushdi do'stlik ham qudolik,  
Xudoyim solmag'ay hargiz judolik.*

Yoki:

*Sochib yo'llarga tilla tangalarni,  
Quvontirib tamomi yangalarni.  
Poyondoqlar solib yangalari ham,  
Olib shahzodani bordilar ul dam.*

Yoki:

*Suyunchi bersangiz Bahromni ko'rdum,  
Suyungandan, shaho, sizga yugurdim.  
Chiqarib egnidan kiyganlarini,  
Ikkisi berdi shabrangga barini.*

Asarda:

*Salomat chiqti andog'yong'on o'tdin,  
Magarkim oftob chiqti bulutdin...  
Ko'zlarim chiqsunki sandin o'zga sulton izlasam,  
Ko'r bo'lay bo'lg'onda yolg'on ahdu paymonim mening...  
Base tuhmatga yondoshmoq zabundir,  
G'arazgo'ylar tili yugruk uzundir*

kabi badiiy muzayyan, hikmatomuz baytlar ham uchraydi.

Shunday qilib, Sayqaliy bu asarini yaratishda an'anaviy sevgi-muhabbat mavzuiga, afsonaviy syujetga murojaat etgan bo'lsa-da,



ularni yuksak mahorat bilan qayta ishladi, uni tarixiy sharoit ruhi bilan boyitdi. Bu asar o'zining g'oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qimmatini jihatidan shu tipdagi, shu nomdagi boshqa asarlardan sezilarli darajada farq qiladi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Sayqaliyning adabiy merosi haqida nimalarni bilasiz?
2. «Bahrom va Gulandom» dostonining yaratilishiga asos bo'lgan adabiy manbalar xususida gapiring.
3. Dostondagi ijobiy obrazlarning ma'rifiy-g'oyaviy ahamiyatini tushuntirib bering.

### ***Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar***

1. Sayqaliy adabiy merosi haqida so'z yuritilgan adabiy-ilmiy manbalarni, «Bahrom va Gulandom» dostonini to'liq o'qib chiqing, taassurotlaringizni, mustaqil fikrlaringizni alohida daftarda bayon eting.

### ***Adabiyotlar***

1. Сайқалий. Баҳром ва Гуландом. —Т., 1960 (нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифи Р.Алиев).
2. Муҳиддинов М. Ўзбек адабиётида «Баҳром ва Гуландом» ва «Баҳром ва Дилором» туркумидаги асарлар. —Т., ТошДУ, 1972.
3. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. 2-китоб, —Т., 1980.

## MUHAMMADNIYOZ NISHOTIY

Nishotiyning adabiy faoliyati XVIII asrning II yarmida kechdi. U Xorazm adabiy hayotining sermahsul vakillaridan biridir. Uning nomi va asarlari XX asrning 60–yillari kashf etildi. Bunda akademik V.Abdullayevning xizmati kattadir. U bu ajoyib shoir haqida salmoqli ilmiy maqolalar, risolalar yaratdi.

V.Abdullayevning B.Valixo‘jayev bilan hammualliflikda yozilib V.Abdullayev «Saylanma»siga kiritilgan «Muhammadniyoz Nishotiy» adabiy portreti shoirning hayoti va adabiy merosini har jihatdan chuqur yoritib beruvchi tadqiqotdir. Bu tadqiqotda ayniqsa, Nishotiyning «Husnu Dil» dostoni tahliliga alohida e‘tibor qaratilgan.

Nishotiy dostoni hamda shu dostonning ungacha bo‘lgan asrlarda yaratilgan forsiy va turkiy tillardagi namunalarining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar ham bor. Adabiyotshunos M.Qosimovning XX asrning 60-yillari oxirlarida yoqlangan nomzodlik dissertatsiyasi hamda 1984 yili chop etilgan «Muhammadniyoz Nishotiy (hayoti va ijodi)» risolasi shu yo‘nalishdagi ishlardan. Nishotiyning lirik she‘rlari hamda «Husnu Dil» dostoni 1967 yili filologiya fanlari doktori Xolid Rasulov tomonidan chop etildi. Sjundan keyingi yillari ham Nishotiy va uning adabiy merosi haqida ko‘pgina ilmiy manbalarda, darslik kitobida so‘z yuritildi.

Nishotiy ko‘z o‘ngimizda ham lirik shoir, ham dostonnavis, ham masal-munozara asarlari muallifi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning «Husnu Dil» dostoni Navoiydan so‘nggi davr epik poeziyasining eng yirik va ancha go‘zal namunalaridan biridir. Nishotiy o‘zining shu asari muqaddimasida Xorazm diyorida tavallud topib, madrasa tahsilidan so‘ng qozi va a‘lamlilik lavozimlarida ishlaganligini, Xorazmda notinch yillar boshlanib, yashash va ijod qilish qiyinlashib ketganligidan ko‘ngliga yaqin bir mansabdor do‘stining maslahati va ko‘magi bilan Buxoroga ko‘chib kelganligi va o‘z dostonini shu erda yozganligi haqida so‘z yuritadi:

*Bor edi Xorazm diyori erim,  
Ondin edi yaxshi—yomon guharim...  
Cjarxi duni nogoh o'lub badmizoj,  
Dun elig'a berdi namolu rivoj.  
Xullas, o'lub mulku vatandin judo,  
Soldim o'zum g'urbati shiddat aro.  
Toki Buxoro sari qo'y dum qadam,  
Oh, bu xoriy aro bo'ldum adam.  
Garchi erur manzili dilkash base,  
Lek musofirg'a emas xush base...*

**Adabiy merosi.** Bizgacha Nishotiyning lirik she'rlari, «Qushlar munozarasi» asari hamda «Husnu Dil» dostoni yetib kelgan.

Nishotiyning “Husnu Dil” dostoni tarkibida keltirgan «muddati tarixini etsam bayon, «Xatmi Dilu husn»dur ey nuktadon» ta'rix sanasiga doir baytdan asar 1192 hijriy, 1778 melodiya yozilganligi ma'lum bo'ladi. Uni, shoiming o'z e'tiroficha, yozish uchun ko'p muddat ketmagan:

*Qildim ani nazm eturg'a qiyom,  
O'tti mashaqqat ila besh oy tamom.*

Dostonning 16 ming baytga yaqin hajmda ekanligi hisobga olinsa, Nishotiyning asar ustida o'ta qattiq zahmat chekkanligi, shoirlik hofizasi ancha kuchli bo'lganligi anglashiladi.

Nishotiygacha ham shu doston syujetida Fattohiy (XV asr) forsiyda «Hikoyati Husnu dil» nomida nasru nazm aralash doston yozgan. Shoir undan albatta xabardor bo'lgan. Biroq Nishotiy dostoni ham hajmi, ham tasvir uslubi jihatidan ungacha yozilgan dostonlardan ajralib turadi.

Aslida Nishotiyning maqsadi o'z dostonini Sharq Adabiyotlarida mashhur bo'lib ketgan xamsachilik an'anasida yaratilgan dostonlarga javob tarzida yozish edi. Shu tufayli dostonning muqaddimasida ulug'xamsanavis shoirlar – Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiy, ular maydonga keltirgan

xamsalar haqida ta'rifu tahsinlar keltiriladi. Biroq, Nishotiy dostonini chuqur o'rgangan V.Abdullayev hamda B.Valixo'jayev tadqiqotida qayd etilishicha, «Husnu Dil» o'ziga xos struktural xususiyatga, majoziy-allegorik syujet liniyasiga ega bo'lgan original doston sifatida maydonga kelgan. Shunga qaramay dostonda xamsanavis buyuk shoirlar dostonlariga xos xususiyatlar o'z izlarini qoldirgan. Ayniqsa, Nishotiy dostonining «xamsa»lardagi birinchi dostonlar bilan mushtarak jihatlari bor. eng katta farq Nishotiy dostonining voqeaband syujet asosida yaratilganligidir.

Asar 62 bobdan iborat, shoir har bir bobga nasriy sarlavha qo'yadi. So'ng voqeani she'riy yo'lda bayon etadi. U aruzning saryogi musaddas (muftailun, muftailun, foilun) bahrida yozilgan. Uning I-II bobida hamd va na'tlar, buyuk xamsanavis shoirlar ta'rifi, Nishotiyning vatani sanalmish Xorazm diyori madhi, so'z san'atining sehrlı kuchi tasviri beriladi.

U so'z xazinasini «malih» va «qabih» so'zlarga bo'lib, birinchisini *gulobga*, ikkinchisini esa, *gilobga* o'xshatadi. Shoir har qaysisidan o'rinli foydalanishi, so'z sehri, undan mahorat bilan bahramand bo'lish orqali ma'no teranligi va nafosat go'zalligiga erishishi lozim, deb hisoblaydi. Ma'nosi va ta'siri yo'q so'zni Nishotiy «gardi bod» bilan tenglashtiradi.

*Arshning ostida erur ganji roz,  
Olmoq ila bo'lmag'ay ul ganj oz.  
So'zki malohat ila marg'ub erur,  
Ziynat anga bo'lsa agar xo'b erur...  
Nuqta adosin dag'i oson degay,  
So'zni eshitganda ulus jon degay.*

Dostondagi ellikka yaqin majoziy–timsoliy obrazlar orqali Aqlshohning o'g'li Dil (Fuod) bilan Ishqshohning qizi Husn oralaridagi sevgi sarguzashtlari, ular duch kelgan qiyinchiliklar, g'ayritabiiy voqea-hodisalar, ezgulik kuchlari bilan yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurash yarim sehrlı-fantastik lavhalar yordamida hikoya qilinadi. Asarning so'nggi fasllarida Dil bilan Husn topishib, Aqlshoh bilan Ishqshoh sulhga, ittifoqqa kelishib, yoshlarning to'y bazmlari

o'tkaziladi. Ikki yoshning murodu maqsadlari ushaladi.

«Husnu Dil» dostonini boshqa dostonlardan farqlantirib turuvchi bir xususiyat shundaki, unda ishtirok etuvchi personajlar insonning ichki va tashqi qiyofasi (siyrati va suvrati, botini va zohiri) dil, Husn, Ishq, aql, gesu; fazilat va psixik holatlari – nazar, qarashma, on, himmat, qomat, Vafobonu, Nafsbonu, Vahmi balo, xayol, ishva, raqib, noz, og'ush, sabr kabi tushunchalar bilan bog'liq. Bu obrazlar harakat qiluvchi mamlakat va manzillarning nomlari ham o'zgacha: obi hayot, gulshani ruxsor, chohi firoq va hokazo. Nishotiyning asarni bunday syujet va allegorik obrazlar asosiga qurishining ilohiy ishq, tasavvufiy motivlar bilan bog'liq siru sinoatlari ham bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Asarga xos bu muammoviy jihatlarni tadqiq etish galdagi vazifalardandir.

Nishotiy o'z asarining to'y bazmlari qismida bir necha masal-munozaralar ham keltiradi. Shahboz bilan Bulbul, Nay bilan Shamshod, Kosayi Chin bilan Nargiz, Gul bilan Daf, Binafsha bilan Chang o'rtalarida davom etgan bahsu munozaralarda kamtarlik, kibrlanmaslik, xush fazilatlilik masalalari talqin qilinadi. Ularning har birini bir masal – hikoya deb atash mumkin. Xullas, Nishotiy xilma-xil majoziy obrazlar, tasvirlar orqali insoniy fazilatlarini ulug'lashga intiladi, adolatparvarlik, tinchlik, mardlik, sadoqat g'oyalarni targ'ib etadi. Asarda ezgulikni ulug'lovchi dono fikrlar tez-tez uchrab turadi:

*Har kishining bor esa gar aqli tuz,  
Avval anga ko'z keragu so'ngra so'z.  
Kimki qozar oqibat ul tushgusi,  
Kimki yoqar oxir o'shul pishgusi.  
Har kishi o'z rutbasida xub erur,  
Har nima o'z haddida marg'ub erur.  
Ishki o'tar anga pushaymon na sud,  
Qushki tutildi anga afg'on na sud.*

Dostonda Shayx Zarf, Foruqa, Raqib, Vahmi balo kabi salbiy timsollar ham borki, ular tasvirida shoir hajviyotga xos tasviriy

bo'yoqlarni, nafrat qo'zg'atuvchi so'zlarni qo'llay boshlaydi.  
Vahmi baloni

*Oti oning Vahmi balo jo'edi,  
Baddilu, badbin edi, badgo'edi—*

kabi takroriy, qora bo'yoqlar bilan tavsiflasa, uning qizi Foruqa tasvirida kuchli qiyoslarga, tashbehlarga, hatto vulgar so'zlarga ham o'tadi. Uning sovuq yuz liligini ilonga, burnini tanurga, og'zini go'r og'ziga, yurishlarini teva yurishlariga o'xshatadi:

*Bor edi bir duni falokatmaob,  
Erdi najaz suratu naqs intisob...  
Tal'at anga bor edi do'zaxnamoy,  
Xilqat anga otashin qahri xudoy.  
Yuz uza chiruk yog'och erdi burun,  
Har era ul borsa, borib ul burun.  
Baski sovuq yuz lik edi tirajon,  
Qochmoqi andin tilar erdi yilon  
Oti oni Foruqai jovidon,  
Qo'r qar edi haybatidan insu jon...*

«**Munozarayi murg'on**». Qayd etish lozimki, Nishotiy «Husnu Dil» tarkibida keltirilgan masal-munozaralardan tashqari «Qushlar munozarasi» («Munozarai murg'on») nomida alohida bir asar ham yaratgan. Bu asarda tasvirlanishicha, 14 qushning — laylak, zog', anka, qumri, bulbul, to'ti, qirg'ovul, kaklik, qarchig'ay, tovus, humo, xudxud ishtirokida Keshdagi (Shahrisabz) daraxtzorlardan birida boshlangan bahsu munozarasida inson va insoniylikka daxldor masalalar o'rtaga qo'yiladi. Manmanlik, behuda maqtanish, o'ylamay ish qilish, bemavrid so'zlash kabi illatlar qoralanadi. Bu asar XX asr 70—yillari boshlarida navoiyshunos va matnshunos olim Porsoxon domla tomonidan topilgan. Asarning to'la matni «Muborak maktublar» kitobiga kiritilgan.

**Lirikasi.** Bizgacha Nishotiyning bir qancha lirik asarlari saqlanib qolgan. Shulardan 38 gʻazal, 14 muxammas, 1 qasida va 1 musaddas «Gʻazaliyoti va muxammasoti Nishotiy» nomidagi majmuadan oʻrin olgan. Bu asarlarida shoir anʻanaviy mavzularni davom ettiradi, oʻzining hayot va inson, uning fazilati va qadriyati haqidagi kechinmalarini ifodalaydi.

U lirik obraz tabiati va goʻzalligiga xos nozik jihatlarni badiatan ancha original lavhalarda tasvirlaydi. Ayniqsa, kitobat, savol-javob kabi lafziy sanʼatlarni qoʻllashda mahorat koʻrsatadi. Maʼlumki, kitobat sanʼatida arab alifbosidagi *alif, dol, nun, sod, jim, lom, nuqta, mim* kabi harflar turli narsalar bilan solishtiriladi va shu orqali poetik niyatni ifodalashga erishiladi. U oʻtmish badiiyot ilmida *tasmiya, harf va istixroj* istilohlari bilan ham atalardi. Nishotiy gʻazallarida shunday sanʼat ishlatilgan goʻzal baytlar tez-tez uchraydi:

*Ikki lomu zulfaro koʻrgach alifdek qaddini,  
Tong emas, ey ahli dark, boʻlsa tilimning nutqi lol.*

Yorning ikki oʻrim sochi ikki *lom* harfiga nisbat berilayotir. Chunki *lom* harfi soch singari jingalakdir. *Alif* ham inson qaddi singari toʻgʻridir. Ikki *lom* orasiga *alif* yozilsa *lol* soʻzi paydo boʻladi.

Yana:

*Ul ikki zulfu qomat «dod» erdiyu na qildi,  
«Dod» ersa ul uchovlon, kim desun ani bedod.*

Bunda shoir yorning ikki zulfini ikki «de»ga — dolga, qomatni esa «alif»ga oʻxshatib, ikki dil orasiga alifni qoʻshib «dod» soʻzini chiqargan. «Dod» soʻzi esa, adl, insof maʼnolarini ham anglatadi; chunki bedodning aksi dod-adldir.

Nishotiy muxammaslari ichida Alisher Navoiy gʻazallariga yozilganlari oʻntadir. U «Husnu Dil» dostonida Navoiyni «Aql va donishda kuchli sher», «Bulbuli dostonaro» deb taʼriflaydi. Uning mavlono Fuzuliyning:

*Do'st beparvo, falak berahm, davron besukun,  
Dard cho'x, hamdard yo'x, dushman qaviy, tole zabun*

Matla'li g'azaliga bog'lagan musaddasi ham kuchli asarlardandir. U Fuzuliy baytlarining har biriga to'rt misradan qo'shib fuzuliyona dardchil asar yaratishga muvaffaq bo'ladi.

Shu tarzda Muhammadniyoz Nishotiy XVIII asrdagi o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uning lirik asarlari bizgacha tugal darajada yetib kelmagan bo'lsa-da, «Husnu Dil» dostoni o'zbek epik poeziyasining nodir va o'ziga xos namunasi sifatida shoir nomining abadiyatga daxldor ekanligini ko'rsatib turadi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Nishotiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari xususida nimalarni bilasiz?
2. «Husnu Dil» dostonining yozilish tarixi, sabablari va shu nomdagi boshqa asarlar haqidagi fikrlaringizni bildiring.
3. Tasavvuf va Nishotiy dostoni. Undagi timsollar majoziyligini qanday mulohaza qilasiz?
4. Navoiy va Nishotiy, Nishotiy va boshqa xamsanavis shoirlar haqidagi fikrlarning asarda keltirilish sabablarini aniqlang.

### ***Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar***

1. «G'azaliyoti va muxammasoti Nishotiy»dagi shoir lirik she'rlarini, «Husnu Dil» dostoni matnini, «Munozarai murg'on» asarini sinchiklab mutolaa qiling, taassurotlaringizni alohida daftarda bayon eting.
2. Dostonning ramziyligi, majoziyligi sirlarini, undagi tasavvufiy g'oyalar ildizlarini tushuntirib bering (amaliy mashg'ulotlarda).
3. Nishotiy masallaridagi axloqiy–didaktik qarashlarning ahamiyatini yozma ravishda bayon eting.



### *Adabiyotlar*

1. Абдуллаев В. Хоксор ва Нишотий.—С.,1960.
2. Нишотий. Ҳусн ва Дил. Лирика.—Т., 1967.
3. Нишотий. Масаллар ва мунозара: «Муборак мактублар» китобида.- Т., 1987.
4. Абдуллаев В., Валихўжаев Б. Муҳаммаднийез Нишотий: Абдуллаев В. Сайланма - Т., 1982.
5. Қосимова М. Муҳаммаднийез Нишотий (ҳаёти ва ижоди).— Т., 1987.

## HUVAYDO

Xojanazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo XVIII asr o‘zbek adabiyotining Farg‘ona vodiysida yashab, ijod etgan eng yirik va mashhur vakillaridan biridir. Uning lirik va epik asarlari shoir yashagan davrda ham, undan keyin ham ancha shuhrat yoydi, ko‘p iste‘dodli shoirlar ijodiga ta‘sir ko‘rsatib keldi. O‘zbek adabiyotining hatto hozirgi zamon avlodlari vakillari – Hamid Olimjon, Charxiy, Habibiy, Chustiy, Vosit Sa‘dulla, Erkin Vohidov, To‘lan Nizom kabi iste‘dodli namoyandalari ijodi ham Huvaydo merosi ta‘siridan xoli emas.

***Adabiy merosining o‘rganilishi tarixi.*** Sho‘rolar mafkurasining salbiy ta‘siri tufayli XX asrning turli yillarida yaratilgan ayrim ishlar tarkibida, alohida yozilgan ilmiy-ommabop maqolalarda Huvaydoning boy falsafiy ruhiy dunyosiga, shoirlik mahoratiga biryoqlama baho berish, asarlarining tub mohiyati xususida atroflicha fikr yuritmaslik mayllari sezilib turdi. XX asrning 60–yillaridan boshlab adabiyotshunoslikda uning merosini kengroq tadqiq etish davri boshlandi, deyish mumkin. Shu yillari adabiy merosimizning yirik bilimdonlari va tadqiqotchilari sanalmish akademiklar V.Zohidov, V.Abdullayev, talantli olimlar To‘xtasin Jalolov, Suyima G‘aniyevaning Huvaydo ijodiga bag‘ishlangan ilmiy ishlari e‘lon qilindi.

«O‘zbek adabiyoti tarixi» besh tomligining uchinchi tomida (1978) V.Abdullayev va R.Orzibekovning Huvaydoga bag‘ishlangan haqidagi adabiy portreti chop etildi. Tadqiqotchi Abdusalom Xudoyberdiev shoir haqida nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi va bir qancha ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalar e‘lon qildi. Huvaydo adabiy merosini o‘rganishga qiziqish davom etmoqda. Keyingi yillari uning «Rohati dil», «Ibrohim Adham» qissalari, “Devon”i va ular nashri bilan bog‘liq fikrlar e‘lon qilindi.

Nusratillo Jumaxo‘janing «Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros» mavzuidagi doktorlik tadqiqotida Huvaydo merosidagi so‘fiyona dunyoqarash talqini va tahliliga alohida e‘tibor qaratildi. Shu mavzuga bag‘ishlangan muallif maqolasi «Sharq yulduzi»

jurnalining 1998 yil 4—sonida bosildi. N.Jo‘maxo‘janing Huvaydoga bag‘ishlangan ishlarida shoirning islom va tasavvuf ta‘limotidagi she‘rlarida ma‘rifat nurlari yolqinlanib turishi, umuminsoniy hayotbaxsh masalalar orifona talqin etilganligi ochib beriladi.

Huvaydo ijodining nechog‘li muhim ma‘rifiy ahamiyatga ega ekanligini XX asrning 60—yillaridayoq akademik V.Zohidov shunday baholagan edi: «U na saroy bilan bog‘liq bo‘ldi, na mamlakatni idora etish ishlariga amaliy aralashdi... Lekin shunga qaramasdan, o‘z qalami bilan hayotni keng qamrab olishga, har bir muhim masalaga o‘z munosabatini bildirishga va shunday qilib, o‘z zamonining hozirjavob shoiri bo‘lishga intildi... Uning ijodida insonning oliyjanob xislatlaridan va Vatan tabiati go‘zalliklaridan tortib to davr chirkinliklari, odam qiyofasidagi yovuzlarning razil qilmishlariga qadar bo‘lgan voqealar o‘zining barcha ziddiyatlari bilan aks etdi» (V.Zohidovning «Hayotbaxsh badiiyat taronalari» kitobida. —T., 1975).

***Tarjimai holiga oid ma‘lumotlar.*** Huvaydo O‘shda tug‘ilib, Farg‘onaning Chimyon degan go‘zal maskanida yoshligi kechdi. U umrining oxirgi yillarigacha shu erda yashab, ijod etgan. Bu maskanda Huvaydoning padari G‘oyibnazar eshon, uning avlodlari, shu jumladan, Xojanazar Huvaydoning marqadlari bor. Keyingi yillari bu muborak dargoh muxlislar tomonidan qayta ta‘mirlanib, obodonlashtirilib, ziyoratgohga aylantirildi.

Huvaydoning tavallud yili ma‘lum emas. Shoirning zamondoshi, ixlosmandi Mavlono Noseh, shogirdi shoir Mirhasan Sadoiy hamda chevarasi Mullo Yuldosh Xilvatiyning marsiya-ta‘rixlarida Huvaydo shaxsi va fazilatlarini ta‘rif etilib, vafoti sanasi melodiy 1780 yil deb ko‘rsatiladi, shunday ta‘riflarning birida biz:

*...Xirad ustodi ta‘rix vafotin,  
Bitibdur: «G‘oyib o‘ldi qutbi hodiy»*

ta‘rix moddasiga duch kelamiz. Bu sana abjad hisobida 1195 hijriy, 1780—1781 melodiy yilga to‘g‘ri keladi.

Huvaydoning otasi G‘oyibnazar so‘fi o‘z davrida Sharqiy Turkistonda-Qashqarda mashhur bo‘lgan Hidoyatullo Ofoqxoja

eshonning muridlaridan bo‘lib, oilasi bilan Chimyonga kelib qolgach, u erda masjid va xonaqolar qurdirgan, eshonlik qilgan.

Huvaydo devonida keltirilgan bir naqlga ko‘ra, shoirga Xojanazar ismining qo‘yilishi ham Ofoqxojaning iltifoti bilan bo‘lgan. Ko‘rinadiki, Huvaydo eshonlar oilasida tarbiya oladi, avval ibtidoiy maktabda, keyin Qo‘qonda madrasada tahsil ko‘radi. Otasi vafotidan so‘ng maktab va xonaqalarda maktabdor domla sifatida yoshlarga saboq o‘rgatadi. Huvaydo eshon sifatida yuksak obro-e‘tiborga ega bo‘ladi. Chimyon, Farg‘ona, Vodil manzilgohlari aholisi, ayniqsa, keksalari orasida Huvaydoning avliyosifat xislatlari, pok e‘tiqodi, ayrim karomatlari haqida ajoyib naqlar, rivoyatlar mavjud. Uning ta‘lim–tarbiya sohasidagi ishlari to‘g‘risida zamondoshi Noseh yozib qoldirgan quyidagi misralar bu fikrlarni tasdiqlaydi:

*Tutib suhbat davom umri boricha,  
Bayoron ta‘lim erdi fikri yodi.  
Dabistonda sa‘y aylab tunu kun,  
Yozilgan necha tolibning savodi...*

Huvaydodan so‘ng uning avlodidan bir necha shoir va shoira yetishib chiqqanligi ma‘lum. Ular haqida To‘xtasin Jalolov o‘zining «Samarbonu» risolasida qiziqarli ma‘lumotlar keltiradi. Chunonchi, Huvaydoning nabirasi Mavlaviy Sirojijiy (vafoti 1877), chevaralari Samarbonu (1837–1891), Salohiddin Soqib (1838–1910), Mullo Yo‘ldosh Xilvatiy (1858–1921) sohibi devon shoirlar bo‘lgan. Shulardan Samarbonu va Xilvatiyning she‘riy devonlari nashr etilgan.

**Adabiy merosi.** Huvaydoning she‘riy merosi, «Rohati dil» qissasidan namunalar kiritilgan mukammal qo‘lyozma devonining bir nusxasi chevarasi Salohiddin Soqib hamda Mirza Umid Marg‘iloniy tomonidan kitobat qilingan. Devonning shu qo‘lyozmasi hamda shu devon asosida XIX asrning mashhur xattoti Shohmurod kotib ko‘chirgan devon O‘zRFA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanadi. Huvaydo devonining qo‘lyozma va bosma nusxalari ko‘p. Shohmurod kotib ko‘chirgan devondagi saralangan she‘rlardan bir qismi 1961 yili Toshkentda «Tanlangan she‘rlar» nomida chop etildi.

Huvaydoning qo‘lyozma devonida 351 g‘azal, etmishga yaqin ruboiy-to‘rtliklar, muxammas, musaddas, musamman, mustazod namunalari bor.

Huvaydo XVIII asr o‘zbek adabiyotida naqshbandiylik tariqati yo‘li va g‘oyalari kuchli e‘tiqod qo‘ygan shoirlardan biridir. Uning aksar g‘azallari, shu jumladan, «Ichinda» radifli orifona g‘azalida biz dildan xudoga oshiq bo‘lgan, uning visoliga erishmoq uchun barcha riyozatlarga chidashga tayyor solih inson e‘tiqodini ko‘ramiz. Uningcha, odam Ollohning bir zarrasi, Ollohn tanishga intilish, uning yo‘lida riyozat chekish insonni murodga etishtiradi. Bu tasavvufiy g‘azalda oshiq intilgan yorug‘lik—Olloh nigor obrazi orqali jilvalanadi:

*Darding erur, nigorim, jismimda jon ichinda,  
Paykoni tiyri ishqing bag‘rimda qon ichinda.  
So‘rsam ko‘yungni eldin, hech ofarida bulmas,  
Ey yori lomakonim, yo‘qsan makon ichinda...  
Arzu samoni kezdim, emdi tan ichra keldim,  
Topdim nigohi qurbing mir‘oti jon ichinda.*

Shuning bilan birga, uning asarlarida xudo va payg‘ambarlarga atalgan hamd va na‘t, chahoryorlarga e‘tiqod, ro‘za, namoz, toat-ibodat, haj, zakot kabi islom taamullariga, jannat va do‘zax haqidagi aqidalarga dildan ishonish kabi fikrlar ham o‘rin olgan. U xuddi Boborahim Mashrab singari o‘z maqsadiga erisholmay, halovat ko‘rmay, notinch sharoitda umr o‘tkazib, zolimlik va mazlumlik, davlatmandlik va xorlik, bexudlik va benavoliklarning ijtimoiy sabablarini axtarib topolmay, turli-tuman murakkab ijtimoiy voqealarning mohiyatini anglay olmay, vaqti-vaqti bilan badbinlik mayllariga ham berilib ketadi.

Bu o‘rinda zukko adabiyotshunos N.Jumaxo‘janing Huvaydo haqidagi quyidagi fikrlarini keltirish lozim: «Xojanazar Huvaydoning har bir asaridan islom va tasavvuf ta‘limotidagi ma‘rifat nurlari ufurib turadi... Islom va tasavvuf ta‘limotining har bir uzvi komil insonni shakllantirishga qaratilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad

Mustafo sallalohi alayhi vasallamning hadisi shariflarida aytilishicha, «Din–nasihatdan iborat»dir. Komil insonlik masalasi, so‘fiylik tariqatidagi o‘nta maqomdan biri nasihat tinglamoqdir. Huvaydo nazmining mazmuni ham insonni nasihat orqali kamol toptirishdir... Nasihat adabiyotining o‘ziga xos jozibali ta’sir kuchi va uslubi bor... Huvaydoning pandu adabdan xoli birorta asarini uchratish qiyin...».

*Rost ayg‘il, egri hargiz so‘zlama,  
Ey Huvaydo kelsa boshingga qilich...  
Alam tortib, yurak kuymay qora ko‘zdan to‘kilmaz yosh.  
Qozonni ostig‘a o‘t yoqmaguncha qaynatib bo‘lmas...  
Zoe etma yaxshi so‘zni fahmi yo‘q befahmga,  
Na bilur shiru shakarning lazzatini sakmagas...*

Huvaydoning ayrim she’rlari boshidan oxirigacha tasavvufiy-falsafiy, didaktik mazmunga ega. Ularda inson xulq-atvori bilan bog‘liq bo‘lgan muhim bir tomon olinadi-da, shoir shunga o‘z munosabatini, simpatiya va antipatiasini bildiradi, ibratomuz o‘gitlar beradi:

*Bevafu yorga ko‘ngul bergan kishi odam emas,  
Mehnatu javru jafu andin zamone kam emas.  
Doimo ranju mashaqqat u kishining boshida,  
Barcha bo‘lg‘ay shodu xandon, ul kishi beg‘am emas.  
Til uchida gap berib aytur syenga «dildorman»,  
Zo‘ri g‘am kelsa boshingga lahzae Damdam emas.  
Rozi dilni aytmag‘il har kimni sen mahram bilib,  
Bo‘lmasa ahli muhabbat dardinga malham emas.  
Ey Huvaydo, bevafoni yor deb berma ko‘ngul,  
Oqil ersang sen agar ushbu nasihat kam emas.*

Huvaydo xiyonat girdobiga og‘ib ketuvchi ayrim din vakillari, hatto eshonu shayxlarning qiyofasini ham fosh etadi. Siyratining tashqi ko‘rinishi-suratiga mos emasligidan, ularning riyokorligidan kuladi. U sodda dillarni aldab, ko‘p gunohlarga botgan bunday shaxsning ma’naviy jihatdan puch ekanligini, ishi riyo va hiylayu

talbisdan iboratligini uqtiradi. «O‘zum» radifida yozilgan quyidagi monolog-g‘azal ana o‘sha badkirdorlarning qilg‘iliklariga shoir nafratidan iboratdir:

*Tunu kun aylabon gunoh, hech qilmag‘on savob o‘zum,  
Parvarish aylabon badan, qilguchi xo‘rdu xob o‘zum.  
Dunyo ishiga sustman, toat ishiga ko‘p lavand,  
Jurm ishiga dalir o‘lub, ko‘p qilaman shitob o‘zum.  
Elning ko‘zicha zuhd yetib, eb—ichibon kanorada,  
Zarra haromu shubhadan qilmag‘on ijtinob o‘zum.  
Suratim avliyo qilib, kashfu karomatim o‘qub,  
Sodda dilon aro kirib, qilguchi ko‘p hubob o‘zum.  
So‘zida zarra lutfi yo‘q, surati bir quruq yog‘och,  
Boshida mag‘zi ma‘ni yo‘q, gumbazi bo‘sh mozor o‘zum,  
El ko‘zida namoz o‘qib, taqvii bo‘riyo qilib,  
Ko‘zga maloyika bo‘lib, soddai surx abyyor o‘zum.  
Yaqin bilib Huvaydoni, qilmangiz e‘tiqod ko‘b,  
Berguvchi elga ko‘p firib, fosiqu nobakor o‘zum.*

Shoir ko‘pdan-ko‘p she‘rlarida kishini kamtar bo‘lishga da‘vat etganidek, quyidagi baytida bu fikr nozik poetik o‘xshatishlar asosida g‘oyatda go‘zal va xotirda tez saqlanib qoladigan tarzda ifodalagan:

*G‘uncha ko‘p og‘zini ochqach bog‘da qo‘ymay uzdilar,  
Og‘zini ochmasligida bildi bog‘bon qadrini.*

Bu o‘rinda «og‘zini ochmaslik» kamgap bo‘lish, *harzago‘y* bo‘lmaslik mazmunida keltirilib, «bog‘bon qadrini» esa uning parvarishlab etishtirgan hosili, bunyodkorliklari oshirajagiga ishora qilingan. Huvaydo real sevgi, oshiqu ma‘shuqalarning orzu-maqsadlari, visol ishtiyoqi va hijron iztirobi tasvirini ifodalovchi she‘rlar ham yaratgan:

*Qolmas erdi zarracha ko‘nglumda armonim mening,  
O‘lsam erdi oldida guldek jamolig‘a qarab...*

*Hur ila jannating netay anda yuz ingni ko'rmasam,  
Hasta Huvaydo ohiga havz ila kavsaring quyay...  
Dardi yo'q bedard kishilar dard qadrin na bilur,  
Dunyoda nomard ko'pdir, mard qadrin na bilur.  
Fahmi yo'q befahmlar payvand qadrin na bilur...*

Uning ruboiy-to'rtliklarida ham yashamoqqa, umrni xush o'tkazmakka bo'lgan navoiyona, boburona kuchli istaklar jo'sh urib turadi:

*Bazm etmakka bog'ila bahoron yaxshi,  
May ichmakka mavsimi guliston yaxshi.  
Bulbulsifat oldida fig'on etmakka,  
Bir orazi gul, lablari xandon yaxshi.*

Demak, u doimo samoda yurmaydi, ba'zan zaminga tushib hayot ne'matlaridan bahra olishga harakat qiladi, boshqalarni ham shunga da'vat etadi. Bu holat uning hayotbaxshlik ruhi bilan sug'orilgan ishqiy she'rlarining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. Ularda qalbi pok insonga bo'lgan ulug' hurmat namoyon:

*Bir g'aribni ko'nglini shod aylasang,  
Yo'l bosib Ka'ba sari bormoq abas...  
G'aribni ko'nglini buzmak gunohi beaded ermish,  
Kaforat bo'lmag'ay yuz Ka'bani qaytib bino qilsang.*

kabi mashrabona baytlarga ko'zimiz tushadi. Shu tarzda u hayot kishisiga xos kayfiyatlarni madh etadi:

*Yigitlikda may ichmaklik na xush baxtu saodatdur,  
Qarilik mavsimi mehnat, yigitlik vaqti rohatdur.  
Tiriklikni g'animat bil, may ich, umringni xush o'tkaz,  
Tepib o't dunyo molin hama ranju falokatdur...*

Shu zaylda u insonning kundalik tashvishlar, orzu-havaslar bilan



band bo‘lishini, «dili Ollohda, qo‘li – o‘zi esa ishda» bo‘lishini xohlaydi, shunday bo‘lmoqlikka chaqiradi.

Ayonki, XV asr o‘zbek adabiyotida sirli she‘r janrlaridan muammo, lug‘z-chiston namunalari mavjud edi. Alisher Navoiy va uning zamondoshlari muammolar, chistonlar yaratganliklari ma‘lum. XVI asrning birinchi yarmi shoirlaridan Shayboniy-Shaboniy, Bobur, Ubaydiy ham, xususan, muammoda iqtidor ko‘rsatganlar. Biroq, XVII–XVIII asrlar o‘zbek adabiyotida bunday sirli she‘rlar yaratilgan–yaratilmaganligini hozircha bilmaymiz. Biz XVIII asr o‘zbek she‘riyatida faqat Xojanazar Huvaydo qalamiga mansub bir chiston–muammoni uchratamiz. Huvaydoning etti baytli bu g‘azal – chistonidan abjad hisobi bilan «Zulfi ishq» nomi chiqadi. Shunday chistonlar keyinchalik Komyob, Ogahiy, Shavqiy, Uvaysiy kabi shoirlar ijodida ham yaratildi.

*Bir pari ro‘yi kuzumdin o‘tmishin ko‘rdum bukun,  
Telba aylab, aqlim olib ketmushin ko‘rdum bukun.  
Boshi – etmish, yuz –oyog‘, uch yuz badanlik qush kelib,  
Tan tuzida murg‘i jon sayd etmushin ko‘rdum bukun.  
Bir qalandar hindu bachcha xirman o‘ ustida,  
Rumig‘a mehmon bo‘lib o‘lturmishin ko‘rdum bukun.  
Bir qaro qush ul zamon uchqonda gulzor ustidan,  
Ikki ohu sahni gulzor tuzmushin ko‘rdum bukun.  
Etti bosh o‘ttiz – badan, sakson oyog‘mori siyah,  
Xam bo‘lub gul ustida talpinishin ko‘rdum bukun.  
Yor bazmida Huvaydo erdi rashk aylab raqib,  
Oshiq ahli g‘unchadek qon yutmushin ko‘rdum bukun.*

Bu chiston–g‘azalning ikkinchi baytida keltirilgan 70, 100, 300 sonlari arabcha E(a), (q) hamda (sh) harflarini anglatadi. Bu o‘rinda shoir «boshi etmish» deb eslatgan. Shu tufayli E(a)ni so‘z boshiga yuz –qni so‘z oxiriga, uch yuz –(sh)ni so‘z o‘rtasiga (badan) joylashtiramiz. Natijada ularning qo‘shiluvidan ishq so‘zi hosil bo‘ladi.

Shunga o‘xshash beshinchi baytning birinchi misrasidagi 7, 30, 80 sonlari ham arabcha j(z), (l), (f) harflarini bildiradi. Bu

harflar birikmasidan unga izofali (i) qo'shilsa, (**zulfi**) so'zi kelib chiqadi. Demak, Huvaydoning bu chiston–g'azalida abjad yo'li bilan «Zulfi ishq» so'zlari yashiringan. Huvaydoning bu chiston–g'azali muammo janriga xos poetik xususiyatlarga ham ega. Nazarimizda, Huvaydo ramziy yo'l bilan tasavvufiy ishqqa aloqador kechinmalarni tasvir etgan.

Huvaydo g'azallarida *tajnis*, *tazod*, *talmeh*, *qo'shaloq tashbehtar*, ayniqsa, *mubolag'a* juda keng qo'llanadi. Ma'shuqaning go'zalligi ideallashtirilgani singari oshiqning kechinmalari ham ko'tarinki ruhda tasvirlanadi:

*Chu ishq bozorida, jono, chiroying raxtini yozsang,  
Ko'rub Yusuf, Zulayxo bo'lg'usi oldingda dalloling.*

Yoki:

*Shiddati ohim o'tidin gunbazi ahzaring kuyar,  
Shamsu Qamar bila yana jumlai axtaring kuyar.  
Chiqa tanimni uchquni, tushsa jahonni mulkina,  
Vahshu tuyuru devu jin, mo'minu kofiring kuyar...*

Huvaydo aruzning deyarli hamma bahrlarida ijod etgan san'atkoridir. Chunonchi:

Ramal (ramali musammani mahzuf):

*G'uncha yanglig'qon yumuq ishqing bilan xomushmen,  
Bu Huvaydodek sango bag'ri to'la qon qaydadur.*

foilotun foilotun foilotun foilun

–V-- | –V-- | –V-- | –V –

Hazaj (hajazi musammani solim):

*O'luk denglar Huvaydoni, tirik bilmang burodarlar,*

*Yururman shunchaki bir o'lmagan tan ichra jonim bor.*

mafoilun mafoilun mafoilun mafoilun

V--- | -V--- | -V--- | -V---

Mutaqorib (mutaqoribi musammani aslam):

*Arzimni aydim bodi sabog'a,  
Etkursa holim ul dilrabog'a.*

fa'lan faulo'n fa'lan faulo'n

- | V    --    |    --    | V --

**Qissa va dostonlari.** Huvaydo mumtoz adabiyotmizdagi didaktik nasrchilik hamda epik dostonchilik an'alarini davom ettirib «Rohati dil» hamda «Ibrohim Adham» asarlarini yaratdi. Shoir «Rohati dil» masnaviysi muqaddimasida:

*Kitobim oti erur «Rohati dil»,  
Erur har bir so'zi tanbehi g'ofil.  
Ko'ngulning shahri sori azm qildim,  
Kitobim nasr erdi nazm—qildim, —*

deydi.

Shoir asarning nasriy nusxasini avval forsiyda yozib, so'ng turkiyxon kitobxonlarning ehtiyojini hisobga olib, uni turkiy nazmga aylantirgan kurinadi:

*Bu Chimyon shahriing piyru javoni,  
Tamomiysi erurlar turkiy xoni.*

«Rohati dil» asarining g'oyasini insonning ichki dunyosini boyitish, islom shariati ruknlariga ongli ravishda chuqur e'tiqod bilan amal qilish kabi mavzular tashkil etadi. Unda islom axloqi aqidalarini, farzu sunnatlarini tashviq qiluvchi ko'pdan-ko'p diniy—axloqiy hikoyatlar, rivoyatlar keltiriladi. Ulardagi obrazlarning bir guruhi iymon, soflik, halollik, poklik, insoniylik, ikkinchi guruhi

esa g'azab-nafrat uyg'otuvi obrazlardir. Shunday qilib, manzuma ko'pasrli adabiyotimizda qalamga olinib, tashviq-targ'ib etib kelingan shariat yo'riqlarini adabiy vositalar, obrazlar, she'r orqali xalqqa ta'sir o'tkazishga bag'ishlangan asardir. Ularda Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Navoiy, Mashrab, So'fi Olloyor asarlaridagi diniy-ma'rifiy mavzu va g'oyalar rivojlantiriladi. Shu bois, shoir uni «g'ofillarga tanbeh», saboq bo'lishi uchun yozganligini ta'kidlagan edi. Huvaydo bu holni quyidagi misralarda ham eslatib o'tadi:

*Talab qil, ma'naviy ganj, ey birodar,  
Vagarna sandin avlo gov ila xar.  
Talab qil, bo'lsa ganji beziyoni,  
Sanga bo'lg'ay chu umri jovidoni.  
Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor,  
Ani odam dema, de naqshi devor.  
Ketar, bil andin insofu diyonat,  
Kecha—kunduz bo'lur fikri xiyonat.  
Yig'ilsa molu mulkat misli Qorun,  
Ko'zi to'yimas, qilay der boz afzun...*

Huvaydoning «Ibrohim Adham» dostoni ham asosan diniy-axloqiy yo'nalishdagi asardir. Bu asarning shu nomdagi xalq kitobi namunalari ham yaratilganligi ma'lum. Huvaydo asari o'zbek epik poeziyasi dostonlariga yaqinligi bilan ajralib turadi. Doston Ibrohim Adham qismati bilan bog'li syujet chizig'iga, obrazlar silsilasiga egadir. Shoirning asosiy maqsadi zamondoshlarida halollik, poklik, xokisorlik, dinu diyonatda sobitqadamlikni ko'rish, ularga shunday e'tiqodni singdirish edi. Huvaydo dostonida ezgulik va yovuzlikni zid qo'yib tasvirlaydi. Zolim hukmdorlarga, riyokor shaxslarga, ilmiga amal qilmagan olimlarga nafratini bildiradi.

Xullas, Xojanazar Huvaydoning Ollohni dildan sevishni, uning oldida gunohkor bo'lib qolmaslikni tashviq etuvchi she'rlari bilan birga, real sevgini, oshiq-ma'shuqlarning orzu-maqsadlarini, shirin xayol va iztiroblarini, insonning hayotdagi o'rnini go'zal tarzda ifodalovchi she'rlari ko'pdir. U XVIII asr Farg'ona vodiysidagi adabiy

hayotda o‘z davrida ro‘y bergan voqealarga naqshbandiya tariqati qarashlari ko‘zi bilan qaragan, ularni «ham dil ba yor, ham dast ba kor» yo‘lida mushohada etgan zabardast shoir sifatida namoyon bo‘ladi. Huvaydoning naqshbandiylik ruhi bilan sug‘orilgan hayotbaxsh asarlaridagi sog‘lom an‘analar uning avlodiga mansub shoirlar hamda XVIII–XIX asrlarda mashhur bo‘lgan Amiriy, G‘oziy, Muqimiy, Furqat, Muhyi, Kamiy, Yusuf Saryomiy, Haziniy kabi iste’dodli shoirlar ijodida davom ettirildi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Huvaydo hayoti va ijodining o‘rganilishi tarixini gapirib bering.
2. «Devoni Huvaydo» mukammal qo‘lyozma nusxasining kotibi va nashrga tayyorlovchi shaxslar kimlar edi?
3. «Devoni Huvaydoni»ning janr tarkibini qanday she‘rlar tashkil etadi?
4. Naqshbandiylik tariqati g‘oyalarning Huvaydo ijodiga ta’siri nimalarda ko‘rinadi?
5. Huvaydoning qissa va dostonlariga doir yangicha talqinlarga munosabatingiz qanday?
6. Sirojiiy, Samarbonu, Salohiddin Soqib, Mullo Yo‘ldosh Xilvatiyning Huvaydo bilan bog‘lanadigan qay jihatlarini bilasiz?
7. XIX–XX asr shoirlaridan kimlar Huvaydo ijodiga ergashgan, shoir ijodining ular ijodiga ta’siri qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi?

### ***Mustaqil mashg‘ulot uchun topshiriklar***

1. Shoirning joriy nashrlardagi asarlarini («Tanlangan asarlar», «Devon», «Rohati dil», «Ibrohim Adham» qissalari) mutoala qilib, taassurotlaringizni daftarda qayd eting.
2. Huvaydoning «naqshbandiylik tariqatining Huvaydosi» ekanligini chuqurroq aniqlang.
3. «Huvaydo va Muqimiy», «Huvaydo va Furqat» mavzularida referat ish tayyorlab, ilmiy anjumanlarda ma’ruza qiling.
4. «Rohati dil» asarining ma’rifiy-ta’limiy ahamiyati haqida chuqurroq fikr yuritib ilmiy manbalarda aytilgan fikrlarga tanqidiy munosabatda bo‘lib, o‘z mulohazalaringizni yozma ravishda bayon qiling.

### *Adabiyotlar*

1. Ҳувайдо. Танланган асарлар. –Т., 1960.
2. Ҳувайдо. Роҳати дил. Қисса. –Т., 1993.
3. Ҳувайдо. Иброҳим Адҳам. –Самарқанд, 1995.
4. Хожаназар Ҳувайдо. Девон. – Т., 2005.
5. Абдуллаев В., Орзибеков Р. Ҳувайдо: Ўзбек адабиёти тарихи, 5 жилдлик, 3-жилд. –Т., 1978.
6. Зоҳидоа В. «Шоми ғариб», шаккок ва исёнкор шоир. «Ҳаётбахш бадиият тароналари» китобида –Т., 1975.
7. Жалолов Т. Самарбону. –Т., 1969.
8. Жумаҳўжа Н. Ҳувайдо тасаввуфий шеърларида фалсафий-бадиий талқин. «Шарқ юлдузи» журнали, 1998, 4-сон.
9. Жумаҳўжа Н. Ҳувайдо меросининг маънавий-маърифий моҳияти. –Т., «Маънавият» маркази, 1995.

## NURMUHAMMAD ANDALIB

O'zbek va turkman xalqlari orasidagi qardoshlik, adabiy-madaniy aloqalar juda qadimiy tarixga ega. Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chahor maqola» asari va boshqa qadimiy manbalarda xabar berilishicha, somoniylar va saljuqiylar hukmronlik qilgan davrlarda Marv yirik ilmiy markaz bo'lgan. Unda o'zbek, tojik va turkman olimlari, shoirlari yashab, ijod etganlar. Adabiy aloqalarimizning yaqinligiga guvoh bo'luvchi o'nlab dostonlar, xalq kitoblari borki, ulardan ayrimlarining dastavval qaysi xalq o'rtasida paydo bo'lganligini aniqlash qiyin. Bu xil asarlar, xususan, XVII–XIX asrlarda o'zbek va turkman shoirlari tomonidan ko'p yaratildi. Sobir Sayqaliyning «Bahrom va Gulandom», so'ngroq ko'hna Urganch va Vas (Toshovuz) tomonlarida yashagan Shohbandaning «Shohbahrom», XVIII asr oxirlarida yashagan turkman shoirlari Shaydoyi yaratgan «Gul Sanobar», Ma'rufiy yaratgan «Yusufbek va Ahmadbek» dostonlari g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra shu nomdagi o'zbek xalq kitoblari nusxalariga juda yaqin. Bunday asarlar ko'p. Ular turkman kitobxonlariga qanchalik estetik zavq, ma'naviy oziq bag'ishlasa, o'zbek kitobxonlariga ham shunchalik zavq va ma'naviy oziq beradi.

Ayniqsa, XVI asrdan boshlab turkman xalqi o'rtasida Alisher Navoiy asarlaridagi adolatparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak g'oyalar haqida juda ko'p naqlar, rivoyatlar vujudga keldi. Bu rivoyatlarda Alisher – Mirali, Sulton Husayn Sulton Suyun nomi bilan mashhurdir. Turkman adabiyotining taraqqiyoti, uning shakllanishi va xalqchil adabiyot bo'lib rivojlanishiga xizmati singgan Davlatmamad Ozodiy (Maxtumqulining otasi), turkman klassik adabiyotiga asos qo'ygan Maxtumquli, uning zamondosh va izdoshlari bo'lgan Mulla Nafas, Zaliliy, Sayidiy, Shaydoyi, Ma'rufiy, G'oyibiy, Kamina, Miskin Qilich va boshqalar Alisher Navoiyni ustod hukmida e'tirof yetishib, uning ijodidan bahra olganlar. Turkman shoirlarining ko'pchiligi ko'hna Urganch va Xiva madrasalirda o'qiganlari manbalarda, shu shoirlarning asarlarida qayd etiladi. Buyuk Maxtumqulining quyidagi orzusi turkman mutafakkirlari, shoirlari orasida Alisher Navoiyga, o'zbek mumtoz adabiyotiga bo'lgan e'tiqodning bir dalilidir:

*Domangirda yurgan ustoz Navoiy,  
«Chor devon»i, «Farhod Shirin» zuboyi,  
Zahiriddin Bobur mezonali oyi,  
Qoshlarida men Majnun bo'lsam.*

Navoiy g'azallariga G'oyibiy, Sayidiy, Volehiy, Mulla Nafas bog'lagan muxammaslar, naziralar o'zbek va turkman Adabiyotlari orasidagi yaqinlik hamda ijodiy aloqalarning ko'rinishlaridandir.

Nurmuhammad Andalib go'zal lirik asarlari, jonbaxsh dostonlari bilan ikki qardosh xalq mumtoz adabiyotining rivojiga muhim hissa qo'shgan. Andalib asarlarini ikki qardosh xalq vakillari sevib o'qimoqda, olimlari esa o'rganib kelmoqda. O'zbek va turkman olimlari Andalib merosi haqida yaratgan tadqiqotlarida u o'zbek va turkman Adabiyotlarining yaqinligini ifodalagan siymo sifatida talqin etilmoqda.

***Hayotiga oid ma'lumotlar.*** Nurmuhammad Andalib (bulbul)ning ismi, tug'ilgan joyi va hayoti haqidagi qisqa qaydlar uning «Yusuf va Zulayxo» dostonining kirish qismida keltirilgan. Shu dostonidagi to'qson olti misrali masnaviyda:

*Ismim edi Nurmuhammad g'arib,  
So'zda taxallusim edi Andalib.  
Shahrimiz Uganch viloyat edi.  
Xonimiz Shohg'ozini himoyat edi...  
Bo'yla Qaramozi erur joyimiz,  
Zikri xudo ishqila dilxohimiz...  
Barcha xaloyiq ichra mening ishim,  
Yetibdur ellik beshga mening yoshim...*

Munisning «Firdavs ul-iqbol» asarida keltirilishciha, Andalibning yuqoridagi misralarida nomi keltirilgan hukmdor Shohg'ozini atiga ikki yil hukmdorlik qilib, 1767 yili o'ldirilgan ekan. Bundan Andalibning 1711–1712 yillar mobaynida tug'ilganligi ma'lum bo'ladi. Biroq uning vafoti sanasi ma'lum emas. Ba'zi tadqiqot asarlarida uning 1770–1771 yili vafot etganligi taxmin qilinadi. U Xiva madrasalarida o'qib, o'z zamonasining zukko shoirlaridan biri bo'lib kamol topadi.



**Poetik mahorati.** Nurmuhammad Andalib ancha salmoqli adabiy meros qoldirgan. She'riyat bobida ayniqsa Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Bobrrahim Mashrab va boshqalarning merosini qunt bilan o'rganib, ularning an'anasini davom etdirgan. Biroq, uning lirik she'rlari bizgacha to'liq yetib kelmagan. Hozir ma'lum bo'lgan she'rlari atigi 35ta bo'lib, ularning 23tasi o'zi ko'proq e'tiqod qo'ygan va asarlarini sevib mutolaa qilgan Alisher Navoiy, Mashrab g'azallariga yozilgan nazira hamda tazmin muxammaslardir. Uning taxmislari orasida Jomiy, Vafoiy va Habib g'azallariga bog'langan tazmin muxammaslar ham bor. Andalib lirikasiga mansub she'rlarning bizgacha yetib kelgan namunalaridan anchasida xalq she'riyatining ta'siri kuchlidir. Ular mazmuni va badiiy shakliga ko'ra xalq qo'shiqlariga o'xshab ketadi. Ular shodlik, hayotsevarlik ruhi bilan sug'orilgan:

*Jannat—sening visoling, hajring erur qiyomat,  
Sadqa bo'lay ko'zingdin kelgin quchog'a dilbar...*

*Keldi ul sarvi sahi noz ila xandon-xandon,  
Oldi ko'nglimni navozish bila chandon-chandon...*

*Qoldilar sayr qilurda yuzu la'li labini,  
Gul boqib, g'uncha ochib og'zini, hayron-hayron.*

Andalib lirik she'rlari tarkibida shaxsning charxi bemuruvvatdan, taqdirdan nolish, og'ir hayot qiyinchiliklari tufayli ko'ngil hazin bo'lib, benavo-bechora ahvoriga tushib qolganligidan faryod chekish ohanglari uchrab qoladi. Bunday she'rlari xasbihollilik xususiyatiga ega. Ularni shoir qismatining badiiy ifodasi deyish mumkin.

Andalib lirikasi xususida fikr yuritganda, uning tazmin muxammaslari o'zgacha go'zallikka ega ekanligini ta'kidlamoq lozim. Andalib muxammas bog'lagan g'azallarining deyarli hammasi negbinlik, hayotiylik pafosiga ega bo'lgan, o'quvchiga umid va shodlik baxsh etuvchi she'rlardir. She'rlarining barchasi xalq ardoqlab, sevib o'qib, kuylab kelgan g'azallardir.

Andalib Mashrabning bir qancha gʻazallariga javobiyalar, nazira sheʼrlar yozgan. Ular ichida murabba va musaddas shakllaridagi namunalar ham borligi diqqatga sazovordir.

**Dostonlari.** Andalibning «Zaynularab», «Yusuf va Zulayxo», «Layli va Majnun» kabi dostonlari klassik dostonchilik hamda oʻzbek va turkman xalqlari orasida ancha keng tarqalgan «Xalq kitoblari»ning eng yaxshi xususiyatlarini oʻzida mujassamlantiradi. Bu dostonlar XVIII–XIX asrlar davomida qayta-qayta koʻchirilgan, chop etilgan. Birgina «Yusuf va Zulayxo» dostonining oʻzi 1904–1912 yillari Kogon, Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida olti marta nashr qilingan. Uning yuqorida zikr etilgan uch dostoni ham xalq qissalariga xos anʼanalarga ega, nasru nazm shaklida yozilgan. U «Zaynularab» dostonida Zaynularab bilan Muhammad Hanifa oʻrtasidagi samimiy sevgini jozibali tasvirlaydi. Bu doston janri eʼtiboriga koʻra, ishqiy-qahramonlik xarakteridagi sarguzasht dostonidir. Dostonning asosiy qahramonlari Ali, uning oʻgʻillari Muhammad Hanifa, Imom Hasan va Imom Husayn kabi diniy-tarixiy shaxslar boʻlsa ham, ular xalq qissalari va dostonlaridagi qahramonlar sifatida harakat qiladilar, ezgulik uchun kurashadilar. Dostonda Muhammad Hanifa bilan Zaynularab orasidagi sadoqatli doʻstlik, samimiy sevgi, bir-biriga vafodorlik tuygʻulari mahorat bilan tasvirlanadi.

Andalibning «Yusuf va Zulayxo» dostoni shu turkumda yaratilgan anʼanaviy dostonlarning yetuk namunalaridan biridir. Shoirning bu dostoniga Rabgʻuziyning «Qissai Yusuf» asari asosiy manba boʻlgan. Buni shoirning oʻzi doston muqaddimasida zikr qilib oʻtgan. Andalib dostonida ezgu orzu-maqсадlar yoʻlida har qanday qiyinchiliklarga, toʻsiqlarga qaramay kurashish kerak degan gʻoyani ilgari suradi. Dostonnavis oʻz qahramonlari taqdirida bunday gʻoyaning toʻgʻriligiga ishonch uygʻotishga muvaffaq boʻladi. Chunki uning qahramonlarida aql-idrok, muhabbatda sadoqat, vafodorlik, qiyinchiliklardan qoʻrqmaslik, imon-diyonat kabi goʻzal insonlik fazilatlar ustundir.

**«Layli va Majnun» dostoni.** Bu mavzuda buyuk ozarboyjon shoiri Fuzuliy ham goʻzal doston yaratdi. Oʻz ijodida Fuzuliy anʼanalariga alohida eʼtiqod qoʻygan Andalib, uning «Layli va Majnun» dostonidan kuchli taʼsirlanib oʻz asarini yaratdi. Bu hol ikki dostonning bir-biriga

qiyosiy tahlili jarayonida ochila boradi. Tadqiqotchilarning fikrlaricha, ikki shoir-salaf va xalaf asarlari syujetidagi mushtarak tomonlar, epizodlar, bilan birga, Andalib dostonida Fuzuliy dostonidagi o'xshamagan yangi epizodlar, lavhalar, o'rinlar anchadir. Fuzuliyning «Layli va Majnun» dostoni o'z tuzilishi, tasvir uslubiga ko'ra, kitobiy poemachilik namunasidir; xamsanavislikdagi «Layli va Majnun» dostonlarining davomidir, shu turkumdagi dostonlarning lirizm bilan boyitilgan o'ziga xos, original namunasidir.

Nurmuhammad Andalib dostoni uslubi, tili va tasviriy vositalarining sodda va avomfahmliigi bilan ajralib turadi. Unda xalq kitoblari, qissalariga xos xususiyatlar ustun. Bu asar, Andalibning boshqa dostonlari kabi, nasru nazm aralash yozilgan. Umuman, Andalib dostonlari tarkibida uning g'azal, murabba', maktub, muxammas, mustazod shakllaridagi she'rlari ham keltiriladi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Nurmuhammad Andalib ijodiga xos jihatlar nimalarda ko'rinadi?
2. Andalib she'riyati va epik asarlariga xos uslubiy jihatlarni, izohlang?
3. Andalib dostonlarining an'ana bilan bog'liq hamda o'ziga xos jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

### ***Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar***

1. Andalib merosiga aloqador mavjud tadqiqotlarni o'qib chiqib, konspektlashtiring.
2. «O'zbek adabiyoti tarixi»da berilgan «Nurmuhammad Andalib» adabiy portretini, Ayomiyning "O't chaqnagan satrlar" kitobidagi "Qora mozilik Andalib" maqolasini o'qing.

### ***Adabiyotlar***

1. Nurmuhammad Andalib: O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 3-tom. —T., 1978.
2. Ayomiy O't chaqnagan satrlar. —T., 1983.
3. O'zbek adabiyoti. Majmua: IV va V tomlar. (Andalib she'rlari va «Layli va Majnun» dostonidan parchalar). —T., 1959.

## **XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA ADABIY HAYOT**

XIX asrda ham O'rta Osiyo mintaqasida uchta — Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari hukmronliklari davom etdi. Buxoroda mang'it, Xorazmda qo'ng'iroq, Qo'qonda ming urug'i sulolasi hokimiyatda bo'ldi. Feodal xonliklari o'rtasida ziddiyatlar, o'zaro urushlar bo'lib turdi. Ayniqsa, Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasidagi kelishmovchiliklar avj olib, bu hol 1841 yili dahshatli oqibatlariga olib keldi. Nodiradek aql-zakovat egasi fojiali halok bo'ldi. Xiva xonlari ularning zulm-istibdodlariga qarshi bosh ko'targan turkman va qoraqalpoq elatlarining qo'zg'olonlarini shafqatsizlik bilan bostirdilar. Amir Olimxon ruslar tomonidan xavf paydo bo'lishi ehtimolini o'ylab, Qo'qon xonligi sarhadlarini hozirgi Chimkent va Jambul viloyatlari xududlari hisobiga kyengaytirib, Qozog'iston bilan chegaradosh Oqmajidda harbiy istehkom qurdirtdi.

Madaniy-ma'naviy hayot xonliklardagi siyosiy-ijtimoiy ahvolga qarab turli notekisliklar bilan davom etdi. Ayniqsa, Xivada, Buxoroda, Samarqandda bir qancha madrasa, xonaqohlar qurildi, turli hududlarda o'nlab shoirlar, tarixchilar, xattotlar, tazkiranavislar, tarjimonlar yashab, faoliyat ko'rsatdilar. Qo'qon va Xivada saroy adabiy markazlari vujudga keldi. Xivada Ogahiy, Feruz, Qo'qonda amir Umarxon—Amiriy boshchiligidagi adabiy markazlar tufayli badiiy ijod sohasida yangilanish, rivojlanish kFzga tashlandi. Agar Xorazmda Munis, Ogahiy, Feruz faoliyati tufayli adabiyot, tarix va tarjimachilikda jonlanish sezilgan bo'lsa, Qo'qonda kuchli adabiy markaz vakillari tufayli badiiy ijod yuksaldi. Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlari filolog studentlariga mo'ljallangan «O'zbek adabiyoti tarixi» dasturida XIX asr «an'ana va yangiliklar davri adabiyoti» o'rganilishi va o'qitilishi ko'zda tutilgan.

XIX asrning o'rtalariga kelib O'rta Osiyo mintaqasida tarixiy-ijtimoiy vaziyat keskin tarzda o'zgardi. 1876 yili chor Rossiyasi bosqini tufayli Qo'qon xonligi tugatildi, uning hududlarida yangi harbiy-byurokratik hokimiyat — Turkiston general—gubernatorligi hukmronligi o'rnatildi. Bu erlarda passiv holda davom etayotgan saroy adabiy muhiti barham topdi.

1868 yili Buxoro, 1873 yili esa Xiva xonliklari ham Rossiyaga taslim bo'lishib, og'ir siyosiy, moliyaviy va harbiy shartlar evaziga o'z mustaqilliklarini saqlab qolgan bo'lsalar-da, Rossiyaga ko'p jihatdan tobe' mamlakatlarga aylandilar. Bu ikki xonlik ichida Xorazmda Muhammad Rahim II Feruz hukmronligi davrida (1863–1910) madaniyat, adabiyot yuksaldi. Feruz, Ogahiy, Komil, Tabibiy, Bayoniy kabilar ishtirokida she'riyat, tarixnavislik, xattotlik, musiqa, tarjimachilik, noshirlik sohalarida kuchli rivojlanish ko'zga tashlandi. Buxoro amirligida amir Muzaffarning o'g'li amir Abdulahad – shoir Ojiz hukmronligi davrida (1885–1910) iste'dodli tazkiranavis, adib va shoirlar (Rahmatullo Vozeh, Mirza Azim Somiy, Sahbo, Ahmad Donish, Salimiy kabilar) yashab, ijod etdilar. Bu asr adabiy jarayoni va unda ishtirok etgan ijodkorlar haqida 1821 yili Qo'qonda Umarxon topshirig'i bilan maydonga kelgan «Majmuat ush- shuaro», Xivada Feruz topshirig'i bilan yozilgan «Majmuat ush- shuaroysi Feruzshohiy», 1871 yili Buxoroda Vozeh tomonidan yozilgan «Tuhfat ul-ahbob...» va «Tazkirai Hashmat», «Tazkirai Pirmastiy», «Tazkirai Mirza Azim Somiy» kabi adabiy tazkiralarda ma'lumotlar berildi.

## SHERMUHAMMAD MUNIS

Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munis XIX asrning I yarmi o'zbek adabiyotining peshqadam, rahnamo vakillaridan biridir. 1778 yili Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida dunyoga kelib, vabo tufayli atigi 51 yoshida hayotdan ketgan bu buyuk iste'dod sohibi ulkan meros qoldirdi. Uning zabardast shoir, iste'dodli muarrix, xattot sifatida yaratgan asarlari o'tmish merosimizning yorqin sahifalarini tashkil etadi. Shoirning «Munis ul-ushshoq» devonida o'n ikki ming misraga yaqin she'r mavjud. «Firdavs ul-iqbol» nomli asari o'rta asr tarixnavisligining Sharafiddin Ali Yazdiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'oziy asarlaridagi eng yaxshi an'analarini o'zida mujassam etgan. Uning xattot sifatida kitobat qilgan asarlari, tarjimalari, ma'rifiy-pedagogik asarlarining ahamiyati ham katta. U, ayniqsa, badiiy ijodi bilan XIX asrga kelib ko'tarilish jarayonidagi Xorazm adabiy muhitiga ravnaq, salohiyat bag'ishlagan siymodir.

***Munis va Sharq mumtoz she'riyati.*** Munisning iste'dodli shoir sifatida shakllanishi va kamol topishida she'riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiyning ta'siri katta. Munis Navoiy ijodining Xorazmdagi eng kuchli muxlislaridan va tashviqotchilaridandir. U Navoiyni o'ziga adabiy ta'lim yo'lida ustoz, pir deb bilgan. Jumladan, shoir faxriya tarzidagi «Manga» radifli g'azalida «Agar she'riyatda myenga birorta hasadgo'y noo'rin ta'na-daxl qilgudek bo'lsa, bunga aslo qayg'urmayman, parvo qilmayman, chunki Navoiy ruhi, madadi ma'ni bobida mening himoyachimdir» mazmunida:

*Oilsa hosid daxli bejo so'z aro yo'qtur g'amim,  
Kim bu ma'nida Navoiy ruhi homiydur mango*

baytini keltiradi. U ruboiylarining birini maxsus Navoiy ta'rifiga bag'ishlagan. Bu ruboiyda Navoiy so'z iqlimidagi jahongirlarga o'xshatiladi.

Munisning Navoiy va uning ijodiga muhabbati qanchalik kuchli bo'lganligini «Munis ul-ushshoq»dagi ko'pgina she'rlarning qiyosiy tahlili orqali anglab olish mumkin. Navoiyning mashhur orifona va oshiqona g'azallariga ergashib yozgan g'azallari, tazmin

muxammaslari buning uchun yaxshi material bera oladi. Munis ancha g‘azallarida Navoiydan aynan baytlar olib, ularni o‘z she‘rlari tarkibida tazmin sifatida keltirib, shu misra va baytlar darajasida badihalar yaratishga erishadi. Nazirai benazir g‘azallar, muxammas va qasidalar yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Masalan, Munis Navoiyning «Hiloliya» qasidasidagi

*Ey qoshing mehrobi tarh aylab yangi oy hay’atin,  
Vaqf ango qilmish maloyik xayli naqdi toatin –*

matla’ baytini keltirib, so‘ng unga javob ayta olish shoirning balog‘ati mezonidir, – deydi va shu bayt izidan borib, unga mos tushuvchi «Iyd» qasidasini yarata olganligidan faxrlanadi.

Munis tomonidan Navoiyning elga juda mashhur bo‘lib ketgan «Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab» misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga yozgan etti bandli tazmin muxammasi shu g‘azalga boshqa shoirlar tomonidan yozilgan o‘nlarcha tazmin muxammaslarning eng nodir namunasi. Bunda Munis Navoiy g‘azalining ichki strukturasi, poetik ohangdorligiga xalal yetkazmaydigan holda uni voqeaband asar darajasiga yetkazadi, lirik qahramonga hos kechinmalarni yangi go‘zal lavhalar evaziga boyitadi.

Xullas, Munis ijodida ustod Navoiy ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bundan, albatta, Munis she‘riyati boshqa daryolardan bahramand bo‘lmagan ekan-da, degan xulosa chiqmaydi. Zero, u adabiy ta’limi juda keng bir ijodkor siymo sifatida ko‘zga tashlanadi. Bunga uning «Mango» radifli g‘azalida nomlari faxr bilan zikr etilgan buyuk shoirlar shohiddir. Shu ma’noda, Munis ta’sirlangan, ma’naviy-estetik madad olgan adabiy chashmaga Navoiy ijodiyoti ta’siridan tashqari, yana ikki irmoqni qo‘shish to‘g‘ri bo‘lardir. Bulardan biri – Nizomiy, Xusrav, Ansoriy, Hofiz, Attor, Firdavsiy, Xoqoniy, Anvari, Sa’diy, Jomiy, Iroqiy, Bedil nomlari bilan bog‘li fors-tojik klassik adabiyoti, ikkinchisi shirin zabon Muhammad Fuzuliy va uning lirikasidir. U Fuzuliyning «Kerakmasmu sanga?», «Etdigumdandur» g‘azallariga muxammaslar ham bog‘ladi.

«*Munis ul-ushshoq devoni*. Munis adabiy merosi muallif tomonidan 1815 yili tartib berilgan, keyinchalik to'ldirilib, tahrir etilib «Munis ul-ushshoq» nomida bizgacha yetib kelgan devonda jamlangan. Bu devonda mumtoz she'riyatimizda mavjud qariyb barcha an'anaviy janrlardagi she'rlar keltiriladi. Tabiiyki, unda g'azallar yetakchi o'rin tutadi. Shu devonga yozilgan muallif debochasida Munis unga kiritilgan she'rlarning janr tarkibi haqida so'z ochib, quyidagilarni qayd etib qoldirgan: «...Har nav' she'r ila orasta va har zarif nazm bila pirasta bo'ldi. Andog'kim, g'arro qasidalar, dilkusho g'azallar, fasohatoyin tarkib-bandlar, latofat taz'yin (ziynat topgan) qit'alar, sharif musaddas va muxammaslar, latif ruboiy va muammolar, shirin masnaviy va rangin tuyug'lar va g'ayra ham taxminan olti ming baytdir... Aksar g'azal va ruboiylarkim majoz yo'sinida ishq va husni zohiriy sifatida voqe' erdi... «Munis ul-ushshoq»g'a mavsum bo'ldi».

Munis devonida Navoiy va Boburdan so'ng juda kam yaratilgan muammo she'r namunalari ham bor. Agar «Munis ul-ushshoq»dagi she'rlar haqida XX asrning 50–yillaridan boshlab marhum olimlardan N.Mallayev, V.Abdullayev, M.Yunusov tadqiqotlar (nomzodlik dissertatsiyasi, adabiy portret va ilmiy ocherk) yaratgan bo'lsalar, 90–yillari yosh olim Nusratulla Jumaxo'ja «Munis g'azaliyoti» (1991) nomida shoir she'rlaridagi badiiy mahorat xususida risola yaratdi. «Munis ul-ushshoq» 1957 yili devon sifatida, 1980 yili esa, ancha to'ldirilib «Saylanma» tarzida chop etildi. Nomidan ham ma'lum bo'layotirki, «Saylanma»ga kiritilmay qolgan she'rlar (hamdlar, na'tlar, qasidalar) hali ancha. «Saylanma»ning joriy nashridan asosan g'azallar, to'rtta qasida, 38 ruboiy, 8 tuyuq, 2 mustazod, Navoiy g'azallariga yozilgan 6, Fuzuliy g'azallariga yozilgan 2, Andalib g'azaliga yozilgan 1 muxammas, 2 musaddas, 5 qit'a, «Chilim» so'zi yashiringan g'azal-chiston hamda «Savodi ta'lim» manzumi o'rin olgan. Asar oxirida tushunilishi qiyin arabcha-forscha so'zlarning alfavit tartibidagi lug'ati berilgan (341–364–betlar). «Saylanma»ga xorazmlik olim va shoir Yunus Yusupov kirishso'z yozgan, noshirlik qilgan.

«Munis ul-ushshoq» shoir she'riyatining mazmunini,



mohiyatini, muallifning estetik maqsadini ifodalaydi. «Munis» soʻzi doʻst, ulfat, hamdam; «ushshoq» soʻzi sevishganlar, oshiqlar maʼnolarini anglatadi. Maʼlum boʻladiki, «Munis ul-ushshoq»dagi lirik sheʼrlar sevishganlarning qalb kechinmalari, dard-alamlari, orzu-umidlari, visol shodliklari va hijron iztiroblarini aks ettiradi. Shoir oʻz devoni va undan joy olgan sheʼrlarning dunyoviy hamda ilohiy ishq ahli bilan hamdam boʻlishini uning nomlanishida ramziy tarzda ifodalaydi.

«Munis ul-ushshoq»dagi oshiqona, orifona, didaktik gʻazallar shoir ijodidagi anʼanaviy xususiyatlarni namoyon etsa, hasbi hollilik, ijtimoiylik va tanqidiylik mazmuniga ega sheʼrlar uning davr tashvishlari bilan hamnafas ekanligini, asarlari davriy hodisa ham ekanligini namoyon etadi. Keyingilari Munis ijodiyotiga xos yangiliklar sanaladi. Bunday sheʼrlarda shoir oʻz davrining ilgʻor, maʼrifatparvar arbobi sifatida gavdalanadi. Fuqaroparvar, diyonatli, vatanparvar siymo, mazlumlarga achinuvchi, zolimlarga nafrat ifodalovchi adolatpesha hakam sifatida koʻrinadi.

Munis gʻazaliyoti shoir davri hayotining muhim tomonlarini ifodalashi bilan muhimdir. Uning koʻplab gʻazallari anʼanaviy mavzu va uslubda yozilganligiga qaramay muayyan bir maʼnoda shoir hasbi holi, taqdir-qismati, zamondosh fuqaro ahli ahvolotini ham aks etdiradi. Hatto ayrim gʻazallarini shoir tarjima holi, dard-alamlari tasviriga bagʻishlangan monolog xarakteridagi avtobiografik gʻazallar desa ham boʻladi. U motamsaro bir gʻazalida «Andogʻkim, ota va ona va ini mani bekas ibtilosigʻa sazovor va motamkashlik balosigʻa giriftor qildi», deydi.

*Nasibim gʻam uza gʻam boʻldi charxi gardondin,  
Musibat uzra musibat etushdi davrondin –*

deb nola chekadi shoir «Munis ul-ushshoq» devoniga yozilgan debochada. Bunday oilaviy fojia kechinmalaridan tashqari, u gʻazallarida nochor fuqaro ahvoli, tirikchiligi mavzulariga ham murojaat etadi, ularni dard bilan qalamga oladi.

*Ne natija berur adab, ne nazarga kirar nasab,  
Bas erur bu zamonda bisoting aro boʻlsa qaro siymu zaring–*

deya nola qiladi shoir. Munis ma'rifatparvar ijodkor sifatida o'sha zamonda ilm-fazl ahllari, shu jumladan, shoirlarning qadrsizlanganligini, ularning qismati nihoyatda og'ir kechayotganligini tasvirlar ekan, o'zining shoh asarlari sanalmish «Shuaro», «She'r», «So'z» radifli g'azallarida bunday baxtiqarolikning sababchisi jamiyatda hukm surayotgan tengsizlik, jaholat ahli deb biladi.

*Yutubon bu zamonda qon shuaro,  
Nazm etar gavhari fig'on shuaro...  
Yuz xushomad bila gadolig'yetib,  
Topa olmas emakka non shuaro...  
Dardmandu jafokash elga qilur,  
Nazm ila dardini bayon shuaro.*

Uning adolatli, muruvvatli hukmdorlar haqidagi sotsial qarashlarida ham navoiyona gumanistik qarashlar yotadi. U zamona hukmdorlariga murojaat yetib, ulardan ulusga, muhtojlarga nisbatan shafqat, g'amxo'rlik talab qiladi. Aks holda, oqibati yomon bo'lishini ogohlantiradi. Munisning ixcham bir masnaviy she'rida biz shunday baytlarni o'qiyimiz:

*Sabot istasang yurt bunyodig'a,  
Adolat bila et ulus dodig'a.  
Adolat o'ldi el osoyishi,  
El osoyishi – mulk oroyishi.  
Qayu mulkkim shohi odildurur,  
Anga barcha el ko'ngli moyildurur...*

Ma'lumki, g'azalshunos olimlarimiz o'zbek g'azaliyotining ko'pasrli tajribalarini chuqur o'rganishib, uni kompozitsion jihatdan parokanda, yakpora, voqeaband hamda musalsal tuzilishga ega g'azallar sifatida tekshirishni tavsiya qiladilar. Ayniqsa, mavlono Lutfiy, she'riyat mulkinging sultoni Navoiy va ularning nihoyatda iste'dodli davomchisi Bobur ijodida yakpora g'azallar yaratishga e'tibor kuchaydi. Chunki yakpora g'azallarda muayyan mavzuni izchil yoritish, matladagi fikrni g'azal oxiriga qadar poyama-poya davom ettirish, chuqurlashtirib boorish, shu yo'l bilan g'azalni

mazmun va poetik shakl jihatidan yaxlit qilish nazarda tutiladi.

Shermuhammad Munis gʻazallarining koʻpchiligini yakpora gʻazallar tashkil etadi. Uning davrning ijtimoiy masalalari tasviriga bagʻishlangan turkum gʻazallarining deyarli barchasi shunday kompozitsiyaga ega. Bu hol shoirga zamonadagi nosozliklarning ancha real manzaralarini chizish imkoniyatlarini ochadi. Uning «Yutubon bu zamonda qon shuaro», «Sheʼr ul tigʻi dudamdurkim, jahonni fath etar», «Sabot istasang mulk bunyodigʻa», «Xos oʻlub joh ahligʻacha inʻomi sohib tojlar», «Bul zamon ichra aziz el ne ajab xor oʻlub...», «Roʻza bisoyr meni tang etmish» misralari bilan boshlanadigan yakpora gʻazallarda chuqur sotsial mazmun bor. Munisning

*Shukrilillahkim, tushumgʻa kirdi jonon bu kecha,  
Aylanib komim bila garduni gardon bu kecha –*

matlaʼli 9 baytdan iborat ishqiyy gʻazali esa voqeaband gʻazallarning oʻziga xos namunasidir. Gʻazal shoirning tushida koʻrgan voqeasi, mahbub bilan uchrashuvi, u bilan muloqoti, xushbaxtligi voqeasi tasviridan iborat. Tush epizodi shoir uchun tasvir vositasi boʻlib xizmat qilgan.

Quyidagi gʻazal esa tadrij sanʼati asosida yuzaga keltirilgan musalsal kompozitsiyali gʻazaldir. Tadrij usuli qoʻllangan gʻazallarda aks ettirilayotgan kechinma, fikr, manzara misra va baytlar aro darajama-daraja rivojlantirilib boriladi. Bu sanʼatning noyob namunalari Navoiy gʻazaliyotida yuksak mahorat bilan namoyish qilingan. Munis Navoiy maktabiga xos shu usulda ham gʻoʻzal, original gʻazallar ijod etgan. U Navoiyning

*Yordin ayru koʻngul mulkedurur sultoni yoʻq,  
Mulkkim, sultoni yoʻq, jismedururkim joni yoʻq–*

matlaʼli mashhur gʻazali taʼsirida shunday musalsal gʻazal yaratgan:

*Bu ne hijron shomi erdikim, oning poyoni yoʻq,  
Vasl subhining tuluʼ etmak dame imkoni yoʻq.  
Yorsiz xayli torojlar solgʻon koʻngul,  
Goʻyiyo bir kishvaredurkim, oning sultoni yoʻq.  
Gulshani komim hazon oʻlmish sarosar oʻylakim,*

*Bargi ham yo'qtur demaykim, bir guli xandoni yo'q.  
Zavqi diydoru jamoli shohidu tavfiqa ishq,  
Har ko'ngulkim, onda yo'qtur, paykaredur joni yo'q...*

Shermuhammad Munis bir qancha zavqli tuyuqlar ham yaratib, o'zi yangidan kashf etgan tajnis (omonim) so'zlardan qofiyalar tuzgan. Munis tuyuqlari ichida ungacha o'tgan shoirlar tomonidan qofiya sifatida ishlatilmagan ko'pma'noli so'zlar tajnisli qofiyalar bo'lib keladi:

*Muniso, to'kmay yigirma yetti yosh,  
Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh.  
Yosh kibi mashg'ulliq qilmoq nedur,  
Har qachonkim suhbatingga etti yosh.*

*Mani vasling yo'lig'a bir yondur,  
Dushmanim g'am o'tig'a bir yondur,  
Rahm ushshoq aro bu xastag'akim,  
Bir tarafdur alar, bu bir yondur.*

Uning ruboiylari ichida ham inson qalbini junbushga keltiruvchi nozik ruhiy-psixologik lavhalar beriladi. Quyidagi ruboiyni Munisga nihoyatda aziz bo'lgan inson bilan vidolashuv haqidagi marsiya deyish mumkin:

*Ey do'st, tani zorim aro jonim eding,  
Iqlimi muhabbat uza sultonim eding,  
Xush keldingu jonimda nishiman qilding,  
Xush borki, base aziz mehmonim eding.*

U o'sha davr Xorazm shoirlari ijodida kam uchrovchi chiston janrida ham asarlar yozgan. Shunday chistonlaridan biri «Chilim» so'zi yashiringan chiston-g'azaldir. Unda nashavandlikning, chilim chekishning o'ta zarari, shariatda «harom» deb e'lon qilinganligi aytilib, odamlar ayniqsa yoshlar bu falokatdan uzoqda bo'lishlari ogohlantiriladi.

Xiva xonlari saroyiga yaqin bo'lgan, rasmiy xizmatlarni ado etgan Munis va Ogahiy qasidada ham shuhrat taratdi. Munis qo'lyozma devonining boshlang'ich qismlarini qasidalar tashkil etadi. Ular

ichida XVIII asr so'ngi –XIX asr avvallarida hukmronlik qilgan eltuzarxon, Muhammad Rahimxon, Olloqulixon hamda Muhammadrizo Qushbegi, Qutlug'murod, Rahmonquli To'ra kabi nufuzli shaxslar maqtoviga bag'ishlanganlari bor. Munis Xiva xonligi bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi urush, qoraqalpoq va turkman elatlariga qarshi xunujlar, arkoni davlat va zodagonlarning ov-shikor, to'y-bazm, iyd dabdaba va hashamatlari haqida ham qasidalar bitgan. «Bahor», «Iyd», «Erur charxi berahm», «Charog'i nola» nomlari bilan Munis «Saylanma»siga kiritilgan qasidalari shunday. Ularda shoir saroy qasidachiligi an'analaridan uzoqlashib ketolmaydi, qalamga olgan mavzu va shaxslarni iloji boricha maqtashga harakat qiladi. Shunga qaramay, Munis qasidalaridan ham o'sha murakkab davr hodisalariga doir ayrim tomonlarni ajratib olish mumkin.

Shoir «Saylanma»sida keltirilgan «Bahor» qasidasi oxiriga uch nuqta qo'yilgan. Demak, u bahor vasfiga bag'ishlangan qasidaning to'liq matni emas. Shoir bu qasidani hut oyi o'tib hamal (mart) fasli kelganligiga belgi sifatida, aniqrog'i, bahor-navro'z madhiga bag'ishlab yozadi. Shoir o'ziga xos til va uslub ila bahor tarovatining turli go'zalliklarini mohirlik, katta ilhom bilan madh etadi. Bahor tufayli tabiat, jonli mavjudot, butun atrof-muhit jonlanganligini, yangi qiyofaga kirganligini, suvlarning nozik shildirashiyu, qumribullarning mast bo'lib sayrashlarini ifodalab beradi. Bu asarni bahor, tabiat jozibasi haqidagi eng yaxshi qasida desa bo'ladi.

«Saylanma»dagi ikkinchi qasida «Iyd» deb nomlanadi. Tabiiyki, u musulmonlarning eng muqaddas bayrami «Iydi ramazon» yoxud «Iydi qurbon»ga bag'ishlangan. Munis bu muqaddas bayram fayzi bilan juda chuqur o'y-mulohazaga beriladi. Chiroyli ramzlar, tashbehtar, obrazlar, qiyoslar topib, bu qutlug' kunni sharaflaydi. She'rdan anglashilishicha, bu asar Alisher Navoiyning «Hiloliya» qasidasi ta'sirida yozilgan. Munis hatto «Hiloliya» qasidasidan tazmin uchun baytlar ham keltiradi.

Shoir o'z qasidasi Navoiy qasidasiga tatabbu' (bir she'rga o'xshatma qilib, uning vazni, uslubi, mazmuni izidan borib she'r yaratish san'ati) ekanligini ham eslatib o'tadi:

*Yuzlanib har lahza shoirlarga fayzi inbisot,  
Toza qildi har biri bir nazm birla fikratin.  
Men dog'i ul jumladek filjumla tab'im ochilib,  
Gulshani fikrimda ko'rguzdim eram xosiyatin.  
Jur'ate aylab Navoiyg'a tatabbu' ayladim,  
Safha uzra xoma surdim istab oning himmatin...*

Munis «Saylanma»sida keltirilgan yana ikkita qasida zamona nosozligi, charxikajraftorning shumligidan shikoyatga bag'ishlangan qasidalardir. Ular kuchli ijtimoiy motivlarga, hasbi hollik xususiyatlarga ega. Ularda shoirning «men»i bor. Uning daxridunning bedodliklaridan, taqdirning tahqirlashidan chekkan ohu nolalari eshitilib turadi. «Erur charx berahm» degan nom bilan keltirilgan birinchi qasida 23 baytdan iborat. U g'azal qofiya tartibida *aa, ba, va, ga, da...* tarzida qofiyalanib keladi. Matla' bayti:

*Erur charx bir turfa barahmu qotil,  
Ki osmish qilich mohi navdin hamoyil –*

tarzida beriladi.

Asarni baytlar hajmiga ko'ra katta bo'lganligi uchungina qasidaga kiritish, qasida deb atash mumkin. Chunki o'tmish she'rshunoslari «Agar g'azal o'n to'qqiz baytdan ortib ketsa, bunday she'r qasida deyiladi» tarzida fikr aytganlar. Munisning ushbu asari uning «Shuaro», «She'r», «So'z», «Xos o'lib joh ahliga» g'azallari kabi haqsizlik va qashshoqlikdan shikoyat qiluvchi asarlari jumlasiga kiradi. Shoir qasida davomida shum zamonning bevafoqligi tufayli inson boshiga yog'dirilayotgan g'amu anduhlardan bezganligini, chorasiz qolganligini tasvirlab beradi:

*Ulum ichra gar rif'ate topsa olim,  
Qilur xor, balkim giriftori johil...  
Na she'r irtifoe topadur, na shoir,  
Na fazl e'tibore topadur, na fozil.  
Bu yanglig' jafosiga yo'q haddu g'oyat,  
Zamona aning kinidin bo'lma g'ofil...  
Falak shikvasiga tunganmak na mumkin,  
Agar sharhiga tortsang xoma yuz yil.*

Ko'rinadiki, qasida falak shikvasiga qaratilgan. Shoir uning inson boshiga yog'dirayotgan kulfatlari ustidan aybnoma chiqargan. Bundan keyingi qasidani ham fikriy yo'nalishiga ko'ra birinchi qasidaning davomi deyish mumkin. U «Charog'i nola» deb nomlangan. «Saylanma»dagi matni to'liq emas. Qisqartirilib keltiriladi. Chunki matn oxirida shoir taxallusi keluvchi maqta' bayt yo'q.

Bu qasidadagi muborizkor, davr bilan kelisha olmayotgan siymo shoirming o'zidir. U qasidaning boshidan oxirigacha nolayu-afgon tortadi. O'z qismatining og'irligidan, nochor ahvolidan, ruhan majruhligidan so'zlaydi. Bu siymoning kuni ham, tuni ham, ro'zg'ori ham tiyradir. U zamondan, uning mulkdor kimsalaridan na shafqat, na oqibat ko'radi.

Umuman, benazir shoir Shermuhammad Munisning boshqa she'rlari kabi qasidaları ham shoir davri tarixiy-ijtimoiy sharoitdagi hodisalarni an'anaviy qolipdalfodalovchi zamonaviy asarlardir. Ularda traditsion madhiyadan uzoqlashib, zamona kulfatlaridan nolish ustun turadi.

**Poetik mahorati.** Shermuhammad Munis lirikasi o'zbek she'riyatining ham mazmun, ham shakl va uslub jihatidan xiyla yangilangan, rivojlantirilgan namunalaridir. Bu holni munisshunos olimlar o'z tadqiqotlarida (M.Yunusov, N.Jumaxo'ja) ancha yaxshi yoritib berganlar.

Munis o'zbek shoirlari ichida ayniqsa aruz vaznlarini, she'riy va qofiya san'atlarini ishlatishda o'zgacha mahorat ko'rsata oladi. Bu uning she'r, adab ilmi, badiiy nutq go'zalligi boyliklarini chuqur o'rganganligidan dalolat beradi. Munis g'azaliyotida aruz sistemasining qariyb barcha bahr va vaznlaridagi she'rlar uchraydi. U vaznlardan foydalanishda nuqsonlarga yo'l qo'ymaydi. O'z she'rlarida fikr va mazmunga mos vaznlar tanlab ishlatadi.

Munis — qofiya san'atining mumtoz ustasi. Uning she'riyatida boshqa shoirlar ijodida siyrak uchraydigan qo'shqofiyalar, raddul matla' va takror so'zli qofiyalar, tarse' hamda sajli qofiyalar, narsalarning tovushiga taqlidni anglatuvchi so'zlardan tuzilgan qofiyalar ko'p uchraydi. Mana bu baytlardagi bir so'zli oddiy qofiyalarning o'zi bayt mazmuniga mos xalq iboralaridan tanlanganini ko'rsatadi:

*Tez etar jonon g'ami ishqim o'tini qo'zg'alab,  
Kuydurur ul o'tg'a bir-bir ustuxonimni qalab...  
Jonimo urding otashi ishqing tutoshtirib,  
Yoqding so'ngaklorimni ul o'tqo qalashtirib.*

Quyidagi baytlarda esa, juft so'zli, tovushga taqlid hamda naqorat misrali takrorlar qo'llanilgan:

*Olur yuz jonni har boqqanda ne ko'zlar durur vah-vah,  
Ming o'luk tirguzur har so'zda ne lablar durur pah-pah.  
Chekar zavqi sihi qading bila qumri fig'on kuh-kuh,  
Tuzar shavqi guli ro'ying bila bulbul navo chah-chah.  
Yig'ma saharlar un chekib, ashki nadomatin to'kub,  
Behuda kulmaging nedur tiftl kibi shaqir-shuqur.  
Do'st xayoli birla san ayla xomushlig'shior,  
So'zlamak asru zishtdurur qurbaqadek vaqur-vuqur.*

*Uzoringda nure ayyondir-ayon,  
Ki ondin kunu oy nishondur-nishon.  
Balo o'qlarin otg'ali jonima,  
Iki egma qoshki kamondur-kamon.*

Munisning quyidagi baytida bir emas, ikkita badiiy tasvir vositasi qo'llanilgan:

*Jonon dudog'i xayoli yonglig',  
Hayvon bulog'i zuloli yonglig'.*

Tashbeh san'atining go'zal namunasi. Ma'shuqa xayolidek uning labi ham o'ta shirin, yoqimli, hayvon bulog'i zuloli ham tiniq va hayotbaxsh bo'lganidek, ma'shuqa lablari ham shunchalik beg'ubor, go'zal. Bu baytda mumtoz she'riyatimizda bayt misralaridagi so'zlarni bir-biri bilan ohangdosh, qofiyadosh qilib keltirish va shu orqali ritmik jozibadorlikka erishish san'ati hisoblanmish tarse' ham ishlatilgan. Yuqorida keltirilgan ikki misradagi har bir so'z bir-biri bilan ohangdoshlik, tenglik kasb etadi. O'zbek mumtoz she'riyatida Navoiydan keyin tarse' san'atiga ko'proq murojaat qilgan va uning benuqson namunalarini ijod etgan shoir Munisdir.

Munis she'rlari, xususan, g'azallari ichida mumtoz she'riyatda



matla'dagi misrani maqta'da aynan takrorlash usuli hisoblangan raddul matla'ning namunalari ham uchraydi. Chunonchi, quyida matla'dagi birinchi misra g'azal oxirida, maqta'ning ikkinchi misrasida muayyan maqsad bilan aynan takrorlanadi. Bu usul g'azalning kompozitsion-stilistik jihatdan ravon chiqishini ta'minlaydi. Shoirming

*Rahmsiz sendek sitamgar ko'rmadim,  
Kofiri badmehr, zolim ko'rmadim –*

matla'si bilan boshlanuvchi g'azalidagi birinchi misra shu g'azal maqta'sining ikkinchi misrasida o'zgarishsiz yana keltiriladi:

*Toki Munisg'a rahme qilmading,  
Rahmsiz sendek sitamgar ko'rmadim.*

Quyidagi baytlar esa, she'rda xalq maqol, matal va naqlariga murojaat yetib, ularga sayqal berib, o'z asarlari tarkibida ishlatish san'ati hisoblanmish irsol ul masal asosida yaratilgan:

*Ahbob topdi vaslinu yod etmadi meni,  
Chindur bu so'zki, «Yo'q xabari to'qning ochdin».*

Yana:

*Boqma el aybig'a-yu o'z aybingga nazzora qil,  
Ko'rmay o'z aybin, kishi aybini ko'rmak keldi ayb.*

Munisning g'azal va boshqa lirik janrdagi asarlarida xalq hazil-mutoibalariga, zavqli yumoriga xos baytu misralar ham ko'p.

*Yoshurdi yuzini mendin hayo bahona qilib,  
Niqobin olmadi, eldin ibo bahona qilib.  
Agar og'rimamish erdi ko'rgali holim,  
Ko'z ochmadi manga og'riq bahona qilib.  
Chun istadim buti zohidvashim yuzin ko'rmak,  
Yuziga tutdi qo'lini duo bahona qilib.*

**«Savodi ta'lim» manzumasi.** Yosh Shermuhammad ibtidoiy maktabda o'qib yurgan yillaridayoq husnixat bobida yaxshi mashqlar qilib, etarli malakaga erishadi. Husnixat ta'limiga doir risolalarni qayta-qayta o'qishdi. U 16-17 yoshlaridayoq chiroyli yozish qoidalarini to'la o'zlashtirib oladi. O'z xunarining samarasi sifatida Alisher

Navoiyning aruzga doir «Mezon ul-avzon» asarini, «Holati Sayyid Hasan Ardasher»ni, Mavlono Roqim devonini chiroyli qilib koʻchirib, kitobat holiga keltiradi. Demak, Munisda kotiblik salohiyati ancha erta shakllangan. Shuning uchun ham u madrasani xatm etgach, saroyga ishga taklif qilinadi, mirzolik, farmonnavislik xizmatlarini muvaffaqiyat bilan ado eta boradi. Munis 1804 yili «Savodi taʼlim» nomida 352 misralik manzuma-risola yaratadi. Nazmda, masnaviy shaklida yozilgan bu asar «Munis ul-ushshoq» devonining adogʻida keltiriladi. Taʼlimiy-maʼrifiy ruhdagi bu asarda shoir yozishdan koʻzda tutgan maqsadini, orzularini shunday ifodalaydi:

*Yorab, bu risolakim bitibmen,  
Taʼlifida jiddu jahd yetibmen.  
Koʻrgan kishilarni rogʻib aylab,  
Tahsiliga balki tolib aylab.  
Har kim oʻqusa nihonu zohir,  
Bisyor qilib shukufat xotir...*

Shoir manzumada arab alifbosidagi har bir harfning yozuvdagi, imlodagi shakllari, ularni chiroyli qilib qogʻoz sahifalariga yozish qoidalari va bunga erishish uchun zamur boʻlgan tayyorgarlik ishlari bilan bogʻli masalalar haqida fikr yuritadi. Manzumaning shartli tarzidagi mana bu tuzilishidan asarning mundarijasi, mazmuni haqida tasavvur hosil etish mumkin:

1. Kirish. Husnixatdan taʼlim bergan ustoz haqida.
2. Risolani yozishdan koʻzlangan maqsad.
3. Qalam haqida.
4. Xat haqida. Xatning jamiyat maʼnaviy hayotidagi oʻrni taʼrifi.
5. Xat yozish asboblari va yozishga tayyorgarlik haqida.
6. Husnixat taʼlimi.
7. Xotima. Shoir orzusi.

Manzumada xusnixat taʼlimi mavzui asosiy oʻrin tutadi. Ibtidoiy maktablardagi savod chiqarish, husnixat taʼlimi qiyinchiliklarini engillashtirish yoʻllarini, choralarni qidiradi. Oʻziga maʼqul, kichikintoy oʻquvchilar saviyasiga mos qoʻllanma yaratadi. Munisning bu risolasi ragʻbat topib Xorazmdagi ibtidoiy maktablarda oʻqitilgan, ixlosmandlar undan koʻplab nusxada koʻchirma olganlar.

Shoir xatning kashf etilishini nihoyatda yuqori baholaydi. Xat har qanday ishni tarixda muhrlab qoldiruvchi vosita, uni kelgusi nasllarga etkazuvchi omil.

*Olam ishi intizomi andin,  
Olam elining nizomi andin.  
Ul bo'lmasa, bo'lmag'ay kitobat,  
Bul bo'lmasa, qolmag'ay hikoyat.  
So'z maxzanining nishonasi ham,  
Ma'ni durining nishonasi ham.  
Har so'zki, ko'nguldin o'ldi mavjud,  
Xat bo'lmasa bo'lg'ay erdi nobud...*

So'ng shoir arab alifbosidagi deyarli barcha harflarni husnixat talablariga rioya qilgan holda yozish qoidalarini tushuntiradi. U harflarning alohida yozilishlaridan zeru zabarlari, ko'p nuqtali harflargacha erinmay tushuntiradi:

*«To» zikrida dedi ba'zi ustod,  
Zebo alifiyu, avvali sod –*

Demak, **alifga sod** harfi avvalini qo'shsa, payvandlasa «to» harfi paydo bo'ladi.

*Qof avvali fo boshiga monand,  
Nun halqasiga valek payvand –*

ya'ni «f» harfi boshi «q» harfi boshiga o'xshab ketadi. Shu boshini «nun» harfi shaklida uzaytirilsa «qof» harfi shaklida paydo bo'ladi va ustiga nuqtalar qo'yiladi. Yoki

*Gar lomni istasang murattab,  
Nun bilan alifni qil murakkab –*

ya'ni (alif+nun). Shunday qilib, Munis arab harflari imlosi, yozish qoidalariga doir nazmiy qo'llanma tayyorlaydi.

«Savodi ta'lim» nazmiy, badiiy risola bo'lganligi uchun o'quvchiga ta'sir etuvchi yaxshi tashbehtar, qiyoslar, sifatlashlar, mubolag'alar, an'anaviy san'atlar uchrab turadi:

*Har harfki, anda jilvagardur,  
Avroq yuziga zebu fardur.*

*Har satrki, sarvdek chekib qad,  
Spamshod uyotiga berib mad...*

Mana bu baytlarda esa, misralararo soʻzlarni qofiyadosh, vazndosh va ohangdosh qilib yaratish sanʼati tarseʼ qoʻllanilganligini koʻramiz:

*Ul boʻlmasa boʻlmagʻay kitobat,  
Boʻl boʻlmasa qolmagʻay hikoyat.*

Sifatlash:

*Boʻlsin qalaming latifu rangin,  
Oqu qizilu, qarovu sangin.*

**«Firdavs ul-iqbol» va uning adabiy qimmatini.** Munis eltuzarxonning buyrugʻi bilan yozilajak bu asarning muqaddimasi va Xorazmning 1813 yilgacha boʻlgan tarixini yorituvchi boblarini yozishga ulgurgan. U vabo kasali bilan 1829 yili bevaqt vafot etgach, asarni uning jiyani Ogahiy davom ettirgan. Demak, asarning mualliflari ikkita – Munis va Ogahiy. Munis «Firdavs ul-iqbol»da qadim zamonlardan 1806 yilgacha boʻlgan voqealarni yoritishda ungacha yozilgan tarixga doir asarlardan, jumladan, Abulgʻozining «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima» asarlaridan foydalangan. Xorazmning 1806 yildan 1813 yilgacha boʻlgan tarixini esa, oʻzi materiallar yigʻib yozgan. Asarning ayniqsa shu qismlari Xorazmda roʻy bergan tarixiy voqea-hodisalarning badiiylashgan bayonidir. Unda oʻzbeklar, turkmanlar va qoraqalpoqlar hayotiga, tarixiga oid juda koʻp va aniq faktlar mavjud. Biroq Munisning tarixchi sifatidagi dunyoqarashi cheklangan boʻlib, u eski traditsiyalarni buzmaslikka harakat qiladi. Hukmron tabaqa vakillarini, xon va uning yaqinlarini baʼzan maqtab ularning turkmanlar va qoraqalpoqlarga qarshi yurishlarini xaspoʻshlashga, oqlashga intiladi. Yovmut va chovdurlarning Xiva hukmronlari zulmiga qarshi gʻalayonlarini qoralaydi. Bunday oʻrinlarga tanqidiy munosabatda boʻlmogʻimiz kerak. Biroq, bulardan qatʼi nazar, asarning turli sahifalarida Vafoiy, Roqim, Ravnaq, Kiromiy, Abulgʻoziy kabi shoir, mudarris, tarixchilarning adabiy portreti shtrixlari, ular haqidagi qiziqarli

naqllar, xotiralar keltiriladi. Asarda ko'pdan ko'p she'riy parchalar-ruboiylar, masnaviylar, qit'alar, fardlar, ta'rix she'rlar beriladi.

Bundan tashqari, kitobda o'sha zamonda bino qilingan imoratlar, masjidu madrasalar ham qayd etiladi. Ularning qachon, kim tomonidan va nima maqsadda qurilganligi bayon qilinadi. Masalan, Muhammad Amin Inoq davrida qad ko'targan «Madrasai inoqiya» to'g'risida Munis, jumladan, quyidagilarni yozadi: «Ul jumladin «Madrasai inoqiya»durki ma'mani ulamo va maskani fuzalodur. Masnaviy:

*Aning har hujrasi jannat uyidur,  
Demay jannat uyi, rahmat uyidur.  
Bo'lib fayzi azaldin bemadoro,  
Daru devoridin ilm oshkoro.*

Shunday qilib, «Firdavs ul-iqbol» faqat tarixiy voqea-hodisalarni o'rganishdagina emas, balki o'sha zamondagi adabiy-madaniy muhitni tekshirish va yoritishda ham muhim manbadir.

Munis tarixchi, tarjimon sifatida temuriylar davri tarixchisi Mirxondning etti daftardan iborat «Ravzat us-safo» asarining uch daftarini tarjima qilishga ulgurgan. Munis olamdan ko'z yungach, bu asar tarjimasini ham sadoqatli jiyani va shogirdi Ogahiy oxiriga etkazgan.

Shermuhammad Munis XIX asrda Xorazmda ko'tarilish bosqichida bo'lgan adabiy hayotga o'zgacha jon bag'ishladi. Munisdan keyin yashab, ijod etgan deyarli hamma xorazmli ijodkorlar, xattotlar, muarrixlar, tarjimonlar uning merosidan bahra toptilar, ustozlik mavqeini e'tirof etdilar. Bular ichida, ayniqsa, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Muhammad Yusuf Bayoniy ijodini Munis merosi bilan bog'lovchi robitalar ko'p. Ogahiy Munisning jiyani sifatida yoshligidan uning qo'lida tarbiya va adabiy ta'lim oldi. Ogahiy Munis vafotidan keyin uning ko'pqirrali faoliyatini davom ettirib, nihoyatda ko'p va xub adabiy, tarixiy, tarjima asarlari yaratdi. Hatto u o'z she'riy devoniga nom qo'yishda ham amakisi, bevosita ustozini Munisga ergashdi. Ogahiy she'riyatining mavzu va fikriy dunyosida, poetik obraz va badiiyatida, Navoiy qatorida, Munis she'riyatining ta'siri yaqqol sezilib turadi.

Shunday yaqinlik Ogahiy zamondoshi Komil ijodida ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, uning «Fuzalo» va «Juhalo» radifli ijtimoiy mazmuni chuqur g'azallari Munisning ana shu ruhdagi

gʻazallarini eslatadi. Shu bois Munis asarlari zamondoshlarimiz uchun maʼnaviy-estetik oziq berib kelmoqda. Shoirning quyidagi faxriya baytlari bejiz aytilmagan bashoratdek tuyuladi:

*To musaxxar ayladim soʻz birla maʼni kishvarin,  
Shohmen, ey Munis, ahli donishu idrok aro...  
Muniski, soʻz iqlimi anga boʻldi musaxxar,  
Surtarlar aning xoki rahiga shuaro koʻz...*

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Munis hayotining asosiy sanalarini aniqlang?
2. «Munis ul-ushshoq» tartib berilgan sanalar va janr tarkibini sharhlab bering.
3. Munis gʻazallarining kompozitsion-struktural jihatlarini qanday?
4. Navoiy va Munis mavzuiga doir dalillaringizni keltiring.
5. Munisning qofiya sanʼatidagi mahorati qanday?

### ***Mustaqil mashgʻulotlar uchun topshiriqlar***

1. «Shuaro» sheʼrini adabiy-poetik tahlil qiling.
2. Munis ruboiylari, tuyuqlaridan yodaki aytib, daftarga tahlilini yozing.
3. Munis va Ogahiyning ustozu shogirdligiga doir dalillar keltiring.
4. «Savodi taʼlim»ning taʼlimiy-estetik qimmatini izohlang.

### ***Adabiyotlar***

1. Shermuhammad Munis. Saylanma. –T., 1980.
2. Shermuhammad Munis. Savodi taʼlim. –T., 1997.
3. Abdullayev V. Navoiy va Munis. Saylanma T., 1982.
4. Yunusov M. Shuaro xaylining sohib kamoli. «Barhayot meros sahifalari». – T., 1986.
5. Jumayev N. Munis gʻazaliyoti – T., 1991.
6. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. OʻzFASHI qoʻlyozmalar fondi, Inv. raqami – 53641.
7. Ahmedov T. Munis. – T., 1980.
8. Hayitmetov A. Meros va ixlos. –T., 1985.

## MUHAMMADSHARIF GULXANIY

Gulxaniy XIX asrning I yarmi Qo‘qon adabiy muhitida masal-tamsil janrida go‘zal va original asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan adibdir. Gulxaniy tabiatan hazil-mutoyibaga usta, xalq urf-odatlarini, til boyliklarini, maqol, matal, naql va rivoyatlarini, hajv va yumorini chuqur bilgan shaxs bo‘lgan. Gulxaniyning shaxsiyati va adabiy merosi haqida ma‘lumot beruvchi ilk manba’ Umarxon davrida yaratilgan «Majmuai shoiron» tazkirasidir. Chunki tazkira, birinchidan, Gulxaniy hayotlik vaqtida maydonga kelgan, ikkinchidan, tazkira adibni ko‘rgan, bilgan, u bilan muloqotda bo‘lgan kishilar (Fazliy, Mushrif, Xotif) tomonidan yaratilgan. Tazkiraning Gulxaniy hayotini yoritishga bag‘ishlangan sahifalarida adibning «mulki ko‘histon» (tog‘lar diyori)dan ekani, uning ajdodlari o‘z yurtining e‘tiborli kishilaridan bo‘lgani, shoirning og‘ir hayot kechirgani va kechirayotgani, o‘ziga Gulxaniy taxallusini olib, «tog‘liklar shevasida latifu ravon» g‘azallar bitgani uqtirib o‘tiladi. Gulxaniyshunos olimlar tazkirachilarning fikrlari hamda Gulxaniyning forscha-tojikcha g‘azallarining ba‘zi til xususiyatlariga asoslanishib, uning otasi Qo‘qonga Garm yoki Darvoz tomondan kelib qolgan bo‘lishi mumkinligini taxmin qiladilar. Yirik gulxaniyshunos olim Fathiddin Ishoqovning aniqlashicha, Gulxaniyning avlodlari tog‘liklardan bo‘lsa ham, o‘zi Qo‘qonda yuzboshi mansabidagi shaxs oilasida tug‘ilib, shu muhitda voyaga etgan. Aks holda, uning o‘zbek tili boyligi, xalq urf-odatlarini chuqur bilishi, askiyachilikda shuhrat topishi va o‘zining shu xislatlari bilan saroy shoirlari ichida «Zarbulmasa»ldek asarni yaratishga loyiq ko‘rilishi mumkin emas edi. Gulxaniyga yurtdosh, shoir haqidagi manba va xotiralardan yaxshi xabardor Po‘latjon Domullo Qayyumov «Tazkirai Qayyumiy»da shunday muhim biografik ma‘lumotlarni keltiradi: «Bu kishi Ho‘qand shaharida Sarbotur mahallasida tug‘ilib, shunda tarbiyalanib o‘smish askariy bir xodim bo‘lib, nomi Muhammadsharifdur. Otasi tojiklardan bo‘lib, onasi o‘zbekdir. Otasi yoshligida vafot etmish. Muhammadsharif sarkarda Xudoyquli Bahodirning tarbiyasida o‘qub, askariy mulozim sifatida yurub, shul bahodirning orqasida saroyga xizmat ila kirib qolgan.

Xudoyquli bahodir vafot etgach, uni saroy va askarlik xizmatidan chetlashtirganlar. Gulxaniy go‘laxda turgan degan so‘z to‘g‘ri emasdir. Avtorlarning (Vozev va hozirgi davrdagi ba‘zi olimlarning) Gulxaniy degan taxallusga nisbat yetib bergan gumonlaridir».

Gulxaniyning zamondoshi Dilshod-Barnoning «Tarixi muhojiron» asarida Gulxaniy o‘z umrining so‘nggi yillarida qalandarona hayot kechirgani, qashshoq shoirlar bilan hammom go‘laxida kun o‘tkazgani aytiladi. Biroq Gulxaniy taxallusi qo‘llanishining bu holatga aloqasi yo‘q. Fazliy tazkirasida bularga aniq ishoralar bor. U shoirning devona-fe‘lligi va olovqalbligi sababli o‘ziga Gulxaniy so‘zini taxallus qilib olganligini ta‘kidlaydi:

*Ajib so‘zbilarmon erur Gulxaniy,  
Erur otashin so‘zni ul manmani.  
U majnunsifat, qalbi o‘t gulshani,  
Shu bois taxallus qo‘yib Gulxani.  
G‘azallarki yozmish fasihu ravon,  
O‘sha tog‘lilar lafzi birla hamon...*

**Lirikasi.** Gulxaniydan qolgan lirik she‘rlar uncha ko‘p emas. Uning g‘azal va qasidalaridan iborat kitob tartib bergani haqida xabar bo‘lsa ham, u topilganicha yo‘q. Shoirning lirik merosidan bizgacha «Biri», «Etmaz», «Ko‘rung» radifli va «Lola ko‘ksidek bag‘rim tahbatah qora qonlar...» deb boshlanuvchi o‘zbekcha, «Ey to‘ti», «Burun», «Az chashmi man», «Angusht», «Angushtam», «Bidih» radifli tojikcha g‘azallari yetib kelgan. She‘rlaridan to‘rttasi o‘zbekcha, to‘rttasi tojikcha; bitta tojikcha qasidasi ham bor. Hammasi to‘qqizta. U tojikcha g‘azallarida Jur‘at taxallusini ham qo‘lladi. Shoir she‘rlarida ancha original ifodalar qo‘llaydi, tashbehtar ishlatadi. Chunonchi, «Angushtam» (angushona) radifli she‘rida o‘sha zamonni quruqlik dengiziga, o‘zini esa o‘sha dengizda qiynalib qayiq surib borayotgan kishiga o‘xshatadi:

*Ba xushki rondayam kishtiyu umre zindayam Jur‘at,  
Nashud z-in bahri behosil sare mustar angushtam.*

Quyidagi o‘zbekcha g‘azali baytlarida esa, yor vasli firoqida azob chekuvchi oshiqning yuragidagi qora qon qatlamlarini lola ko‘ksidagi



qora dog'larga o'xshatib, o'z fikrlariga badiiylik baxsh etadi, o'quvchini ancha murakkab his-tuyg'ularga olib kiradi:

*Lola ko'ksidek bag'rim tah-batah qora qonlar,  
Hajr ibtilosidur naylay el musulmonlar.  
Bir dam ayla mardumlig', diydam ichra manzil qil,  
Durri dilu sochsinlar maqdamingga mujgonlar.*

Gulxaniyning tojikcha g'azallari ichida «Bidih» («Ber») radifli g'azali muhim ahamiyatga ega. G'azal ochlik va yupunlikdan azob chekib, xonga arz qilgan jur'atli, rostgo'y, hazil-pichingga o'tkir bir navkar timsolini namoyon etadi. G'azal shoironing hayot qiyinchiliklarini boshidan kechirayotgan yillari mahsulidir. G'azal matni «Majmuai shoiron» tazkirasida Gulxaniy hayoti va shaxsiyati haqidagi masnaviy ma'lumotlardan so'ng keltiriladi:

*Hazratim, ochlikdin o'ldim, egani non ber myenga,  
Kofir o'lg'ayman agar desamki, bahmon ber myenga.  
Moshu bug'doy, guruch berkim, shular myenga kerak,  
Hech aytmasman aqiqu, la'lu marjon ber myenga.  
Egninga yopiq berib, qornimni to'yg'iz non bilan,  
Syenga billohkim demasman: dinu imon ber myenga.  
Navkaring ochlikdan o'lsa, nega xayfing kelmagay,  
Ey tabibi hoziqim, doriyu darmon ber myenga.  
Nonu to'n ber, benavolik dardidan qutqar meni,  
Men qachon aytdimki, Qorun ganjidek kon ber myenga.  
Gulxaniyni er yigiqtlar to'pidan kamsitmagil,  
Fo'ta ber. Ot ber, qilich ber, to'nu chakmon ber myenga.*

*(Muinzoda tarjimasi)*

«**Zarbulmasal**». Mulla Gulxaniy nomini avloddan avlodga etkazib kelayotgan va adabiyotimiz tarixida unga abadiy joy olib bergan yodgorlik, bu — «Zarbulmasal»dir. «Zarbulmasal» XIX asrning 80-yillaridayoq rus sharqshunoslarining e'tiborini o'ziga tortdi. 1890 yili Qozon universiteti bosmaxonasida nashr etildi va rus tiliga tarjima qilindi. U 1951 yili M.Sale tomonidan yana bir bor rus tiliga tarjima etildi. Bunda tarjimon asarning sho'rolar davridagi nashrlariga tayanib

ish ko'rgan edi. 1948 yili samarqandlik adabiyotshunos R. Muqimov Gulxaniy va uning adabiy merosi haqidagi ishlarni umumlashtirib, «Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi. Gulxaniy ijodini ilmiy jihatdan baholashda H. Yoqubovning Gulxaniy asarlari nashriga yozgan kirish so'zi, akademik V. Abdullayevning «O'zbek adabiyoti tarixi» darsligidagi adabiy portreti, akademik A. Qayumovning «Qo'qon adabiy muhiti» monografiyasida Gulxaniy hayoti va ijodiga ajratilgan o'rinlarning, O'zFA haqiqiy a'zosi M. Qo'shjonov va tilshunos olim X. Nazarovanning «Zarbulmasal»ning badiiy xususiyatlari, tili va uslubini o'rganishga doir ishlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Biroq, gulxaniyshunoslikda matnshunos, manbashunos, tilshunos olim Fathiddin Ishoqovning amalga oshirgan tadqiqotlari katta qadam bo'ldi. Bu olim Gulxaniy va uning davri adabiyoti bilan bog'li juda ko'p manbalarni, «Zarbulmasal»ning ko'psonli qo'lyozma va bosma nusxalarini qiyosan o'rganib, uning tanqidiy matnini tayyorladi hamda 1976 yili Toshkentda nashr ettirdi. Olim Gulxaniy va uning adabiy merosi haqida bir qancha salmoqli risolalar, maqolalar e'lon qildi. U o'zining 20-25 yillik ilmiy izlanishlarini yakunlab, 1997 yil 16 dekabrda «Gulxaniy «Zarbulmasal»ining ilmiy-tanqidiy matni» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. F. Ishoqov o'z tadqiqotlarida Gulxaniy hayoti va adabiy merosini o'rganish jarayonida boshqalar tomonidan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni bartaraf etadi, adibning taxallusi, qismati, qushlar obrazlarini noto'g'ri nomlash, asarning janriy xususiyatlarini belgilash borasidagi chalkashliklarga aniqlik kiritadi. F. Ishoqovning ilmiy asarlarida «Zarbulmasal» xalqchil nasrning o'ziga xos namunasi ekanligi, asarning g'oyaviy-badiiy dunyosi chuqur tahlil qilinadi. Uning ishlarida ayniqsa «Zarbulmasal»ning til xususiyatlari keng ko'lamda o'rganildi.

Asarning muqaddima qismida u Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi aytiladi. Adabiyotga homiy bu siymo xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni — xalq maqollarini chuqur o'ylab, kitob holiga keltirish lozimligini aytadi hamda Gulxaniy shu nozik xizmatga loyiq deb topadi.

«Zarbulmasal» so'zi arabcha «zarb» va «masal» so'zlarining

birikmasidan hosil bo'lgan qo'shma so'z bo'lib, adabiy atama sifatida masal, maqol, matal keltirib so'zlamolikni anglatadi. Fors adabiyotida Ubayd Zokoni, XIX asr o'zbek adabiyotida Nozil Xo'jandiy, Sulaymonqul Rojiiy kabilar maqollar keltirib, «Zarbulmasal» nomlari bilan asarlar yaratganlar. Gulxaniy asari ham garchand «Zarbulmasal» deb atalsa-da, ko'pgina o'ziga xos xususiyatlarga ega majoziy asardir. «Zarbulmasal» syujeti hikoyachilik asosiga qurilganligi bilan o'zbek adabiyotidagi Rabg'uziy va Xoja qissa-hikoyatlariga, undagi majoziylik, qushlar, hayvonlar tilidan so'zlash; pandnamolik xususiyati jihatidan esa, Sharqda keng tarqalgan «Kalila va Dimna» asariga yaqinlashadi. Shubhasiz, Gulxaniy xalq og'zaki ijodi boyliklarini yaxshi bilish bilan birga, madrasa tahsilini olgan mulla kishi (manbalarda Mulla Gulxaniy nomi bilan keltiriladi) sifatida qo'lyozma asarlarni, zarbulmasal kitoblarini ham ko'p o'qigan.

«Zarbulmasal» majoz asosiga qurilgan qissa bo'lib, unda turmush voqea-hodisalari, turli ijtimoiy toifaga mansub kishilarning fe'l-atvorlari, bir-biriga munosabatlari qushlar, hayvonlar tilida bayon qilinadi. Unda murakkab qatlamli majozga duch kelamiz. Odam obrazlari o'rnida qushlarning kelishi birinchi majoz bo'lsa, ular tilidan Xolboqi misgar, Yodgor po'stindo'z singari kishilarning, tuya, chayon, sangpush (toshbaqa) singari hayvon-hasharat timsollarining turli naql, rivoyatlar keltirib so'z yuritishi ikkinchi majoz, bu timsollar nutqida keltirilgan ifodaning ko'chma ma'nolari yana bir majoz-majoz ichida majozdir.

Xullas, asarda xalq maqollari va naqllari (300dan ortiq) katta o'rin tutganligi, asosiy voqea-hodisalar qushlar-hayvonlar timsollari orqali ifodalanganligi, bosh qoli plovchi hikoyahisoblangan Boyo'g'li va Yapaloqqush hikoyasi bilan bog'lanib ketuvchi katta va kichik masal-hikoyalar ham keltirilganligi uchun adib uni «Zarbulmasal» deb nomlagan. Asarda ko'zga tashlanuvchi badiiy obrazlar o'zlarining tur va tabiatlariga ko'ra, uch xildir: qushlar obrazlari, hayvon-hasharot obrazlari, kishilar obrazlari. Qushlar obrazlari asarning bosh rejasiga qo'yilgan asosiy obrazlar bo'lib, hayvon-hasharot va kishi obrazlari qushlarning o'zaro suhbatlarida, ular tomonidan keltirilgan naqlu rivoyatlarda namoyon bo'ladi. Qushlarning tur va

nomlari, ularning xatti-harakatlari asarga shu qadar tabiiy, jonli mazmun bag'ishlaydiki, uni o'qiyotgan kishi qushlar orasida bahs ketayotganini unutilib, qushlar dialoglarini odamlar suhbatida deb qabul qiladi. Gulxaniy san'atining bu nozik jihatlari his etmaslik oqibatida asarning ayrim nashrlarida Kuykanakni Kuygung, Malikshabohni (tungi shoh) Malikshohin», Kunushbonu (Quyoshbonu)ni Gunashbonu tarzida noto'g'ri keltirish hollari uchraydi. Asarning asosiy syujet chizigi Kaykubod xarobalarida istiqomat qiluvchi Yapaloqqush bilan Boyo'g'li oralaridagi qudachilik munosabatlari va shu bilan bog'liq hayotiy voqea-xodisalardir.

Yapaloqqush o'g'li Kulangir sultonni uylantirish maqsadida o'z yaqini Ko'rqushni Boyo'g'li huzuriga sovcilikka yuboradi. Boyo'g'lining nihoyatda go'zal, quyosh yanglig' Kunushbonu ismli qizi bor edi. Bir-ikki bordi-keldidan so'ng 1000 xaroba-chordevor qalin badaliga Boyo'g'li rozilik beradi. Yapaloqqush shonu shavkat bilan tuy anjomlarini keltiradi, o'sha davrdagi quda-andachilikka xos hamma rasm-rusumlar, milliy odatlar bajo keltirilib, to'y marosimlari o'tkaziladi. Bu marosimlarda ikki tomondan juda ko'p qushlar – Ko'rqush, Hudhud, Turumtoy, Kordon, Bozanda, Navozanda, Anqo, Humo, Ukob, Lochin, Oqqush, Turna, G'oz, O'rdak, Suqsur, Kaklik, Bedana, Olato'g'onoq, Zarg'aldoq qatnashadilar va har biri o'ziga yarasha xizmatni ado etadilar. Farg'ona iqlimida xarobalar kam bo'lganligi uchun Movarounnahr iqlimidan (Buxoro amirligi) 1000 chordevor topishib, kelin Kunushbonu mahriga to'laydilar. Shunday syujet rivojidan ma'lum bo'ladiki, Gulxaniy qushlar vositasida hayotimiz o'tmishida an'ana sifatida davom yetib kelgan to'y marosimlari, qudachilikdagi urf-odatlar haqida hikoya qiladi. F.Ishoqov tadqiqotlarida asarning g'oyaviy yo'nalishini tashkil etgan qiz uchun mahrga xarobalar talab qilish orqali Gulxaniy Qo'qon xonligi – Amirxon saltanatining qo'shni Buxoro xonligidan ustunligi va obodroq ekanligini ham ko'rsatmoqi bo'lganligi to'g'ri ko'rsatiladi. U Umarxon davrini, uning siyosatini ma'qullovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi, fuqarolik burchiga sodiq qoladi. Qo'qon xonligida paydo bo'lgan Nav, Shahrixon, Oyim kabi yangi manzilgohlarning paydo bo'lishidan faxrlangani holda,

Buxoroga qarovchi O‘ratepa, Jizzax, Urgut kabi joylarning xarobalashib borayotganligidan kuladi. O‘zidagi «Xapalak» qishlog‘iga o‘xshash xarobalarni ochiq ko‘rsatishdan qo‘rqadi. Ularni jonli va qiziqarli qilib tasvirlash uchun har qadamda – qushlarning o‘zaro munozaralari, suhbatlari, dialoglari orasida xalq maqollariga, matallariga, naqlariga, hayotdan olingan ayrim salbiy lavhalarga, shaxslar qiyofasidan xabar beruvchi holatlarga murojaat etadi. Asardagi bosh qoliplovchi hikoya– «Boyo‘g‘li va Yapaloqqush» hikoyasi tarkibida 200 dan ortiq timsollardan tashqari, Xolboqi misgar, Yodgor po‘stindo‘z, Muhammad Amin mufti, qulog‘idan ayrilgan eshak, Otaboy amin, eshon kalla haqidagi hajviy-rivoyaviy epizodlarni ham keltiradi. Masalan, Ko‘rqush aytdi: «Nechukkim, aytmishlar: «Uyat – o‘limdan qattiq». Yana aytmishlar: «Ermon yog‘ochning egilgani – singani, er yigitning uyalgani o‘lgani». Anda Yapaloqqush aytdi: «Men sizni bilimlik va ma‘nidin boxabar kishi faxmlab erdim, «Karnay misdin, balg‘am isdin» bo‘lurini bilmas ekansiz. «Ko‘r tutganin qo‘ymas va kar eshitganin qo‘ymas»...

Anda Yapaloq qush aytdi: «Ilgari o‘tgan yaxshilar masalidurkim: «Yaxshi nafas – yarim mol»...

Anda Ko‘rqush aytdi: «Rost aytursan, qo‘chqor bo‘lur qo‘zining peshonasi do‘ng bo‘lur, og‘a bo‘lur yigitning peshonasi keng bo‘lur». «Chuchvarani xom sanabsan». O‘xsharki, «Otasi urmas qo‘ng‘izni, bolasi urar to‘ng‘izni» degan so‘zga ishonma». «Halvo degan birla og‘iz chuchimas»...

Anda Ko‘rqush aytdi: Sabrni yaxshilar andog‘ta‘rif qilmishlarki: Bayt:

*Sabr bilan basta eshikdur kushod,  
Sabr bilan topdi eronlar murod.  
Sabr sening dardingga darmon bo‘lur,  
Sabr bilan xor guliston bo‘lur.*

Bo yana aytmishlar. Bayt:

*Sabr qilsang, g‘o‘radin halvo bitar,  
Besabrlar o‘z ayog‘idin yitar.*

Yoki tojik tilidagi dumsiz eshak haqidagi she‘riy naqlni olaylik.

Bir dumsiz eshak bor edi. U bir kun dumining g'amida yo'lga chiqdi, sahrolarni kezdi, dum istab unga erisha olmadi. Ittifoqo, bir kuni yana yo'l olib, ekinzorning o'rtasiga tushdi. Dehqon uni uzoqdan ko'rib qoldi va yugurib borib, uning ikki qulog'ini kesib oldi. Bechora eshak dum orzu qilib, qaytaga ikki qulog'idan ham ajralib qoldi. U «Ko'rpangga qarab ayog'uzat» maqolini sharhlash maqsadida Kordon tilidan keltiriladi. Asardagi syujet chizig'i va g'oyaviy mazmuni rivojlantirishda muallif undagi obrazlarning o'zaro munosabatlari, suhbat va munozaralaridan foydalanadi. «Zarbulmasal»da keltirilgan badiiy obrazlarni ularning turi va tabiatiga ko'ra:

- a) qushlar obrazlari;
- b) hayvon-hasharot obrazlari;
- d) kishi obrazlari

kabi uch guruhga bo'lish mumkin. Qushlar obrazlari asar syujetini ta'minlovchi, adib ko'zda tutgan bosh maqsad-g'oyani ochuvchi obrazlardir. Adib o'sha davrdagi qudachilik munosabatlari va rasm-rusumlarini berish uchun Boyo'g'li bilan Yapaloqqushni tanlab olgan. Kurqush sovchi, Kordon xazinachi, Kuykanak xizmatkor, Turumtoy miroxo'r, Sho'ronul-chopar, Malikshaboh xiyla odil, o'z yaqinlariga homiylik qiluvchi shoh (Umarxon nazarda tutilgan bo'lishi mumkin), Kulangir sulton (Malikshabohning suygan polvoni) kuyov, kelin Kunushbonu oyim timsollarida ifodalanadi. Boyo'g'li bilan Yapaloqqush o'ziga mahliyo qo'ygan, mulkdor shaxslar; Ko'rqush asosan fahmu farosatli, ishbilarmon, xiyla donishmand shaxs. Asardagi ibratomuz maqollar, masal-hikoyatlar bilan boshqa qushlar dialoglarida keltiriladi. Bu qushning ko'zi ko'rmaydi. Adib ko'zi ojizlarga xos hushyorlik va donolikni uning timsolidan beradi. Kuykanakning jussasi kichik, biroq u gapga chechan. Boyo'g'li molu mulkka xaris, o'ta xasis va hokazo.

«Zarbulmasal»da majoziy obrazlardan tashqari adibga tanish va o'zlarining yaramas ishlari, qiliqlari bilan ko'zga tashlanuvchi real shaxslar obrazlari ham bor. Ular epizodik obrazlar bo'lsa-da, asarning zamonaviyligini, davr mahsuli ekanligini dalillashga xizmat qiluvchi obrazlardir. Bunday shaxslar qushlar suhbatida o'z nomlari bilan naql etiladi, ba'zilar ochiq satirik bo'yoqlar bilan chiziladi.

Jumladan, Yodgor po‘stindo‘z o‘zini goho «o‘tkir so‘fi, goho donishmand» olib, mubolag‘a qiluvchi lofchi, yolg‘onchi, qasamxo‘r, Yahyoxo‘ja kotib muttaham, bitgan kitobi esa, «saxvu xato va g‘alatdin xoli emas», Niyozcha og‘alik nodonu farosatsiz... Bu obrazlar prototipli obrazlardir. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, agar she‘riy asarlarda, hajviyotda real tarixiy shaxslar timsollarini o‘z nomlari bilan tasvirlashga intilish Turdi Farog‘iydan boshlanib, Mahmur hajviyotida kuchayib, takomillashib borgan bo‘lsa, badiiy nasrda Gulxaniy ijodida taomilga kirgan, kelgusi an‘analar poydevori qo‘yilgan. Bu ham Gulxaniy asarlarining, xususan, «Zarbulmasal»ning namunaviy asar ekanligini belgilaydi.

«Zarbulmasal»da Yapaloqqush bilan Boyo‘g‘li o‘rtasidagi qudashlik munosabatlari ipigaqoliplash usuli bilan bog‘langan bir qanchamasal, qissa va hikoyatlar ham mavjudki, bular «Tuya bilan Bo‘taloq», «Maymun bilan Najjor» (she‘riy) hamda «Toshbaqa bilan Chayon» (nasriy)dir. Shundan «Tuya bilan Bo‘taloq» masali Ko‘rqush bilan Hudhud bahsida keltiriladi. Masalda bir sorbon (tuyakash), uning tuyasi va bo‘talog‘i haqida so‘z boradi. Gulxaniy asari qo‘lyozmasida u «Tevani bo‘tasi onasi birla munozarat qilg‘oni» (munozara) nomida keltiriladi. Bola-chaqasi ko‘p ayolmand tuyakash o‘z ro‘zg‘orini tebratish, tirikchiligini o‘tkazish uchun tuyakashlik qilardi. Kunlardan birida, odatiga ko‘ra, sorbon tuyasiga yuk ortib yo‘lga tushadi, tuya orqasidan uning bo‘talog‘i ergashadi. Yuk og‘ir, manzil uzoq. Ochiqqan va charchagan bo‘taloq onasidan biroz to‘xtashini zorlanib so‘raydi. Lekin onasi chorasiz edi:

*Aydi onasi bolasiga boqib,  
Ko‘zlarining yoshlari suvdek oqib:  
«Ko‘rki, burundiq kishining qo‘lida,  
Bu kishining ko‘zlari o‘z yo‘lida.  
Menda agar zarra kabi ixtiyor  
Bo‘lsa edi, bo‘lmas edim zeri bor».*

Gulxaniy bu masalda Sorbon, Tuya va Bo‘taloq orqali jamiyatdagi tengsizlikni, uning og‘ir mashaqqatlarini bayon qiladi. Xalq uchun «tirikchilik toshdan qattiq» edi. Sorbon o‘z g‘amida, Tuya og‘ir yuk

ostida, Bo'taloq esa ona sutidan mahrum. Sorbon ham, Tuya ham, Bo'taloq ham jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining timsoli sifatida xalq obrazini gavdalandirib turadi. «Tuya bilan Bo'taloq» masali chuqur xalqchilik ruhi bilan sug'orilgan asardir.

«*Toshbaqa bilan Chayon*». Masalda do'stlik, sadoqat, odamlarga shafqatli-muruvvatli bo'lish kabi fazilatlar ulug'lanadi, xiyonat, firibgarlik kabi yaramas xususiyatlar qoralanadi. Sangpush (Toshbaqa) va Aqrab (Chayon) haqidagi tamsiliy hikoya Gulxaniygacha bo'lgan forsiy va turkiy Adabiyotlarda ham uchraydi. Biroq, Gulxaniy bu syujetga ijodiy yondashadi. Chayon va Toshbaqa obrazlariga xos tasvirlarni, dramatik holatlarni keskinlashtiradi.

Masalda aytilishicha, Iroqdan Hijozga qarab yo'lga chiqqan Toshbaqaga Chayon hamroh bo'ladi. Toshbaqa hamrohlik-do'stlik qoidalariga amal kilib, yo'lda Chayonning holidan xabardor bo'lib boradi, unga yordam beradi. Toshbaqa yo'lda uchragan daryodan osonlikcha suzib o'tib narigi sohildan qarasa, hamrohi Chayon hamon daryo chetida turardi. Shunda Toshbaqa yordamga oshiqadi. Chayonni yelkasiga o'tqazib daryodan olib o'tmoqchi bo'ladi. Bir oz fursatdan keyin Toshbaqa ko'radiki, Chayon elkasida o'tirib olib nayzasini sanchayotir. Toshbaqa hayron bo'lib, Chayondan so'raydi: «Bu nima qilganing?» Chayon javob beradi: «Bilganing yo'qmiki, aqrabning (chayonning) muddaosi nish urmoqdir. Xoh do'st ko'ksinadir, xoh dushman orqasina». Shunda Toshbaqaning achchig'i chiqib, suvga bir sho'ng'igan edi, Chayon to'lqinda g'arq bo'lib, jon berdi.

Gulxaniy qissadan hissa chiqarib, kishilarni hushyorlikka, odam tanishga undab: «Asilning xatosi bo'lmas, nojinsning oshnosi bo'lmas», «Bo'ynida illati borming oyog'i qaltiraydi» degan maqollarni keltiradi.

«*Maymun bilan Najjor*». Bu masal ham axloqiy-tarbiyaviy mavzudagi asar bo'lib ishning mohiyatini bilmay pala-partish kirishuvchi va oxirida o'zi sharmanda bo'lib qoluvchi kishilarga o'git-nasixat tarzida yozilgan.

Kunlardan bir kuni o'rmonda yashovchi Maymun o'tin yorayotgan duradgorni ko'rib qoldi. Duradgor unutilib qoldirgan



teshasini olib kelgani ketgan vaqtda Maymun uning ishini qilmoqchi bo'ldi. Lekin ishning mohiyatiga Maymunning aqli etmas, ish usulini bilmay urinardi oqibatda dumi yog'och orasiga qisilib qolib, dumidan ayriladi. Masal oxiridagi bu epizodni Gulxaniy shunday tasvirlaydi:

*Jahd qilib turdi ravon borgali,  
Ya'ni yog'och qolmishini yorgali.  
Mindi yog'och ustiga najjordek,  
Kosibi purkarday purkordek.  
Ketdi hunar shavqi bila g'ussasi,  
Tushdi yog'och ayrisiga dumchasi.  
Balki nedin bo'ldi tutilmoqligi,  
Mumkin emas o'ldi qutulmoqligi.  
Odami jinsiga yo'q qissasi,  
Qoldi oning dumchasining hissasi.*

Bu masal-hikoyada qo'lidan kelmaydigan ishga tumshuq suqib, o'zining noshudligi, layoqatsizligini namoyish qilib yuradigan shaxslar hajv etilgan. Masalda Amir Umarxon saroyidagi ba'zi taqlidchi, xushomadgo'y shoirlar tanqidi ham bor.

«Zarbulmasal» majoz va masallar, xalqning jonli iboralari asosiga qurilgan asar bo'lganligi uchun tili, badiiy xususiyatlari va uslubi jihatidan nihoyatda jozibali, go'zal qissadir. Badiiy tasvir vositalarining o'tkirligi jihatidan o'zbekcha nasriy badiiy yodgorliklar ichida unga teng keladigan asar yo'q. Adibning maqol, matal va xalq iboralarini o'z o'rnida uzukka ko'z qo'ygandek topib foydalanishi, ularni obrazlar xarakteri va asar g'oyasini ochishga xizmat etdirganligi, hazil-mutoyibaga, qochirimlarga boyligi Gulxaniy uslubini belgilovchi asosiy fazilatdir. «Zarbulmasal» badoy' ilmida irsol ul-masal san'ati nomi bilan ataluvchi va qariyb hamma mumtoz shoiru adiblarimiz e'tiborini o'ziga tortib kelgan san'at go'zalligini, estetik ta'sirini namoyon yetib turuvchi yodgorlik sanaladi. Unda qofiyali sa'jlar: «Bu turganlaring navola do'stlari, piyola hariflari, taom emakka hozir, maslahatga aqli qosir, bazmda bo'ynida munchoq, urushda harbasi oshpichoq birla o'xloq, podshodin tegani – amlı o'roq, to'g'ri so'zga to'g'onoq, kurk tovuqdek suvga pisharga o'ngroq» – uchraydi.

Unda «Tuya bilan Bo‘taloq», «Maymun bilan Najjon» kabi nazmda yozilgan masal-hikoyatlardan tashqari ham ko‘plab baytlar, she‘riy lavhalar («Qulog‘idan ajralgan eshak», «Faj va laj» kabi), sa‘jli jummlalar, hikmatli bayt va to‘rtliklar uchrab turadi.

Masalan, adib Kunushbonuni mehri xovariy (Quyosh) ham o‘ziga banda edi deb quyidagi ikki bayt masnaviyini keltiradi:

*Orazidin shamsu qamardur xijil,  
So‘zlaridin shahdu shakar munfail,  
Hosili umri edi ul boyni,  
Oti Kunushbonu o‘shal oyni.*

Kordonning Boyo‘g‘li huzuriga borishga shaylanishida keltirilgan

*«Tavakaltu aloloh»ni degan er,  
Na talqonu, na qalqonning g‘amin er.*

Boyo‘g‘li bilan xazinachi Kordon o‘rtasidagi dialogda Kordon tilidan aytilgan, Qo‘qonda hammaga o‘z nodonliklari va ahmoqliklari bilan mashhur bo‘lganlar to‘g‘risidagi «Kaj bilan Faj» hajviy masnaviy parcha. Darvoqe, bu hajviy parchaning Muqimiy «Tanobchilar»iga ta‘siri yaqqol sezilib turadi. Niyozcha og‘alik bilan Bobojon Ashurcho‘loq o‘g‘li fosh etiladi.

*O‘zin goh mullo olur, goh taki,  
Niyozga og‘alig‘ki, xush ahmaqi.  
Hama ishga yolg‘on so‘zi dastgir,  
So‘zin sarf, qorin aylardi ser.  
Birov oldiga kirsar, der erdi: «Xoy,  
Chilim sol, buyurtir palov, Mallaboy».  
Bobojon, Ashur cho‘loqu Ali biri,  
Xo‘qand mulkida ahmaqi nodiri.  
O‘zi ko‘r, ravshan yugurdi ajab,  
Kecha kunduzi justjo‘yi talab.  
Bular birla har maslahat kaj edi.  
Bu ikkisi shahr ichra ko‘p faj edi.*

Ruboiy shaklidagi hikmatli to‘rtliklar ham uchraydi:

*Har kimki safar qilsa pisandiyda bo'lar,  
Xurshid kabi ziyo dilda bo'lar.  
Olamda nimarsa yo'q suvdin totlig',  
G'ar bir erda maqom etsa, agar ganda bo'lar.*

Gulxaniy «Zarbulmasal»i o'zbek tilining naqadar boy bir til ekanligini isbotlovchi asardir. «Zarbulmasal» badiiy nutqining jozibadorligi va o'ziga xosligi bilan boshqa tamsiliy asarlardan ajralib turadi. Adib boshqa badiiy san'atlar bilan birga, hatto umuman nasriy asarlarda juda siyrak uchrovchi kitobat, harf san'atidan ham foydalanadi. Masalan, Ko'rqush bilan kuyov Kulongir sulton bahsi-suhbatidagi Ko'rqushning «g'ulom» so'zi haqidagi sharhini olaylik. «Nechukkim aytmishlar: «Qum yig'ilib tosh bo'lmas, qul yig'ilib bosh bo'lmas», forsi ulusda qulni «g'ulom» derlar. Ishoratdurkim, «g'ulom»ning boshidagi (bo'ynidagi lom) bilan muttasil boylab g'uldek bo'lib tursa kerak». Bu harfiy so'z o'rtasidagi «lom» «g'ulom» so'zini zanjirdek bog'lab turishiga ishora qiladi.

Yoki Kordon tilidan Turumtoygа Bozanda va Navozanda kabi ikki kabutarning sarguzashtini hikoya qilganda ham Gulxaniy shu san'atga murojaat qiladi...

«Zarbulmasal» ko'pplanli, qiziqarli syujet chizig'iga ega, folklorizmga boy, o'ta xalqchil majoziy asar sifatida o'zbek adabiyotining nodir namunasidir. Unda xalqimizning yaqin o'tmishdagi tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatdlari, til xazinasi, zarbulmasallari o'z ifodasini topgan.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. «Zarbulmasal»dagi real inson tasviridagi obrazlar kimlar?
2. Asarning majoziyliги nimalarda ko'rinadi?
3. «Zarbulmasal»da xonlik tuzumlaridagi ahvolga munosabat qanday ifodalangan?
4. Asarning hozirgi ma'naviy hayotimizda tutgan o'rni va ahamiyatini qanday izohlaysiz?

### ***Mustaqil mashgʻulot uchun topshiriqlar***

1. «Zarbulmasal»ning 1976 yili chop etilgan tanqidiy matnini mutolaa qilib, undagi maqol, matal va hikmatli soʻzlarni alohida daftarga koʻchiring.

### ***Adabiyotlar***

1. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari. Tanqidiy matn. –Toshkent, 1976.

2. Gulxaniy. «Zarbulmasal» va gʻazallar». – Toshkent, 1958.

3. Poʻlatjon Domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy. 1 jild. – Toshkent, 1998.

4. Kayumov A. Qoʻqon adabiy muhiti. –Toshkent, 1961.

5. Abdullayev V. Oʻzbek adabiyoti tarixi. Darslik, 2-kitob. –Toshkent, 1980.

6. Zohidov V. Gulxaniy. Oʻzbek adabiyoti tarixidan. –Toshkent, 1960.

7. Ishoqov F. Gulxaniy. Oʻzbek adabiyoti tarixi: 5 tomlik, IV tom. – Toshkent, 1979.

8. Ishoqov F. Maktabda Gulxaniy adabiy merosining oʻrganilishi. Oliy va Oʻrta maktablar uchun qoʻllanma. – Toshkent, 1983.

Ishoqov F. «Zarbulmasal» – xalqchil nasrning yuksak namunasi. Oʻzbek nasri tarixidan. – Toshkent, 1982.

9. Ishoqov F. «Zarbulmasal» talqinlari. Asarda Amir Umarxon davrining aks etishi. «Muloqot» jurnali, 1997, 4-son.

## AMIRIY

*Hayoti va faoliyati.* Said Umarbek – Umarxon, adabiy taxallusi Amir, Amiriy bo‘lgan hukmdor, shoh va shoir o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin siymolaridan biri sanaladi. U o‘zining ancha qisqa, atigi 35 yillik umri davomida madaniyat va adabiyot rivojiga katta havas bilan qarab, o‘z poytaxt shahri Qo‘qonda kuchli adabiy markaz tashkil etgan. Yuzdan ortiq shoiru adiblar, xofizu xonandalar, kulgi, askiya ustalari, xattotlar uning homiyligida o‘z iste’dodlarini namoyon etganlar. Amiriy saltanat shukuhi va dabdabalari bilangina o‘ralashib qolmagan. Diyonati, e’tiqodi mustahkam, madaniyati yuksak shaxs sifatida mamlakat hamda elu yurt tashvishlari bilan yashagan. Ko‘p vaqtini mamlakat obodonchiligiga, bunyodkorlikka, adabiyot va san’at ravnaqiga sarf etgan.

Amiriy qoldirgan she’riy devon olima Mahbuba Qodirova tomonidan 1972 yili katta kirish so‘zi bilan chop etildi. Biroq o‘sha yillari Amiriya o‘xshash shoh va shoirlarga munosabat yaxshi emas edi. Shu sabab uning devonini, undagi asarlarni chuqurroq o‘rganish, ommalashtirish ishlari rivoj topmay to‘xtab qoldi. To XX asrning 90-yillari, respublikamiz mustaqil bo‘lgunga qadar Amiriy–Umarxon xususida so‘z yuritilmadi desak ham bo‘ladi. Chunki istiqlolgacha mumtoz abadiyotimiz sho‘rolar mafkurasi tazyiqi ostida «dunyoviy adabiyot», «feodal-saroy adabiyoti», «diniy-mistik adabiyot» tarzida uch guruhga ajratib yuborilgan edi. Mazkur yo‘nalishlardagi Adabiyotlardan faqat dunyoviy adabiyot saralanib, u ijobiy hodisa sifatida tan olindi va o‘rganildi. Hatto shu dunyoviy adabiyot vakillarining asarlari ham ilohiy-irfoniy g‘oyalardan «tozalanib» tahlil va talqin qilindi. «Feodal-saroy (klerikal)» va «diniy-mistik» yo‘nalishdagi adabiyot deb hisoblangan asarlar va ularning mualliflariga o‘tmishni qoralash uchungina murojaat etib kelindi. Amiriy merosiga nisbatan ham shunday yo‘l tutildi. Shu bois istiqloq shabadalari esa boshlagach, Amiriy va unga o‘xshash shoh shoirlar faoliyatiga, merosiga munosabat o‘zgardi. Ular ijodiga ham o‘zlikni anglashga, milliy g‘ururni tarbiyalashga ko‘maklashuvchi vositalardan

biri sifatida qarash qaror topdi va topmoqda. Keyingi yillari Amiriy ijodini kengroq o'rganishga qiziqish kuchaydi. A.Hayitmetov, M.Qodirova, H.Muhammadxo'jayev, R.Orzibekovning Amiriy va uning ijodiga bag'ishlangan maqolalari, adabiy portretlari maydonga keldi. Saidumarbek – Umarxon – Amiriy shaxsiyati va ijodi haqidagi qaydlar shoirning o'z devoniga yozgan debochada, tarixchilar tomonidan bitilgan asarlarda, «Majmuat ush-shuaro tazkirasida, Amiriy hayoti va ijodiga doir boshqa manbalarda uchraydi.

Umarbek ayrim manbalarda 1785 yili, ayrimlarida esa, 1787 yili tavallud topgan, deb ko'rsatiladi. Bo'lajak iqtidorli hukmdor va iste'dodli shoir Umarxon puxta ta'lim-tarbiya oladi. U ayniqsa adabiyot va tarix kabi fanlarni zo'r qiziqish bilan o'qiydi, fors, arab tillarini mukammal egallaydi, diniy-islomiy manbalardan ham yaxshi xabardor bo'ladi. Norbo'tabiydan so'ng qonuniy valiahd sifatida Qo'qon taxtiga o'tirgan Olimxon (1798-1810) o'tkir zehni, harbiy salohiyati kuchli, davlat ishlariga qiziqishi baland ukasini Farg'ona-Marg'ilon hokimi yetib tayinlaydi. Olimxonning pochchasi, diniy arboblardan biri sanalmish Mas'umxon to'raning «Muntahab ut-tavorix» asarida keltirilishicha, shu shaxsning vositachiligida, Olimxonning taklifi bilan Umarbek 1808 yili amakisining (Rahmonqulibiyning) qizi Mohlaroyimga uylantiriladi. Amiriy yoshligidanoq husni malohatda, odob va axloqda, iste'dodda chinakamiga ismi jismiga monand bo'lgan Komila (Nodira)ning mashhur shoira, davlat arbobi, sifatida hurmat qozonishida ko'magi katta. Nodiraning she'riyatdagi bevosita ustozlari Amiriy bo'lgan.

Amiriy oilaviy hayotda o'ta samimiy, umr yo'ldoshiga g'amxo'r va mehribon bo'lgan. Biroq taassufki, biz sho'rolar hukmronligi yillari Umarxonni Nodiradan ajratgan holda feodal hukmdor, saroy shoiri, shuhratparast shaxs sifatida tushuntirib keldik. Ilmiy asarlarda uning shaxsi, asarlari qora bo'yoqlarda ko'rsatildi. Amalda esa, Umarxon–Amiriy ham saltanat egasi–hukmdor, ham iste'dodli ijodkor sifatida o'z o'tmishdoshlari, Husayn Boyqaro va Mirzo Bobur yo'lidan borib, mamlakat barqarorligi, obodonligi yo'lida, madaniyat va adabiyot rivojiga muhim hissa ko'shgan ulkan bir tarixiy shaxs edi. Umarxonning akasi Olimxon saroy amaldorlari fitnasi

tufayli 1810 yili Toshkentdan Qo‘qonga qaytishda o‘ldirilgach, 22-23 yoshli Saidumarbek xonlik taxtiga lozim ko‘riladi. U 1810 yildan 1822 yilgacha hukmdor sifatida ulkan ishlarni amalga oshiradi, xonlik sarhadlarini kyengaytiradi, yangi shaharlar, manzilgohlar, obod joylar barpo qildiradi. Uning davrida Qo‘qon xonligi madaniy va adabiy hayotida kuchli yangilanish paydo bo‘ldi. U Qo‘qon adabiy markazining asoschisi, tashkilotchisi va homiysi bo‘ldi. Farg‘ona, uning markazi Qo‘qon shoiru shuarolar qarorgohiga aylandi. Unda Husayn Boyqaro va Navoiy davri Hirot adabiy muhiti an‘analari tiklangandek bo‘ldi. Shuning bilan birga, u feodal hukmdor sifatida qo‘shni xonlik Buxoro bilan nizolarda bo‘ladi, bosib olingan o‘lka va shaharlardan ko‘plab aholini asir sifatida Farg‘onaga keltirib, yangi manzilgohlar barpo ettiradi. «Tarixi muhojiron» memuar asari hamda «Sabot ul-bashar» she‘rlar majmuasining muallifi Dilshodi-Barno yoshlik yillarida O‘ratepadan asira sifatida Qo‘qonga haydab keltirilganlardan biri edi. Keyinchalik u himoyat topib, Umarxon va Nodiraning iltifotiga sazovor bo‘ladi. Ma‘naviyat homiysi Umarxon Dilshodning iste‘dodini qadrlaydi. Dilshod-Barno Nodira va Uvaysiyga maslakdosh sifatida o‘z ijodini davom ettiradi, uzoq umr ko‘rib, XIX asrning so‘nggi choragida talantli shoira sifatida tanilgan Anbarotinga ham otinbuvilik qiladi. Haqiqatni dadil gapiruvchi bu shoira o‘zining «Tarixi muhojiron» asarida Umarxon haqida so‘z yuritib, uni «Olim va buyuk shoir edi, biroq shunday bo‘lsa-da, mazlum aholiga mehr-shafqati kam bo‘ldi», deb yozadi. Shu o‘rinda Umarxonning feodal hukmdor sifatidagi salbiy jihatlari ham bo‘lganligini unutmashimiz lozim.

Qo‘qon xonligi tarixi va adabiyotining chuqur bilimdoni alloma Po‘latjon Domulla Qayyumovning uch jildlik «Tazkirai Qayyumiy» asarida yangi ma‘lumotlar keltirilgan: «*Amiriy*. Bu kishi *Xo‘qand* shaharidan bo‘lub, nomi Umarbek, Shohruxiylerden Norbo‘tabiyning o‘g‘lidir. Melodiy 1787 yili tug‘ildi. She‘rda taxallusi Amirdur. 1810 yili akasi bo‘lmish Olimxonning vafotidan so‘ngra Farg‘ona amiri bo‘lub taxtga chiqmishdur. 1822 yili vafot etmish. Ustoz Muhammad Ya‘qubdan taxsili ilmi irfon olmish. Navoiyga ergashuvchi shoirlardan bo‘lub, bir devonga egadur. Badiiy tomondan

raso shoir ekani yozg'on ash'ori obdoridan ma'lumdir. Bu kishining xonligidan qat'i nazar, o'qandli buyuk shoir sifatida hurmat etamiz... O'z davrida uning saroyi adabiyot ahli, ilm-ma'rifat kishilari uchun ochiq bo'lub panohtoptilar. O'sha vaqt Xo'qandga atrof dan adabiyot ahlilari kela boshladilar va hurmat ko'rdilar, ma'rifat ahlilari ziyodalashdi. Umarxonning amri bilan o'sha davr shoirlaridan Mushrif, Mirzo Qalandar va Mulla Abdulkarim Fazliylar tomonidan yaratilgan «Majmuat ush-shuaro» kitobining zamonamizgacha yetib kelishi birmuncha klassik shoirlarimizni o'rganishga muyassar etdi...».

**She'riyati.** Amiriyning adabiy merosi uning o'z davrida tartib berilgan «Devon»ida, bir qismi «Majmuat ush-shuaro» tazkirasida jamlangan. «Devon»ning o'n bitta qo'lyozma nusxasi O'zFA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. Bu qo'lyozmalarning bir qanchasi Umarxon hayotligi davrida ko'chirilgan. Amiriy she'riyatiga bo'lgan qiziqish muttassil davom yetib borgan. Uning asarlari qo'shni mamlakatlarda ham sevib o'qilgan, kitobat qilingan. 1882 yili Istanbulda, 1905 yili Toshkentda bosma nashrlari yuzaga kelgan. Amiriy devonining eng yaxshi ko'lyozmasi asosida filologiya fanlari doktori Mahbuba Qodirova 1972 yili she'rlarini «Devon» nomi bilan chop ettirdi, unga ancha tafsiliy kirish so'z yozdi. Bungacha ham uning she'rlaridan namunalari 1945 yili nashr qilingan «O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi» hamda 1959 yili tuzilgan «O'zbek adabiyoti» majmuasida keltirilgan edi. Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog'ida unga kiritilgan she'rlarning yozilish tarixi, tartib berilishi hamda «so'z gavharlarining sarroflari» va zufunlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan.

1972 yili Toshkentda chop qilingan «Devon»dan 216 g'azal, 6 mustaqil muxammas, 3 musaddas, 6 tuyuq, Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil hamda Zaliliy, Kamol, Nobiy g'azallariga bog'langan tazmin muxammaslar joy olgan.

An'anaga ko'ra, g'azal Amiriy she'riyatining etakchi janridir. U asosan shu janr orqali ishq ahlining amiri sifatida ko'zga tashlanadi. Shu janrdagi asarlarida insonga xos najib his-tuyg'ularni, hayotiy va ilohiy kechinmalarni, orzu-umidlarni tarannum etadi. Demak, muhabbat – shoir g'azallarining etakchi mavzuidir. Shoir deydi:



*Ishq mulkini Amirimen, muhabbat zevarim,  
Istaram to subhi mahshar yor vaslidin liqo.*

Boshqa bir o'rinda shoir o'zining dil mulkiga amir, ishq shahriga shoh ekanligidan faxrlanadi:

*Dil mulki Amirimen, ishq shahrini shohi,  
Har biri Falotundur dargahimda chokarlar.*

Muhimi shundaki, Amiriyning o'zbek va fors tillaridagi g'azallari o'zining xalq diliga yaqinligi, musiqiyliigi, fikriy-falsafiy teranligi, badiiy jihatdan go'zalligi bilan kishi qalbini hayajonlantiradi. Ularni umumbashariy ahamiyatga molik go'zal she'rilar deyishga haqlimiz. Shoirming o'zi ham bundan faxrlangan va o'zini o'zi maqtashni o'rinli deb bilgan:

*Tab' mavzun bo'lsa, so'z ahlig'a moyildur Amir,  
Ul sababindurki, bilmishmen suxanvar qadrini.*

Ayniqsa, uning «Qoshingg'a teguzmag'il qalamni», «Junun daryosi tug'yon aylamakni mandin o'rgandi», «Lab uyur takallung'a, zulfni parishon qil», «Dedi, Yusuf ko'rub yorimni, jononing'a sallamno», «Xusnung kamola etti, ey mahliqo, muborak», «Surma tortib qilma jodu ko'zni, ey dilbar, qaro», «Jahon jono, jamolingga tasadduq», «Menki ul ruxsori nur afzoya oshiq bo'lmisham», «Qizortib chehra maydin oshiqi zoringni kuydurma» misralari bilan boshlanuvchi g'azallari o'zbek g'azalchiligining nodir namunalaridir. Amiriyning ishq mavzuidagi g'azal va muxammaslari majmuidan ishq dostoni paydo bo'ladi, deyish mumkin. Chunki ularda sevgi bilan bog'liq bo'lgan barcha kechinmalar – visol, hijron, firoq, rashk, iztirob, umid, shodlik o'z lirik ifodasini topgan.

Amiriyning «Qoshingg'a teguzmag'il qalamni» misrasi bilan boshlanuvchi mashhur g'azalining o'ziga xos yaratilish tarixi bor. Amiriy haqida so'z yuritgan adabiyotshunoslar, shu g'azalning faqat matla'si borasida gapirganlar. Bu g'azal qo'shiq bo'lib, sevilib ijro etiladi. Qadimda bo'yoq aynimasligi uchun siyohdon ichiga ipak tashlangan. Bir gal, Umarxon she'r yozayotganida ilhom parisi –

Nodira siyohdondan qalamni botirib berib turgan. Lekin qalam uchiga ipak ilashib chiqadi. Shoshganidan Nodira qalam uchidagi ipak patini qoshiga surtib, qalamni Umarxonga uzatadi. Umarxon qarasa, siyoh pati Nodiraning qoshiga surtilgan emishki, u o'sha zahoti «Qoshingg'a teguzmagil qalamni» satri bilan boshlanuvchi she'rini bitadi. Mana o'sha go'zal g'azal:

*Qoshingg'a teguzmag'il qalamni,  
Bu xat bila buzmag'il raqamni.*

*Butxonalar ichra hech tarso,  
Bir ko'rmadi sen kabi sanamni.*

*Oshiqlaringga tarahhum etgil,  
Ko'p aylama javr ila sitamni.*

*Naqshi qadaming muyassar o'lsa,  
Naylay bu jahonda jomi Jamni.*

*Ko'nglum qushi toyiri hariming,  
Sayd etma kabutari haramni.*

*To bewatan o'lmasun ko'ngullar,  
Zulfungdin ayurma pechu xamni.*

*La'ling g'amidin ko'zum to'kar qon,  
Behuda kechurmagil bu damni.*

*Yo'lungda g'ubori roh bo'ldum,  
Boshing'a eturmading qadamni.*

*Sen yordin o'zga kimga dermen,  
Ko'nglumdagi dard ila alamni.*

*Bir kosa sharobi arg'uvonim,  
Pomol qilur hujumi g'mni.*

*Iqlimi vafo Amiridursen,  
Ey shah, bu gadog'a qil karamni.*

Real hayotiy kechinma mahsuli – bu g'azal 11 baytdan iborat bo'lib, Amiriyning hajman xiyla uzun g'azallaridan sanaladi. e'tibor bering, she'rning matla' baytidayoq uning yaqin, dildor bir shaxsga qaratilganligiga ishora bor. Taassufki, biz uzoq yillar bu shoh bayt kimga ishora ekanligi, ikkinchi lirik qahramon kim bo'lishi mumkinligi bilan durustroq qiziqmadik. She'r Umarxon bilan Nodira oralarida kechgan ajoyib voqea mevasi ekanligini aniqlash xotirimizga kelmadi. Chunki Nodira she'riyati Amiriy she'riyatidan tamomila ajratilgan holda o'rganildi. G'azalning maqta' baytida ham Amiriy o'zi bilan sevikli mahbubasi Nodira oralaridagi olovli sevgi va hurmatga ishora qilib, antiteza tasvirlash usuli orqali shoh va gado mafhumlarini qo'llaydi. Nodirani vafo iqlimining amiriga, o'zini esa uning iltifotiga, shafqatiga muhtoj gadoga o'xshatadi. Hayratomuz badiiy lavha!

Amiriyning «Lab uyur takallumg'a, zulfin parishon qil» deb boshlanuvchi g'azali ham shoh asarlardan biridir. U yengil vazni, sho'x ohangi, yorni samimiy erkalash ruhi bilan inson qalbini hayratlantiradi. Amiriyning boshqa ko'p g'azaliaridagi kabi bu g'azalda ham hayotiy lavha va bo'yoqlar qo'llaniladi. Qarang: g'azal matla'sidayoq «Sen shirin so'zga lab ochsang qand-shirinlikning qimmatini, anbar hidli gajagingni yozib yuborsang, anbar bahosi tushib ketadi» – deyiladi.

*Lab uyur takallumg'a, zulfni parishon qil,  
Qand qimmatini sindur, narxi anbar arzon qil.*

Ikkinchi baytda go'zal «husn shohi», tengi, naziri yo'q malohat egasi darajasiga ko'tariladi. Oshiqalar esa, hazin, g'arib gadolar bo'lib, husn shohining rahm-shafqatiga, muhtoj. Bu o'rinda shoir «Qoshing'ga teguzmag'il qalamni» g'azali maqta'sidagi antitezaga o'xshash ramziy usulga murojaat etadi:

*Husn shohisen, jono, bu hazin gadolarg'a,  
Ko'z uchi bila boqib xayr ayla, ehson qil.*

Shu zaylda shoir lirik qahramon hissiyotini avji falakka chiqaradi, ma'shuqaning o'z husni malohati bilan dinsizni musulmon, musulmonni kofir qilishga qodir ekanligidan so'z ochadi. Keyingi uch baytda lirik qahramon ehtirolari yanada kuchayadi. O'zining malak-farishtasifat oldida har qanday tobelikka tayyor ekanligini izhor etadi. G'azalda dayr, mayxona, zohid, musulmon, sanam, gabr kabi ramziy, majoziy so'zlarning ishlatilishi g'azalning tasavvufiy-ilohiy yo'nalishga ham ega ekanligidan dalolat beradi:

*Ishq dinig'a munkir bo'lsa zohidi xudbin,  
Ey sanam, liqo ko'rsat, gabrni musulmon qil.*

Badiiyat jilolariga e'tibor qarating!

*Istasang ko'ngullarni g'amza yoyiga qurbon,  
Qoshlaring hilolini mohi iydi qurbon qil.*

*Sho'xi chashmi navxatsen, noz dashtida sayr et,  
Gardi xoki poyingni surmai g'azolon qil.*

*Yor la'lidin harfe ayladim Amir insho,  
Eyo ko'ngul, bu gavharni jon ichida pinhon qil.*

Birinchi baytda tajnis san'ati bor: qurbon-qurbon qilish hamda Iydi qurbon-Qurbon hayiti. Ikkinchi baytda lutf, mubolag'a usullari: noz dashtida sayr etajak yorning oyog'i tekkan tuproqlar gardini ohular o'z ko'zlariga surma qilsinlar. Ohuning ko'zi o'zi tengsiz darajada go'zal, hayratlanarli. Demak, Amiriy murojaat etayotgan, tasvirlayotgan go'zalning ko'zlari ohular ko'zlaridan ham chiroyliroqdir.

Insonning eng muqaddas tuyg'ulari ko'ngulda jo bo'ladi. Ko'ngul ilohiy ma'noga ham ega. Oshiq ko'ngli yorga bo'lgan sadoqat va

muhabbatni jonidek aziz ko‘radi. Shu bois, Amiriyning boshqa ko‘p g‘azallaridek, bu g‘azal o‘sha zamondayoq shunchalar e‘tibor va qiziqish uyg‘otadiki, uning saroydagi malik ush-shuaro Adodan, Fazliydan tortib qariyb barcha shoirlar Amiriyy g‘azali mazmuni, vazni va radifida payrov g‘azallar bitadilar. Bu an‘ana keyingi shoirlar ijodi tajribalaridan ham o‘tib, Hamza-Nihoniy ijodigacha davom etadi. Uning «*Qil*» radifli g‘azali Amiriyy hamda Fazliyning «*Qil*» radifli g‘azallari ta‘sirida yozilganligini eslang.

Amiriyy mumtoz lirikadagi an‘anaviy obrazlarga, tasvirlarga ba‘zan ergashib, yorni jannat hurlaridan, farishtalaridan ham ustun ko‘yadi. Uningcha, yor visolining o‘zi jannat, naqdiga shukr qilmoq, uning visoli bilan ovunmoq kerak:

*Kavsarim-sharobingdur, jannatim erur vasling,  
Naqd sensen, ey soqiy, nasya-huru g‘ilmonlar.*

Bu baytni ikki xil talqin etish ham mumkin. Balki, shoir bu yerda e‘tiqodli musulmon, Olohning oshig‘i sifatida uning vasliga intilayotgandir. U ba‘zan murakkab istiorali baytlar orqali o‘zining samimiy oshiq ekanligini izhor etadi. Masalan, quyidagi baytda «Sevikli yor mening ko‘zimdan yiroqlashib chodir ichida yashirindi. Uning visoli yo‘lidagi kuyib-yonishlarim, yuragimdan chiqarayotgan ohim tutunlari yorga ozor etmasligi uchun shu chodirga ustun bo‘ldi» kabi o‘ta mubolag‘ali, biroq boshqa shoirlar kam ishlatgan tasvir keltiradi:

*To nazardin ul mahi xirgoznishin bo‘ldi nihon,  
Dudi ohim osmon xirgohiga bo‘ldi stun.*

Amiriyning quyidagi baytida an‘anaviy tasvir bilan birga, yangilik, yangi detallar ham bor. Yorning yuzidagi xol qor ustida turgan qora zog‘ga o‘xshaydi. Shundayam qorday oppoq, momiq yuzda zog‘day timqora xolning joylashganligi oshiqni oshufta hol qiladi:

*Xoli hindusi binogo'shini ravshan ayladi,  
Faslday topg'on kibi zog'i siyahdin qor zeb.*

Amiriy ishqiy she'riyatda portret tasviri ustasidir. U bu an'anaviy tasvirda o'z ijodiy laboratoriyasini yaratishga intiladi. Ayniqsa, u tasvir etgan oshiq mahbubaning tashqi suratini shu qadar go'zal tarzda tasavvur etadiki, ular asosida behzodona miniatyur naqshlar galereyasini chizish mumkin. Ko'z, qosh, lab, xol, gajak, kokul, qomat oshiqni ne-ne iztiroblarga, shirin xayollarga solmaydi. Ba'zan yor kipriklari ham saf tortib turgan chokarlarga (lashkarlarga) o'xshatiladi. egri va makkor qosh esa, urush payti qo'llaniladigan kamondir.

Amiriy bir qancha diqqatangez tuyuqlar ijod qilgan. Shulardan oltitasi joriy nashrda keltiriladi. Ma'lumki, tuyuq so'z o'yinlariga, omonimik so'zlar jilvasiga asoslangan, hazil-mutoyiba ruhi bilan sug'orilgan, so'zamollikni namoyish etuvchi, kitobxonga zavqu shavq bag'ishlovchi miniatyur lirik janrlardan biridir. Xalq og'zaki she'riyatidagi qo'shiq qilib aytishga moslangan bu janrning ajoyib namunalari XV–XVI asrlar o'zbek she'riyatida uchraydi. Tuyuqlar, ularning qofiyalarida jinsdosh-tajnis so'zlarning ishlatilishi o'zbek tilining boyligidan, go'zalligidan dalolat beruvchi dalillardan biridir. Biroq, bu janrning namunalari XVII–XVIII asrlar o'zbek mumtoz she'riyatida kam uchraydi. Shu nuqtai nazardan, XIX asr avvallarida xorazmlik shoirlardan Shermuhammad Munis hamda qo'qonlik ijodkorlardan Amiriyning bir qancha original tuyuqlar ijod qilishga muvaffaq bo'lganliklari ijobiy holdir. Munis va Amiriy an'anaviy bu janrga yangidan hayot bag'ishladilar, desak xato bo'lmaydi.

Amiriy tuyuqlarida kitobxonni mulohaza qilishga, tajnis so'zlarning ma'nolarini bilib olishga chorlovchi, uning so'z boyligini oshirishga xizmat etuvchi joziba bor. Shu bois, ularni umumiy tarzda bo'lsa-da, bir-bir ko'zdan o'tkazish foydadan xoli emas.

Birinchi tuyuq:

*Orazing gulzori jannat bog'idur,  
Tori zulfung jon qushini bog'idur.*

*Halqai zunnor zulfung davrida,  
Kofiri ishq o'lmog'onlar bog'idur.*

Birinchi misradagi «bog'idur» — jannat, firdavs bog'i, ikkinchi misradagisi robita, bog'lovchi vosita, to'rtinchi misrada esa, ishq gashtini surolmaganlar, uning yo'lida alam chekmaganlar bedard odamlardir ma'nolarida qo'llanilgan.

Ikkinchi tuyuq:

*Ey parivash, gul yuzungdin parda ol,  
Kim g'amidin ko'zda yoshim bo'ldi ol.  
Yor bo'lg'oylar senga mahshar kuni,  
Ahmadi Muxtor ila Ashobi ol.*

Birinchi misradagi «ol» tajnis so'zi «yuzingdagi pardani olib tashla», ikkinchi misradagisi «qizil» va to'rtinchi misradagisi esa, «mahshar kuni syenga avliyolar yordam beradi, jazolanishdan saqlab qoladi» ma'nolarini anglatadi.

Uchinchi tuyuq an'ana bilan bog'liq. Sakkokiy, Xoja va boshqa bir qancha shoirlar g'azallarida, tuyuqlarida ko'p ma'nolarda ishlatiladigan so'z-qofiya Amiriy tuyug'ida ham «kechamen» so'zi ma'nolari kyengaytirilib, kecha-tun, kecha-jondin kechmoq, kecha-suv kechmoq ma'nolarida ishlatilgan.

To'rtinchi tuyuqdagi tajnis qofiya «qoshidin» so'zidir. Unda «yorning qoshi», «uning huzuri—qoshidan kelmoq», «zulfiyu qoshi nomusulmon qildi» ma'nolarini anglatadi.

Beshinchi va oltinchi tuyuqlarda ishlatilgan an'anaviy. «yoqadur», «chin» so'zlari Amiriydan avvalgi shoirlar uchun ham tuyuq yaratishga xizmat etgan. Biroq Amiriy bu so'zlarning yangilangan ma'no qirralarini topadi:

*Ul pari jonimg'a o'tlar yoqadur*  
(jonimni o'rtaydi),  
*Kuygonim ko'nlig'a yaxshi yoqadur*  
(xush keladi, yoqadi)

*Ishqida har yon tushub jaybing'a chok,  
Telbamen piyrohanim beyoqadur*  
(yoqasiz).

*Navxatim zulfidin ochg'on chog'da chin*  
(qulf ochish),

*Munfaildur mushkdin ohuyi Chin.*  
(Chin ohusi),

*Chini Mochin zulfi purtobidadur,  
Bu so'zum yalg'on emastur, barcha chin*  
(rost).

Amiriy «chin» so'zining yanada ko'proq ma'nolarini topib, shu radifda etti baytli g'azal ham yaratgan. Unda «chin» tajnisi –rost, haqiqat, tugun, kishi yuzida uchraydigan ajin, Sharqiy Turkiston (Chin o'lkasi nomi), yor zulfining halqasi ma'nolarida ishlatilgan.

Amiriy ijodini ayniqsa Alisher Navoiy an'analari bilan bog'lovchi jihatlar turli shakllarda namoyon bo'ladi. Birinchi navbatda, Amiriy ham Navoiydek ma'rifatli, diyonatli shaxs, davlat arbobi bo'lishga, yurt-el tinchligi va osoyishtaligini saqlashga, madaniyat hamda adabiyotga homiy bo'lishga intildi. Mir Alisher Navoiydek she'r amiri bo'lishni orzu qildi, shu yo'lda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Uning Amiriy so'zini taxallus sifatida tanlashida ham ramziy ma'no, Navoiyga ergashish, ehtirom bor. *Mir* va *amir* so'zlarida shohlik va hukmdorlik ma'nolaridan tashqari, she'riyatda nom chiqarish, kuchli iz qoldirish ma'nolari ham bo'lsa kerak. Zero, asarlarining bir joyida Saidumarbek o'zining ishq ahlining shohi, amiri ekanligiga ham ishora qiladi. Ikkinchidan, u badiiy ijoddagi an'analarga sodiq bo'lib, Navoiyni o'ziga birinchi madadkor, ustoz sifatida tanlaydi. Navoiy asarlarini ko'p nusxalarda ko'chirtiradi, she'riyat darsligiga aylantiradi. Navoiy an'analarning Qo'qon adabiy muhitida keng tarqalishini ta'minlaydi. Navoiy dahosidan ta'sirlanib g'azallar, muxammaslar ijod qiladi.

Alisher Navoiyning Amiriy she'riyatiga ta'siri uch xil shaklda ko'zga tashlanadi:

1. Amiriyning ishq mulkining shohi sifatida Navoiyning haqiqiy va majoziy ishqni tarannum etuvchi lirik she'rlaridagi insonparvarlik



tuyg'ulari, komil inson haqidagi umumbashariy g'oyalaridan ta'sirlanib, ularni ma'qullab, o'z davri sharoiti va talabiga ko'ra ularni boyitish, davom ettirish;

2. Shu maqsadda Navoiyning she'riyat muxlislari orasida keng tarqalgan, sevib kuylangan g'azallariga nazirasifat she'rlar yaratish. Navoiy g'azallari ohangi va shaklida yangi g'azallar, she'rlar yaratish;

3. Nihoyat, Navoiyning eng sara g'azallariga tazmin (taxmis) muxammaslar yaratish. Zero, adabiy ta'sirning bu so'nggi shaklida Amiriyning Navoiy ijodiga nechog'li baland hurmat bilan qaraganligi ko'proq namoyon bo'ladi.

Amiriy qalamiga mansub o'ttizdan ziyodroq tazmin muxammaslarning yigirma beshtasi Navoiyning shoh g'azallariga bog'langanligi shu davoni isbotlay oladi.

O'zbek mumtoz she'riyatida tazmin muxammaslar ustoz shoirdan tajriba o'rganish, kuch sinash, o'z misra va baytlarini ustoz misra, baytlari mezonida turib baholash, adabiy ta'lim olish, shu asnoda o'z ijodiy imkoniyatlarini sinovdan o'tkazish vositasi bo'lib kelgan.

### *Bir paripaykar xati la'lini sharh ettim Amir...*

Bu g'azalning «*Zeri mashqidur Navoiy daftari*» baytidan uning badiiy ijodga qo'l urishi, mashqiy izlanishlari Navoiy asarlari mutolaasidan boshlanganligini ko'rsatadi. Amiriy devonidagi anchayin g'azallar Navoiy g'azallariga nazira, o'xshatma tarzida maydonga kelgan g'azallardir. Ularning ko'plari Navoiy qo'llagan aruz vaznlarida, asosan, ramal bahri vaznlarida, qofiya, radiflarda bitilgan. Buyuk shoir mahorat bilan ishlatgan ma'nodor so'zlar, badiiy-tasviriy vositalar, ma'naviy hamda lafziy san'atlar Amiriy g'azallariga ham ko'chgandek, uning g'azallariga ham go'zallik bag'ishlagandek seziladi.

Amiriyning:

*Orazin pinhon qilur qonli yoshim ko'rgach Amir,  
O'ylakim yog'in kuni tushmush quyosh uzra sahob...—*

baytiga ko'zingiz tushsa, beixtiyor Navoiyning

*Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,  
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh—*

bayti xotirangizga keladi.

Yoki Amiriyning «Zeb» radifli g'azali tarkibidagi:

*Ishq hayrat ashkidin chehramni gulgun ayladi,  
Topti ul naqqoshdin bu surati devor zeb—*

baytini mulohaza qilganingizda, Navoiyning

*Keldi chin naqqoshi ul yuz tarhini qilmoqqa naqsh,  
Chehra ochib naqshi devor ayladi naqqoshni—*

baytini eslamaymizmi?

Amiriyning tazmin muxammaslarida, ayniqsa, uning Navoiy baytlaridagi ma'no va badiiy-poetik jihatlariga yondashishdagi izlanishlar, hayotiy detallar topib ishlatishdagi mahorat yanada yaqqolroq, aniqroq namoyon bo'ladi.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlaridan joy olgan

*Topg'ali xoki tanimg'a novaki ishqing kushod...*

*O'yla hijron toshlarin yog'durli charxi tez gard...*

*Qasrning har kungiri uzra balo toshimidur...*

*Yo'q damekim furqati jonimg'a bedod aylamak...*

*Muhabbat shevasining lozimi ajzu niyoz ermish...*

*Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushti o't...*

*Donai xoling bila ko'nglum qushin rom aylading...*

*Ko'nglum o'rtansun agar g'ayriga parvo aylasa...*

Bunday muxammaslarning adadi yigirma beshga boradi. Biz oxirgi misra sifatida keltirgan «Aylasa» radifidagi Navoiy g'azaliga nazira, muxammas yozmagan shoir yo'q darajada. XVI–XIX asrlar orasida yashab, ijod etgan deyarli barcha mashhur qalam sohiblari bu g'azalga yo nazira, yo tazmin, yo taxmis yozganlar. Natijada shu g'azal vaznida, radifida, mavzuida yuzlab navoiyona g'azallar maydonga kelgan. Ba'zilar nazirai benazir, ba'zilar esa taqlidnamo she'rlar sifatida baholangan.

Alisher Navoiyning bu g'azali o'n baytdan iborat bo'lib, aruzdagi eng o'ynoqi, ohangdor bahr – ramalning «ramali musammani mahzuf» vaznida yozilgan. Uning taqti'i (paradigmasi):

*foilotun      foilotun      foilotun      foilun*  
– V – –      – V – –      – V – –      – V –

G'azalda Navoiy o'ta vafodor, ahdiga sodiq oshiqning yurak monologini, va'dalarini, aytish mumkinki, ishq yo'lidagi qasamyodini bergan. Oshiq har qanday mushkul sharoitlarda ham raqiblar qarshiligini sindirib o'z yoriga qalqon bo'lishga intiladi. Shu yo'lda u dahr-dunning zulmi, bedodlarning tazyiqiga ham chidashga tayyor. Bu uning komilligidan dalolat beradi.

Amiriy shu g'azalning to'qqiz baytiga muxammas bog'lagan ko'rinadi. Uning muxammasi tarkibida Navoiy g'azalidagi ettinchi bayt:

*Ofiyat jonimg'a yetti, ey xush ul, mug'kim meni,  
Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa—*

uchramaydi. Tazmin muxammaschilikda bunday faktlar uchrab turadi. G'azalga tazmin bog'layotgan shoir g'azaldagi ba'zi baytlarni tushirib qoldirishi mumkin. Bu muxammasning eng afzal tomoni

shundaki, o‘zini ishq dunyosining amiri deb bilgan shoir oshiqona tuyg‘ularini lirik qahramoniga ko‘chirib, Navoiy lirik qahramoni tomonidan izhor qilingan samimiy tuyg‘ularni rivojlantirgan, undagi yangi qirralarni ochishga muvaffaq bo‘lgan. Amiriy ham salafi Navoiydek o‘zi pok, dili pok, tili pok, niyati pok, yuzi pok ideal oshiq obrazini namoyon etganki, bunda tasavvufiy nazokat va ehtiroslar ham sado bergandek tuyuladi. Bu holatni Navoiy baytlariga qo‘shilgan uchliklar payvandi orqali yaqqol his qilish mumkin:

*Boshim o‘lsun poymol ar tarki savdo aylasa,  
Xira bo‘lsun ko‘z jamolingdin tabarro aylasa,  
Jong‘a o‘t tushsin bo‘lak dilbar tamanno aylasa,  
«Ko‘nglum o‘rtansun agar g‘ayringg‘a parvo aylasa,  
Har ko‘ngul ham kim sening shavqingni paydo aylasa»...*

*Sendin o‘zga yor paydo aylasam chiqsun ko‘zum,  
G‘ayr diydorin tamanno aylasam chiqsun ko‘zum,  
Gar pariy ruxsorig‘a vo aylasam chiqsun ko‘zum,  
«O‘zgalar husnun tamosho aylasam chiqsun ko‘zum,  
O‘zga bir ko‘z hamki husnungni tamosho aylasa».*

*Necha vafing bog‘ida tutimisol o‘lsun tilim,  
La‘li nobing sharhida shirinmaqol o‘lsun tilim,  
O‘zgalar harfini insho qilsa nol o‘lsun tilim,  
«G‘ayr zikrin oshkoro qilsa lol o‘lsun tilim,  
Qaysi bir til hamki, zikring oshkoro aylasa».*

Amiriyning nashr etilgan «Devon»iga kiritilmay qolgan bir tazmin muxammasida uning Navoiy g‘azallaridangina emas, balki dostonlaridagi obrazlardan ham ta‘sir lanib misralar ijod etganligini ko‘ramiz. Chunonchi, u bu muxammasida «Farhod va Shirin» dostonidagi qahramonlarni eslab Xusrav tog‘qazuvchi Farhod ishqining qadriga q aerda etsin, deb yozadi. Kontrast tasvir orqali Farhodning ulug‘ligini sharaflaydi. Amiriyning g‘azal, muxammas, musaddas va tuyuqlarida Navoiy dostonlari va lirik asarlaridagi timsollarga, naqlarga, rivoyatlarga

ishora qilib, ularga qiyoslab yaratilgan va badiiy ijodda talmih deb atalgan san'at namunalarini tez-tez uchratib turamiz. Amiriy Navoiy g'azallariga bog'langan ayrim muxammaslarida Navoiy g'azallarida kuylangan oshiq dardlarini izchil kyengaytirib, uni sevgi qissasi darajasiga chiqarishga, sevgi, hijron va visol haqidagi qissani to'ldirishga erishadi. Uning «O'lmisham» radifli muxammasida shunday. Amiriyning Navoiy baytiga chirmoshtirgan quyidagi uchligida Navoiy baytidagi mazmunga mos «Men mahjub firoqida qayg'ularimni devor ustiga naqsh etarman, devor-la turib sirimni oshkor etmoqchiman, shu umidda devor osha termulaman», deb oh chekadi. Bu tasvirda hayotda uchrab turgan hodisalardan ilhom olish, kuzatuvchanlik, ularni badiiy ijodda tasvirlash holatlari namoyon bo'ladi.

*Furqatingdin naqsh etgaymen, so'zum devor uza,  
Fosh etay dardim tasalli-chun, o'zum devor uza,  
Telmurar vasling umidi-la ko'zum devor uza,  
«Kecha tengrang aylanib, kunduz yuzum devor uza,  
Uylaki, parvonadin go'yo nomudor o'lmisham».*

Bu muxammas besh banddan—beshlamadan iborat.

Amiriy turkigo'y shoirlar orasida Mavlono Lutfiy va Mavlono Fuzuliy merosini ham mukammal bilgan va ularning g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Lutfiyning «Ey sanavbar bo'yli dilbar, fikri hijron qilmag'il» (besh baytli), «Ishq tushsa har ko'ngulg'a dardu g'amdin chora yo'q» (to'rt baytli), «Nortek yonoqlaring kibi sham' anjumanda yo'q» (yetti baytli), «Ey, jafodin bir zamon ko'ngli pushaymon bo'lmog'on» (yetti baytli) misralar bilan boshlanuvchi ishqiy-so'fiyona g'azallariga ham mahorat bilan muxammaslar bog'ladi.

Manbalarda aytilishicha, Amiriy davridagi Qo'qon adabiy muhitida shirin zabon lirik shoir Fuzuliy asarlariga qiziqish juda katta bo'lgan, uning devonlari ko'p nusxalarda kitobat qilingan. Qo'qon shoirlaridan bir qanchasi Fuzuliy tili va uslubida lirik she'rlar yaratganlar. G'oziy, Mahzuna, Xon—Madalixon, Uvaysiy, Amiriy she'riyatida bu hol yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Amiriy Fuzuliyning

hofizu-xonandalar repertuaridan keng joy olgan:

*Go'shai abro'larinda chashmi jodularmidur,  
Yo'qsa kirmish yoya tirandoz hindularmidur...*

*Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o'landan so'r,  
Zuloli zavq-shavqin tashnayi diydor o'landan so'r*

matla'li g'azallariga mahorat bilan muxammaslar bitdi.

Uning kimsan Jomiy, Kamol va Bedildek forsiy tildagi adabiyotning daholari misralari barobaridagi misralar yaratishga intilganligi ham Amiriy quvvai hofizasi va intellektual qobiliyatining kuchliligidan dalolat berib turadi. Shuning uchun, o'z navbatida, ustoz darajasiga ko'tarilgan Amiriyning shuarolar silsilasida muxlislari, ijodiy ta'lim oluvchilari paydo bo'ldi. Uning muhitida sharoit taqozasi bilan g'azallariga naziralar, payravlar, tazmin muxammaslar yozmagan shoiru shoirlar qolmadi. Hatto Qo'qondan uzoqdagi qo'shni xonliklar hududlaridagi Umarxon davridan keyingi Turkiston o'lkasidagi qanchadan-qancha shoirlar Amiriy she'rlaridan kuchli ta'sirlandilar, unga ustoz shoir sifatida murojaat qilib turdilar. Kattaqo'rg'onlik zabardast epik va lirik shoir Ochildi Miriy (1841–1899) «Muxammas bar g'azali amiri Xo'qandiy» sarlavhasi ostida Amiriyning «Sallamno», «Ko'rung», «Ey, soqiy» radifli g'azallariga,

*Qoshingg'a teguzmag' qalamni,  
Bu xat bila buzmag'il raqamni*

matla'li go'zal she'riga ajoyib muxammaslar bog'ladi. U o'zining *amir* so'ziga ma'nodosh Miriy taxallusi bilan ijod qilayotganligidan faxrlandi. O'lis Xiva xonligidagi Feruz davri adabiyotining ulkan namoyandasi Ogahiy devonidagi tazmin muxammaslar ichida biz farg'onalik shoirlardan Amiriy g'azallariga bog'langanlarining guvohi bo'lamiz. Shular ichida Amiriyning mahorat bilan yozilib, hanuz hofizlar kuyida jaranglab turgan

*«Lab uyur takallumg'a zulfni parishon qil,  
Qand qimmatini sindur, narxi anbar arzon qil*

matla'li g'azali ham bor.

O'zbek adabiyotining peshqadam namoyandalari – Muqimiy, Furqat, Muhyi, Nihoniy ijodini, xususan, lirik she'rlarini Amiriy she'rlari ta'sirisiz tasavvur etish qiyin. Muqimiyning beshta tazmin muxammasi Amiriy g'azallari asosida ijod qilinganligi bunga dalildir. Bu hol Amiriyning adabiyotga homiyligini, ustoz shoir sifatidagi mavqeini yanada chuqur o'rganishni taqozo etadi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Amiriy hayoti va ijodiga oid yangi ma'lumotlar, talqinlarga munosabatingizni bildiring.

2. Amiriy bilan Nodira shaxsiy va ijodiy munosabatlarini qanday talqin etasiz?

3. Amiriy she'riyatiga xos ibratli jihatlarni aniqlab bering.

4. Amiriyning homiy shaxs ekanligini isbotlovchi dalillar keltiring?

### ***Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar***

1. Amiriy g'azallaridan ikkitasini, tuyuqlaridan uchtasini yozma ravishda g'oyaviy-badiiy tahlil qiling.

### ***Adabiyotlar***

1. Amiriy. Devon. –T.,: 1972.

2. Amiriy. O'zbek adabiyoti tarixi. Majmua-xrestomatiya, 4-jild. –T., 1960.

3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 4-jild. –T., 1978.

4. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. –T., 1961.

5. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. –T., 1993.

6. Po'latjon Domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy, 2–jild. –T., 1998.

7. Hasanxo'ja Muhammadxo'ja o'g'li. Ishq ahlining amiri. «Muloqot» jurnali, 1999. 2–son.

## MAXMUR

Ismi Mahmud, adabiy taxallusi Maxmur (xumorlangan, biror narsaga havas qoʻygan) boʻlgan bu shoir XVIII asrning II yarmida Qoʻqonda Norboʻtaxon madrasasining mudarrisi Shermuhammad Akmal xonadonida tavallud topgan. Uning tugʻilgan va vafot etgan yillari aniq emas. Qori Qunduziy «Tavorixi manzuma» (Sheʼriy taʼrixlar) asarida Maxmurning 1844 yili Qoʻqon hukmdorlaridan Sheralixon vafotiga bagʻishlab yozilgan sheʼriy taʼrixini keltiradiki, bundan Maxmurning shu yillari hayot boʻlgani anglashiladi.

Maxmurning otasi Shermuhammad aʼlam oʻz davrining eʼtiborli ziyolisi va mudarrisi boʻlishdan tashqari, isteʼdodli shoiri ham boʻlgan. U ikki tilda ravon sheʼrlar yozib, devon tartib bergan.

Shermuhammad Akmalning devoni, badiiy ijodi haqida Rahmatullo Vozehning 1871 yili Buxoroda kitobat qilingan «Tuhfat ul-ahbob...», Poʻlatjon Domulla Qayyumiyning «Tazkirai Qayyumiy», akademik A.Qayumovning «Qoʻqon adabiy muhiti» asarlarida ayrim maʼlumot va taʼriflar keltiriladi.

Mahmud Maxmur yoshligida otasi mudarrislik qilib turgan madrasada tahsil oladi, fozil va shoir kishi sifatida shakllanadi. Avval Mahmud Maxdum, soʻngroq taxallusiga koʻra, Maxmur Mahdum nomlari bilan taniladi. Mahmud Maxdumning madrasa tahsilidan soʻng bir qancha vaqt, xuddi Gulxaniy kabi, Umarxon lashkarlari safida xizmat qilganligi ham aytiladi. Biroq, Maxmurning Umarxonga yozgan bir qancha murojaat-arznoma sheʼrlaridan maʼlum boʻlishicha, u va oilasi muhtojlikda, faqirlikda kun kechirgan, hayotda roʻshnolik koʻrmagan. Masalan, shoir Umarxonga arznomadan iborat «Arz kardani Maxmur ba janobi Umar Sulton» nomli masnaviy sheʼrida uch farzandli boʻlib, oilada eyishga non, kiyinishga kiyim yoʻqligidan zorlanib, hukmdordan iltifot, yordam kutadi:

*Kechalar yotgani na qoʻshim bor,  
Kunduzi ichgani na noʻshim bor.  
Bir hovuch na uyimda gʻallam bor,  
Ikki gaz na boshimda sallam bor...*



*Arzi holimni shammai bilgil,  
Bandazodingga marhamat qilg'il...*

U boshqa bir o'zbekcha-tojikcha misralar aralash muxammasi mulammasida ham o'zi va boshqa o'ziga o'xshash fazilatli, diyonatli va bilimdon kishilarning og'ir qiyinchiliklar, ruhiy iztiroblar ichida yashayotganliklarini, e'tibordan mutlaqo chetda ekanliklarini bir dard va afsus bilan qalamga oladi, adolatsiz davrni la'natlaydi.

Muxamasning 5-bandi:

*Qaysi bir zulming etay te'dod ey garduni dun,  
Kim sening bedodu javring haddi g'oyatdan fuzun.  
Behunar johilga berding beadam dunyoi dun,  
Jam'i donolarni qilding holini zoru zabun,  
Zog'ni a'lo qilib bulbulni nolon aylading.*

**Adabiy merosi.** XX asrning 50-yillarigacha Maxmurning «Majmuat ush-shuaro»da keltirilgan beshtagina g'azali («Hapalak», «Tarog'» radifli va boshqalar) hamda Qori Qunduziyning «Tavorixi manzuma» asaridagi ba'zi ta'rix she'rlarigina ma'lum edi, xolos. Adabiyot tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar Maxmurning shaxsiyati, ijodi haqida shu sanoqli she'rlar asosidagina fikr yuritardilar. 50-yillar boshlarida qo'qonlik aruznavis shoir Charxiy hamda tazkirachi olim Po'latjon Domulla Qayyumovning say'-harakati bilan Maxmurning hajviy asarlarni o'z ichiga olgan qo'lyozmasi topildi. Unda yetmishga yaqin g'azal, muxammas, masnaviy shakllarida yozilgan hajviy asarlar mavjudligi ma'lum bo'ldi. O'sha yillari yosh olim bo'lgan, hozirda esa akademiklik ilmiy darajasiga erishgan Azizxon Po'latjon Domulla o'g'li Qayumov Maxmurning yangi topilgan asarlari ustida tadqiqot olib bordi. 1956 yili uning tadqiqot va matnlardan iborat «Maxmur» nomli kitobi nashr etildi. Bu kitobning I qismi Maxmur hayoti va ijodiga oid ma'lumot hamda fikrlardan, ikkinchi qismi esa, Maxmur asarlaridan iborat. Maxmur otasi Akmal kabi zullisonayn shoir bo'lgan. Uning hajviy asarlari ichida fors-tojik tilida yozilgan, ba'zan o'zbek-tojik tillarida shiru-shakar, mulamma' usullarida bitilgan she'rlari bor.

U Turdi kabi shoirlar an'analariga ergashib, hamma she'rlariga asar mazmuniga ishora qiluvchi forscha nomlar qo'yan. Shu jihatlarni hisobga olib, Aziz Qayyumov o'z kitobida Maxmurning forsiy she'rlari matnining tarjima ma'nolarini ham keltirganki, natijada o'quvchi bu she'rlarning mazmuni, mohiyati va badiiyatini tushunib olishda unchalik qiynalmaydi. Kitobda olim «Majmuat ut-shuaro»da Fazliy tomonidan Maxmur sha'niga aytilgan ba'zi noxolis fikrlarning asossiz ekanligini ta'kidlab o'tadi. Maxmurning hajviy asarlarni o'z ichiga olgan yuqoridagi majmuadan tashqari, turli qo'lyozma bayozlar, manbalar orqali Hofiz, Soib kabi shoirlar g'azallariga yozilgan tazmin muxammaslari ham topildi. Jumladan, u shirin zabon lirik shoir Hofizning juda mashhur bo'lib ketgan

*Agar on turki Sherozi ba dast orad dili moro,  
Bo xoli hinduyash baxsham Samarqandu Buxororo.*

(Agar u sherozlik turk jononi ko'nglimizni olsa, hinducha xoliga Samarqand va Buxoroni bag'ishlar edim) g'azaliga mahorat bilan tazmin muxammas bog'lagan. Biroq bizning ko'z o'ngimizda Maxmur asosan qalami o'tkir, tili achchiq hajvchi shoir sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham uning o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rnini hajviy asarlari orqali tayin etish mumkin.

**Hajviyoti.** Maxmurning 1956 yili chop etilgan hajviy asarlari majmuasida yettita turkum asarlaridan (har bir turkum ikkita, ba'zan uchta g'azal va masnaviyini o'z ichiga oladi) tashqari:

1. Munajat ba dargohi Qozi al-Xojot, mulamma' muxammasi.
2. Ta'rifi viloyati Qurama muxammasi.
3. Dar sifati Qosim beklarbegi muxammasi.
4. Dar hajvi Xo'ja mir Asad masnaviysi.
5. Dar hajvi domullo Atoi Ashti muxammasi.
6. Avsofi Karimqul mehtar masnaviysi.
7. Dar sifati Niyozcha og'olik mullama' masnaviysi.
8. «Dar sifati amir Olimxon ta'rix o'» hajviy tarixi (masnaviy) kabi asarlari bor. U bu asarlarining anchasini, masalan, muxammaslarining bir bandini o'zbekcha, ikkinchi bandini forsha,

masnaviyalarining bir baytini o'zbekcha, ikkinchi baytini forscha yozgan. Bir she'rni ikki tilda yozish Maxmur ijodiga xos xarakterli xususiyatlardan sanaladi. U adabiyotimiz tarixida mulamma' usulida she'rlar yozishga alohida ruju' qo'ygan zullisonayn shoirlardandir.

Maxmur hajviyotida uning ko'z o'ngida sodir bo'lib turgan voqea-hodisalar, ularning ishtirokchilari real shaxslar ifodalangan. U o'z zamonasidagi illatlarni-qalloblik, diyonatsizlik, riyokorlik, nodonlik va zulmni nufuzli shaxslar qiyofalari orqali aks ettiradi. Ularning adolatsizliklarini el ko'zida fosh qiladi. Yuqorida sarlavhalari keltirilgan asarlardan ham ma'lum bo'lib turadiki, ular ichida o'lib ketgan Amir Olimxonu, shoir Fazliydan tortib beklar begi, qozi, nodon tabib, mehtar og'alik, xazinachi, munshiy kabi amaldoru din arboblari bor. Maxmur hajviyotidagi satirik obrazlar bir-birini to'ldiradi. U hatto qozi, hoji, tabib, mulla, saroy shoiri Fazliy hajviga bag'ishlab ikkita, ba'zan uchta she'r yozadi. Bunday turkumlilik Maxmur hajviyotiga xos alohida xususiyatdir.

Maxmurning turkum, bir mavzuga bir necha hajv bag'ishlangan she'rlari quyidagilardir:

1-turkum: g'azali Qozi Muhammad Rajab Avj (monolog-g'azal). Qozi Rajab o'zini o'zi fosh etadi. Bu usulni Maxmurdan avval Boborahim Mashrab hamda Huvaydo «O'zim» radifli g'azallarida qo'llagan edilar; 2. «Avsofi Qozi Muhammad Rajab Avj» qozining satirik obraziga shoir Maxmur tomonidan berilgan tavsif, masnaviy shaklida.

2-turkum va boshqa turkumdagi asarlar ham monolog-g'azal va shoir tavsiflaridan iborat bo'lib, bir-birini to'ldiradi va o'quvchida ikki, uch asar orqali bir satirik obraz haqida to'la tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Bular Hoji Niyoz, Loubol O'ratepasi, Hakim Turobiy, Mulla Yoqub Xo'jandiy, Qozi Xo'ja Sag'bon, Fazliy haqidagi asarlardir. Shoir riyokor Mulla Yoqub va Fazliyga atab uchtdan she'r yozgan. Masalan, «Avsofi Qozi Muhammad Rajab Avj» masnaviysida qozining munofiq, riyokor, diyonatsiz shaxs ekanligi, asli andijonlik bo'lib, Yangiqo'rg'onda istiqomat qilishi, Qoratepa qishlog'ida qozi ekeni aytiladi. Katta qozilik mansabida o'tirgan bu shaxs johil va badaxloqligi bilan «mashhur» bo'lgan.

*Ajab qoziyi, kohili, johile,  
Bo'lib omiylik «ilmi»ga komile.  
Aning ko'ksini chok qilsang, hama,  
G'ilu g'ishtini pok qilsang, hama.  
Adamdur, alif anda ko'p izlama,  
Bu narxarni qozi debon sizlama...*

Maxmur Muhammad Rajabning tashqi ko'rinishini ham siyratiga (ichki dunyosiga) mos qilib tasvirlaydi. Uning kelbatini Mozandaron deviga o'xshatadi, ikki oyog'ini Jayhun bilan Sayhun daryolariga ko'prik qilsa bo'ladi, deydi. Terakday beo'xshov bo'yi, ola ko'zlari, savatday haybatli sallasi odamlarda hayrat uyg'otishini eslatadi:

*Buzub jumla darvozani sallasi,  
Eshiklarni vayron qilur kallasi.*

«G'azali Qozi Muhammad Rajabi Avj dar borai xud» monolog-g'azaldir. Unda Avjning o'zi o'z qilmishlari haqida tilga kiradi.

Maxmurning ijodkorlar hamda el orasida mashhur bo'lib ketgan she'rlaridan biri «Hapalak» radifli she'ridir. Hapalak shoiming validasi tavallud topgan qishloqning nomi bo'lib, u bu qishloqning ayanchli ahvoli, xalqining ocharchilik va qiyinchilik tufayli tortayotgan azoblaridan qattiq iztirob chekkan. «Hapalak» g'azali qishloqning o'sha vaqtdagi ahvolidan amir Umarxonni voqif qilish, iloji boricha, uning moddiy yordamiga erishish istagi bilan yozilgan. Asarni hapalakliklar nomidan hukmdorga yozilgan arznoma desa bo'ladi. G'azal tilining, badiiy vositalarining jozibador, ta'sirli bo'lishidan tashqari, mavzuning hayotiy lavhalar asosida yoritilganligi bilan ham ajralib turadi. Maxmur Hapalakning real tasviri orqali o'sha davrdagi qishloqlarning xarob ahvoli va unda istiqomat qiluvchi fuqarolarning qashshoqligini umumlashtirgan. Shu ma'noda, «Hapalak» she'ri o'zbek adabiyotida yaratilgan nodir asarlardan sanaladi. XIX asning II yarmida yashab, ijod etgan Muqimiy, Nodim kabi mashhur shoirlar unga tazmin muxammaslar yozganlar.

*Ey, jahondori zafar kavkabai davri falak,  
Go'sh qil qissai qishloqi xarobi Hapalak.*

*Turfa qishloqi g'azab kardaki, parrandalari,  
 Tovug'i ignachiyu o'rdagu g'ozi – kapalak.  
 Bor-yo'q uylarini banda bayon gar qilsam:  
 Bir katak, ikki kapa, uch olachuuq, to'rt katalak.  
 Dema uy, balki, zaminkandur, agar kirsas kishi,  
 Har taraf betiga urgaylar aning ko'rshapalak.  
 Xalqini ko'rsang agar o'lasiyu qoqu xarob,  
 Ochlikdin egilib qomati misli kamalak.  
 Ajiriy tomirini o'g'irida mayda tuyub,  
 Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak.  
 Gar tahorat qilsa qavmi suv topolmay nochor,  
 Betini qumga yuvib ko'ziga surtar guvalak.  
 Kecha go'yo eshitib shuhrati tillo pulini,  
 Hapalak qo'rqusidin uchdi misoli kapalak.  
 Ey falak, qadru adolat shiyamu mulki malak,  
 Marhamat chog'ida rahm ayla baholi Hapalak.  
 Himmating yo'lida bir turfa karomat qilg'il,  
 Hapalak boz qo'nub joyig'a bo'lg'ay hapalak.*

Maxmur qo'yan nom: «Maxmur Maxdum aloqador bo'lgan «Hapalak» qishlog'ining sifatida». Maxmurning yana ikkita xonga arznomadan iborat she'ri bor. Biri g'azal, biri masnaviy. Uning «Ta'rifi viloyati Qurama» muxammasi sayohatnoma tarzidagi asardir. Unda shoirning Qandil dovoni va Qirovchi cho'li orqali Quramaga qilgan sayohati taassurotlari aks ettirilgan. Qurama yo'llaridagi xarob joylar, cho'lu biyobonlar, xasis boy-badavlat kishilarning xudbinligi shoir tomonidan afsus bilan ifodalanadi. U o'n to'qqiz beshlikdan iborat. Maxmurning bu asari o'sha davrdagi zamondoshi Dilshod-Barnoning Farg'ona viloyati shaharlari haqidagi muxammasining, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa, shoir G'urbatning Namangan safari haqidagi sayohatnoma muxammasining, Muqimiy sayohatnomalarining paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan.

Maxmur hajviyotiga mansub asarlar ichida hazil-mutoyiba, chandish orqali o'ziga yoqmagan shaxsni tanqid qiluvchi yumoristik she'ri ham bor. U satira bilan yumorga xos xususiyatlarni o'zida

mujassamlashtirgan asardir. U «Avsofi Karimqul Mextar» mavzusidagi masnaviysida mansabdor shaxs Karimqulning Maxmurga ot va'da qilib, unga nihoyatda xarob bir otni hadya etganligi, bu otning kulgili qiyofasi tasvirlanadi.

Garchand yumoristik she'rlar Maxmurgacha ham og'zaki hajviyotda, ham yozma adabiyotda (Turdi she'rlari) yaratilgan bo'lsa-da hazil-mutoyibaning o'tkirligi, hayotiyliigi, kulgi qo'zg'atish kuchi jihatidan Maxmur she'rlari darajasida emas edi. Shu bois, bu turkumdagi she'rlar Muqimiyda yumorning muhim o'rin tutishiga omil bo'ldi. Muqimiy bevosita Maxmurning shu mavzudagi she'ridan ta'sirlanib, muxammas shaklida «Ot», «Hajvi ot», g'azal shaklidagi «Bu otingiz», «Otim», «Dar sifati asbi Toji tilgirofchi» asarlarini yaratdi.

Demak, Mahmud ibn Akmal Maxmur XIX asrning I yarmi o'zbek adabiyotida o'ziga xos mavqe egallagan ijodkor bo'lib, xususan, hajviyotda maktab yarata olgan desak bo'ladi. U hajviyotda mubolag'a, bo'rttirish, piching, kesatiq, laqab qo'yish, kinoya, masxaralash, satirik tavsif, obrazning o'zini tilga kiritish, syujetli hajviy hikoyalar yaratish kabi an'anaviy usullarni rivojlantirgan, ayrim yangiliklar bilan boyitgan, shular asosida hayotiy, zamonaviy asarlar yoza olgan.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Maxmur (matn va tadqiqot) asarlarini mutolaa qilish. Shoir asarlari qachon topildi?

2. Turkum hajviyalarda kimlar hajv etilgan. Ularning asosiy xususiyatlarini ayting?

3. Sayohat taassurotlari haqidagi muxammas.

4. Maxmur hajvlari va yumoriga xos an'analar kimlar ijodida ko'proq ko'rinadi?

### ***Adabiyotlar***

1. Maxmur she'rlaridan namunalar. O'zbek adabiyoti. Majmua, 3—tom. —T., 1959.

2. Po'latjon Domulla Qayyumov Tazkiran Qayyumiy 1 jild. —T., 1998

3. Qayyumov A. Maxmur (tadqiqot, asarlari, lug'at). —T., 1956.

4. Qayyumov A. Qo'qon adabiy muhiti. — T., 1961.

## MUJRM OBID

Mujrim Obid XVIII asming oxiri – XIX asming I yarmi Buxoro amirligi hududidagi adabiyotning iste'dodli, zullisonayn namoyandalaridan biridir. U Mirza Sodiqliy Munshiy, Xislat kabi ikkitilli shoirlar qatorida adabiyotimiz rivojida o'z o'rniga ega. Uning Alisher Navoiy an'analari asosida tartib berilgan o'zbek tilidagi, tojik tilidagi she'rlarni o'z ichiga olgan alohida devonlari qo'lyozmalari O'zFA Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanmoqda. Shundan 3798-raqamli o'zbek tilidagi devon ancha to'la bo'lib, unga shoir debocha yozgan. Shu debochadagi qaydlariga ko'ra, devon «Qarilig'quvvati a'zog'a sustlik paydo qilgan» yillari tuzilgan. Shu devondagi she'rlar, asosan, g'azallar saralanib 1960 yili «Mujrim Obid. G'azallar» kitobi nashr etildi. 1975 yili Buxorolik olim M.Abdurahmonov o'z dissertatsiyasida Mujrim Obidning hayoti va ijodi haqida dastlabki kuzatishlarini keltirdi. «O'zbek adabiyoti tarixi» darsligining ikkinchi kitobida (1980), «O'zbek adabiyoti tarixi» besh jildligida (1978, III kitob) shoiming ixcham adabiy portreti berildi. 2001 yili O'zFA Til va adabiyot instituti ilmiy xodimi G'.Eshmonov nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi. Bu yangi tadqiqotda Mujrim Obidning har ikki tildagi she'rlari qamrab olingan, ular xiyla mukammal tahlil etilgan. Galdagi vazifa – Mujrim Obidning hech bo'lmasa, o'zbek tilidagi devonini mukammal holda nashrdan chiqarishdir.

Shoiming hayoti va adabiy faoliyati Buxoroning mutasavvuf amirlari Shohmurod, Haydar va Nasrullo hukmronligi yillariga to'g'ri keldi. Bu yillari Buxoro amirligida Qo'qon xonligi markazida hukmdor Umarxon – Amiriy tashabbusi va homiyligida yuzaga kelgan adabiy markaz kabi madaniy markaz yo'q edi. U erda ko'proq diniy-tasavvufiy asarlarni tashviq qilishga, shunday asarlar yaratishga e'tibor berilardi. Shoirlar parokanda holda turli kasb-hunar bilan birga badiiy ijod bilan ham mashg'ul bo'lardilar. Badiiy ijodga, uning namoyandalariga homiylik bu hududda xiyla so'ngan edi. Bu holatlarni biz Mujrim Obid, uning kattaqo'rg'onlik zamondoshi Shavqiy taqdirlarida ham ochiq ko'ramiz. Agar Mujrim amir Haydar tazyiqi, qistovi bilan Obid (ibodat qiluvchi) ikkinchi taxallusini ham qabul qilishga majbur bo'lgan bo'lsa, Shavqiy madrasani bitirib, Buxoroda

o'z maqsadiga erisholmagach, boshi qotib Qarnab yo'li orqali o'z yurti Kattaqo'rg'onga qaytishga ehtiyoj sezganligini afsus ila ifodalagan edi. Ijtimoiy turmushdagi tanazzul, adabiy hayotning sust va parokandaligi, Buxoro hukmdorlarining ravshan fikrni bo'g'ishi, ijod ahliga nisbatan sovuq va ters munosabati tufayli Hozik, Koshif, Turobiy, Mushtoq kabi shoirlar najot umidida Qo'qonga qarab yo'l olgan bo'lsalar, Mujrim Obidga o'xshash ta'bi rasolar amirning buyrug'i bilan Mujrim (gunohkor) o'rniga Obid (ibodat qiluvchi) taxallusini qo'llab ham moddiy ahvolidagi biron natijaga erishaolmadi. Mujrim Obid amir Haydarga bag'ishlab bir qasida yozganida xon unga yordam berish o'rniga shoirlikdan voz kechib, qalandarlik qilishni maslahat berdi:

*Falotun ta'blar birla o'zimni teng bilur erdim,  
Na bildim, bexirad, devona bo'lmoq bor ekan oxir.*

Biroq Mujrim Obid xon maslahati bilan bormadi, Obid taxallusidan ham ko'ngli to'lmadi, kambag'allik, muhtojlik ichida bo'lsa-da, sevgan ijodiy ishini davom ettirdi. Bu uning quyidagi kinoyali misralarida o'z ifodasini topgan:

*Na obidlig'da masruram, na mujrimlig'da mahjuram,  
Chu tole er yo'q, miqdor yo'qtur muncha nomimg'a.*

Mujrim asarlarida uning tavallud topgan, yoshligida ibtidoiy maktabda ta'lim olgan joyi Kumushkent degan joy bo'lgani aytiladi. O'sha davrda Buxoro amirligi xududida uch joy Kumushkent deb atalgan edi.

*Kumushkent o'lkasi manzil,  
Qolibman anda podar gil.  
Ishimdir nazmi behosil,  
Ki yolg'on so'zga chin bo'ldim.*

misralari Kumushkentning qaysinisi shoir vatani bo'lganligini aniqlash muammosini ham keltirib chiqardi. Buxoroning Vobkent



tumanida, Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanida hozir ham shunday joylar borligi ma'lum. Sinchiklab tekshirishlar Mujrim Vobkentdagi Kumushkentda tavallud topgan degan taxminlarga olib keldi. U shu joyda o'qimishli, ma'rifatli xonadonda dunyoga kelib, shu joyda ibtidoiy maktabda o'qiydi. Xattot, shoir otasi Mirakxo'ja g'amxo'rligida Mirarab madrasasida tahsilni davom ettiradi. Mujrim Obid ijodida uning «Hasbi hol» («Arzi ahvoli bu faqiru hazin» misrasi bilan boshlanuvchi) masnaviysi alohida o'rin tutadi. 49 ikkilik – 98 misradan iborat bu asarda Mujrimning oilaviy ahvoli, ruhiy kechinmalari bilan ro'zg'or, odob-ahloq, mehr-oqibat haqidagi o'ylari realistik tarzda ifodalangan. «Hasbi hol» kichik masnaviychilikning alohida turi bo'lib, uning dastlabki namunasi Navoiy ijodida uchraydi. Navoiyning Samarqanddan o'z ustozini, yaqin kishisi Said Hasan Ardasheriga yo'llagan masnaviy-maktubida Alisherning o'sha yillardagi ruhiy kayfiyati, arzi ahvoli chuqur va ta'sirchan ifodalangan. Mujrim Obid «Hasbi hol»ida ham shunday xususiyat bor. Unda ham ijodkor va dono bir insonning ruhiy iztiroblari, feodal axloq meyorlariga qarshi isyoni aks ettirilgan. Bu asar Mujrim Obidning oilaviy fojialari haqidagi mungli she'riy hikoyadir.

Navqironlik, o'rta yoshlik yillari ancha zavqli o'tgan shoir hayotning ketma-ket zarbalariga duch keladi:

*Ikki o'g'ilu besh qiz – barisi,  
Har biri bo'ldilar bir uy egasi.  
Har kim o'z ro'zg'ori birla xush,  
Ko'hna vayronada men birla Boyqush.  
Ko'rdilarkim atoda yo'q dirham,  
Borish-kelishni qildilar barham.  
Volidalari bevafo bo'ldi,  
Bizga bo'ldi nakim jaf bo'ldi.  
Ushbu qaridin etmadilar yod,  
Aning uchun manu ko'ngul noshod...  
Ro'zg'or ahli ichra xor o'ldim,  
Udvoni ahli ro'zg'or o'ldim.*

*Manga yo'q g'amg'usori shafqatlik,  
Ahlu avdoddin muruvvatlik.  
Degay otam qoshida bor bo'lay,  
G'amu shodiy etishsa, yor bo'lay.  
Bir quruq cho'bi bed bo'lmishman,  
Hammadin noumid bo'lmishman.  
Endi manda na orzu, na havas,  
G'ayri tufroq uza ko'milmagu bas.*

Mujrim Obidda xalqchilik, realistik tendentsiyalar ancha kuchli. Uning ko'p g'azallari va ayniqsa «Hasbi hol» masnaviysida o'z hayoti, og'ir ahvoli orqali zamona tanqidi, adolatsizlik va tobora avj olayotgan zulmga, bevafoqlik va muruvvatsizlikka nafrat ifodalanadi. Shaxsiy-psixologik motiv etakchi o'rin tutadi. Boshqa o'ziga o'xshaganlarning qismatiga ham ishoralar bor. U o'z davridagi sosial nohaqlikni anglagan, uni o'z she'rlarida tazod usulida ifodalab bergan:

*Zamona har kima bir tarz ro'zg'or qilur,  
Birovni vosili davlat, birovni xor qilur.  
Birovni qo'liga berur madori mulki jahon,  
Birovni to dame o'tguncha bemador qilur.  
Birovni g'am bila, qayg'u bila ado aylar,  
Birovni ishrati olamg'a poydor qilur...  
Birovga simu zar behisob ro'zi etar,  
Birovni bir pul uchun yo'l yuzida zor qilur.  
Birovni ko'nglida kibru, g'ururu zavqu huzur,  
Birovni quyi g'ariblikda xoksor qilur.*

Ba'zan u to'g'ridan-to'g'ri g'addor falakka qarshi o'z aybnomasini, g'azab-nafratini izhor etadi, uni uzil-kesil la'natlaydi:

*Qilay bir necha sandin ham shikoyat, bevafo dunyo!  
Yurakda dog'lar behadu g'oyat, bevafo dunyo!  
Bani odamni aldab, domi nafs ovorasi qilding,  
Manohi yo'l sari qilding hidoyat, bevafo dunyo!*

*Havoyu, hirsu ayvon orzular birla umr o'tti,  
Qani andog'bidoyatqa hidoyat, bevafo dunyo!  
Birovning boshida savdo, birovning ko'nglida g'avg'o,  
Birovlarni g'aribi har viloyat, bevafo dunyo!  
Firebingga ishondim, va'dayi yalg'oningga yondim,  
Hazarkim, topmadim sandin kifoyat, bevafo dunyo!*

Mujrim Obidning boshqa ayrim g'azal va muxammaslarida ham real voqelik bilan bog'liq tuyg'ular ifodalanadi. Odamlar o'rtasida vafo va sadoqat, bir-biriga mehribonlik yo'qolib borayotganligidan shikoyat qiladi. U o'zining «men»i orqali jamiyatni qoralagandek; farzand tarbiyasi uchun muhit noqulay ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi. Mujrim Obid Navoiyning

*Mehr ko'p ko'rguzdim, ammo mehribone topmadim,  
Jon base qildim fido, oromijone topmadim*

matla'ali hasbi hoi monolog-g'azaliga muxammas bog'lagani ham bejiz emasdek ko'rinadi. Mujrim Obid devonlarida Alisher Navoiy hamda Mirzo Bedil g'azallariga yozilgan tazmin muxammaslar bor. U Navoiyning ettita g'azaliga ancha diqqatangez muxammaslar yozgan. Ularda ham ko'proq o'zining og'ir qismatiga, hasbi holiga ishoralar bor. Shunday muxammaslaridan biri Navoiyning «Topmadim» g'azaliga yozilgan muxammasdir. Bunda Mujrim Navoiy bilan dardlashadi. Uning mehr ko'rsatib, mukofotiga jafu, beoqibatlik ko'rayotganligi o'zining ham taqdiriga o'xshashligini bildirmoqchi bo'ladi. Shu muxammasning quyidagi beshliklari orqali o'z qismatida Navoiy g'azali qahramonining chuqur ruhiy iztiroblariga ayniyatni, o'xshashlikni naqadar aniq ifodasini topganligini anglamoq mumkin:

*Olami foniya kulfatsiz makone topmadim,  
G'ayri anduhu g'amu ohu fig'one topmadim,  
Bir anisi shodu g'am, shirin zabone topmadim,  
Mehr ko'p ko'rguzdum, ammo mehribone topmadim  
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.*

*Dahr aro yolg'uz uzumdek xoksore ko'rmadim,  
Bekasu beyoru beg'amxoru xore ko'rmadim.  
Bir hazoni noumidi navbahore ko'rmadim,  
G'am bilan jonimg'a ettim — g'amg'usore ko'rmadim.  
Hajr ila dibxasta bo'ldim—dilsitone topmadim.*

Mujrim Obidning ikki tildagi devonlarida komil inson orzularidagi bir qancha ruboiy va qit'alari ham mavjuddir. U bir qit'asida shunday aforistik baytlar keltiradi:

*O'lsang o'l, o'zungdek kishidin zar tilama,  
Bebarg quruq yog'ochdin barg tilama.  
Atfol kibi asoni otqil, minu ket,  
Har past nazar jinsdin har tilama.*

Bu fikrlar «Do'stga xor, nomardga muhtoj qilmag'ay» maqolining shoirona talqinidir:

*Ulkim, havasi joh ila manzil qildi,  
Chun sarv o'zini poy dargil qildi.  
Ilm birla jahlni muqobil qildi,  
Bilmaski, bu umrdin na hosil qildi.*

*Ey ko'ngul, man senga aytdim: yaxshilarga yor bo'l,  
Suhbati ahli tamannodin qochib, bezor bo'l.*

kabi ruboiy va baytlar Mujrim Obid she'riyatidagi donolikning chuqurligini ko'rsatadi.

Mujrim Obidning hasbi hol, ruboiy, qit'a she'rlarida ko'proq katta hayot saboqlariga ega bo'lgan dono, tamkin inson nutqiga xos qiyoslarni, aforistik naqllarni, hikmatomuz ibora va pandlarni ko'rsak, ishqiy-tasavvufiy g'azal va muxammaslarida inson ichki olamining o'ta nozik, orombaxsh tuyg'ulari tasvirini, shunday tasvirlarga mos tashbeh, qiyos, mubolag'a, bo'rttirish, istiora badiiy usullarini ko'proq ko'ramiz:

*O'shal ro'zeki gulgun chehralar ichra arolabman,  
Seni majmui xo'blarning arosidan sarolabman.  
Agarchi qiymatingni xalqaro ma'lum yetib bo'lmas,  
Xiroji mamlakat har bir nigohingni baholabman.  
Sen, ey Laylisifat, bir qatla holimni so'ra kelgil,  
Ki man Majnun kibi tosh birla andomim yarolabman.*

Tajnis san'ati ishlatilgan baytlari bor:

*Ishq bemorig'a Mujrindir tabiblar noiloj,  
Era bor bo'lsa, yurakda yora borsang yora bor.*

ya'ni ishq yuragidagi dardingni yorga borib izhor etmoqchi bo'lsang, uni borib ochiq yoritib ber. Uning ishqiy tasavvufiy mavzulardagi quyidagi ikki g'azalida mumtoz she'riyatimizda keng qo'llanilgan musajja' hamda talmih san'atiga oid original baytlar, mubolag'ali tasvirlar keltirilgan. Shu bois, ancha sodda, samimiy va ohangdor chiqqan bu ikki g'azal hamon hofizlarimiz repertuarida yashab kelmoqda. Birinchi g'azal matnini kuzataylik:

*Ko'nglim ochilur guldek yorginamni bir ko'rsam,  
Xizmat aylaram guldek yorginamni bir ko'rsam.  
Ul mohi paripaykar, ilgida zaru zavar,  
Har kalomi jonparvar yorginamni bir ko'rsam.  
Orazi chaman aro, ko'ngli porai xoro,  
Shoni shavkati doru yorginamni bir ko'rsam.  
Ko'zlarimda yo'q uyqu, termulib qarab har su,  
Ikki nargisi ohu yorginamni bir ko'rsam.  
Lablari shakarxoyi, bizni qildi savdoi,  
Ko'z anga tomoshoi yorginamni bir ko'rsam.  
Man bo'lib anga vola, kecha-kunduzim nola,  
Husni dog'siz lola yorginamni bir ko'rsam.  
Toza dilbarim kelsun, mehrparvarim kelsun,  
Sho'r mahsharim kelsun, yorginamni bir ko'rsam.*

*Har zamon chekarman dod, yorimni qilurman yod,  
Ohu nolavu faryod, yorginamni bir ko'rsam.  
Dog'i mubtalodurman, hamdami balodurman,  
Boshdan o'rgulodurman, yorginamni bir ko'rsam.  
Man g'aribi sargardon, ishq ko'yida hayron,  
Ashkbori durmijgon yorginamni bir ko'rsam.  
Mujrimi adoyiman, zoru benavoiyman,  
Ko'yida gadoyiman, yorginamni bir ko'rsam.*

Ikkinchi g'azalning matni va g'oyaviy-poetik tahlili ham Mujrim iste'dodiga nisbatan mehrimizni yanada oshiradi:

*Tong otti chiqma uydin, har tarafg'a qilma nazzora,  
Mabodo bo'lmag'ay oyu quyoshning pardasi pora.  
Yuzungga xalqi olam ko'z solurg'a orzu aylar,  
Tavaqqum ulki, yakson bermagaylar jon yakbora.  
Labingdin g'uncha kulmak istaru nargis nigohingdin,  
Tarahhum ayla pomol o'lmasun gul, kirma gulzora.  
Fidoiy iltifoting bir bo'lak bag'ri adolardur,  
Faqiru benavovu mubtalovu zoru bechora.  
Biror daf'a sani ko'rgan ayirmas ko'z jamolingdin,  
Qiyo boqmas agar xurshed bo'lsun o'zga ruxsora.  
San ul pokiza atvoru maqoli bebahodursan,  
Xaridoring bo'lub Yusufni ko'rkim, kirdi bozora.  
Qarash holimg'a, ey dildor, gohi marhamat birla,  
Mani Obid saning yo'lingda sargardonu ovvora.*

Mujrim oshiqona g'azallaridan yana birida Navoiy, Bobur kabi shoirlarimiz ijodida qo'llanilib, she'rning structural-kompozitsion jihatdan butunligini, lirik qahramon kechinmalarida mantiqiy tadrijni yuzaga keltirishga xizmat etuvchi radd ul-ajuz san'atini qo'llaydi. Bu badiiy usulda odatda birinchi baytning toq misrasi oxirida keluvchi qofiya va radifga tegishli so'z ikkinchi juft misrasida takroran keladi. G'azal baytlari shu tartibda davom etishi mumkin.

*Ey, xush ulkim, bazmi gulzor ichra sarvi nozi bor,  
Sarvi nozekim, chaman ichra qadi mumtozi bor.  
Qaddi mumtozeki, shamshod birla tubo rashkidin,  
O'zlarin aro berib mashshotai pardozi bor...*

bu baytlarda tanosib, istiora san'atlari jilolari ham bor.

Mana bu baytlarida esa lutf san'atiga murojaat yetib, «Go'zal yor guldan ham toza va nazokatli bo'lib, u agar sayri guliston etgudek bo'lsa, gulzordagi barcha gullar o'zlarining latofat va go'zalliklarini uning yo'liga poyandoz qiladilar», – deydi:

*San nechuk hursan, niholi sarvsankim har taraf,  
Aylasang mayli xirom, aylar qadingdin noz gul.  
Bu nazokat birla gar sayri guliston aylasang,  
Bargu borini qilur yo'lingda poyandoz gul.*

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Buxoro amirligi hududida Mujrim Obidga zamondosh bo'lgan qaysi shoirlarni bilasiz?
2. Mujrim «Hasbi hol» masnaviysining milliy qadriyatimizni e'zozlashdagi ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati nimalarda?
3. Mujrim Obid asarlarini to'laroq nashr ettirish va o'rganish borasida qanday fikrlar bildira olasiz?

### ***Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar***

1. «Mujrim Obid. G'azallar» hamda «O'zbek adabiyoti» (majmua, 3 jild) kitobidagi Mujrim Obid she'rlarini mutolaa yetib, o'z xulosalaringizni yozma ravishda bayon qiling.

### ***Adabiyotlar***

1. Mujrim Obid. G'azallar. – T., 1960.
2. O'zbek adabiyoti. Majmua, 3-jild. –T., 1959.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. – T., 1978.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. Ikkinchi kitob. –T., 1980.

## UVAYSIY

Ismi Jahonoy (Jahonotin), taxallusi Uvaysiy, Vaysiy (xo'rlangan) bo'lgan bu shoiraning lirik janrlardagi asarlarini o'z ichiga olgan she'riy devoni (bir necha nusxada), «Qissai shahzoda Hasan», «Qissai shahzoda Husayn» nomlaridagi diniy-sarguzasht dostonlari hamda «Voqeoti Muhammad Alixon» nomli tarixiy manzumi ma'lum. XIX asrda tuzilgan ayrim tarixiy solnomalarda shoirasi asli marg'ilonlik bo'lib, 1789-1790 yili dunyoga kelganligi, adabiyot va musiqaga ixlosmand ma'rifatli oilada tarbiya topganligi, o'ta savodxon otincha ayollardan biri sifatida tanilib, keyinchalik Qo'qonda Nodira bilan yaqin tutinib ijod qilganligi aytiladi. Masalan, «Tazkirai Qayyumiy»da shoirasi tarjimai holi va qismati haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: «Marg'ilonli shoir va hofiz Siddiqbobo Fayziyning qizidir. Adabiy sohaga otasi tortmishdur. Otasi oilaviy turmushi buzilgan qizini do'sti – mansabdor shaxs Abulqosim Otaliq (shoir Vazir) orqali Xo'qandga yuborgan. Otaliqning oilasi Ark atrofida bo'lganidan shunda xizmat qilib yurgan. Bir-ikki yildan so'ngra shoiraligi bilan shuhratlandi va ovoza xonning haram saroyiga ma'lum bo'lgach, Mohlaroyim o'z huzuriga qabul etdi va unga mushfiqlik qilib, haramda o'ziga munosib bir o'rin ko'rsatdi».

Uvaysiyning onasi (Chinnibibi) ham savodli ayollardan bo'lib, o'z mahallasida maktabdorlik qilgan. Uvaysiy yoshligidanoq oilada savod chiqargan, ko'p kitob mutolaa qilgan, otasi va akasidan dutor va tanbur chalishni o'rganib olgan. Shunday madaniyatli, ma'rifatli muhit Uvaysiyning o'z zamonasining bilimdon ayoli va iste'dodli shoirasi sifatida kamol topishida katta omil bo'lgan. Ayniqsa, Nodira himoyati va homiyligida kechgan yillari unga munosib shuhrat keltirgan. U haramdagi murabbiy va ustoz shoiralardan, tarbiyachilardan biri sifatida hurmat qozongan. U bir she'rida Nodirani o'zining jonkuyar g'amxo'ri, homiysi sifatida ta'rif etadi:

*Humoyi avji soyasin to boshima soldi,  
Boshimni ko'kka eturdi ham ul dam qildi imdodi.*

Nodira fojiasidan so'ng u Marg'ilonga qaytadi.



Uvaysiy vafotiga uning sobiq talabalaridan shoira Ojiza g'azal-marsiya yozgan bo'lib, maqta' baytdagi «Fozilai asr» so'zlaridan 1850 sanasi chiqadi:

*Er yuzin o'rtagach, ul fozilai asrning o'di,  
Soli favtini xirad piri dedi: «Fozilai asr»*

Demak, Uvaysiy (1790-1850) oltmish-oltmish bir yillar chamasi umr ko'rgan.

**O'rganilish tarixi.** Uvaysiy she'riyati bir qancha qo'lyozma manbalar orqali yetib kelgan. Qo'lyozma manbalar va uning chevarasi shoira Mag'ziy xotirasidan yozib olingan she'rlari asosida uning «Devon» nomlari bilan 1959, 1963 hamda 1983 yillari asarlari nashr etildi. Doston va tarixiy manzumi hali nashr etilganicha yo'q. Uning hayoti va ijodi haqida Fazliy boshchiligida tuzilgan «Majmuat ush-shuaro»da hech narsa deyilmaydi. Adabiyotshunos olimlardan E'tibor Ibrohimova shoira hayoti va ijodiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi yoqlagan va 1963 yili risola nashr ettirgan. Uvaysiy hayoti va ijodining turli jihatlariga haqidagi fikrlar A.Qayumovning «Qo'qon adabiy muhiti», To'xtasin Jalolovning «O'zbek shoiralari», V.Abdullayevning «O'zbek adabiyoti tarixi», Ibrohim Haqqulovning «She'riyat – ruhiy munosabat» kitoblarida, chiston, muammo va muvashshahlari esa, R.Orzibekovning «O'zbek she'riyatida sirli-sinkretik janrlar va shakllar» asarlarida berilgan. Qayd etmoq lozimki, hozirgacha ham Uvaysiyning shaxsi, qismatiga doir fikrlarda chalkashliklar, taxminlar uchrab turibdi. Shularni hisobga olgan holda, biz Uvaysiyning adabiy asarlari ustida ko'proq fikr yuritishimiz lozim bo'ladi.

**Lirikasi.** Nodira, Mahzuna va Dilshod ijodidagi kabi, o'zbeku tojik ayollari shaxsiyati va ma'naviy olamining mumtoz timsoli Uvaysiy she'riyatining ham asosiy mazmunini tashkil etadi. Uvaysiy she'riyatining mavzu doirasi keng. Uning devonidagi she'rlarida ishq-muhabbat, yoru diyori, visol va hijron, ona va farzand, dunyo va ilohiyot haqidagi rang-barang mavzular talqin etiladi. Uning ko'p she'rlarida asosiy lirik qahramon muhabbat o'tida o'rtangan ayol

sifatida namoyon bo'ladi. Bunday she'rlarda qo'llangan tasviriy vositalar ham ayol kishining ishqdagi ahvol-ruhiyasini ifodalashga qaratiladi. Mana bu g'azalda oshiqlargagina emas, balki ayollargagina xos muhabbat tug'yonlari tasviri bor. Zero, ma'shuqaning boshiga dastor chirmagan holatdagi tasviri ayollarga xos izhori ishqdan dalolat beradi. Bunda so'zlovchi, ishq dardini izhor qiluvchi ayol zotidir. Uning tilidan oshiq portreti, husnu malohati va siymosi chiziladi:

*Bosh tasadduq boshing uzra chirmag'an dastoringa,  
Jon tasadduq so'zlagan shahdu shakar guftoringa.  
Ko'z tasadduqdir sening xurshedral'at husnunga,  
Qaddi dolim ham tasadduq chun alif raftoringa...*

Shoira g'azallarida insoniy muhabbat, sadoqat va vafodorlik g'oyalariga hamohang inson qadrini, Olloh bergan umrning qadriga yetib iloji boricha yaxshi hayot kechirish, hayot ne'matlaridan bahramand bo'lish tuyg'ularini ulug'lash muhim o'rin tutadi. Bunday she'rlardagi inson hayot oshig'i, orzu-umidlar jarchisi sifatida ko'rinadi:

*Dunyoni bu kun davr ila davroni g'animat,  
Ayyoni jahon bog'u gulistoni g'animat.  
Umringni bahorida muhabbatni sug'orgil,  
Ko'z mardumining giryayi boroni g'animat.*

Shunday hayotiy, majoziy ishq tuyg'ulari tasviri bilan birga, uning ko'p g'azal, muhammas va tarjebandlarida ilohiy muhabbat tasviriga, tasavvufiy ramzu timsollarga keng o'rin beriladi. Quyidagi baytda shoira ilohiy ishq inson dili va qismatiga azaldan bitilganligini aytadi. "May" so'zini Olloh muhabbati timsoli, «sirri may»ni ilohiy ishq sirlari ma'nolarida talqin etadi.

*Azal kunda asar etgandi sirri may qulog'imga,  
Bugun, vah, dil bulog'i jo'sh urmoqlikda toshibdur...*

Yoki:

*Fanog'a gar qadam qo'ysang, tavakkul po'tasi birla,  
Bo'lur o'zlik bilan jang, Vaysiy belni bog'lag'il bozud.*

Biroq shoiraning ijtimoiy qarashlari, sof niyatlari, orzu-armonlari bilan zamon hamda jamiyat o'rtasida katta ziddiyat, nomuvofiqlik bor edi. Shuning uchun shoira she'rlarida lirik qahramon zamonadan alam ko'rgan, ma'nan ezilgan, kulfat chekkan kishi sifatida ham ko'rinadi. Bunday she'rlarda ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik ohanglari bo'rtib turadi. «Uvaysiyman», «Ko'ngul dog'o'ldi, dog'o'ldi» g'azallarida shoira qatorida g'arib fuqaroning dardu hasratlari ham ifodalangan:

*Mehnatu alamlarga mubtalo Uvaysiyman,  
Qayda dard eli bo'lsa, oshino Uvaysiyman...  
Kechalar fig'onimdin tinmadi kavokiblar,  
Arz to samo uzra mojaro Uvaysiyman...  
Zamona kulfatidin bu ko'ngul dog'o'ldi, dog'o'ldi,  
Bu charxi bemuruvvatdin ko'ngul dog'o'ldi, dog'o'ldi.  
Jarohat bo'ldi bag'rim tig'i bedodi raqiblardin,  
Bu ko'tahfahm mardumdin ko'ngul dog'o'ldi, dog'o'ldi.*

Uvaysiyning dunyoviy, diniy-ilohiy qarashlari uning musammatlarida ham o'z ifodasini topgan. U mustaqil muxammaslar bilan birga, Alisher Navoiyning «G'araz», «Hanuz» radifli ishqiy-tasavvufiy g'azallariga tazmin muxammaslar bog'lagan. Uvaysiyning:

*Shona ursam g'ayr zulfig'a choqilsun ko'zlarim,  
Qaysi bir mashshota ham zulfiging parishon aylasa –*

baytini o'qisangiz, Navoiyning:

*O'zgalar husnun tamosho aylasam, chiqsun ko'zum,  
O'zga bir ko'z hamki, husnungni tamosho aylasa –*

bayti yodingizga keladi.

O‘zbek she‘riyatida barcha misralari qofiyalangan(*aa, aa, aa...*) g‘azallar ham ijod qilingan. Uning ilk go‘zal namunasi Alisher Navoiy qalamiga mansubdir. Navoiyning:

*Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,  
Ko‘ngluma har birining dardu balosinmu deyin...*

bayti bilan boshlanuvchi g‘azali misrama-misra, baytma-bayt «qahrinmu», «zahrinmu», «safosinmu», «dardinmu», «nabardinmu», «davosinmu», «dominmu», «kalominmu», «adosinmu», «holinmu», «niholinmu», «qabosinmu», «ranjinmu», «shikanjinmu», «jafosinmu» tarzida davom yetib, g‘azal maqtavsi

*Ey Navoiy, dema qoshu ko‘zining vasfini et,  
Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin*

qoplama bayti bilan tugallanadi. Ko‘rinadiki, baytlar oralig‘ida ham ichki qofiya va radiflar keladi. Bunday qofiya va radiflarni she‘rshunoslar musalsal—zanjirli qofiya va radif san‘ati deb ham ataydilar. Navoiy boshlagan bu an’anani Uvaysiy davom ettirdi. Uning quyidagi g‘azalining barcha misralari qofiyalidir:

*Dedi bir kun myenga ul mahvashim: ey sho‘xi beparvo,  
Men aydim: «Sen dema, men dey, ki solding boshima savdo.  
Ato qildi xudo myenga meningdek dilbari barno,  
Visoling qatraidir, mavj urar hajring bo‘lib daryo.  
Qanoatda degil ko‘nglim qushin to ul qushi anqo,  
Nachunkim sen erursan bahri dilda gavhari yakto.  
Tabassum aylagil, nolam nasimig‘a guli ra‘no,  
Ki gulzori firoq ichra men erdim bulbuli go‘yo.  
Banogoh etsa vasling qilmag‘aysen noz istig‘no,  
Degaysen, men gado mazmunig‘a, ey shoh, sallamno.  
Zamongda agar mavjud bo‘lsa Vomiqu Uzro,  
Muhabbatdin dam urmas erdi, ishqdin aylamas da‘vo.  
Ajab ma‘shuqlik rasmin bilursen, ko‘zlari shahlo,  
Topilmas ikki olamda seningdek sho‘x bazm aro...*

Bu o'rinda ta'kidlangan va misralar oxirida kelgan hamma so'zlar qofiyalidir.

Uvaysiyning har biri tarjebaytli, biroq beshliklar tarzida tuzilgan, tarjiband va tarkib bandlarga ham, muxammaslarga ham o'xshab ketuvchi she'rlari bor. Uning bir mustaqil muxammasi muvashshahlik xususiyatiga ham ega. Olti beshlikdan iborat bu muxammasning 2-, 3-4- bandlaridagi hurufi hijo harflar jamlansa, Vaysiy ismi kelib chiqadi. Muxammas-muvashshah ilohiy mazmunga ega.

*Mavzun qadiga qilib tahammul,  
Ash'or ipini oldim, ey gul,  
Ko'rding yuzida zulfi sunbul,  
Tab'ingga u damda tushdi g'ul-g'ul,  
Tushsa nechalar erur sanga qul.  
Ko'ngulki xayola harf solding,  
Vos'e dilining vovin olding,  
Go'yoki bu so'z bila quvonding,  
Davrimda bu tab'inga quvonding,  
Yo'qdur bu jahonda sancha bulbul.  
Tab'inga bali dedim mani zor,  
Yodingdagi yoni ko'rdung, ey yor,  
Qilmoqqa hurufi ismi nochor,  
Qilding ani sokina xaridor,  
Xatm o'ldi sanga bari taammul.*

*Hayrat chamani ichra golding,  
Yozmish boshidag'i yoni olding,  
Payvand qilurg'a yaxshi bilding,  
Semob sinig'a vasl qilding,  
Bildim yarashur sanga tahammul.  
Muxlis degonida bir kalemi,  
Chiqdi onidin Uvaysiy nomi,  
Bo'ldi so'zimi bari tamomi,  
Yo bo'ldimi mehnatim xomi,  
Ko'nglung hama ma'dani taaqqul.*

Uvaysiy o‘zbek adabiyotida musammatning uchlik—musallas xilida she’rlar yaratishga harakat qilgan yakkayu-yagona shoir hisoblanadi. Uvaysiy devonida yagona namunasi uchrovchi bu musallasning har bir bandi *aaa* qofiya tartibiga ega. Bu she’rda ham tasavvufiy nidolar, ehtiroslar, iltijolar beriladi. Ikki bandi:

*Rahm yetib, yorab, meni sen ayla jonondan xalos,  
Bag‘rimi qon etti ul, la’li badaxshondin xalos,  
Jonni tandin qutqarib, ko‘nglumni armondin xalos.  
Jon qabul etmas tanimdin har mahal ketgil desam,  
Yor bovar qilmag‘ay jon so‘zig‘a bitgil desam,  
Rahm yetibon Vaysini dodig‘a sen etgil desam.*

**Chiston va muvashshahlari.** Uvaysiy Alisher Navoiydan so‘ng lug‘z-chiston, muammo va muvashshah janrlariga alohida e‘tibor berdi, bu sirli janrlarning adabiy ijodda an‘ana sifatida davom etishida katta xizmat qildi. Fikrimizcha, Nodira Uvaysiyga kanizak va yosh qizlarga balog‘at(she’r ilmi), advor (musiqqa) ilmlarini o‘rgatishni Uvaysiyga topshirgan. Uvaysiy bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, navnihol yoshlarning bilimi va topqirliklarini chuqurlashtirish, so‘zga chechanligini oshirish maqsadida muammo baytlar, tajnisli qit‘alar, fardlar, chistonlar, muvashshahlar yozib turgan. U o‘zi yozgan shunday qiziqarli she’rlari sirlarini yoshlarga o‘rgatgan. Binobarin, fikrimizcha, Uvaysiyning sirli she’r janrlariga alohida mayl va e‘tibor bilan qarashining sababi faqat an‘ana bilangina emas, balki shoiraning o‘z ijodini ma‘rifiy-ta‘limiy yo‘nalish bilan bog‘lashga harakat qilganligida hamdir. Buning dalillaridan yana biri shundaki, Uvaysiyning sirli-topishmoqsimon she’rlarida shaklbozlikki berilish alomatlari sezilmaydi, balki ularning ta‘limiy jihatlari ahamiyat beriladi. Uvaysiy qalamiga mansub «sirli» she’rlar o‘ttizdan oshadi. Uning muvashshahlarining qariyb hammasi g‘azal shaklidir. Biroq, muammo-chistonlari bir, ikki, ba‘zan uch bayt hajmidadir. Chunonchi, quyidagi «Jahon» ismi chiquvchi: «Jimu, hoyu, alifi nunkim darding yuki birla Dilida nuqtasi, bag‘rida dog‘i loyiqi xunman» baytli muammoing birinchi misrasidagi to‘rt

soʻzning yigʻindisi (-*jim*, -*alif*, -*ho*, -*nun*) *jahon* boʻlsa, ikkinchi misrasidagi «Dilida nuqtasi bagʻrimda dogʻi» soʻzlari «*n*» harfi boʻlib, mazmun eʼtibori bilan yurak dogʻini, koʻngul gʻussalarini ifodalab kelgan. Bu bayt muammoda *jim*, *alif*, *ho*, *nun* harflari kitobat sanʼati tarzida ham mahorat bilan qoʻllanilgan. Uvaysiyning mana bu tajnisli baytlari ham yoshlarning soʻz boyligini oshirish maqsadida yozilganligini anglash qiyin emas.

*Bul jahonda yor seningdek bormukin,  
Soʻzlamassan, koʻkragingda bormu kin?  
Dilbaro oʻltur, boshingdan aylanay,  
Pandim ol, oʻlsam soʻngokim ayla nay.*

Uvaysiy chiston sheʼrlar yaratishda Navoiydan keyingi faxrli oʻrinlardan birida turuvchi shoiradir. U Alisher Navoiydan soʻnggi ijodkorlar ichida eng koʻp chistonlar yozgan shoir sanaladi. Shuning uchun ham uning bunday sheʼrlari haqida olimlarimiz, adabiyotimiz muxlislari tomonidan fikrlar bayon qilingan. Shoiraning poeziya muxlislari oʻrtasida juda keng tarqalgan, ularning hurmatini qozongan, kishilarni chiston aytish sanʼati bilan hayratlantirgan asari oddiy topishmoq usulida yaratilgan quyidagi ruboiysidir:

*Bu na gumbazdur yeshigi, tuynugidin yoʻq nishon,  
Necha gulgunpoʻsh qizlar anda aylabdur makon.  
Sindurub gumbazni qizlar holidin olsam xabar,  
Yuzlariga parda tortugʻluq tururlar bagʻri qon.*

Navoiyning ham bir lugʻz-chistoni «Anor» vasfida. Unda shoir mevalarning sarasi «anor»ga xos koʻrinishlarni, uning fazilatlarini, inson sogʻligʻi uchun oʻta foydaliligini ajoyib qiyoslar, ishoralar, tashbehtar orqali ifodalaydi. Uvaysiy ham anor vasfida chiston yozgan. Chistonda shoir xuddi ustoz Navoiydek anorning taʼrifini berib, rassomlarga xos bir sanʼatkorlik bilan uni eshik-tuynuksiz gumbazga, donalarini pok qizlarga, dona ustidagi yupqa poʻstni gulgun qizlar yuzidagi pardaga va donalarning qizil-qirmizi ranglarini qon sharbatiga

o'xshatgani holda mazluma xotin-qizlarni tutqunlik asoratida saqlagan feodal muhit illatini fosh etadi. Shoir shu to'rtgina misrada xonlar, beklar, feodallar saroyida erksiz, yurak-bag'ri qon bo'lgan o'zbek xotin-qizlarining real hayotini obrazli va badiiy qilib ifodalay olgani uchun ham bu miniatyur asar bizni qoyil qoldiradi. Agar Alisher Navoiy anorning shifobaxshligi va latofatini maqtab, uning ko'proq predmet sifatidagi tasvirini bersa, Uvaysiy shu tasvirlardan ilhom olib, undan ijtimoiy xulosalar chiqarishga erishadi. Uvaysiy o'z chistonlarining mazmuni va maqsadini real hayot bilan bog'laydi, undan ijtimoiy muhit ruhini, o'sha davrda ochiq aytib bo'lmaydigan fikrlarni, yurak sirlarini, chuqur va nozik tuyg'ularni ifoda etuvchi adabiy vosita sifatida foydalanadi. Shoiraning bunday asarlari yoshlarni ma'rifatlantirish, aqlini o'tkirlashtirish, estetik didini tarbiyalash xizmatlariga bo'ysundiriladi.

Uvaysiy chiston yozishning abjad raqamlari orqali so'z yasash, predmetning nomini keltirib chiqarish usulidan ham mohirlik bilan foydalanadi:

*Ul na qushdurkim, qanoti uch erur,  
Jismi bir ammo o'zi ellik turur*

fardida «jon» so'zi yashiringan. Bu quyidagicha topiladi. Bayt tarkibidagi 3, 1, 50 raqamlari abjad hisobiga solinsa, ya'ni raqamlar harfga aylantirilsa: 3(j), 1(alif), 50(nun) – «jon» so'zi kelib chiqadi.

Uvaysiy xalq she'riyati, og'zaki oddiy topishmoq usullaridan foydalanib ham xalq topishmoqlariga xos she'riy chistonlar bitdi. Ularda predmetning eng xarakterli belgilari tasvirlanadi. Ana shu belgilar chistonni o'qigan har bir kishini yashiringan predmetni topishga qiziqтира oladi. Uni topqirlikka o'rgatadi, estetik didini o'stiradi.

*Ikki mahbubni ko'rdum, ikkisin kindigi bir,  
Ikkisin orasiga tushsang topadursan kasir.*

(qaychi)

*Ul nadurkim, shahdin totlik erur xumorig'a,  
Ixtiyor etmas sotarin kirmag'ay bozorg'a.*

(uyqu)



*Ul nadurkim, bir kelin o'zi cho'tur,  
Yetti qat parda ichida misli hur.*

(makkajo'xori)

*Ikki mahbubni ko'rdum, bir-birinin ko'rmagay,  
Ikkisining o'rtasig'a, do'stlar, qil sig'mag'ay.*

(kun va tun)

va boshqalar.

Klassik adabiyotimizdagi sirli she'riy janrning yana bir turi bo'lgan muvashshahda shoir biror kishining nomini g'azal baytlarining boshida yashiradi. Uvaysiy esa, ba'zan nom yashirish san'atida chiston shaklidan ham foydalanadi. U mana bu ruboiy-to'rtlikka raqamlar orqali mashhur yunon donishmandi Platon nomini Falotin tarzida berkitgan:

*Ul nadurkim, boshi sakson, jismi o'ttiz, poyi bir,  
Joni to'rt yuz, aql o'ndur, fahmi ellik benazir.  
Jomi o'ymaslikki xat olmish qo'liga toabad,  
Yoshirubdur o'zini abjad ichrakim ul dirpazir.*

Chistondagi 80, 30, 1, 400, 10, 50 raqamlarida Falotin so'zi yashiringan bo'lib, shoiraning buyuk faylasuf shuhratidan xabardorligi seziladi.

**Qissalari.** Uvaysiyning qissalarida Karbalo dashtida sodir bo'lgan, Muhammad payg'ambarimiz nabiralari fojialari bilan bog'liq bo'lgan voqealar so'zlanadi. Hazrati Ali bilan Bibi Fotimaning egizak farzandlari — Hasan bilan Husaynning qismatlari diniy-rivoyaviy qissalarga, xalq kitoblariga xos uslubda tasvirlanadi. Uvaysiy diniy-ilohiy kitoblarda keltirilgan bu tarixiy hodisalarni syujet holatida qayta kitobat qilish orqali makr-hiyla va xunrezlikni qoralaydi. Bunday nizo va adovatlar Hasan va Husaynning fojialaridek katta falokatlarning sodir bo'lishiga olib kelishi mumkinligini o'z davridagi hokim tabaqa vakillariga eslatib qo'ymoqchi bo'ladi. Biroq, bu qissalar, fikrimizcha, o'z syujet qurilishi, obrazlarining badiiy talqini, poetik jihatlariga ko'ra shoiraning lirik she'rilariga nisbatan xiyla bo'sh va nursizroq.

Uning «Voqeoti Muhammad Alixon» manzumasi yuqoridagi ikkala diniy qissadan ancha farq qiladi. U shoira yashab, ijod etgan

davrdagi voqea-hodisalarning nazmiy ifodasidan iborat asardir. Manzuma tugallanmay qolgan bo'lishi mumkin, chunki atigi 308 misradangina iborat. Unda Qo'qon xoni Umarxonning vafoti, uning o'g'li valiahd Muhammad Alixonning taxtga o'tirishi, Qoshg'arda ko'tarilgan isyonni bostirish uchun qilgan harbiy yurishi, bu yurishda Uvaysiyning saroy xizmatida bo'lgan o'g'li Muhammadning ham ishtiroki nazmga olinadi.

Uvaysiy Sharq mumtoz adabiyoti tajriba va yutuqlarini chuqur bilgan, badoe' ilmiga oid bilimlarni yaxshi egallagan shoira bo'lganligi sababli she'rlarining estetik go'zalligini ta'minlaydigan oladigan badiiy tasvir vositalarini, ma'naviy va lafziy san'atlarni mahorat bilan qo'llaydi. Uning she'riyatning ancha mehnat va bilim talab qiladigan chiston, muammo, muvashshah, musallas kabi murakkab janrlarida ta'sirchan, yorqin asarlar yarata olganligi ham uning tilga, bilimga boy ekanligidadir. Uvaysiy she'riyatida ayniqsa badoe' ilmida biror narsaga «nazar solmoq» ma'nosini anglatib, adabiy istilohda tarixiy voqealarga, adabiy asarlarga, afsonalarga, ulardagi timsollarga murojaat qilib, ular vositasida o'z fikrlarini ifodalash san'ati bo'lmish talmih tez-tez uchrab turadi:

*Jafo tegdi boshimga Layliyu, Shirinu Uzrodin,  
Bukun Vomiq ila Majnunnu Farhodimni sog'indim.*

Bu bayt Uvaysiyning Koshg'ar safaridagi o'g'li Muhammad sog'inchida aytilgan. Xuddi shu xil tasvir Uvaysiyning Nodira va Umarxon o'rtasidagi go'zal oilaviy munosabat, inoqlik, totuvlik xususidagi baytlarida ham keltiriladi:

*Shohlar orasidadur Umarxon,  
Bir necha yillar surar davron.  
Mahpora edi aning zaifi,  
Maknundi taxallusi latifi.*

*U Yusuf edi, budur Zulayxo,  
Ul Vomiq edi, bu erdi Uzro.*

*Birisi Layli, birisi Majnun,  
Bir-birini muhabbatidin mamnun.*

(«Voqeoti Muhammad Alixon» asarida)

Uning «Nozik» radifli gʻazali boshdan oxirigacha dilbarning nozik-niholli haqidagi tashbehlar bilan toʻla:

*Xatingdur sabzai rayhon, labingdur kavsar andomi.  
Mijang boʻston, yuzing gul, misli gulzori chaman nozik...*

Xalq donoligi, aqlu zakovatini oʻzida mujaʼssam etgan irsohi masallar(xalq maqollari, naqllari, hikmatli iboralari) shoira sheʼrlariga xalqchilik bagʻishlab turadi. Chunonchi, uning quyidagi baytida mazmun talabi bilan «Devorning ham qulogʻi bor» maqoli

*Buni derlar bordurur devor keyinida quloq,  
Ul makon davrida koʻz etguncha devor oʻlmagʻay.  
Muyassar boʻlsa vasling kim, nahojat holimi aytmak,  
Ki holam purs, rangim bin, sogʻindim man, sogʻindingmu?*

yaʼni «Rang koʻr – hol soʻr» maqolining tojikcha ekvivalenti qoʻllanilgandir.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Uvaysiuning hayoti va faoliyatiga oid manbalarni ayting.
2. Shoiraning qismatiga daxldor voqealarni izohlab bering.
3. Shoira Magʻziy Uvaysiyga qanday qarindosh boʻlgan va unda saqlangan Uvaysiy merosi qachon va kimlar tomonidan aniqlangan?
4. Uvaysiy dostonlari haqidagi yozuvchi Oybek fikrlarini bilasizmi?
5. Musallas qanday sheʼr shakli va uning Uvaysiy lirikasidagi namunalari haqida soʻzlab bering.
6. Uvaysiy lirikasining oʻziga xos tomonlari nimalarda?
7. Uvaysiyning sirli janrlardagi mahoratini aniqlang va izohlab bering.

### *Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar*

1. Shoiraning 1959, 1963, 1980, 1983 yillari chop etilgan asarlarini mutolaa qilib, g'azallaridan, muxammaslaridan, chistonlaridan o'ntasini yozma tarzda tahlil qiling.
2. Uvaysiy sirli she'rilaridan yodaki namunalar o'qing.

### *Adabiyotlar*

1. Uvaysiy. Devon. – Toshkent, 1959.
2. Uvaysiy. Devon. – Toshkent, 1963.
3. Uvaysiy she'riyatidan. – Toshkent, 1980.
4. Uvaysiy. Ko'ngul gulzori(Devon), Toshkent, 1983.
5. Po'latjon Domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy, I jild.– T, 1998.
6. Ibrohimova E. Uvaysiy. Hayoti va ijodi. –T., 1963.
7. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. –T., 1960.
8. To'xtasin Jalolov. O'zbek shoiralari. –T., 1970.
9. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. –T., 1980.
10. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 4–jild. –T., 1978.
11. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. –T., 1976.
12. Nusratullo Jumaxo'ja. Zamona, ijtimoiy muhit va shoir shaxsiyati(Uvaysiy). “Muloqot” jurnali, 1999, 2-son.
13. Haqqulov I. She'riyat – ruhiy munosabat. –T., 1989.

## NODIRA

Jahon adabiyoti tarixi xotin-qizlar orasidan yetishib chiqib ma'naviyat rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'pgina iste'dodli qalam sohiblarini biladi. Buning yorqin misolini Sharq adabiyotida ham uchratamiz. Birgina XIX asr bo'sag'asi va birinchi yarmida Qo'qonda Uvaysiy, Dilshod, Mahzuna va Nodiradek taniqli shoiralarning ijod etganligi buning yorqin dalilidir. Shular ichida Nodira ham iste'dodli shoira, ham madaniyat va adabiyotning homiylaridan biri sifatida ajralib turadi. U mumtoz adabiyotimizning boy an'analari hamda umr yo'ldoshi, iste'dodli shoir Amiriyning kuchli ta'sirida boy adabiy meros qoldirdi, xususan, Umarxon vafotidan so'ng yigirma yillar davomida mamlakatda yuz berib turgan siyosiy-ijtimoiy voqealarni ziyraklik bilan kuzatib, davlat ahamiyati va xalq manfaatlariga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etdi. Bu yillarda Qo'qon xonligi hududlarida yangi obod shahar va qishloqlar, masjid, madrasalar, kutubxonalar, bozor va karvonsaroylar ko'paydi. Shuning uchun uni zamon ahli «Nodirai davron» deya sharafladi.

Nodira haqida tarixiy-badiiy asarlarda («Tarixi muhojiron», «Voqeoti Muhammad Alixon»), dostonlarda («Haft gulshan») ta'rifu tahsinlar aytili. Zamon shoir va shoiralari unga bag'ishlab vasfiy qasidalar, g'azallar bitdilar. Xofizu xonandalar shashmaqom yo'llarida uning zebo g'azal, muxammas va firoqnomalarini ijro etdilar. Nodiraning hayoti va adabiy merosi bizning zamonamizda ham unutilib yuborilmadi. Asarlaridan ilm-ijod ahli, keng kitobxonlar ommasi ozmi-ko'pmi bahramand bo'lib keldi. Akademik Aziz Qayumovning «Qo'qon adabiy muhiti», V.Abdullayevning «O'zbek adabiyoti tarixi», To'xtasin Jalolovning «O'zbek shoiralari», Mahbuba Qodirovaning «XIX asr shoiralari ijodida xalq taqdiri», «Davr Nodirasi» asarlarida uning adabiy ijodi ancha keng yoritildi. 1963 yili shoiraning ikki jildlik devoni, 1993 yili «Ey, sarvi ravon» nomida g'azallari majmuasi chop qilindi. Turli yillari Hoshimjon Razzoqov, Turob To'la musiqali dramalar yozdi, Nodira haqida kinofilm ishlangan. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, litsey, kollej hamda

maktablarda shoiraning hayoti va ijodi o'rganilmoqda.

**Hayotiga oid ma'lumotlar.** Biz keyingi yillargacha Nodiraning ismi Mohlaroyim bo'lgan derdik. Biroq qo'qonlik olim va tarixchi Po'latjon Domulla Qayumovning qancha yillar o'tib, 1998 yili nashr etilgan uch jildlik «Tazkirai Qayyumiyy» asarida Nodiraning asl ismi Mohlaroyim emas, balki Komila bo'lganligi aytiladi. Uning fikricha, Mohlaroyim degani sharaflı laqab bo'lib, o'rdadagi (xon saroyidagi) aslzoda ayollarni hurmatlab aytiladigan ismdur. Masalan, «Mingoyim, Hokim oyim, Qozoq oyim» kabilar. Demak, ismi Komila, sharaflı unvoni Mohlaroyim, taxallusi Nodira bo'lgan bu mo'ttabar shoira 1792 yili Olimxon va Umarxonga tog'a bo'lmish minglar sulolasining to'ng'ich hukmdori Norbo'tabiyning ukasi, o'sha davrda Andijonda hokim bo'lib turgan Rahmonqulbiy xonadonida dunyoga keladi. Norbo'tabiy o'rniga xonlik taxtiga o'tirgan Olimxon 1808 yili o'z ukasi Said Umarbekni fazilat, latofat va zebolikda ovoza bo'la boshlagan Mohlaroyimga uylantirgan. Nodira 30 yoshlarga borganida Umarxon og'ir xastalikka uchrab, vafot etadi. Shundan so'ng shoira valiaxd o'g'li Muhammad Alixon hali yosh bo'lganligi uchun mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida ishtirok etadi. Nodiraning o'z davrining tadbirli arbobi, shoirasi sifatida kamol topishida, shubhasiz, Amir Umarxonning ta'siri kuchli bo'ldi. Afsuski, biz Mohlaroyim – Nodirani uzoq yillar Umarxondan, uning ta'siridan ajratib o'rgandik. Nodirani ajoyib shoirayu oqila, Umarxonni zolim, shuhratparast hukmdor, saroy shoiri deb tushuntirib keldik. Amalda esa, Umarxon – Amiriy ham hukmdor, ham ijodkor sifatida madaniyat va adabiyot rivojida yaxshi iz qoldirishga harakat qilgan ulkan bir shaxs, hukmdor va iste'dodli bir shoir bo'lgan. Nodira Umarxon bilan 15 yil birga nafas olib, birga ijod qildi. Biroq, bu ular o'rtasida aslo farq yo'q edi degani emas. Biri cheksiz ustunliklarga ega bo'lgan feodal hukmdori, ikkinchisi inon-ixtiyori uning tasarrufida bo'lgan malika va shoiradir.

Bir tomonda – saroy hashamati, Umarxonning hukmdor sifatidagi qattiqqo'lligi, ikkinchi tomonda esa, qashshoq, g'arib

va benavo fuqaro. Atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga aql-idrok ko'zi bilan qarashga intilgan Nodiraning o'ylanmasligi, iztirob chekmasligi, chora-tadbir, najot izlamasligi mumkin emas edi. U o'zining shunday ruhiy holatlarini she'riy misralarda ifodaladi. Muhimi shundaki, garchand o'zi saroy malikasi, aslzodalar tabaqasi vakili bo'lsa ham, u o'ziga hammadan ham yaqin bo'lgan Umarxonga ta'sir o'tkazishni unutmadi. Saltanatda, saroyda sodir bo'lib turgan bedodliklarga hukmdorning diqqatini qaratib, uni fuqaro, ilm-ijod ahllari ahvolidan voqif bo'lib, adolatpesha va saxovatli bo'lishga chaqirdi:

*Shoh uldurki, raiyatga tarahhum qilsa,  
Yo'q esa qoidai amnu amon barcha abas,—  
Fuqaro holig'a gar boqmasa, har shoh, anga,  
Hashmatu, saltanatu, rif'atu shon barcha abas.*

deya achchiq ta'nali baytlarni yozishga jur'at etdi. Bunday oqilona nidolarga hukmdor quloq solavermagach, uning fig'oni yana kuchayib:

*Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,  
Sen shahu men benavo, lutf ayla, faryodim eshit*

kabi isyonkorona o'tli misralarni xalq nomidan aytdi.

Biroq, dono va tadbirkor shoira Umarxon vafotidan keyin ham ro'shnolik ko'rmadi. Taxt vorisi bo'lgan o'gillarini doimo mamlakat va fuqaro taqdiridan voqif bo'lib turishga chaqirdi. Chunki Nodiraning katta o'g'li Muhammad Alixon taxtga o'tirganidan boshlab 1834 yilgacha Qorategin, Ko'lob, Darvoz viloyatlari va boshqa bir qancha erlarni bosib Qo'qon xonligiga qo'shib oladi. 1826-1829 yillar davomida esa, bir necha marta Sharqiy Turkistonga, Koshg'arga hujum qilib, ko'p kishilarning halok bo'lishiga sabab bo'ladi. Xalqning ahvoli nihoyatda og'ir ekanligi tufayli Muhammad Alixon davrida bir necha marta xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi. Nodira bunday notinchliklar va

qirgʻinlarga befarq qarab turolmasdi. U xalq taqdiriga achinib, davr fojialariga, zulm va tengsizlikka boʻlgan nafratini sheʼrlarida ifodaladi. Amaliy faoliyatida esa, oʻziga yaqin mansabdor shaxslar va ulamolar yordamida Muhammad Alixonni xayrli ishlarni amalga oshirishga koʻndirib turdi. Madrasalar, masjidlar, xonaqoxlar, qogʻoz ishlab chiqaruvchi korxonalar, bekatlar, karvonsaroylar barpo ettirdi. Insofli va diyonatli ilm-maʼrifat ahlini, xunarmandlarni oʻz himoyasiga oldi, ularga qoʻldan kelganicha yordam koʻrsatdi. Nodira nodonlik, bagʻritoshlik va pinhona yovuzliklardan koʻp nolidi. Nodira dinu-islom qoidalariga ham qattiq rioya qilgan. Zero, islom dini boʻyicha gunohning avvali axloq qoidalaridan chekinmoq, imon va diyonatga xilof ish tutmoqdir. Nodiraning mana bu misralari uning davr qabohatlariga boʻlgan munosabatining nazmiy ifodasidir:

*Kel, dahrni imtihon etib ket,  
Sayri chamani jahon etib ket.  
Bedardlarning jafolaridin,  
Faryod chekib, figʻon etib ket.  
Dunyo chamanini bulbulisen,  
Gul shoxida oshyon etib ket...  
Olam chamaniki bevafodur,  
Bir oh bila xazon etib ket...  
Maqsad na edi jahona kelding,  
Kayfiyatini bayon etib ket.  
Fosh etma ulusqa ishq sirrin,  
Koʻngulda ani nihon etib ket.  
Kel, ishq yoʻlida koʻzlaringni,  
Ey Nodira, durfishon etib ket.*

Baribir, shoira oʻzining yaxshilikka qaratilgan saʼy-harakatlarini toʻxtatmadi, doimo ezgulik urugʻlarini sochishga harakat qildi. Zarr boʻlganda oʻz oʻtmishdosh ustozlari pandu hikmatlaridan, birinchi navbatda, buyuk Navoiy dahosidan foydalandi, navoiyona, mazmuni, taʼsiri chuqur baytlar, sheʼrlar bilan zamon ahliga murojaat yetib turdi. Hazrat Alisher



Navoiy o‘z davrida insonlarga murojaat qilib:

*Bu gulshan ichraki yo‘qtur baqo guliga sabot,  
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik birla ot,—*

ya’ni «Bu foniyl dunyo inson uchun o‘tkinchidir. Shuning uchun inson o‘z hayotini yaxshilikka baxsh yetib, umrini mazmunli, foydali o‘tkazib, o‘zidan yaxshi nom qoldirmog‘i ulug‘bir saodatdir» degan edi. Nodira ham Navoiyning bu mashhur bayt-muammosidagi fikrni davom ettirib, mazmunan teran baytlar yaratdi:

*Xusho oqilki, aylab yaxshiliq bunyodini mahkam,  
O‘tar bu dayri foniydin o‘zini neknom aylab.*

**Lirikasi.** Nodiraning adabiy merosi o‘zbek she’riyatining go‘zal sahifalarini tashkil etadi. Uning o‘zbek va fors tillarida bitilgan devonlari, shoira she’rlari kiritilgan bayozlar bizgacha yetib kelganki, ularda mumtoz qalam sohibining 10 ming misradan ko‘p lirik asarlari jamlangan. U klassik poeziyamizning asosan g‘azal, muxammas, musaddas, musamman, tarji‘band, tarkibband, firoqnoma kabi janrlarida qalam tebratdi. Nodira Hofiz, Lutfiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab, Bedil, Huvaydo kabi Sharq adabiyotining ulug‘ siymolari an‘analaridan ayol qalbining nozik tuyg‘ularini aks ettirishda samarali foydalandi. Nodira g‘azallarida vafo, muruvvat, odamiylik, poklik, sadoqat tuyg‘ulari ulug‘landi. Uning lirik qahramoni nomus va hayoni yuksak darajada qadrlagan, sevgida, insoniy muomalada iffat, odob va andisha saqlashga ahd qilgan sadoqatli ayol, vafodor do‘stdir. Nodiraning ishqiy g‘azallari shashmaqom yo‘llarining boy bir qismini tashkil etadi. Bu g‘azal-qo‘shiqlar inson qalbini ilitadi, unda go‘zallik va nafosatga nisbatan muhabbat uyg‘otadi, aqli, xulqi va badiiy didini boyitadi. Shu ma’noda, uni pok muhabbat, sadoqat va vafodorlik kuychisi sifatida qadrlaymiz. Uning mana bu g‘azali zamirida qanchalik chuqur ma’no, dard,

hikmatga moyil badiiylik yotganligiga ishonch hosil qila olamiz. Shoira hayotiy qiyoslardan, xalq hikmatli iboralari va o'xshatishlaridan foydalanib inson umrining bebaqoligi, qismatning dushvorligi haqida so'z yuritadi:

*Yorning vasli emas ozorsiz,  
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.  
Har kishini bir munosib yori bor  
Men o'shal ovoradurman yorsiz.  
Ul parivash vaslidin bo'ldim judo,  
Rohati dil qolmadi dildorsiz.  
Yor uchun ag'yor dardin tortamen,  
Ko'rmadim bir yorni ag'yorsiz.  
Tan buzuldi, endi rohat qolmadi,  
Soya paydo bo'lmag'ay devorsiz.  
Orazin ko'r, bo'lma zulfidin ma'lul,  
Bu jahonda ganj yo'qdur morsiz.  
Berma nisbat qaddig'a, ey bog'bon,  
Sarvdur bu bog'aro raftorsiz...  
Or qilmas tanai ag'yordin,  
Oshiqi sodiqni derlar orsiz.  
Nodira ahvolidin ogoh o'lung,  
Ey musohiblarki, qolmish yorsiz.*

Nodira muhabbat tasvirining haqiqiy ustasidir. Uningcha, odam muhabbat ixtiyor etganidagina chinakam komil inson bo'la oladi. Nodirada insonning insonga bo'lgan muhabbati, ya'ni ishq majoz ramziy ma'noga ega. U – ishq ilohiyning ramzi. Chunki insoniy ishqni kuylashdan maqsad ilohiy ishqni ulug'lashdir. Majoziy ishq Haq muhabbatini qozonish yo'lidagi bir bosqich bo'lib, solik ishq haqiqiyga shu bosqich orqali yo'l topgan. Nodira talqinicha, ishq-muhabbat oshiqning dinu mazhabiga aylansagina, u kamolot qozonadi:

*Qil, Nodira, muyassar sho'ri junun jahonda,  
Ishqu muhabbat o'ldi oshiqqa dinu mazhab.*

Uningcha, chinakam oshiq ishq yo'lida sham'dek kuymoq, parvonadek olovda o'rtanmoq xislatiga, qudratiga ega bo'lishi kerak. Uning «Kel dahrni imtihon yetib ket» misrai bilan boshlanuvchi g'azali ham dunyo muhabbati, ham dunyoga berilishni inkor etuvchi falsafiy asardir. Unda yassaviylikning ham, naqshbandiylikning ham sintezi bor. Demak, shoira inson ma'naviy kamolotiga ilohiy barkamollik talablaridan kelib chiqib yondashadi. Bu Nodira she'rlarida o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasi, dinu e'tiqodi, aql-zakovati, axloq-odobi ifodalanganligidan dalolat beradi.

Ko'rinadiki, Nodira muhabbatni tor, intim ma'noda talqin etmaydi. U bu muqaddas tuyg'u timsolida insonga, hayotga, go'zallikka hurmatini, ham tiriklik, ham poklik, ham Olloh va muqaddas aqidalarimiz, milliy an'analarimizga bo'lgan e'tiqod ramzini ko'radi.

Nodiraning yarim umri hijron, ayriliq dardlari, mamlakat tashvishlari bilan o'tdi. Uning siymosi va asarlaridagi ziddiyatli qutblar Nodira qismatiga tushgan voqea-hodisalarning tarixiy-badiiy aks-sadosidir.

Nodira lirikasida tashbehlarning xilma-xil ko'rinishlarini uchratamiz:

*Yuzi gulu qadi shamshod, ko'zlari nargis,  
Bahoru yosumanimni tushumda ko'rsam edim.*

Bu bayt «orzu qilish» ma'nosini anglatuvchi tamanni' san'ati asosida yaratilgan. Mazkur san'at orqali lirik qahramonning biror tilagi – ya'ni, tamannosi ifoda etiladi. Bu san'atning mumtoz namunalari Navoiy va Boburda ko'p uchraydi:

Navoiy:

*Ochmag'ay erdi jamoli olamoro koshki,  
Solmag'ay erdi bori olamda g'avg'o koshki.*

Bobur:

*Jamoling vasfini ey oy, necha eldin eshitgaymen,  
Qachon bo'lg'ay visolingg'a meni dil xasta etgaymen.*

Nodira:

*Nigori gulbadanimni tushumda ko'rsam edim.*

*Labi shakarshikanimni tushumda ko'rsam edim.*

Shu baytning o'zida vazndoshlik, qofiyadoshlik va ohangdoshlikka asoslangan tarse' san'ati ham bor. Mana bu baytda esa, kuchli istiora bor. «Istiora»-arabcha so'z bo'lib, «biron narsani omonatga olmoq» degan ma'noni anglatadi. Adabiy istilohda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda majoziy – ko'chma ma'noda qo'llashni anglatadi.

*Vaqtı xirom, ey sanam, diydalarimga qo'y qadam,  
Xoki rahingga aylaram chashmi guharfishon fido*

baytidagi «sanam», «chashmi guharfishon» so'zlari istioralardir.

Nodira ayniqsa qofiya san'atida o'ziga xos mahorat ko'rsatadi. Chunki qofiya badiiyatning muhim belgilaridan bo'lib, u she'riy asarlarda ifodalanayotgan fikrning jozibali, nizomli va ta'sirchan chiqishini ta'minlaydi. «Har qaysi misra, bayt, banddagi qofiyalarda, qofiyadosh so'zlarda ijodkorning g'oyaviy-badiiy niyati o'z tajassumini topadi. Ijodkor qofiya vositasida o'z o'quvchisi diqqatini she'rdagi eng muhim fikrlarga jalb qiladi. Qofiyadosh so'zlar asarda gavdalanayotgan lirik yoki epik timsollarning ma'naviy qiyofasini chizishga, ularning axloqiy prinsiplari: tafakkur olami, tuyg'ulari, orzu-armonlarini yorqin aks ettirishga xizmat qiladi. Qofiyalar she'riy asar musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashning asosiy omillaridan sanaladi. Qofiyadosh so'zlar tarkibidagi har qaysi tovush misra, bayt, bandga alohida jilo, ta'sirchanlik bag'ishlaydi».<sup>1</sup> Shoir Nodira qofiyaning ana shunday imkoniyatlarini teran anglagan, u haqdagi bilimlarni, qofiya san'atidagi nozik jihatlarni his etgan ijodkordir. Uning she'rlarida biz qofiya turlarining xilma-xil jilolarini kuzatamiz. U she'riyatning xiyla murakkab janrlarida

ham mazmuni ochadigan ohangdosh soʻzlarni topa oladi.

Sharq mumtoz adabiyotida musammatning bir turi hisoblanmish muashshar (oʻnlik band turi)ning ayrim namunalari uchraydi. Oʻzbek adabiyotida kattaqoʻrgʻonlik shoir Shavqiy, xorazmlik Ahmad Tabibiy va shoira Nodira bu qiyin sheʼr shaklida ham oʻz mahoratlarini sinab koʻrgan. Nodira lirikasida uning umr yoʻldoshi Umarxon – shoir Amiriydan bevaqt judo boʻlganida yozilgan marsiya-firoqnoma borki, uni oʻqigan, tinglagan inson larzaga tushadi. Bu firoqnoma-muashsharda birinchi oʻnlik band misralarining sakkiztasi oʻzaro qofiyalanib keladi (aaaaaaa), qolgan ikki misrasida boshqacha qofiyalar keladi (bb). Umumiy qofiya tartibi: aaaaaaaabb, aaaaaaaabb... Hamma oʻnlik bandlarning avvalgi sakkiz misrasi mustaqil qofiyalanib, har band oxirida birinchi band soʻnggida kelgan bayt oʻzgarishsiz aynan takrorlana boradi. Sheʼr tarkibidagi barcha poetik komponentlar qatorida undagi qofiyalar, radiflar Nodira qismatiga tushgan ayriliq dardlarini ifodalashga xizmat etadi. Shoira har qaysi oʻnlik bandlarda musibat kechinmalarini ifodalovchi sakkiztadan qofiyadosh soʻzlarni topib ishlatadi. Bir bandi:

*Ohkim, behad menga javru jaf o aylar falak,  
Furqat ichra qismatim dardu balo aylar falak,  
Yordin ayru mango koʻp mojar o aylar falak,  
Gʻam bila guldek yuzumni qahrabo aylar falak,  
Bevafodur, oqibat kinga vaf o aylar falak,  
Hasratu dardu alamga muhtalo aylar falak,  
Yorni, albatta, yoridin judo aylar falak,  
Gul bila bulbulni bebargu navo aylar falak,  
Hech kim, yo rab, jahonda yoridin ayrilmasun,  
Jondin ortiq mehribon dildoridin ayrilmasun.*

Bu oʻrinda Nodiraning qofiya tirgaklari radif kabilarni ishlatishga ham oʻzgacha masʼuliyat bilan qaraganligini takidlash lozim.

Raviylar qofiyaning kompozitsion markazini tashkil etadi. U qofiyaning asosidir. Aruzda yozilgan she'rlarda ko'proq harakatsiz undoshlar, ba'zi hollarda esa, cho'ziq unlilar (*o, u, o'*) raviy bo'lib keladi. Raviy, asosan, bir tovushning qofiyadosh so'zlarda aynan takroridan, ba'zan eshitalishi bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlarning almashinishidan (*t-d, g'-q, q-k...* kabilar) paydo bo'ladi. Nodira o'zi mahorat bilan topib qo'llagan qofiyalarida raviylarga katta e'tibor beradi.

*Yorning oshuftasi vahm aylamasu o'z jonidin,  
Jon firoqi sahldur, ayrilmasun jononidin.*

Baytdagi qofiyadosh so'zlar o'zagidagi «*n*» tovushi raviydir. G'azalning yuqorida keltirilgan matla' baytidan keyingi baytlarning juft (ikkinchi) misralaridagi so'nggi qofiyadosh so'zlar: *yonidin, zindonidin, bayonidin, bepoyonidin, to'fonidin, hijronidin* – birinchi baytdagi «*jonidin*» va «*jononidin*» so'zlari bilan ohangdoshlikka kirishganki, ulardagi «*n*» harfi-raviyning o'rni katta bo'lgan.

Qofiya bilan bir qatorda radif ham (misralar so'ngida qofiyadan keyin keladigan so'z yoki so'zlar birikmasining hech o'zgarishsiz, aynan takrorlanishi) she'rdagi ma'noni, fikrni ta'kidlovchi kuchli vositalardan biridir. U qofiya bilan mazmunan aloqaga kirishib, shoir ko'zlagan poetik g'oyani bo'rttirishga xizmat qiladi, she'r ritmi va musiqiyiligiga ta'sir ko'rsatadi. Nodira o'z g'azallarida alvon-alvon qofiyalar bilan birga radiflar ham qo'llaydi. U bir so'zli, ikki so'zli, hatto uch so'zli radiflarni juda o'rinli qo'llaydi.

Bir so'zli radif:

*Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,  
Seli g'amdin bu imorat bo'ldi vayron oqibat...*

Ikki so'zli radif:

*Kel, dahrni imtihon yetib ket,  
Sayri chamani jahon yetib ket...*

Uch soʻzli radiflar:

*Nigori gulbadanimni tushumda koʻrsam edim,  
Labi shakarshikanimni tushumda koʻrsam edim...*

Bunday misollarni Nodira sheʼriyatidan koʻplab keltirish mumkin. Shoiraning qofiya sanʼatidagi mahorati, soʻz boyligi, sheʼriy nutqi havas bilan oʻrgansa arziydigan mavzulardan sanaladi.

Xullas u sheʼriyat bobida shunchalar shuhrat qozondiki, uning

*Pardai nozu hayo xomush laʼlingdin koʻtar,  
Ikki gul bargini bir-birdin gahi guftora och...  
Farzand mehri elitar gʻam zangini koʻnguldan,  
Harchand shod erurman bu ikki toza guldun*

kabi tiniq va mumtoz baytlarini oʻqigan, eshitgan ahli davron unga ofarinlar aytdi. Uning shaʼnida gʻazallar, qasidalar, hatto dostonlar bitdilar. Nodir taxallusli shoir Nodiraga bagʻishlab yozilgan «Haft gulshan» dostonida shoirani «tolei shoʻr», lekin davr fozillariga, shoiru allomalariga homiylik qilgan moʻʼtabar inson, deb taʼriflaydi:

*Xure bu sifat ila kelur oz,  
Xurshed kabi jahonda mumtoz.  
Olam aro baski hukmrondur,  
Bilqisi mamoliki zamondir.  
Sultoni nujum ham falakraxsh,  
Himmat karami aro jahon baxsh.  
Fazl ahliga berdi oncha poya,  
Mehridin alar boshida soya...  
Aningdek kelmagay dahr ichra oyim,  
Aning koʻngli saxovat birla doyim...*

Dilshod Otin Nodirani «Ilm-odob va nazm osmonining yulduzi, ushshoqlar g'azalxonisi», deb ta'riflaydi. Xotif taxallusli shoir esa «Aqlu donishi, mo'ʻtabar so'zlari va fazilatlarini bilan «Nodirai davron» shaxs sifatida ulug'laydi.

Nodiraning o'z she'rlari qatlamlarida uning asarlarining ta'sir hududlarini, ma'naviyat olamidagi bezavol mavqeini bashorat qiluvchi shunday faxriya baytlari ham bor:

*Bo'lubtur Nodira mumtozi ma'ni,  
Kalomi ravshanu ash'ori farrux...*

*Nodira har so'zki insho ayladi,  
Aydi anga ahli davron: «Marhabo»!*

Bugun istiqloqga erishgan zaminimizda Nodiraning porloq xotirasini tez-tez esga olib, uni adabiyotimizning mumtoz namoyandasi sifatida olqishlab turmog'imiz lozim. Nodira shafqatsiz amir Nasrullo tomonidan qatl ettirilganligi jahon tarixidagi eng dahshatli fojiviy hodisalardan biridir. Bu fojia haqidagi ma'lumotlar o'sha davrda yashagan Mutribning «Shohnomai devona Mutrib», Mirzo Olimning «Ansoh us-salotin va tavorixi xavoqin» asarlarida chuqur achinish bilan bitib qoldirilgan. Mullo Niyoz bin Oxund Muhammadning «Tarixi Shohruxiya», Armaniy Vamberining «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» asarlarida ham bu haqda gapiriladi.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Nodiraning ismi, hayotiga oid qanday yangi ma'lumotlarni bilasiz?

2. Amiriy va Nodira munosabatlarini, ijodiy hamkorligini qanday talqin etasiz?

3. Nodiraning vafodorlik, sevgi, samimiyat va sadoqat kuychisi ekanligini isbotlovchi she'rlarini keltiring, tahlil qiling.

4. «Firoqnoma» qanday asar; uning yozilish sabablari.

5. Tarixiy va badiiy adabiyotda, san'atda Nodira obrazi.



### ***Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar***

1. Nodira hayoti va ijodi haqidagi ilmiy manbalarni qiyosan o'rganib, konspektlashtirib chiqish.

2. Nodira she'rlaridan beshtasini yoddan bilish va ularni tahlil qilib berish.

### ***Adabiyotlar***

1. Nodira. Devon. Ikki jildlik. –T., 1963.
2. Nodira. Ey, sarvi ravon. –T., 1993.
3. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. –T., 1960.
4. To'xtasin Jalolov. O'zbek shoiralari. –T., 1970.
5. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik, uchinchi kitob. –T.,: 1980.
6. Qodirova M. Davr nodirasi (hayoti va ijodi). –T., 1992.
7. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 4-jild. –T., 1978.

## SHAVQIY KATTAQO'RG'ONIY

Shavqiy Kattaqo'rg'oniy XIX asrning I yarmidagi o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biridir. U o'z zamonasining har jihatdan bilimli ziyolisi, ilg'or fikrli selisonayn (uch tilli) shoiri sifatida shuhrat qozongan. Vozezh Buxoriyning «Tuhsat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob» (1871) asarida «Shavqiy keksa kishi ekan, Kattaqo'rg'on shahridan. Ilm tahsil qilgan, she'r aytishga ehtirosi zo'r. Arab, fors va turkiyda ko'p she'rlar aytgan hamda devon tuzgan. «Muxtasari viqoya»ni ham nazm yo'li bilan sharhlab, foydali ish qilgan. Biz uni ko'ra olmagan bo'lsak-da, bilgan kishilardan eshitishimizcha, juda samimiy, ulfat va xushshbat kishi bo'lgan ekan. She'rlari g'oyat nafis, lug'at ilmidan tugal bilimga ega. 1278 hijriy yilgacha vafot etgan» kabi muhim qaydlar keltiriladi.

Mirsiddiq Hashmat ham XIX asr oxirida tuzgan «Tazkirat ush-shuaro» asarida, Qori Rahmatullo Vozezh asaridagi fikrlarga tayangan holda, Shavqiyini etuk shoir va adib, lug'at va shar'iya ilmlarining chuqur bilimdoni («dar masnaviy va ash'ori turkiy va forsiy-forisi maydoni balog'at, az ulumi shar'iya va lug'at bahramand») sifatida ta'riflaydi. 1927 yilga kelib kattaqo'rg'onlir hayvchi shoir, adib Abdulhamid Majidiy o'z yurt dosh ijodkorlari merosini o'rganishga kirishib, Shavqiy hamda Miriy tarjimai holi va aniqlangan asarlari haqida «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalida ilk maqolalarini e'lon qildi. U yo'qatilgach, bu yo'ldagi sa'y-harakatlar to'xtab qoldi. Faqat 50-yillarning oxiridagina Shavqiy Kattaqo'rg'oniy ijodini tadqiq-tashviq etishga kirishildi. Natijada sobiq ittifoq qo'lyozma fondlarida, ayrim shaxslarda saqlanib kelgan shoir asarlari aniqlandi. Shular asosida «O'zbek adabiyoti» ko'p tomligiga uning she'rlaridan namunalar kiritildi. Tanlangan she'rlari alohida kitob holida bosilib chiqdi. O'zbek adabiyoti tarixini o'rganishga bag'ishlangan boshqa manbalarda Shavqiy hayoti va ijodiga doir fikrlar bayon qilindi. 1963 yili nomzodlik dissertatsiyasi yoqlandi.

Shavqiy tarjimai holi va ijodiy faoliyati haqida uning o‘z asarlarida muhim ma’lumotlar bor. Chunonchi, shoirning «Debochai devon va g‘azaliyoti Shavqiy» qo‘lyozma asariga yozilgan muqaddimada uning tahsil yillari, madrasadagi ustozlari, o‘z faoliyatiga doir qaydlari hamda so‘z san’ati borasidagi fikrlari keltirilgan:

*Hijratdin o‘tub ming ikki yuz yil,  
Yo‘qdin bu jahona kelmisham, bil.  
Toliblarga xizmat ayladim cho‘x,  
Uyqu bila rohat aylamak yo‘x...*

Shoironing ismi Muhammad Sharif bo‘lib, Shavqiy uning adabiy taxallusi, Kattaqo‘rg‘oniy esa nisbasidir. «Shavq» so‘zi biror narsaga qattiq berilish, zo‘r havas, kuchli ishtiyoq, ruhiy ko‘tarinkilik, dunyoni zavq bilan tushunish singari ma’nolarni anglatadi. U tasavvuf istilohida ilohiy ishqdagi ruhiy ko‘tarinkilik, Olloh bilan qovushmoq ma’nolarida ham tushunilgan. Muhammad Sharif Shavqiy taxallusini ishq va visolda, dunyoviy hayotda zavqli, shavqli bo‘lish orzularida tanlagan bo‘lsa kerak.

Adabiyotimizda o‘nga yaqin shoir shu taxallus bilan ijod etgan. Ulardan xiyla mashhurlari Mavlono Shavqiy (XV–XVI asrlar), Shavqiy (Qurbon – XVIII asr), Shavqiy Namangoniy (XIX asr) va Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniydir.

Muhammad Sharif Shavqiy melodiy 1785 yili dehqon Muhammad Tohir Abdulqosim oilasida dunyoga keladi. U dastlab o‘z qishlog‘ida xat-savodini chiqargach, ilm va ma’rifatga ixlosmand otasining g‘amxo‘rligi bilan Buxoroga boradi hamda 1816-yillargacha, ya’ni 30–yoshlarigacha u erdagi Govkushon madrasasida tahsil oladi. Devon debochasidagi misralarning guvohicha, Muhammad Sharif talabalik yillarida g‘ayrat va qunt bilan o‘qiydi, ilm olish bilan birga, she’r mashqiga beriladi, adabiy suhbat va mushooralardan bahramand bo‘ladi, ba’zan o‘zi ham bunday ma’rakalarda o‘tkir hofizasi hamda topqirligini ko‘rsatadi. Shavqiy she’rlarida madrasa mudarrislaridan Xalifa Bozor ismli shaxsning nomi ehtirom bilan tilga olinadi. Shavqiy

bu shaxsni o'sha davrdagi olimlarning sarvari deb ataydi va o'zining ham bu mudarris tarbiyasida bo'lganligini aytadi. Shavqiy 30 yoshida madrasani bitirib, «xatmi kutub» qilganidan so'ng, yana Kattaqo'rg'onga qaytadi va umrining oxirigacha Alijon qishlog'ida yashab, dehqonchilik hamda maktabdordomlalik qiladi. Shavqiy devonidagi she'rlar orasida uning xotini va mirzo Olim ismli o'g'lining vafoti munosabati bilan yozilgan marsiya-muvashshahlari bor. Ularda shoir taqdir va betole hayotdan shikoyat qilib, oilaviy fojiasini dard-alam bilan izhor etadi.

Shavqiy Buxoroda bilim olib, zamonasining ancha etuk olimi va shoiri darajasiga ko'tarilganligiga qaramay, munofiqlik, adolatsizlik, ilm-donish ahllarigi nisbatan iltifotsizlik tufayli qadrsizlanadi. Shu bois ham u boylik evaziga baland mansablarga ko'tarilib olgan johil shaxslarni, ahli mansabni piching, zaharxanda bilan fosh etadi:

*Urarlar ahli mansab ertalab choyu palov oqshom,  
Senu mendeklara hargiz muyassar yo'q g'urunbode.  
Bu yanglig'fazl ila naylay, chiqib Qarnab yo'lin tutmay,  
Buxoro ichra mansab topdilar har zog'u kalxode.  
Rasolar holini bilmak uchun Shavqiy savol etdi:  
Qani bir ahli donish to javobin qilsun inshode.*

Taxminan, XIX asrning 60-yillarida olamdan o'tgan Shavqiyning qabriga yodgorlik toshi qo'yilgan bo'lib, unda Miriy, Ahqar, Noqis kabi ixlosmandlari tomonidan yozdirilgan vasfiy marsiya ruhidagi misralar, ta'rix she'rlar bor.

Qabr toshlaridagi satrlarning ahamiyati shundaki, unda shoirning taxallusi, asosiy asarlarining nomlari ko'rsatilgan, o'z zamonasida atoqli so'z ustalaridan biri sifatida tanilgani e'tirof etilgan. Shu ma'lumotlardan shoirning jiddiy mehnat tufayli arab grammatikasi, lug'at, fiqh, mantiq, handasa kabi ilmlarni egallaganligini bilish mumkin.

Shavqiy tomonidan yaratilgan o'zbekcha, forscha-tojikcha va

qisman arabcha gʻazallarining 50 dan ortiq namunalari mavjud. Uning uch tildagi gʻazallari muallifning mahoratidan guvohlik beradi.

Shavqiy ishqiy lirikada ayniqsa buyuk Navoiyning samarali taʼsirida boʻldi. U Navoiy gʻazallaridagi sevgi taronalarini, gumanistik fikrlarni kuylashni mahorat bilan davom ettirib, oʻzining chinakam original shoir ekanligini namoyish qildi. Shavqiyning shoʻx ishqiy tuygʻularni ifodalovchi gʻazalidan zavq olgan oʻquvchi beixtiyor hazrat Navoiyning:

*Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab,  
Xirom suratidin gul yuza haydin gulob aylab*

matlaʼli gʻazalini xotirga oladi va uni Shavqiy gʻazali bilan qiyoslab ikki karra zavq-shavqqa toʻladi. Shavqiy gʻazalida vazn, qofiya va radifda Navoiy gʻazalidan ilhom olgan, undan kuchli taʼsirlangan holda, ishq zavqini oʻziga xos talqin qiladi, musajjaʼ qofiyalar, hayotiy tashbehlar, xalqona iboralar qoʻllab, goʻzal yor va uning ishtiyoqida kutilmagan turfa ruhiy ahvolga tushib qolgan oshiq timsolini yaratadi:

*Chiqdi bogʻidin bir gul, men sori shitob aylab,  
Burqain solib yuzdin, bagʻrimi kabob aylab.  
Titravuj taqib boshqa, zarvaraq sepib qoshqa,  
Meni oldi yonboshqa, din uyin xarob aylab...  
Bexud oʻlmogʻim koʻrdi, boshim uzra oʻlturdi,  
Meni xusha kelturdi, hayidin gulob aylab.  
Koʻrgach-oʻq oʻshal yuzni, bahramand yetib koʻzni,  
Boadob tutib oʻzni, naqshi po hisob aylab...  
Tarki xonumon etim, goʻshada makon etim,  
Vasfini bayon etim, Shavqidin kitob aylab.*

Shavqiy Navoiyning bir qancha ishqiy-tasavvufiy gʻazallariga tazmin muxammaslar, musaddaslar ham bogʻlab, oʻz falsafiy, dunyoviy-majoziy fikrlarini ifodaladi. Bu jihatdan Navoiyning:

*Ne xush bo'lg'ay, ikavlon mast bo'lsak, vasl bog'inda,  
Qo'lum bo'lsa aning bo'ynidayu og'zim qulog'inda.*

matla'li mashhur g'azaliga shoir bog'lagan tazmin musaddasi xarakterlidir.

Shavqiy Navoiydek yuksak iste'dod egasining baytlariga mantiqan mahkam qovushib ketuvchi, yurakka yaqin quyma misralar ijod qila olgan, lirik qahramonlarning turli holatlardagi kayfiyatlarini ochuvchi chiroyli detallar, original bo'yoqlar topib ishlatgan. Jumladan, shoir musaddasining birinchi:

*Falakda dudi ohim, qonli yoshim ko'z qarog'inda,  
Kyetib sabru qarorim dilbari shirin so'rog'inda.*

baytini keltirish bilan kuchli mubolag'a ishlatib, sub'ektning dastlabki kayfiyatiga xos bo'lgan zo'r hayajon va parishonxotirlikka ishora qiladi. Ya'ni yor visoliga intizor bo'lgan lirik qahramon sabru qarori tugab, dilbarni so'roqlab jo'nagan.

Shavqiyning musaddasi ham o'z asosi bilan Navoiy baytlariga chirmashib ketgan.

Shavqiy lirikasining sotsial qimmatini chuqurlashtirgan ijtimoiy, falsafiy, axloqiy fikrlar shoir asarlarining ko'p o'rinlarida lirik chekinish tarzida bo'lib, ayrim misra, bayt va bandlarda ifodalanadi. Bunday she'rlarida shoir faqat muhabbat iztiroblari, sevgili yor tavsifi bilan cheklanib qolmaydi, balki o'z zamonasining ijtimoiy hayotiga ko'z tashlaydi, taqdiridan shikoyatni, chuqur ruhiy holatlarni ifodalaydi.

Shavqiy ayniqsa shariat aqidalarini ro'kach qilib xalqni talovchi, ularni ijtimoiy jaholat botqog'iga sudrovchi riyokor ruhoniylarni yoqtirmaydi. Uning nazarida, din ahllari bir xil emas, ular ichida yomonlari ham bor. Shoir yomonlarini hajv ostiga oladi.

*Qildilar ahli riyo o'zlarin eshon yanglig',  
Bildilar hiyla ishin bu bila oson yanglig'.  
El ko'ziga o'zlarin ayladilar qutbi zamon,*

*Qalbiga boqsa kishi, surati bejon yanglig',  
Hiylayu makr ila elni o'ziga qildi murid,  
Surati shayxnamo, siyrati shayton yanglig'.  
Ma'raka sadri bo'lub, bermayin ilm ahliga joy,  
Bilmayin ilmu adab rasmini hayvon yanglig'.  
Nazr deb hiylayu talbis ila el molin olib,  
Hazar etmay edilar gurgi biyobon yanglig'.  
Xaylini rohi zalolat sarig'a boshlag'ali,  
O'g'irlik xojasiga qilg'uchi do'hon yanglig'.  
Xohishi nafs uchun ayladilar muncha fusun,  
Shavqiyo, qilma o'zing botini yolg'on yanglig'.*

Shoir satirabop bu ob'ektni kulgi ostiga olib, masxara qiladi. Riyo ahli qiyofasi dasht hayvoni, shayton va yana boshqa badturq narsalarga o'xshatilishi ijtimoiy toifaning mohiyatini qisman ochishga xizmat qilgan, ya'ni shoir mumtoz adabiyotimizdagi musalsal (ketma-ketli) o'xshatishlarni mohirlik bilan qo'llab, keyingi baytlarda o'zi nishonga olgan salbiy ob'ektga nisbatan bir qancha tashbihlar qo'llaydi va uning mohiyatini qabariq holda ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi. Shuning uchun johil kishilardan nafratlangan shoir umumga murojaat qilib, inson sha'niga dog'tushuruvchi bunday yomon xususiyatlardan, chirkin odatlardan qo'l tortishga, odob, insof, odamiylik rasmini tutishga chaqiradi:

*Desang, zamirimi xannos qilmasun vasvos,  
Yiroq aylama o'zdin sitoyish ila sipos.  
Ulug'sifat kishi yosh erkanida ham bilinur,  
Bu so'zga qoyil erur, kimki bo'lsa chehrashunos...  
Kushodaro'y o'lubon, aylag'il tilingni chuchuk,  
Agar desang, bo'layin olam ichra sarvari nos.  
O'zingg'a ayla tavozu tariqasin pesho,  
Yuzungni qilma sovuq xalq ichida misli kalos.  
Muhabbatning guharin sarf etmagil, ulkim,  
Itob etarda sening xotiringni tutmas pos...*

Uning «Dar bayoni sharofati mehmon» deb nomlanuvchi muayyan syujet asosiga qurilgan epik masnaviysi xasis va ziqna boy, uning xushfazilatli xotini hamda mehmon oʻrtasidagi munosabat tasviriga bagʻishlangan boʻlib, oʻz davri uchun ahamiyatli boʻlgan tarbiyaviy fikrlarni ilgari suradi. Shoir boyning mol-mulki ishtiyoqida uning hovlisini oʻgʻrilar bosganini, sigirini arqon boʻqqanini, hashamatli imoratlariga nogahon oʻt tushganini, bu kutilmagan hodisalarni daf etishda mehmonning xizmatini tasvirilaydi. Natijada ilgarilari hirs-dagʻallik loyiga botgan davlatmand shaxs mehmonning fazilatlaridan taʼsirlanib, muruvvat yoʻlini tutadi.

Shavqiyning badiiy uslubi va asarlari tilida uch buyuk shoir — Navoiy, Fuzuliy, Bedil ijodiy maktabi taʼsiri yaqqol sezilib turadi. U fuzuliyona zabon bilan soʻzlashni yoqtiradi. Mirzo Bedilning orifona ramziy-majoziy ibora va tashbehlaridan ilhom oladi. Bejiz u uch buyuk soʻz ustasi taʼrifida quyidagilarni izhor etmagan chiqadi:

*Burnogʻi rasolari zamona,  
Koʻrsatdilar el aro nishona.  
Bir necha kitob debon Navoiy,  
Etkurdi xazinlara davoyi.  
Andin soʻng oʻtub raso Fuzuliy,  
Ashʻorlari el ichra qabuli.  
Forsi el aro rasosi choʻxdir,  
Lek Bedil kibi bir rasosi yoʻqdir.*

Shavqiy ijodiga Fuzuliy taʼsiri, ayniqsa, shoir asarlarining til xususiyatlarida yaqqol koʻzga tashlanib turadi. Shoir Fuzuliyning poetik mazmun, obrazlilikka boy tilining chinakam ixlosmandi sifatida oʻz sheʼrlarida oʻzbek tilida ishlatiladigan ayrim soʻzlarni Fuzuliy sheʼrlari talaffuzida ishlatishga, shu yoʻl bilan sheʼrning taʼsir kuchni oshirishga harakat qiladi.

*Ishq ofatidin dushti maning boshima savdo,  
Majnun kibi har yon gezaram dasht ila sahro.*



*Dun-kun ishim o'ldi meni har erda alolo,  
Olam ko'runur ko'zima bir shahpari anqo,  
Munis myenga g'am, dardi balo kulbasi ma'vo.*

Shavqiy g'azallarida Bedil she'rlarida ko'ringanidek, «gulshani tahqiq» (haqiqat gulshani), «nahli talab» (talab niholi), «boli oh» (oh qanoti), «dandoni tafakkur» (tafakkur tishi), «domani muddao» (murod, maqsad etagi), «tavsani noz» (noz oti), «do'shi himmat» (himmat elkasi), «sharori nola» (nola uchquni), «qasri mavj» (mavj qasri), «og'ushi hayo», «chamani noz» (noz-karashma gulzori) kabi bir qator istiora va o'xshatishlar ko'zga tashlanadiki, bular, birinchidan, shoir olg'a surmoqchi bo'lgan fikrni jonliroq tasvirlashga imkon bersa, ikkinchidan, o'quvchini o'ylashga majbur qiladi.

Shavqiyning she'rlari tasviriy vositalarga, go'zal tavsif va o'xshatishlarga, majoz va istioralarga, mubolag'a va murojaatlarga, xilma-xil xalq iboralariga boy. Shavqiyning shunday g'azallari ham borki, ularning deyarli har bir bayti xalq hikmati darajasiga ko'tarilgan. Shoir xalq maqol va aforizmlaridan bevosita foydalanish bilan birga, ularni davr va sharoitga, ifodalayotgan poetik mazmunga, vazn va qofiyaga moslab qayta ishlaydiki, bularga oid ayrim dalillar Shavqiyning adabiy portretiga oid turli sahifalarda keltirildi. Shu bois, XIX asming II yarmi va XX asrda yashab, ijod etgan, hassos shoirlar (Miri, Noqis, Ahqar, Mahdiy, Vidoiy, Salimiy, Salohiy, Nojiy...) Shavqiy ijodidan bahramand bo'lganlar.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Shavqiy taxallusi bilan ijod etgan yana qaysi shoirlarni bilasiz?

2. «Chiqdi bog'idin bir gul» g'azali aruzning qaysi vaznida yozilgan va 1-2-baytlarida qanday badiiy san'at ishlatilgan?

3. «Bilibon bu sharafni mehmondin» masnaviy-hikoyasidagi timsollar haqidagi fikringizni ayting?

### ***Mustaqil mashg'ulot uchun topshiriqlar***

1. Shavqiyning she'rlar kitobini mutoala qiling.
2. Navoiyning «Ne xush bo'lg'ay...» g'azaliga bog'langan tazmin musaddasni tahlil qiling.
3. «Kattaqo'rg'on: Kecha va bugun» kitobidagi «Shavqiy» qismini o'qib, konspektlashtiring.

### ***Adabiyotlar***

1. Shavqiy. She'rlar. –T., 1964.
2. Shavqiy she'rlaridan namunalar. O'zbek adabiyoti. 5-jild, 1-kitob, –T., 1966.
3. Orzibekov R. XIX asr o'zbek adabiyoti tarixiga doir materiallar. Samarqand, 1985.

## OGAHIIY

**Hayoti va faoliyati. Ogahiyshunoslik.** Yorqin iste'dodlarga boy mumtoz adabiyotimiz, madaniyatimiz tarixida Ogahiyning o'rni o'ta salmoqlidir. U talantli lirik shoir, iste'dodli tarjimon, zabardast tarixchi sifatida juda boy meros qoldirgan. Shu sababli Ogahiy zamondoshlaridan Muhammadrahim Feruz, Ahmad Tabibiy, Muhammadyusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy kabi davrining taniqli ilm-madaniyat arboblari, shoirlari uning ta'rifida ajoyib fikrlar bayon etganlar. Jumladan, Komil Xorazmiyning quyidagi misralarida Ogahiy shaxsi va shuhratiga xos jihatlar juda haqqoniy ifodalangan:

*Ulki ogahlarning ogahidir,  
Fahmu donish sipehrining mahidur.  
So'zi ortiqdurur guhardin ham,  
Fazlu donishda olam ichra olam.*

Ogahiy zamonidan boshlab uning ko'pqirrali ijodiga, tarjima va tarixiy asarlariga qiziqish so'nmay davom yetib keldi. Mashhur sharqshunos olimlardan Bartold, Samoylovich, Yakubovskiy, Yahyo G'ulomov, Q.Munirov kabilarning tarixshunoslikka; V.Zohidov, V.Abdullayev, G'.Karimov, S.Dolimov, R.Majidiy, F.G'anixo'jayev, B.Valixo'jayev, N.Jumaxo'ja kabilarning adabiyot tarixiga; G'aybulla as-Salom, J.Sharipov, N.Komilovning tarjimashunoslikka oid asarlarida Ogahiy ilmiy-adabiy faoliyatining muhim jihatlariga fikrlar bayon qilingan.

1960 yili uning «Ta'viz ul-oshiqin» devoni nashr etildi. 1971–1980 yillar ichida «Ta'viz ul-oshiqin» devoni, tarjima va tarixiy asarlaridan namunalarni o'z ichiga olgan 6 jildlik asarlari chop etildi.

1989 yili bu ulug' shoir va madaniyat arbobining 180 yilligi, 1999 yili esa, 190 yilligi keng nishonlandi. O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining maxsus qarori asosida shoir nomini abadiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirildi.

Adabiyotshunos F.G'anixo'jayev «Ta'viz ul-oshiqin»ning tanqidiy matnini tayyorladi. Nusratullo Jumaxo'ja va Abdurashid

Abdugʻafurov kabi olimlarimiz Ogahiyning shoir, muharrir, tarjimon sifatidagi faoliyatini chuqurroq oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy asarlar eʼlon qildilar.

Juda muhim bir yangilik shundan iborat boʻldiki, Qiyot qishlogʻida yashovchi adabiyot muxlislaridan Ogahiy yoshligida oʻzi tartib bergan majmua-bayoz topildi.

Muhammadrizo erniyozbek oʻgʻli Ogahiy 1809 yili Xiva yaqinidagi Qiyot qishlogʻida mirob oilasida dunyoga keladi. Uning otasi ham, bobosi ham (Avazbiy mirob) xonlikdagi obroʻli mansablardan biri – miroblik xizmatida boʻlib kelgan. Bu xizmat oʻz navbatida uning amakisi mashhur shoir, tarixchi va tarjimon Shermuhammadga (1778–1829), soʻng ancha muddat Muhammadrizoga oʻtgan. Demak, Ogahiy miroblar sulolasining vakillaridan biridir. Biroq u bu xizmatda ishlagan boʻlsa-da molu mulk toʻplashga intilmagan, xokisor, kamtarona yashash yoʻlini tanlagan. 1829 yildan 1857 yilgacha miroblik mansabida boʻlgan Ogahiy otdan yiqilib, qattiq shikastlanadi va isteʼfoga chiqishga majbur boʻladi. Umriining oxirigacha (1874) butunlay ijodiy ish bilan mashgʻul boʻladi. Uning «Taʼviz ul-oshiqin» devonidan boshlab hamma asarlari saroydan, mansabdan forigʻboʻlgan yillardagi ijodi mevalaridir.

Yosh Muhammadrizo uch yoshida otadan etim qolib, zamonasining eng nodir kishilaridan togʻasi Shermuhammad Munis qoʻlida tarbiyalanadi, undan adabiy taʼlim oladi. Tinmay oʻqiydi, mehnat qiladi, tevarak-atrofdan, oilada, jamoat oʻrtasida, ibtidoiy maktabda nimaiki ibratli koʻrinib, ularni oʻzlashtirishga harakat qiladi. Yaxshilarga yaqinlashib, ulardek boʻlishga intiladi:

*Qadam aylabon ilm yoʻlida bosh,  
Hunar kasbida aylar edim talosh.  
Ne tunlar myenga xobi rohat edi,  
Ne kunlar zamoni farogʻat edi.  
Eturdim har jamoatqa oʻzimni,  
Ochib ibrat bila haryon koʻzimni.  
Borining holidin boʻldim xabardor,  
Ayon koʻnglimda boʻlgʻay barcha asror.*

**Poetik merosi. «Ta'viz ul-oshiqin» devoni.** Ogahiyning o'z zamonasining mumtoz lirik shoiri sifatidagi xilma-xil mavzu va janrlardagi she'rlari 1852 yili tartib berilgan «Ta'viz ul-oshiqin» devonida jamlangan. Agar biz Ogahiyning 1874 yilgacha hayot bo'lganligi hamda saroydagi miroblik xizmatidan forig'bo'lib, asosan ijodiy ish bilan shug'ullanganligini e'tiborga olsak, shoir 20 yillar davomida yana qanchadan-qancha lirik she'rlar yozganligi, binobarin, Navoiydan keyingi o'zbek adabiyotida eng sarmahsul lirik shoir sifatida namoyon bo'lganiga ishonch hosil qila olamiz. «Ta'viz ul-oshiqin» qo'lyozmalari 1882 va 1905 yillari litografik usulda bosmadan chiqarilgan. Bizning davrimizda esa, biroz qisqartirilgan holda 1960 yili nashr etildi. Devondagi she'rlar Ogahiy lirikasining hammasi bo'lmasa ham hajman salmoqli, janr jihatidan boydir. Unda 500 ga yaqin g'azal, ruboiylar, 89 muxammas, mustazodlar, 19 qasida, 5 musaddas, 4 musamman, 4 masnaviy, 8 qit'a, 10 tuyuq, 4 chiston, 20 ta'rix she'r, 4 tarjiband kabi 13 xil lirik janrdagi asarlar jamlangan. Devon adog'ida «Ash'ori forsiy» nomi bilan keltirilgan 1300 misra she'r ham bor. Shoir o'zining bir musammanida (uning bir sakkizlik bandida) lirik she'rlarining etakchi janrlarini sanab o'tadi:

*Ish manga bo'lmish ul oy ko'yida maskan aylamak,  
Dardlig'abyot o'qub, holimg'a shevan aylamak,  
Husni vafini g'azal birla mubayyan aylamak,  
Masnaviy ichra g'ami, ishqin mubarhan aylamak,  
Ogahiy yanglig'ruboiy san'atin fan aylamak,  
Fikr ila dilkash muxammaslar muzayyan aylamak,  
Lek emas erdi hadim nazmi musamman aylamak,  
Bo'ldi bu jur'atg'a bois hukmi sulton, ey ko'ngil.*

Ogahiy devon tartib berish va uni nomlashda ham Shermuhammad Munis yo'lidan bordi. Munis va Ogahiy oralaridagi ustodu shogirdlik ko'p qirralidir. Ularning munosabatlari tog'ajiylikdan, oilaviy yaqinlikdan ijodiy yaqinlik tomon o'sib borgan. Munis va Ogahiy adabiy merosiga nazar tashlasak, dastavval ularning devonlari orasidagi o'xshashlik e'tiborimizni o'ziga tortadi. Munis

ijodidan navoiyona tartibda devon tuzish va uni maxsus nomlash an'anasi ikkinchi umri boshlangan bo'lsa, Ogahiy «Ta'viz ul-oshiqin» devonini tuzib, bu an'anani yana yuksak pog'onaga ko'taradi. Ogahiyning parokanda va tarqoq holdagi lirik asarlarini shoh va shoir, Ogahiyning muxlisi Muhammad Rahim Feruz taklifi bilan devon holiga keltirilgan. Ogahiy o'z lirik she'rlarining oshiqlar qalbiga yaqin, ular bilan tumordek doimo hamroh bo'lishini, ishq ahlini dardalamlardan xalos qiluvchi fazilatlariga ega bo'lishini istadi va devonini «Ta'viz ul-oshiqin» (Oshiqlar tumori) deb atadi.

Devondagi she'rlarning umumiy adadi 600ga yaqin, shulardan 500ga yaqini g'azallardir. Ko'rinadiki, Ogahiy Alisher Navoiy va Munisdan so'ng eng ko'p g'azal yozgan va bu janr taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoirdir. Ogahiy g'azaliyoti o'zbek g'azaliyotining Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, Munis g'azallaridagi eng yaxshi an'analarning go'zal va ijodiy davomidir. Unda oshiqona mavzuda yozilganlari asosiy o'rin tutadi. Buni devon tarkibida uchrovchi mana bu bayt ham tasdiqlaydi:

*Ogahiy holini gar ishq ichra bilmak istasang,  
Chashmi ibrat birla dardangiz devonimga boq.*

Eslatmoq lozimki, Ogahiy she'riyatining mavzu va g'oyaviy mundarijasida, badiiy uslubi hamda poetik obrazlar sistemasida Navoiy va Munisning ta'siri ayniqsa yaqqol sezilib turadi. Klassik poeziyadagi ko'pgina an'anaviy xususiyatlar Ogahiy ijodiga shu ikki buyuk shoir tajribasi orqali o'tgan, desak xato bo'lmaydi.

Ogahiy she'riyati, jumladan, g'azaliyoti dunyoviy va ilohiy ishqni, inson komilligini, axloqiy go'zalligini birlikda ifodalovchi asarlardir. U har bir asarini ma'rifat nurlari bilan go'zallashtirib, ularning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga harakat qiladi.

*Ushshoq ko'nglun olg'ali xulqu malohat shart erur,  
Yo'q sarvaso qomatu ruxsorayi gulfomi shart, –*

deydi shoir.

Demak, u taxallus tanlaganida ham ilohiy ishq – Ollohga muhabbat sirlaridan ogohlikni, xabardorlikni nazarda tutgan.  
Ogahiyning:

*Sahar xovar shahi charx uzrakim xayli hasham chekti,  
Shio'i xat bila ko'hsor uza oltun alam chekti*

matla'li Navoiy g'azaliga bog'lagan tazmin muxammasi va boshqa orifona she'rlari tasavvufiy mundarijaga ega asarlardir. Biroq, shuni alohida uqitirib o'tmoq lozimki, Ogahiy g'azaliyoti, boshqa janrlardagi asarlarida zamonadagi haqsizliklarga, nochorliklarga, adolatsizliklarga norozilik, dahri dunning cheksiz kulfatlari va kamsitishlariga isyon aniq hamda kuchli sado berib turadi. Uning:

*Tarab bazmi aro bekorlar doim qilib ishrat,  
Hamisha xizmat ahli muftalodur ranju mehnatga...*

*Ravnaq she'ri-ku?!*

*Ul gado holig'a rahm et, ey g'anikim, kechalar,  
Qochurub uyqusin aylar diydasin giryon sovuq...*

*Xarob o'lsun ilohi gumbazi davvori charxi dun,  
Ki doim davri kajdur, tavri shum, hayati vojun...*

baytlarini o'z ichiga olgan g'azallari Ogahiy g'azaliyotining real ijtimoiy asoslarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ogahiy g'azallari badiiylik nuqtai nazaridan ham haqiqiy san'at mevalaridir. Ularda alvon-alvon lafziy va ma'naviy san'atlar, qofiya, radif hamda aruz vaznlari jilvasini ko'ramiz. Quyidagi baytlarda misralar ichida ham qofiyalar ishlatib, she'rdagi ritmik ohanglarni yuzaga keltirishga imkon yaratuvchi musajja' san'ati ishlatilgan:

*Mehru vafu rasmin tuzub, javru jafu tavrini buzub,  
Shirin tabassum ko'rguzub, la'li duraxshonim kelur,*

Uning tasviridagi sevuvchilar har qanday g'araz va manfaatdorlikdan uzoq, yuragi toza, dili pok, xushxulq, zukko shaxslardir. Masalan, u malak-siymo yor obrazini chizar ekan, uni Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida Mehinbonu saroyidagi ilm-ma'rifatga intiluvchi, turli sohalarda o'z iste'dodini namoyon eta olgan qizlarga xos fazilatlar egasi tarzida ko'rishni orzu qiladi:

*Ul malak siymoki, borcha ilm bo'lmish yor ango,  
Ro'zu shab darsu saboq takroridur mo'tod ango...*

*Kasbi ilm etmay kishi gar qolsa mahzi jahl ila,  
Ikki olam obro'si bo'lg'usi barbod ango...*

*Ilmdin bebahra el holini bilmak istasang,  
Ogahiyning zor holin bilgil istishhod ango.*

Ogahiy dilpazir, hayotsevar shoir. U insonlarni umrni g'animat bilib, ko'ngilni xush tutib, Oloh nasib etgan xursandchiliklardan bahramand bo'lishga chaqiradi. Buni go'zal insonlar mashvarati, o'yin-kulgusi, sharbat kayfi, mutribu xonandalarning yoqimli navolari, ko'ngul istaklari misolida ifodalaydi.

Ogahiy she'riyati, ta'vizardagi g'azallari majoziy ishq tasviridagina iborat emas, albatta. Uning devonida ishqiqi haqiqiy tasvirida ham chuqur falsafiy-ijtimoiy mazmunga ega namunalar bor. Ayniqsa:

*Ogahiy, jahd et, musohib bo'l haqiqat ahliga,  
Tobakay bo'lg'ay majoz ahli bila ulfat sango –*

maqtai bilan tugallangan g'azalida Ogahiyning ham majoziy-dunyoviy, ham haqiqiy–islomiy–ilohiy ishqqa falsafiy munosabati ifoda topgan. Hattoki shoir taxallusida ilohiyot sirlariga bog'liq ishoralarni ko'ramiz:

*Ne tong, ogoh bo'lsa Ogahiy ishqing siridinkim,  
Onga behuda ermas osmondin bu laqab paydo.*



*Dardu dilingni so'rg'ali, sorig'yuzingni ko'rgali,  
Damosz bo'lub o'lturg'ali, yori qadrdoqing kelur.*

Quyidagi baytda esa, xalq maqollaridan adabiy muddao ifodasi yo'lida foydalanish san'ati qo'llanilgan:

*Xunob ichar vaqtimda xush kelding ko'ngulkim xalq aro,  
Yaxshi masaldurkim: «Kelur yaxshi kishi osh ustina».*

Ogahiyning «Sizmusiz» radifli g'azali to'liq tarzda so'ramoq (istifhom san'ati) san'ati mevasidir. Bir bayti:

*Nozi karashma bog'ining sarvi ravoni sizmusiz?  
Oshiq xasta jismining rohati joni sizmusiz?*

Mana bu baytlar ham Ogahiyning xalqning qochirim, hazil iboralarini, so'z o'yinlarini nechog'li yaxshi bilib, xalq she'riyatiga xos yumoristik baytlar yaratishga mohir ekanligidan dalolat berib turadi:

*Soldi o't ko'ngluma o'g'rin boqishing,  
Oldi jonimni qarab qosh qoqishing,  
Qolmag'ay kul bo'lmayin boru yo'qim,  
Gar bu ersa ishva o'tin yoqishing.*

Badiiy tasvir vositalari ichida istihroj san'ati ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Istihrojning lug'aviy ma'nosi — «qazib chiqarmoq»dir. Istilohiy ma'noda esa, badiiy matnda keltirilgan harflardan so'z qazib chiqarmoqni anglatadi. O'zbek mumtoz adabiyotining iste'dodli namoyandalari bu poetik san'atga murojaat yyetishib, arabiy harflarni tilga kiritishib, ishqiy-tasavvufiy ma'nolarni zamzama qilishga muvaffaq bo'lganlar. Bu san'at kitobat — harf san'atining xiyla murakkab ko'rinishlaridan biri bo'lib, she'riyatda hurufiylik ta'limotining ta'siri tufayli paydo bo'lgan. Mohir so'z ustasi Ogahiy ham eski o'zbek alifbosidagi ba'zi harflar shakllaridan badiiy ashyo va tasvir vositasi sifatida foydalanadi:

*Dog'uzra alifdurmu ko'ksim uza chekmish hajr,  
Yo dard sipehrida mehvarmu ekan oyo?*

Bu baytda shoir «dog'» va «dard» so'zlarining yozilish shaklidan foydalanib, so'z o'yini yasagan.

Quyidagi baytda esa, «jon» so'zining butunligi «alif» bilan bo'lgani singari, sening go'zalliging boisi ham alifdek tik qomatingdir. «Alif» harfidan ajralgan «jon» so'zi muqarrar buzilishi kabi, sening qading (ya'ni vasling) hijronida mening hayotim ham barbod bo'lishi muqarrar» degan mazmun, fikr ifodalangan:

*Qading hijronida jonim xarob o'lsa, tong ermaskim,  
Latofatda sanga zebo alifdur «jon» aro qomat.*

Ogahiyning mashhur «Ustina» radifli g'azalining matla' bayti ham shu san'atning oliy namunasidir.

Ogahiy g'azallarida, umuman, lirik she'rlarida aqlga sig'maydigan mubog'alar, uning tablig', ig'roq, g'uluvv kabi aqlan ishonish mumkin bo'lgan, o'ta kuchaytirilgan, ba'zan aql bovar qilmaydigan turlari uchraydi.

*Ohimdan uchub havog'a tog'lar,  
Yor yuzi sarosar o'ldi homun...*

*O'yla to fon xez bo'ldi ashku ohimdin bori,  
Yor yuzin g'arq aylab etdi mavj urar gardunda suv.*

Ogahiy arabcha «chiroyli dalillash» ma'nosini anglatuvchi, badiiy asarlarda tasvirlanayotgan voqea-hodisaning shoirona sababini ham ko'rsatib ifodalash san'ati hisoblangan «husni ta'lil» usuliga ham tez-tez murojaat yetib, baytlar yaratadi. Bunda oy, quyosh kabi samoviy hodisalar harakati, holatidan foydalanadi.

*Falak mehru bulutdin ko'zga chekmish pardai mushkin,  
Magar boqib quyoshim yuziga ko'zi qamoshibdur.*

*Beniqob ul mahliqoni toki ko'rdi, har kecha,  
Infiolidin quyosh er ostida pinhon erur.*

Keyingi baytni o'qiganingizda beixtiyor Alisher Navoiyning shabob ayyomlarida yozib Mavlono Lutfiyini lol qoldirgan

*Orazin yopqoch ko'zimdin to'kilur har lahza yosh,  
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh*

bayti yodingizga keladi.

U istioralar qo'llaganda esa she'r tarkibida ma'lum maqsadda keltirilgan so'zlarning majoziy ma'nolarini topib ishlatadi:

*Falak mehru bulutdin ko'zga chekmish pardai mushkin,  
Magar boqib quyoshim yuziga ko'zi qamoshibdur.*

baytida husni ta'lil san'ati istiora orqali yuzaga chiqqan.

*Kamol ayji uza farrux yuzung mehri saodatdur,  
Latofat bog'ida zebo qading sarvi nazokatdur.*

bayti misralarida ham kuchli istioralar qo'llanilgan.

Ogahiy va, umuman, Munisdan e'tiboran xorazmlik shoirlarning ko'pida she'rda muayyan so'zni takror qo'llash san'ati hisoblangan takriming ham xilma-xil ko'riinishlarini uchratamiz. Ogahiyning bir g'azalidagi matla'dan maqta'gacha qo'llangan takrir san'ati g'azal baytlarining ikkinchi misralarida ifodalanayotgan ma'nolarni kuchaytirib, birinchi misralardagi oshiq dardlarini yorqinroq ochishga xizmat qiladi:

*Jonim olur, ey pari, holimg'a boq  
Ishtiyoqu ishtiyoqu ishtiyoq.*

*To mani furqatda qo'yding nolishim  
Al-firoqu al-firoqu al-firoq.*

*Aylamishsan qatlima ag'yor ila  
Ittifoqu ittifoqu ittifoq.*

*Bovar etmassan desam yuz yolborib,  
Ko'nglum oqu ko'nglim oqu ko'nglum oq...*

Takrir she'r baytlarida (boshi, o'rtasi yoki oxirida) juft-juft so'zlar qo'llash san'ati sanalgan mukarrar san'atidan farq qiladi. Ogahiyning ikki ishqiy g'azalida keltirilgan

*Ey yuzung burji sabohat axtari  
Har so'zung durji fasohat gavhari...*

*Ishqing g'amida diydai giryonima rahm et,  
Hajring tunida nolai afg'onima rahm et...*

kabi baytlarda badoega oid asarlarda lafziy san'atlar turiga kiritiluvchi tarse' muvozana deb nomlanmish san'at mohirlik bilan qo'llanilgan. Bu san'at baytdagi so'zlarning o'zaro vazndoshligiga, ohangdoshligiga, qofiyadoshligiga asoslanadi. Baytdagi barcha so'zlar vazn jihatidan o'zaro teng, o'xshash bo'lishi lozim. Ogahiyning yuqoridagi baytlarida shu talabga rioya qilingan va u, o'z navbatida, shoir o'ylagan poetik niyatni yuzaga chiqarishga xizmat yetib, she'rdagi badiiylikni kuchaytirgan.

Professor A.Hojiahmedovning «She'riy san'atlar va mumtoz qofiya» risolasida qofiya san'atlari xususida juda muhim nazariy ma'lumotlar, tahliliy sharhlar keltirilib, shu san'atda Ogahiyning o'zgacha o'mi borligi qayd etilgan. Binobarin, Ogahiy she'riyati o'z mavzularining zamonaviyligi, dolzarbligi, ma'no va mazmunining chuqurligi bilan birga, badiiy-estetik jihatdan go'zalligi bilan ham ibratli adabiy maktabdir. Uning she'rlarida vazn, qofiya noqisliklari umuman uchramaydi.

*Toki ul qotilg'adur sandon ko'ngul, xunxor ko'z,  
Jabru zulmidin manga vayron ko'ngul, xunbor ko'z*

bayti bilan boshlanuvchi oshiqona gʻazalida shoir gʻazalning oxirigacha har bir baytda ikki soʻzni qofiyadosh qilib keltirish (yuqoridagi baytda «sandon, xunxor – vayron, xunbor») sanʼati hisoblangan zulqofiyatayn (qoʻsh qofiya)ni mohirlik bilan ishlatgan. U tasavvufiy ruhda yaratgan mustazodlarida ham original qofiyalar topib ishlatishga muvaffaq boʻladi.

Jumladan uning

*Ey yor, sango ushbu jahon  
bogʻi aro gul  
bir oshiqi hayron,  
diydinga shaydo.  
Bir sheftadur kokuli  
mushkuninga sunbul  
ham holi parishon,  
ham boshida savdo*

matlaʼli mustazodida shunday sheʼrlarda qofiya ishlatish usulini yangilashga, takomillishtirishga harakat qilib, har qaysi toʻliq misra (toʻrt ruknli)dan soʻng bir emas, balki ikkita (ikki, ikki ruknli – mafʼulu faulun) ortirma misra keltiradi. Bunday ortirma yarim misralar qoʻllash Ogahiygacha boʻlgan fors va ozarboyjon adabiyotida uchrasa ham oʻzbek adabiyotida kuzatilmagan edi. Shu bois, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan yuksak bosqichga koʻtarilgan, ayrimlariga Feruz va Komil Xorazmiy tomonidan kuylar bastalanib, notalarda aks ettirilgan Xorazm shashmaqom va suvora turkumidagi mumtoz qoʻshiqlarning asosiy qismini Ogahiy gʻazallari, muxammaslari tashkil etdi. Masalan, Ogahiyning «Ustuna» radifli mashhur ishqiy-orifona gʻazali «Peshravi Feruz» deb ataladi. Uni Komil Xorazmiy notaga olgan. Olti jilddan iborat «Xorazm maqomlari» kitobidagi shunday qoʻshiqlarning koʻplari Ogahiy sheʼriyatiga bastalangan qoʻshiqlardir. Ularni Xorazmning mashhur hofizlari Madraim Sheroziy, Komiljon Otaniyozov kabilar ijro etganlar.

***Ogahiyning muxammas va masnaviylari.*** Ogahiy o‘zbek shoirlari ichida eng ko‘p musammatlar yaratgan shoirlardan biridir. «Ta’viz ul-oshiqin» devonida ikkita murabba’, 89 muxammas, besh musaddas, to‘rt musamman keltirilgan. Ko‘rinadiki, Ogahiy muxammaslar yaratishga alohida e’tibor bergan. U hatto muxammaslarini devoniga alifbo tartibida joylashtirishni lozim ko‘rgan. Ularni bir joyga jamlagudek bo‘lsa, muxammaslardan iborat bir she’riy majmua, muxammas she’rlar devoni» paydo bo‘lishi mumkin. Ummat To‘ychiev «Muxammas janrining asoschisi Ogahiy» deganlarida (garchand, bu fikr to‘g‘ri bo‘lmasa-da) Ogahiyning bu janrga ayricha qiziqish va e’tibor bilan qaraganligini nazarda tutgandek. Sakson to‘qqiz muxammas ichida Navoiy g‘azallariga bog‘langanlari o‘ttizta. Shulardan yigirma oltitasi «Ta’viz ul-oshiqin»ning 1960 yildagi nashriga kiritilgan. Ayrim tasavvuf ruhidagi namunalar bu nashrga kiritilmay qolgan bo‘lishi mumkin. Ogahiy Mavlono Fuzuliyning beshta, Munisning to‘rtta, zamondoshlaridan Rojiiy Xorazmiyning uchta, shoh va shoir Feruzning beshta, Dilovorning bitta, Amiriy (Umarxonning) bitta, G‘oziyning bitta g‘azaliga tazmin muxammaslar bog‘lagan. Ogahiyning qolgan qirqdan ortiq muxammasi o‘zining mustaqil va bir nechasi o‘z g‘azallariga o‘zi yozgan muxammaslardir. Aytish mumkinki, Ogahiy muxammas she’rlar ijod qilishda birinchi navbatda Navoiy tajribalariga, qo‘llagan usullariga murojaat etdi. U Navoiydan so‘ng shu janrni eng yuksak bosqichga ko‘tara olgan shoir bo‘ldi.

Buyuk Alisher Navoiy, soni unchalik ko‘p bo‘lmasa-da, bu janrning etuk namunalarini yaratdi. Ayniqsa, boshqa shoirlar, shu jumladan o‘z g‘azallariga tazmin muxammaslar yozish an‘anasiga ham asos qo‘ydi. Ogahiy shu nuqtada Navoiy dahosidan nihoyatda kuchli ta’sirlandi. Shu an‘anani yangi xususiyatlar bilan boyitdi. Bejiz u

*Ogahiy, kim topg‘ay erdi sozi nazmingdin navo,  
Bahra gar yo‘qsa Navoiyning navosidin sango, —*

deb faxrlanmadi. Ogahiyning Navoiy g‘azallariga ko‘p

muxammaslar bog‘lashi, shubhasiz, uning ulug‘shoir ijodiga bo‘lgan hurmati, mehr-muhabbatidan dalolatdir. Bu hurmat sababi Navoiy lirikasidagi insonparvarlik g‘oyalari, chuqur fikriy xazina va hayratomuz mahoratdir. Shu jihatlar Ogahiy qalbiga, didi va maqsadlariga yaqin bo‘lgan. Shoir Navoiy g‘azallariga qo‘shgan satrlarida, har bir baytni beshlik bandlarga aylantirganida Navoiy ijodida kuylangan ezgu niyatlarni o‘zi yashagan davr, jamiyatdagi keng xalq ommasiga etkazishni, o‘z xalqini shu ezgu niyatlar asosida tarbiyalashni ko‘zda tutdi. Navoiy g‘azallari ichida she‘rga sho‘x, o‘ynoqi, hazilomuz ruh bag‘ishlovchi «Qildila» radifli g‘azal bor. Ogahiy Navoiyning shu radifdagi g‘azaliga muxammas bog‘lashdan tashqari, shu shevada «Ettilo», «Ayladilo», «Bo‘ldilo» radifli yangi g‘azallar ham bitdi. Ba‘zi misollarga murojaat etamiz.

Ogahiy:

*Faqr eliga kulbasi mulki jahondin yaxshikim,  
Onda eski bo‘ryo taxti Kayondin yaxshikim,  
Tinchlik birla atola no‘shi jondin yaxshikim.*

Navoiy:

*Zahrni o‘z komi birla ichsa ondin yaxshikim,  
Obi hayvon sharbatin nokomlig‘jomi bila.*

Navoiyning bu g‘azali mazmunida shaxs erkini yoqlash g‘oyasi ifodalangan. Uning har bir baytida shu tushuncha bilan bog‘liq fikrlar keltiriladi. Ogahiy muxammasidagi g‘azalga qo‘shilgan misralar ko‘p bo‘lganligi uchun maqsadni ifodalash imkoniyati ham kengaygan. Masalan, yuqorida Navoiy baytiga qo‘shilgan Ogahiy misralari tufayli Navoiy baytlaridagi fikrlar quvvatlanibgina qolmay, ular yangi fikrlar bilan boyitilgan. Ularda vazn, qofiya ham o‘xshash, yaqin. Ogahiyning Navoiy g‘azali baytlariga uch misradan qo‘shib borgan satrlarida ham g‘azaldagi asosiy g‘oya — erkinlik, faqirlik — boylik, eski bo‘ryo — taxti Kayon, atola — aziz taom kabi qarama-qarshi narsa va sifatlar o‘xshatish bo‘lib keladi.

Ogahiyning Navoiy g'azaliga bog'lagan mana bu ikkinchi muxammasida ham tazmin muxammaschilik qoida va talablariga to'la rioya qilinganligini ko'ramiz:

Ogahiy:

*Ey ko'ngul, bo'lsang agar xushu xiraddin bahra yob,  
Charxdin ko'z tutma bo'lmoq dahr aro izzat maob,  
Nogahon aylab sango bir mehr qilmoq irtikob.*

Navoiy:

*Sochsa anjumdin falak boshingg'a yuz ming durri nob,  
Jolai g'am bilki yog'durgay bir ofatlig'sahob.*

Ogahiy:

*Yo'q hadaf bu jolag'a ahli jahondin o'zgakim,  
Etkach o'q majruh qilmas jismu jondin o'zgakim,  
Yozmoqidin sud yo'q elga ziyondin o'zgakim.*

Navoiy:

*Ne g'araz bu jolani yog'dursa ondin o'zgakim,  
Umr nahlin sindurub tan gulbanin qilgay xarob.*

Keltirilgan bandlarda fikrlar bir-biriga shu qadar bog'langanki, ularning ikki muallif – Ogahiy va Navoiy misralari ekanligi mutlaqo sezilmaydi. Agar muxammas oxiridagi taxalluslarga qarab ularning Ogahiy va Navoiy misralari ekanligi bilinib turmasa, ularni bir shoir qalamidan chiqqan deb o'ylash mumkin.

Ogahiy tazmin muxammaslarining 10tasi uning o'z g'azallariga yozilgan.

*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
Qatlim uchun nas keltirur nun eltibon sod ustina...*

*Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,  
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina*



baytlarini o'z ichiga oluvchi g'azali hatto hozirgacha shoirlarimizning e'tiborini o'ziga tortib kelayotganligi ma'lum. Bu g'azal Ogahiydan keyingi ko'plab shoirlarga ilhom bag'ishlagan. Ogahiy shu g'azaliga o'zi ham mahliyo bo'lib, undagi fikr, his va badiiyatni yanada yaproq yozdirishga tutinib, tazmin muxammas bog'lagan edi. Ogahiyning shu «Ustina» radifli g'azalga qo'shgan uchliklari ham o'ziga xos tarovati, yangi detallari, tashbehlari yoqimlilik bilan ajralib turadi. G'azalda ham, unga bog'langan muxammasda ham insonga bo'lgan muhabbat, sevgi-sadoqat, ezgulik his-tuyg'ulari madh etiladi. Aruzning «rajazi musammami solim» bahrida yozilgan bu she'rning Ogahiy qalamidagi g'azal va tazmin muxammas variantlari hassos shoir uslubi va mahoratini yaqqol ko'rsatuvchi toza asarlardir. Ogahiy g'azali ilohiy va dunyoviy ishq kechinmalari sintezi, yorning nurli jilvasi go'zalligi, jabru jafosi haqidagi tuyg'ular bilan boshlanadi-yu, sekin-asta ijtimoiy ohanglar bilan ulanib ketadi, baytlardagi fikr tadriji orqali g'azal so'nggi kuchli ijtimoiy-falsafiy va didaktik fikrlar bilan yakunlanadi.

G'azaldagi:

*Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shomu sahar,  
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina –*

beshinchi baytida hamda

*Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yomonu yaxshini  
Kim, mehr nuri teng tushar vayronu, obod ustina –*

ettinchi baytda mutafakkir shoir yaratuvchiga yalvorib, unga e'tiqodda shomu sahar nola qilib, shafqat va adolat umidida riyozat chekayotganini ifodalaydi. G'azalga bog'langan muxammasda ham oshiq, orif shaxs siymosidagi shunday botiniy va zohiriy jihatlar izchil davom ettiriladi. Shu o'rinda taassuf bilan aytish lozim bo'ladiki, so'nggi yillargacha Ogahiy lirikasi haqida so'z borgan ilmiy-tadqiqot asarlarida, maqolalarda Ogahiyning «Ustina»

radifidagi gʻazali va tazmin muxammasining asl mohiyati, gʻoyaviy yoʻnalishi biryozlama izohlandi, ular ishqiy-dunyoviy sheʼrlar sifatida tahlil yetib kelindi. Gʻazalga xos xuddi ana shu ikki yoʻnalishli xususiyatni, bosh pafosni Ogahiy yurakdan his qilib, unga bogʻlangan muxammasida shu jihatlarni yanada takmilga erishtiradi. Oʻz gʻazalining birinchi baytidayoq shoir yor qoshu koʻzining nihoyatda chiroyliligi va uning oshiq qalbiga larza solishini kuchli tashbehtar va harf–tasmiya sanʼati vositasida ifodalab, «nun» va «sod» harflarining islomiy koʻchma maʼnolaridan foydalanib, detallarni yangi misralar hisobiga goʻzallashtirib, asar mazmunini chuqurlashtirib boradi. Birinchi matlaʼ baytning oʻzidayoq nechogʻli kuchli ramziy-majoziy fikr hamda badiiylik, ijodiylik qoʻri bor. Shoir tasavvufiy ishq jilvasini gavdalandirish uchun ramziy maʼnolarga ham ega «nun» hamda «sod» harflaridan foydalanadi. Ikkinchi misradagi «nun» birinchi misradagi qoshga, ikkinchi misradagi «sod» esa, birinchi misradagi chashm (koʻzga) oʻxshatilgan. Shuning bilan birga, «nun» va «sod» harflari biriksa, yaʼni «nun eltibon sod ustina» «nas» soʻzi paydo boʻladi. Uning maʼnosi biror narsani bajarishga berilgan hukm, buyruqdir. Bu buyruqning oqibati «Sening jallod koʻzlaring ustidagi timqora va chiroyli qoshlaring harakatga kelsa, uchirilsa, uning tagidagi jallod koʻzlaring mening qatlimga shaylanadir. Yaʼni goʻzal yorning koʻzi jalloddek jon olgʻuvchi boʻlib, mushkdek qop-qora qoshi koʻzini himoya qilish uchun saf tortgan posbonlar — qoʻriqchilar hayʼatidir». Ogahiy shunday sanʼat orqali goʻzalning qoshu koʻzini taʼrif etadi. Keyingi baytlarda goʻzalga xos shu ajoyib tasvir baytma-bayt tadrij asosida rivojlantirib boriladi. Shunday sanʼatkorlik biz yuqorida keltirganimiz ikkinchi baytda yana oʻzgacharoq namoyon boʻladi. Agar sen shamshod daraxtiga gul payvand qilinganini va uning ochilib, yashnab ketganligini payqamagan boʻlsang, goʻzal yor qomatini va oydek yuzini tomosho qilaver, chunki uning qomati shamshoddektikvaxipchaboʻlib, yuzi shamshod qadi ustida ochilgan qizil guldekdir. Ogahiyning shu radifdagi gʻazali ham, unga oʻzi yozgan tazmin muxammasi ham bejiz «peshravi Feruz» yoʻli bilan maqomlar tarkibidan mustahkam oʻrin olib ijro

etilmaydi. Iste'dodli shoirimiz Omon Matjonning «Muxammasi muloqot» asarining yaratilishi ham bu asarlarga xos bo'lgan chuqur tafakkur, fikriy teranlik va go'zal badiiyatdir.

Ogahiy «Yolg'uz» radifli g'azalini tazmin uchun bekorga tanlagan emas. Bu g'azalda u yashagan davrda hukm surgan haqsizliklar ostida ezilib, azob tortayotgan ilg'or kishilarning ruhiy ahvoli yoritilgan. Shoirning o'zi ham shulardan biri edi. Shoir shu ichki azobni aks ettirish uchun bu mavzuga yana qaytadi, uni yanada chuqurroq, hayajonliroq qilib ifodalashni istaydi. Yolg'izlikni ifodalovchi bu muxammasda, darhaqiqat, uning g'azal variantiga nisbatan bunday hayotga qarshi isyon yana kengroq ko'lamda, yanada chuqurroq tasvirlangan (g'azal 11 bayt, muxammas ham 11 band).

Ogahiyning «Arzimas» radifli g'azal va muxammasida ta'magirlik qoralanadi. «Mol-dunyo orttiraman deb o'zingni xarob etma, qanoat rasmimi tut, boriga shukur qil, halol yasha» degan g'oya ilgari suriladi.

Ogahiy o'zining ishqiy, ilohiy, ijtimoiy-ta'limiy fikrlarga to'la quyidagi matlali g'azallarini ham, yuqoridagi poetik maqsadlarni ko'zda tutgan holda, beshlamalarga aylantirgan.

*Bog'u bahor aro netong bo'lmasa gar qarorimiz,  
Kim, sari ko'yingiz erur bog'imizu bahorimiz...  
Dahr bazmu ayshi anduhi g'amiga arzimas,  
Sharbatu jonparvari muxlik samiga arzimas...*

*Bo'ldi la'li jonbaxshing uzra to namoyon xat,  
Ey pari, Xizr yanglig'topti jovidon jon xat...  
Ko'nglum g'amini do'stlarim, yorima ayting,  
Jonim alamin la'li shakarborima ayting...*

*Bu kim charx oftobi evrilur har lahza boshingdin,  
Taraddud birla tinmay kasbi nur aylar quyoshingdin...  
Bog'i jahonki xushturur gulshani aysh xonasi,  
Rohati jismu jonparvar bazmu tarab nishonasi.*

Bu an'ana rivojida yangi sahifa ochgan Ogahiy yo'lini uning

fargʻonalik izdoshi Mavlono Muqimiy davom ettirdi. U ham oʻzining bir qancha oshiqona gʻazallaridan tashqari, hatto hajviy gʻazallariga ham yana oʻzi tazmin muxammaslar bogʻladiki, bu hol oʻrta asrlar fors adabiyotida avval tasmit nomi bilan halqasimon sheʼr yaratish usuli sifatida paydo boʻlib, soʻng musammat sheʼr shakllari sifatida rivojlana boshlagan, dastlabki turkiy namunalari asosan Navoiy, Husayniy va boshqalar orqali XVII asrlarda Turdi Farogʻiy, Mashrab, Sayido Nasafiy, Mirzo Bedil ijodida ijtimoiy, hatto isyonkor ohanglarni ifodalovchi janrlardan biriga aylanganini koʻrsatadi. Bunda, shubhasiz, Ogahiyning bu janr takomili va rivojidagi mavqei nihoyatda katta boʻldi.

Biz Ogahiyning gʻazallaridagi kabi, mustaqil hamda tazmin muxammaslarida ham, badiiyatning koʻrkam va betakror namunalariga duch kelamiz. Ogahiy sheʼr mazmuni talabi bilan aruz bahrlari va vaznlaridan, qofiya va radif sanʼatidan yuksak mahorat bilan foydalanadi, maʼnaviy va lafziy sanʼatlar nozik did bilan ishlatilgan goʻzal baytlar, toʻrtlamalar, beshlamalar ijod qiladi. «Ustina» radifli gʻazal va muxammasga xos poetik unsurlarning oʻziyoq Ogahiyning mumtoz adabiyotimizning tom maʼnodagi isteʼdodli vakillaridan biri ekanligini isbotlab turadi. Shu bois, Ogahiyning oʻzi ham Yaratuvchi unga inʼom etgan shoirlik neʼmatidan, uning samaralari xalq va maʼnaviyat manfaatlarini uchun xizmat qilayotganligidan faxrlanib:

*Tong emas, Ogahiy ahli jahon sheʼringga mayl etsa,  
Nedinkim, har soʻzing nazm ichra bir gavharga oʻxshaydur—*

aforistik baytni bitgan edi.

**Masnaviylari.** Ogahiy anchagina masnaviylar yozgan. «Taʼviz ul-oshiqin»da 450 baytdan iborat toʻrtta mustaqil masnaviy bor. Shu devonga Ogahiy yozgan debochada ham kichik-kichik sakkizta masnaviy parcha mavjud boʻlib, ular 88 baytni tashkil etadi. Masnaviylar shoir tarixiy asarlari tarkibida turli munosabatlar bilan keltiriladi. Masalan, uning «Riyoz ud-davla» asarida 2 baytdan 278 baytgacha boʻlgan 91 masnaviy; «Zubdat ut-tavorix»

asarida 2 baytdan 52 baytgacha bo'lgan 51 masnaviy; «Jome' ul-voqeati sultoniyy» asarida 2 baytdan 37 baytgacha bo'lgan 65 masnaviy va masnaviy parchalar; «Gulshani davlat» asarida 2 baytdan 138 baytgacha bo'lgan 96 masnaviy va masnaviy parchalar, jami 355 bayt; «Shohidi iqbol» asarida va amakisi Munis vafotidan so'ng yozib to'ldirilgan «Firdavs ul-iqbol»ning Ogahiy qalamiga mansub qismida talay masnaviy parchalar uchraydi. Ogahiyning yigirmaga yaqin tarjima asarlari tarkibida ham masnaviylar keltiriladi. Masalan, Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asari tarjimasida undagi hikoyatlar ruhiga mos bayt va qit'alardan tashqari, umumiy hajmi 63 baytdan iborat ikki baytdan etti baytgacha bo'lgan 20 kichik-kichik masnaviy parchalar mavjud. Yuqoridagi kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, Ogahiyning badiiy, tarixiy va tarjima asarlarida masnaviylar ancha salmoqli o'rin tutadi. Demak, Ogahiy bu janrdan foydalanishda ikki xil usuldan foydalangan ekan:

1. Masnaviy she'r shaklida alohida-alohida asarlar yozish («Ta'viz ul-oshiqin»dagi masnaviylar);

2. Turli voqea-hodisalar, sabablar munosabati bilan shu voqea-hodisa mazmuni va mohiyatini badiiy sharhlash, izohlash maqsadida shu voqea-hodisalarga bog'lab masnaviy parchalar keltirish. Buni Ogahiy tomonidan shunday masnaviylarga qo'ygan nomlar ham tasdiqlaydi. Masalan, u «Imorati oliy» («Jomi' ul-voqeati sultoniyy»)da Xiva shahrida «Ichan qal'a» ichida qurilgan bir katta binoni tasvirlaydi.

Ogahiyning uchinchi guruh masnaviylari ijtimoiy-axloqiy mavzularga bag'ishlanganlaridir. Shunday asarlardan eng xarakterlisi Ogahiyga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda «Qasidai nasihat» nomi bilan atalib kelinuvchi ancha katta hajmdagi asar hisoblanadi. Ogahiyning Feruzga bag'ishlab yozgan asarlari ancha. Biroq, bitta masnaviysi katta ijtimoiy-axloqiy qimmatga ega. Bu masnaviy Muhammad Rahimxoni Soniyning 1863 yili otasi Muhammad Rahim I vafotidan so'ng Xorazm taxtiga chiqishi munosabati bilan yozilgan. Asar tuzilishi va mazmuniga ko'ra, Alisher Navoiyning Husayn Boyqaroning Xuroson taxtiga kelishi munosabati bilan

yozilgan «Hiloliya» qasidasiga oʻxshab ketadi. Biroq davr, mavzu, undagi tarixiy shaxslar obrazlari, badiiy tasvirlar tamomila oʻzgacha. Masnaviy Ogahiyning oʻz ijodiy yoʻlidan boruvchi shoir ekanligini namoyon yetib turadi. Ogahiyning taʼkidlashicha, yangi hukmdor Feruz Xorazmdagi saltanatning barqarorligini taʼminlamoq uchun quyidagi omillarga izchil amal qilmogʻi lozim. Bu omillarni u masnaviy yoʻli bilan shunday ifodalaydi:

*Ki, himmat biridur, shijoat biri,  
Adolat biridur, siyosat biri.*

*Jalodat biri, biri gʻayrat durur,  
Saxovat biri, biri iffat durur.*

*Biri hilm keldi, birisi hayo,  
Biri vaʼdagʻa aylamaklik vafo.*

Shundan soʻng shoir birin-ketin saltanat rivojiga va adolatning qaror topishiga xizmat qiluvchi yana bir qancha boshqa sabablarni sanab oʻtadiki, ular: futuvvat (oliyjanoblik), sof niyat, muruvvat, hamiyat (intilish, jahd), shariat, kufrning oldini olish, raiyatnavozlik (xalqparvarlik), chorasozlik, tarbiyat, sipohlarga eʼtibor, karam va boshqalar. Mutafakkir shoir davlatni mustahkamlash, uning tinchligi va osoyishtaligini saqlash uchun yuqoridagi masalalarga qattiq eʼtibor berish bilan birga, uning barqarorligiga, hukmdorning mavqei va obroʻsiga zarar etkazuvchi axloq-odob mezonlarini ham koʻrsatib oʻtadi. Shoir yosh hukmdor Feruzni ogohlantirib, davlat boshligʻi, umuman, aqlli inson uchun oʻta zararli boʻlgan quyidagi gʻayriinsoniy odatlarni sanab oʻtadi, podshohni har doim bunday yomon odatlardan oʻzini saqlab yurishga chaqiradi:

*Ki, gʻaflat biri keldi, sharkat biri,  
Kaholat biri-yu, kasolat biri...*

*Biri jahl sahbosidin mastlik.  
Biri domi shahvatg'a pobastlik...*

Shoir nazdida, saltanat ravnaqiga futur etkazuvchi yana bir qancha yaramas illatlar mavjud. Kimki shu illatlardan chetda turmasa, uni falokat bosadi, ishi yurishmaydi, obro'si tubanlashib ketadi. Bu ayniqsa hukmdorlarga, xalq taqdiri topshirib qo'yilgan shaxslarga ko'proq aloqadordir. Fisqu bid'at, jabr, molparastlik, ayshu ishrat, mayxo'rlik, qimorbozlik, mulkdan bexabarlik, izzat ahlini xor qilish, bezori, beshafqat avbosh odamlarga mansab berish, ularga iltifot ko'rsatish, hasadgo'ylik, chaqimchilik, sotqinlik shunday yaramas odatlardan sanaladi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Feruz Xorazmda 47 yil hukmdorlik qilgan, ko'p yaxshi ishlari, ilm, san'at va adabiyotga homiyliigi, talantli shoir, musiqachi bo'lganligi bilan yaxshi nom qoldirgan. Buni tasdiqlovchi dalillar yo'q emas. Chunonchi, Ogahiy «Qobusnoma» tarjimasiga yozgan so'zboshisida «Ul saltanat burjining muallo axtari... Saidmuhammad Rahim Bahodirxon bovujudi yigitlik ayyomi va ayshu ishrat hangomida hech bir lahvula'nga (behuda ish, o'yin-kulgi) moyil bo'lmay, aksar vaqt kitobxonlik va ma'nidonlig'ishiga mashg'ul bo'lib, har turluk kitobni mutolaa qilur erdi va o'zga mashg'ulotlardin ani a'lo va afzal bilur erdi», deb yozadi. Uning uzoq yillar saltanat boshida turishi, yaxshi ishlarni amalga oshirib, o'zidan yaxshi nom qoldirishida, hech shubhasiz, uning Ogahiy nasihatlarini quloqqa olganligi ham bir sababdir. Ogahiyning Feruzga atab yozgan bu asari garchand mamlakatning yangi hukmdoriga bag'ishlangan bo'lsa-da, qasida emas. U ikki yuz misralar atrofidagi, har bayti masnaviy yo'li bilan qofiyalangan asardir. Ba'zi manbalarda u Feruzga bag'ishlanganligi, kirishda ta'rif va maqtovlarning keltirilganligi sababli qasida janri namunasi sifatida tilga olinadi. Munis va Ogahiy haqida risola, maqolalar yozgan Nusratullo Jumaxo'ja bu asarni «Ogohnoma» deb ham atagan. Chunki asar qisman madh ruhi bilan yo'g'rilgan, tarixiy shaxsga qaratilgan masnaviy namunasi.

## Ogahiyning kichik va sirli she'riy janrlardagi asarlari. Ogahiy—tarjimon va tarixchi

**Ruboiylari.** Ogahiyning bir qancha barkamol ruboiylari bor. Ular «Ta'viz ul-oshiqin» devoniga kiritilgan. Ilmiy-tarixiy asarlar tartib berish qoidasi, an'anasiga ko'ra shoirning ko'p to'rtliklari uning boshqa asarlarida ham bor. Ularning hammasi jamlansa, xuddi Navoiydek Ogahiy mahsuldor ruboiynavis shoir sifatida namoyan bo'la oladi.

Ogahiy ruboiylarining mavzu doirasi, g'oyaviy mundarijasi keng. U ko'proq Navoiy, Bobur va amakisi Munis tajribalariga suyanadi, ular ijodi, jumladan, ruboiylaridan ilhom olib, so'z qudrati, maoniy hikmati, davr jarohati, himmat, adolat, sadoqat, ma'rifat haqida quyma misralar bitadi. Ogahiy ruboiylari bu janr talablariga to'la javob bera oladigan, ma'nosi teran, kompozitsiyasi, shakily-texnik jihatlari mukammal asarlardir. Mana, ayrim misollar:

*To kajlik ila kirdi falak davrong'a,  
Dono hama non gadosidur nodong'a,  
Tuzluk bila aylansa erdi gar gardun,  
Nodon ko'zi tushmagay erdi bir nong'a.  
Qilmoq bila parvarish tikan gul bo'lmas,  
Ham tarbiyat ila zog'bulbul bo'lmas,  
Gar asli yomong'a yaxshiliq ming qilsang,  
Yaxshiliq oning niyati bilkull bo'lmas.*

Ogahiy ruboiylarining ko'pi sevgi, hayotiy-maishiy mavzularda. Shu bois, realistik elementlar kuchli, ular o'sha davr fuqarosi Ogahiyga o'xshagan fozil kishilar tortayotgan qiyinchiliklar haqida tasavvur beradi. Ular orasida qish, sovuq turkumidagi ruboiylar ham bor.

**Qit'alari.** Ogahiy kit'alari donishmandlik mevalaridir. Ularni mavzu va mundarijasiga ko'ra, ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi xillarida tanqid, satiraga xos bo'yoqlar ustun turadi. Ularda turli toifadagi shaxslar — shuhratparastlar,



xushomadgo'ylar, xasislar, poraxo'rlar, diyonatsiz, nopok kishilar fosh etiladi. Ikkinchi xillarida odob, axloq, ulug'lanadi. Bu she'rlarning ahamiyati hozir ham katta.

*Eng ko'ngul, kimsakim seni sevmas,  
Qoch, oning tegrasiga aylanma.  
Ki nasihat qilurda o'tkanlar  
Dedilar: «Sevmaganga suykanma».*

Ogahiy qit'alari ichida siyosiy ohangdagi, hukmdorlarni, o'ylamay ish tutib xalq g'azabiga yo'liquvchilarni hushyorlikka da'vat etuvchi namunalar bor. U 1842 yili qoraqalpoqlarning Oydo'st rahbarligida ko'tarilgan qo'zg'olonining shafqatsizlarcha bostirilishi munosabati bilan mana bu qit'ani yaratadi. Qit'a siyosiy-aforistik asar darajasidadir:

*Agar jam' o'lsa uchqun bir makong'a,  
Bo'lur, albatta, otashgoh paydo.  
Va gar har soridin yig'nalsa qatra,  
Bo'lur tadrij ila to'fon huvaydo.*

Uning qit'alari ichida 6 misrali, qofiyalarida tajnislar ishlatilganlari ham bor. Shunday bir qit'asida «yuzman» tajnisi — «yuk, botmon, suzmayman, yuz o'girmayman, qavmdanman» ma'nolarida qo'llanadi. Uni uch baytli qit'a-tuyuq deb atash ham mumkin. O'zbek adabiyotida tajnisli g'azal namunalari borligini hisobga olgan holda, Ogahiyning bu she'rini tajnisli qit'a deb atash ma'qulroqdir. Uning vazni ham shuni taqozo etadi:

*Agar ishq ichra tushsa boshim uzra g'am yuki yuz man. (botmon)  
Uyurmasman oni chekmakda aslo yolqibon yuz man.  
Rizoyi yor ila yuz yil balo to'fonida qolsam,  
Chiqay deb amnu rohat sohiliga bir nafas yuz man. (suzmayman)  
Agar xasmim mening o'lsa yo'q g'amim bir zarracha andin,  
Ki atrok ichra biri mingga g'olib o'lg'uchi yuz man.*

Uning qit'alarida insofsiz, shafqatsiz, xasis, dunyoparast shaxslar satira ostiga olingan. Bunda u Navoiy qit'alaridagi «falon»lar nafratlangan usulni qo'laydi. Forma, usul eski, lekin mavzu, unda ifodalangan fikrlar yangi tarixiy sharoit mahsuli, ularning tili, uslubi ancha sodda, ommabop:

*Falon siflaki charxi siflaparvar gardishi birla,  
Jahon ganjini oz fursatda jam' etdi Faridundek.  
Xasosat g'oyatidin mustahiqg'a bermagay bir pul,  
Bu fe'lidin ajab yo'q gar oni er yutsa Qorundek.*

**Tuyuqlari.** Ogahiy yaratgan tajnisli to'rtliklar, tuyuqlar o'z xususiyatlariga ko'ra diqqatangiz asarlardir. Ogahiy tuyuqlariga xos bir afzallik shundan iboratki, u bu janr doirasida faqat ishqiy-intim kechinmalarni ifodalash bilangina cheklanib qolmaydi, ularda inson kamoloti, tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan axloqi-ma'rifiy g'oyalarni ham tartib etadi, so'zlarning turli ma'nolarda kelishidan foydalanib tuyuqlar yaratadi.

*Uch baland aylab qanoatni qanot,  
Kim, yering hirs aylamish qa'ri qanot.  
Ilginga olib riyozat toshini,  
Kibru naxvat boshin ul toshdin qanot.*

Ogahiy bu tuyug'ida qanot omonimi qanot (qush qanoti), qonotish (buyruq fe'li) ma'nolarida kelib, muhim didaktik tezisni ifodalashga xizmat ettirilgan. Shu so'zning o'zi tajnisli qofiyalar silsilasida umuman birinchi bor ko'zga tashlanadi. Ogahiyning quyidagi tuyug'i ham shunday xususiyatlarga ega:

*Bo'ldi chun umring kunining vaqti tush,  
Nafsi sargasht otini ko'b chopma, tush.  
Xobgoh etkil qanoat manzilin,  
Yo'qsa hargiz ko'rmagungdir rost tush.*

Ogahiyning bu toʻrtlik tuyugʻidagi birinchi «tush» kunning tush paytini, shu orqali kishi umri yarim boʻlganligini, ikkinchi misradagisi oddiy otdan tush, toʻrtinchi misradagi «tush» esa uyquda tush koʻrishni bildiradi. Shu tuyuqda toʻplangan oddiy omonim soʻzlar shoir mahorati tufayli turli maʼnonigina emas, balki nafs bandasi boʻlmasdan, qanoatli boʻlish kabi chuqur mazmuni ham ifodalab kelgan.

**Chistonlari.** Xalq ogʻzaki ijodidagi topishmoqli, sirli sheʼrlar hamda fors-tojik, ozarboyjon, turk adabiyolarida chiston (u nimadir?), topmacha, bilmacha istilohlari bilan atalgan bunday sheʼr namunalarining taʼsiri tufayli XV asr oʻzbek adabiyotida ham chiston deb atalgan janr paydo boʻldi. Uning ilk namunalari hozircha Alisher Navoiy ijodida uchrashi qayd etilgan. Alisher Navoiydan oldin oʻtgan shoirlarimiz tomonidan shunday sheʼrlar yaratilganligi maʼlum emas. Demak, chiston lugʻzlarning oʻzbek adabiyoti janrlari tarkibidan oʻrin olishi buyuk ixtirochi shoir Alisher Navoiy ijodi bilan bogʻliqdir, deyish mumkin. Navoiydan soʻng bu anʼana Shayboniy, Huvaydo, Uvaysiy, Munis, Fano Istaravshaniy, Shavqiy Kattaqoʻrgʻoniy, Ogahiy kabi shoirlarimiz tomonidan davom ettirildi. XVI–XIX asrlar oʻzbek adabiyotida bu janrdan alohida mahorat koʻrsatib, unda muhim ijtimoiy, axloqiy-taʼlimiy gʻoyalarni ifodalagan shoirlar sifatida, ayniqsa, Jahonotin Uvaysiy, Muhammadrizo Ogahiyning koʻrsatish mumkin. Shoir Uvaysiy muallima-otinchasi sifatida yosh qizaloqlarni oʻqitgani uchun ularning zehrini, topqirligini oshirish uchun juda koʻp ikki baytli, bir baytli chistonlar yozib, ulardan taʼlim jarayonida foydalandi. Chiston-topishmoqlarning yoshlar tarbiyasidagi katta ahamiyatiga alohida eʼtibor berdi. Ogahiy chistonlari ham yoshlar, ham kattalar zehriga kuchli taʼsir koʻrsata oluvchi asarlar ekanligini alohida taʼkidlab oʻtish joiz. U bu sohada Alisher Navoiy ijodidan, u yaratgan lugʻz-chistonlardan andoza oldi, uning bu sohadagi anʼanalarini ijodiy davom ettirdi. Maʼlumki, Navoiy oʻzbek tilida oʻnta, fors tilida toʻqqizta, asosan, qitʼa shaklidagi lugʻz-chistonlar yozgan edi. Bu chistonlar ichida, ayniqsa, tanga, anor kabi

ashyolar nomi yashiringan, abjad yo‘li bilan emas, balki oddiy topqirlik, o‘ylash, fikrlash yo‘li bilan topiluvchi chistonlar mashhur edi.

Biz shoira Uvaysiyning anor, Ogahiyning tanga haqidagi chistoni bevosita Navoiyning shu ashyolar nomi chiqadigan chistonlari ta‘sirida yozilgan deb ayta olamiz. Ogahiyning «Ta‘viz ul-oshiqin» devonida «tanga», «otashgir», «vafo», «davlat» nomlari chiqadigan to‘rtta kit‘a shaklidagi chistonlar mavjud.

Shular ichida «Tanga» chistoni bevosita Alisher Navoiyning shu nomdagi chistoni ta‘sirida yaratilgani shubhasizdir. U bu mashhur chistonida «jussasi tirnoq yuzidek kichik bo‘lsa-da, ham ulug‘badavlat odamlarning, ham bechora, muhtoj odamlarning xayolini, es-hushini o‘ziga mahliyo qilib, ularni bezovta etib, ishqini o‘ziga qaratgan narsa haqida so‘z ochadi. Tanganing tashqi, sirtqi belgilariga ishora qiladi. Chunonchi, uning ikki yuziga xatlar, raqamlar bitilganligini eslatib o‘tadi. Kimki, shunday narsaga ega bo‘lsa, uning jamiyatdagi mavqei, turmushi baland ekanligini aytadi. Shunday narsaga ega bo‘lmaganlar esa, har qancha dono, bilimli bo‘lmasin, qismati, ahvoli yomondir. Ogahiy bu bilan mol-dunyoga hirs qo‘yishni kishilar uchun ham baxt, ham baxtsizlik keltiruvchi ijtimoiy bir ofat ekanligini ta‘kidlamochi bo‘ladi. Shuning uchun ham tanganing sifatlarini tasvirlash jarayonida uning odamlarga ko‘rsatayotgan ta‘siriga kulgili, hajviy tus berishga o‘tadi. U tangani oshiqlarni, sevgi yo‘lida es-hushidan ajralayozgan kimsalarni shaydo qilgan ma‘shuqaga o‘xshatadi hamda oshiqlar dilidan izhor etiluvchi visol, hijron, iltifot kabi so‘zlarni qo‘llaydi. Shunday o‘xshatish, majoz, qiyoslash kabi tasvir vositalari orqali, xuddi Navoiyga o‘xshab, bu jamiyatda pulning, oltinu kumush tangalarning qanchalar nozik, xatarli kuchga ega ekanligini uqtirmochi bo‘ladi. Navoiyning barcha chistonlari oddiy topishmoq usuli bilan yaratilgan. Ogahiyning tanga haqidagi chistoni ham shunday. Ogahiy chistonining to‘liq matnini keltirish orqali u Navoiy an‘analaridan nechog‘li ijodiy ta‘sirlanganligini, bu ikki ulug‘shoir asarlarining har biri original asarlar ekanligini yaqqol anglab olish mumkin.

Ogahiy chistoni:

*Bu ne dilbarkim tani siymın ulub,  
Badr yangliq suratu siymosidur.  
Xat butub ikki yuzida sarbasar,  
Ziynat afzoyi ruhi zebosidur.  
Jussasi tirnoq yuzi yangliq kichik,  
Lek ulug'lar ishqining rasvosidur.  
Vaslını istab jahon bozorida,  
Olam ahli boshida savdosidur.  
Ham faqiru, ham g'ani devonasi,  
Ham qariyu, ham yigit shaydosidur.  
Topsa har adno visolin nogahon,  
E'tibor ichra ulug'a'losidur.  
Etsa har avloga gar hajri oning,  
Jumla adno xalqining adnosidur.  
Topmasa gar iltifotin har kishi,  
Xordur, garchi jahon donosidur.*

Ogahiyning bu chistonida tangaga xos belgilar, sifatlar qayd etilmoqda. Badr (oy), jussasi tirnoq yangliq dumaloq, kichik, ikki yuziga xat bitilgan, zebosifat siymo hokazolar. Kitobxon shu belgilarni mulohaza qilib ko'rib, tangananing shakli va sifatiga xayolan qiyoslab chistonda «tanga» so'zi yashiringanligini topib olishi kerak.

Ogahiyning qolgan «otashgir», «vafo» va «davlat» so'zlari yashiringan chistonlari esa, chiston yaratishning yana bir murakkabroq, muammolarga o'xshashroq usuli – abjad yo'li bilan yozilgan. Arab alifbosidagi har bir harf ma'lum bir sonni ifodalaydi. Shoirlar chiston misralarida masal-majoz shakllarida ayrim narsalar «boshi yetmish», «oyog'i yuz», «badani o'ttiz» qabilida raqamlar orqali ifodalaydilar. Bu chiston yaratishning abjad hisobiga asoslangan usulidir. Shunday muammo-chiston namunalari Shayboniy, Huvaydo, Shavqiy Kattaqo'rg'oniy ijodida uchraydi. Ogahiy chiston yaratishdagi shu usulni ham qo'llagan...

***Qasidalari va ta'rix she'rlari.*** Ogahiy o'ndan ortiq qasida yaratgan. Uning bu janrdagi asarlari «Ta'viz ul-oshiqin»dagi

«Ash'ori forsiy»dan oldin keltiriladi. Qasidalarda Xorazm hukmdorlari, mamlakatda sodir bo'lib turgan ayrim voqealar, bahor, navro'z shodiyonalari ta'rif-tavsif etiladi. Ogahiyning Muhammad Rahim Feruz maqtovida yozgan qasida va qasidasimon she'rlari, ta'rixlari ancha. Uning mashhur «Qasidai nasihat» yoki «Ogahnoma» masnaviysi ham o'z xususiyatlariga ko'ra, qasidaga yaqin asarlardir.

Ogahiyning ta'rix she'rlari asosan forsiy tilda yozilgan va ular devonda «Ash'ori forsiy» ruknida berilgan. Ogahiy qalamiga mansub va devonga kiritilgan 29 ta'rixdan 27tasi fors tilida yozilgan. Ular «Ta'rix vafoti Olloqulixon va julusi Rahimqulixon» (h.1258), «Ta'rix julusi Muhammad Aminxon» (h.1262), «Ta'rix julusi Said Muhammadxon» (h.1268), «Ta'rix madrasai Muhammad Amin» (h.1268), «Ta'rix munora madrasa» (h.1271), «Ta'rix binoi madrasai Rahmonberdibiy», «Ta'rix madrasai Muso To'ra», «Ta'rix binoi madrasai Rahimxon» (h.1271) kabilardan iboratdir. Chunonchi Muhammad Amin madrasasi haqidagi 10 misralik ta'rix she'rdagi madrasa maqtovlaridan so'ng uning ta'rixini abjad yo'li bilan

*Ogahiy ta'rix ba ta'mira o'  
Kard raqam madrasai xushbino*

tarzida ifodalaydi. Bu erda «xushbino» ta'rixga doir so'z bo'lib, undan abjad orqali 1268 hijriy sana chiqadi. Ogahiyning e'tiborini ko'proq ma'naviy-tarixiy yodgorlik bo'lib qoladigan binolar, ilmtahsil maskanlari, xayrli-savob ishlarga e'tibor bergan nufuzli shaxslarning ishlari qiziqtirgan, shoir shunday sanalarga ta'rix she'rlar, qasidalar, masnaviyalar bitgan.

**Ogahiy – tarjimon va tarixchi.** O'zbek xalqi qadim zamonlardan qo'shni malakatlar xalqlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarda bo'lib kelgan. Shunday aloqalar zanjirida tarjima adabiyotining ahamiyati katta bo'ldi. XIV asrdan o'zbek tarjima adabiyoti tarixi ning o'ziga xos yangi sahifalari ochildi. XIV asrda yashab, ijod etgan Sayfi Saroyi go'zal g'azallar yozish bilan birga, Shayx Sa'diyning «Guliston» asarini «Gulistoni bit-turkiy» nomi bilan tarjima qildi.

Tarjima adabiyotining kuchayishida, ayniqsa, Qutbning xizmatlari tahsinga sazovordir. Undan bizgacha etib kelgan «Xisrav va Shirin» dostoni ulugʻ ozarbojjon shoiri Nizomiy Ganjaviy dostonining erkin tarjimasini va ayni chogʻ da oʻzbek epik poeziyasining Navoiy davrigacha boʻlgan yirik yodgorligidir. Shundan soʻng Nizomiy asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilish traditsiyasi davom etdi va rivojlandi. XV asrda Haydar Xorazmiy «Maxzan ul-asror» asarini erkin tarjima qildi. Ogahiy esa, «Haft paykar» («Etti goʻzal») dostonini nasriy yoʻl bilan tarjima etdi. Ayniqsa, XVII–XIX asrlar oʻzbek tarjima adabiyotida sermahsul bir davr boʻldi. Said Husan Xorazmiy eron shoiri Zohir Kirmoniyning «Vomiq va Uzro» dostoni, shahrisabzlik Xiromiy «Chor darvesh», «Toʻtinoma», Volixoja Vosifiyning «Badoeʻ ul-vaqoe» asarining tarjimasini yaratdilar. Bu davrda oʻzbek kitobxonlari forsiy tildan oʻzbek tiliga tarjima qilingan doston, badiiy nasr, tazkira, tarix-solnoma va boshqa turdagi asarlar bilan tanishdilar. XIX asr oxirlariga kelib toshkentlik shoir va olim Almaiy (1852–1891) mashhur hind masallari hamda rivoyatlari toʻplami sanalmish «Kalila va Dimna»ni, Sidqiy Xondayliqiy (Shavkat) arab ertaklari – «Ming bir kecha»ni oʻzbek tiliga tarjima qildilar. Xorazmda Ogahiy, Bobojon Sanoiy, Komil Xorazmiy boshliq oʻziga xos tarjima maktabi maydonga keldi. Juda koʻp tarixiy, diniy-falsafiy, axloqiy-didaktik va badiiy asarlarning tarjimalari yaratildi. Ogahiyning oʻzi 19 badiiy va tarixiy asarni nasrda, nazmda, baʼzan nasr va nazm aralash oʻzbek tiliga tarjima etdi, bu sohada butun bir maktab yaratdi. Bular Nizomiyning «Haft paykar», Kaykovusning «Qobusnoma», hindistonlik adib Muhammad Vorisning «Zubdat ul-hikoyat», Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Yusuf va Zulayxo», «Salomon va Absol», Saʼdiyning «Guliston», Hiloliyning «Shoh va Gado» kabi nodir asarlaridir.

Ogahiy bu asarlar tarjimasidan koʻzlagan maqsadini «Turkigoʻy elim bahramand boʻlsin deb ixlos qalamini avroqi uzra chektim» tarzida izohlagan. Bu asarlarning koʻplari oʻzbek tiliga oʻgʻirilgan birinchi tarjimalar edi. Ogahiy tarjimalari tufayli oʻzbek adabiyoti

beqiyos darajada boyidi. Unga yangi mavzular, timsollar, janrlar, uslub va ohanglar kirib keldi. U xoh nazmda bo'lsin, xoh nasrda bo'lsin tarjimaga asos bo'lgan asarga ijodiy yondashishga, unga qisman bo'lsa ham, tarixiy davrning, ma'naviy muhitning ruhini singdirishga, uslub va til jihatidan kitobxonga manzur etishga intildi.

Ogahiy ayniqsa o'z asarlariining didaktik yo'nalishiga, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatiga e'tibor berdi. Sharqning mumtoz adib va shoirlarining asarlari tarjimasiga ko'proq murojaat etganligi «Axloqi Muhsiniy», «Maxzan ul-asror», «Qobusnoma», «Guliston», «Bahoriston» kabi Sharq badiiy didaktikasining nodir asarlarini saralab olganligi shundan dalolat beradi. Shu bois, Ogahiyning o'zbek tarjima adabiyotining asoschisi deb hisoblash mumkin. Hech qaysi millat adabiyotida lirik shoir va muarrix sifatida boy adabiy meros yaratishdan tashqari, shunchalar ko'p noyob asarlarning bir kishi tomonidan tarjima qilinishi hodisasi qariyb uchramaydi. Ogahiyning o'ta mashaqqatli ijodiy mehnatining bu jihatlari tarjimashunos va tasavvufshunos olim, professor Najmiddin Komilovning «Bu qadim san'at» monografiyasida ancha keng tahlil etilgan. Ogahiy tarjimalari uning ham mazmun, ham badiiy jihatdan yuksak mavqega ega poetik asarlari kabi, milliy mafkuramizni qaror toptirish, yosh avlodni barkamollik, ma'naviy jihatdan go'zal insonlar qilib tarbiyalashda katta ma'rifiy-estetik ahamiyatga egadir.

**Ogahiy tarixlari.** Ogahiyning tarixiy fakt va ma'lumotlarga boy tarixiy asarlari XIX asr Xiva xonligi davridagi voqea-hodisalarni o'rganishda qimmatbaho manbalardir. «Ta'viz ul-oshiqin» devoniga yozgan debochada Ogahiy tog'asi Shermuhammad Munis tomonidan yozilib, uning bevaqt vafoti tufayli tugallanmay qolgan «Firdavs ul-iqbol» asarini davom ettirib, tugallaganligini, Xorazmda Olloqulixon (1825–1842) xukmronligi davri voqealariga bag'ishlangan «Riyoz ud-davla», Rahimquliga (1843–1846) «Zubdat ut-tavorix», Muhammad Aminxon II (1846–1855), Sayid Muhammad (1856–1865) hamda Muhammad Rahim II Feruz davri voqealariga bag'ishlangan tarix asarlari bitishga musharraf bo'lganini so'zlaydi. Ogahiyning tarixiy asarlari Xorazmda



qariyb 60 yil ichida sodir bo'lgan voqealarning tarixiy-badiiy solnomasidan iborat. Bu asarlarda shoir va tarjimon Ogahiyning ijodkor, so'z ustasi sifatidagi mahorati o'z izlarini qoldirgan.

1999 yil dekabr oyida, avval aytganimizdek Ogahiy tavalludining 190 yilligi keng nishonlandi. Uning buyukligi, ma'naviyatimiz uchun qoldirgan o'lmas merosi to'laligicha namoyon etildi. Prezidentimiz I.Karimovning Ogahiy yubileyi tantanalari ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida Ogahiy adabiy va ilmiy merosining nihoyatda katta ahamiyati ko'rsatib o'tildi. Shu tabrik matnini aynan keltirish maqsadga muvofiqdir.

## MUHAMMAD RIZO OGAHİY TAVALLUDINING 190 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALAR ISHTIROKCHILARIGA!

*Muhtaram do‘stlar!*

*Aziz vatandoshlar!*

Tinchlik va xotirjamlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik hukmron bo‘lgan mustaqil yurtimizda bugun yana bir tantana. O‘zbek mumtoz adabiyotining zabardast namoyandasi-betakror shoir, yirik tarjimon, salohiyatli tarixnavis olim va yirik davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy tavallud topganiga 190 yil to‘ldi.

Qadim Xorazm insoniyatning aqliy va ma‘naviy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan allomalar yurtidir. Bu qutlug‘zaminda bashariyatni ezgulikka chorlagan «Avesto»dek muqaddas kitob yaratilgan, o‘z davridagi jahon ilmu fanining markazi hisoblangan Ma‘mun akademiyasi faoliyat ko‘rsatgan. Ilmiy va badiiy tafakkuri qudrati bilan dunyoning ne-ne ahli donishlarini hayratga solgan o‘nlab xorazmiylar xalqimizning buyuk iste‘dodi va iqtidorini olamga tanitganlar. Axir, bundan iftixor qilmay, g‘ururlanmay bo‘ladimi?

Bugungi bayram ham ayni shu iftixor va g‘urning yana bir namoyishidir. Bu bayram faqat adabiyot shodiyonasigina emas, balki xalqimizning boy va qadimiy madaniyati, fani va san‘atiga bo‘lgan azaliy ehtirom va e‘tiborning uzviy davomi hamdir. Zero, ko‘pqirrali iste‘dod sohibi Ogahiy millatimiz timsoli sanalmish ulug‘Alisher Navoiy singari insonning ma‘naviy kamoloti bilan bog‘liq deyarli barcha sohalarda samarali ijod qildi. U ulkan she‘riy devonni, o‘nlab yirik badiiy, tarixiy va falsafiy asarlar tarjimasini, ko‘plab ilmiy-tarixiy risolalarni biz – avlodlariga meros qilib qoldirdi. Agar Ogahiyning bosh miroblik ilmi va tadbirkorligi Xorazm zaminini suv bilan yashnatgan bo‘lsa, uning badiiy tafakkuri va ko‘ngul ziyosi millatimiz qalbini so‘nmas qadriyatlar bilan nurafshon etdi.

Biz bugun donishmand ajdodlarimizdan tinimsiz saboq olishimiz naqadar zarur. Shu jihatdan Ogahiyning mana bu baytiga alohida e'tibor berishingizni xohlardim:

*Bu gulshan sayrin etsang, bosma gustahona tufroqni  
Ki, har gom ostida bir paykari ozoda madfundir.*

Bu misralarda naqadar teran falsafiy haqiqat aks etgan. Darhaqiqat, ona Vatanimiz tuprog'i mo'tabar ajdodlarimizning jismi jonidan yaralgandir. Uni e'zozlash, himoya qilish, turli nopok kimsalar oyog'i ostida toptatmaslik barcha avlodlarning muqaddas burchi, muhtaram do'stlar!

Xalqning xalq, millatning millat bo'lib shakllanishida tarixiy-madaniy xotira, buyuk ajdodlar yodining ahamiyati beqiyosdir. Har bir vatandoshimiz qalbida so'nmas g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otuvchi mana shunday bobolarimizdan biri mutafakkir adib Ogahiyning muborak to'yi barchangizga qutlug'bo'lsin!

I.Karimov  
«Xalq so'zi», 1999, 18 dekabr.

### ***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar***

1. Ogahiyshunoslik tarixini soʻzlab bering.
2. Muʼnis va Ogahiyning oilaviy-ijodiy yaqinligi haqida hikoya qiling.
3. «Taʼviz ul-oshiqin»dagi anʼana va yangiliklar.
4. Navoiy va Ogahiy mavzuini kyengaytiruvchi, chuqurlashtiruvchi adabiy dalillar keltiring va tahliliy fikrlar bildiring (daftarda).
5. Ogahiy – ulkan tarixchi va tarjimon ekanligini dalillang.
6. Prezident I.Karimovning Ogahiy 190 yilligiga yoʻllagan tabrigi mohiyatini tushuntirib bering.

### ***Mustaqil mashgʻulot uchun topshiriqlar***

1. «Taʼviz ul-oshiqin»dan oʻnta gʻazal, ikkita tazmin muxammas hamda ruboiy, qitʼa, tuyuq, chistonlardan namuna koʻchirib, alohida daftarga tahlilini yozing.
2. Ogahiy tarixchi va Xorazm tarjima maktabining ulkan yaratuvchisi ekanligini asoslang.
3. «Ogahiy va zamonamiz» mavzuida ijodiy referativ ish yozib, taqdim eting.

## Adabiyotlar

1. Каримов И. Истиқлол ва маънавият. - Т., 1994.
2. Каримов И. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг асоси. - Т. 1997.
3. Каримов И. Тарихий хотирасиз - келажак йўқ. - Т., 1997.
4. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик, 2 китоб. -Тошкент, 1980.
5. Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. - Т., 1961.
6. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 4 жилд, Тошкент, 1978.
7. Мажидий Р. Огаҳий лирикаси. -Т., 1963.
8. Комилов Н. Бу қадим санъат. -Т., 1988.
9. Валихўжаев Б. Огаҳийнинг бадиий маҳоратига доир. Адабий мерос, 1990, 4 сон.
10. Фанихўжаев Ф. Огаҳий маснавийлари. Адабий мерос, 1984, 2 сон.
11. Орзибеков Р. Ўзбек адабиётида сирли-синкретик жанрлар. - С., 1992.
12. Жумахўжа Н. Феруз - маданият ва санъат ҳомийси. - Т., 1995.
13. Пиримкулов А. Огаҳийнинг ишқий маснавийлари. «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1996, 6 сон.
14. Пиримкулов А. Топар салтанат неча ишдин камол... «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1997, 6 сон.
15. Ҳожиаҳмедов А. Шеъринг санъатлар ва мумтоз қофия. - Т., 1998.
16. Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон. -Т., 1999.
17. Абдуғафуров А. Муҳаммад Ризо Огаҳий. - Т., 1999.
18. Муҳаммадризо Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин. Девон. - Т., 1960.

19. Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. Т., 1971-1980.
20. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Ишқ аҳлининг тумори. Танланган асарлар. - Т., 1999.

## MUNDARIJA

Muqaddima .....	3
XVII–XVIII I yarmi asrlarda ijtimoiy va madaniy-adabiy hayot .....	5
Turdi Farogiy (vaf. taxm. 1699-1700 yil).....	38
Boborahim Mashrab (1653 – 1711).....	46
So‘fi Olloyor .....	68
XVIII asr o‘zbek adabiyoti .....	86
Pahlavonquli Ravnaq .....	92
Sayqaliy .....	96
Muhammadniyoz Nishotiy.....	106
Huvaydo .....	114
Nurmuhammad Andalib .....	127
XIX asrning birinchi yarmida adabiy hayot .....	132
Shermuhammad Munis.....	134
Muhammadsharif Gulxaniy .....	151
Amiriy .....	165
Maxmur.....	184
Mujrim Obid .....	191
Uvaysiy .....	200
Nodira .....	213
Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy.....	226
Ogahiy .....	235
Ogahiyning kichik va sirli she‘riy janrlardagi asarlari. Ogahiy tarjimon va tarixchi.....	256
Muhammad Rizo Ogahiy tavalludining 190 yilligiga bag‘ishlangan tantanalar ishtirokchilariga! .....	266
Adabiyotlar.....	269

*Rahmonqul ORZIBEKOV*

# **O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI**

**XVII–XIX (I yarmi) asrlar**

**O‘quv qo‘llanma**

**Nashr uchun mas‘ul:**

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

Adabiyot jamg‘armasi direktori

Qurbonmurod JUMAYEV

**Muharrir:**

Mahmud SA‘DIY

**Musavvir va texnik muharrir:**

Nodir ORTIQOV

Mahfuza AMIJONOVA

Terishga berildi 04.07.2006 y. Bosishga ruxsat  
etildi 20.07.2006 y. Qog‘oz formati 60x84 1/16.  
Ofset bosma usulida bosildi. Hajmi 17.0 bosma  
toboq. Nusxasi 3000.  
Buyurtma № 38

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot  
jamg‘armasi nashriyoti, 700000, Toshkent,  
J-Nehru ko‘chasi, 1-uy.

«AVTO-NASHR» sho‘ba korxonasi  
bosmaxonasida chop qilindi.  
700005, Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 57-uy.